

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**To'xtasin Rajabov**

**O'ZBEK XALQ MUSIQA IJODI**

*Respublika oliv o'quv yurtlari bakalavriatining 5111100 —  
«Musiqa ta'lifi» va 5151700-Madaniyat va san'at muassasalarini  
tashkil etish hamda boshqarish yo'nalishidagi talabalari uchun*

*O'quv qo'llanma*

**“Durdon” nashriyoti  
Buxoro – 2021**

**УО'К 78(075.3)**

**85.3я72**

**R 17**

Rajabov, T.

O'zbek xalq musiqa ijodi [Matn] : o'quv qo'llanma / T. I.Rajabov. -Buxoro: OOO "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti. 2021. -184 b.

**КБК 85.3я72**

**Taqrizchilar:**

**Habibilla Rahimov.** O'zbekiston Respublikasi Kompozitorlari va Bastakorlari uyushmasi rais muovini, professor. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan san'at arbobi

**S.B.Saidiy, NavDPI.** San'atshunoslik fanlari nomzodi, professor.Xalqaro“Antikuye World” ilmiy aqademiyasi Aqademigi. O'zbekiston Kompozitorlari va Bastakorlari uyushmasi a'zosi,kompozitor.

**Рецензенти:**

**Хабибулла Рахимов,** зам.пред. Союза Композиторов Республики Узбекистана, профессор,  
Заслуженный деятель искусств Республики Узбекистан.

**С.Б. Саидий,** кандидат в науках искусствоведения, профессор, Академик Международной  
научной академии «Antikuye World», член союза Композиторов Республики Узбекистан,  
композитор.

**Reviewers:**

**Xabibulla Raximov,** Chairman of the union of composers of the Republic of Uzbekistan, professor.  
Honored worqer of art of the Republic of Uzbekistan.

**Said Saidiy,** doctor of philosophy Art Criticism, professor. Academician of the international  
Sciientific Academy Antikue World Member of Composers Union of Uzbekistan, Composers

**ISBN 978-9943-6988-3-3**

## **Annotatsiya**

“O’zbek xalq musiqa ijodi” fani taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari o’zbek xalqininig sevimli cholg’ularimiz asnosida asrlar mobaynida insonlarga ma’naviy meros sifatida xizmat qilib, uning kelib chiqishi er.avv.3000 yillik tarixga borib taqaladi. Ushbu davrdan tortib bizning davrimizgacha ustoz-shogird tizimiga kelib yetgan turli milliy va mahalliy musiqiy san’atimiz bugungi kungacha yetib kelganligi bilan, ayrim milliy cholg’ularimiz taraqqiy etmagan.

Ushbu o’quv qo’llanma DTS talablari va jahon kompozitorlarining eng sara asarlari va ma’naviy musiqaga maqbul keladigan yangi zamonaviy kompozitsion asarlar bilan qamrab olingan bo’lib, uch bob va qismlardan iborat. Bular:

- xalq og’zaki ijodida mahalliy uslublar;
- yakka ijroda asarlar majmuasi;
- milliy cholg’ular jo’rnavozligida ijro etiladigan asarlar;

Talabalarni mustaqil ravishda mashg‘ulotlar olib borish ko‘nikmalarini shakllantirish va ijrochilik dasturi mahoratlarini chuqurlashtirish va texnikalarini yanada mukammallashtirishda qaratilgan.

**Mazkur o’quv qo’llanma** 5111100-«Musiqa ta’limi» va 5151700-Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish yo‘nalishlaridagi talabalar uchun mo’ljallangan bo’lib, V bobdan iborat va zamonaviy kompozitor va bastakorlarning yangi asarlari va innovatsion texnologiyalarda o’z yechimini topganligi bilan ahamiyatlidir.

## **Аннотация**

Предмет по “Устная музыка узбекского народа” является коренной традиционной музыки для узбекских народов в течении жизни устного профессионального исполнения и является любимыми инструментами, так как служат в духовным наследием и их происхождение восходит к 3000 годам до нашей эры. От найдревнейших этапов жизни некоторые национальные музыкальные инструменты не дошли до наших времен.

Учебник составлена по требованиям СГО и произведениями знаменитых всемирных композиторов а также из новейших современных произведений и состоит из 5 частей и параграфов;

- локальное исполнение народного устного творчества;
- комплекс произведений в одноголосного исполнения;
- произведение с сопровождениями на народных инструментов;

Развивать новыки учащихся в произведении самостоятельных семинаров и углублять программы и методы развития учащихся.

Данное учебное пособие предназначено для студентов, 5111100- бакалаврского направления а также 5151700-специализирующихся в организации и управлении культурно-художественными учреждениями, поскольку что он решил свои новые инновационные технологии и произведения современных композиторов.

## **Annotation**

The science of creativity and the ensemble science the main priorities of development are the Uzbek peopleis favoritefor centuries thus served as a spiritual heritade for people, and its origin dates bask to 3000 years the national and local musical art that has come to our time from the time of the teacher – the student system, has come to aur days, and our national musical instruments have not come. This tutorial is compiled by the Education standarts reguirements and compositions of the best composers and new compilations composed of spiritual music, coresisting of five chapters;

- General rules of the loqualisms art performance;
- The unique collection of works;
- Works executed by instrumentals of art;

This textbook is intended for students, 5111100-bachelor's direction and 5151700-specializing in the organization and management of cultural and artistic institutions, because it has solved its new and innovative technologies and the production of modern composites.

## PEDAGOGIK ANNOTATSIYA

**O'quv fani: "O'zbek xalq musiqa ijodi"**

**Mavzuning nomi: "O'zbek xalq musiqa ijodi" (*O'zbek xalq folklori*)**

**Ishtirokchilar: Musiqiy ta'limi yo'naliishida tahsil olayotgan Bakalavrлari.**

Ta'larning maqsadi: Musiqiy ta'lim yo'naliishi bakalavriga eng avvalo O'zbek musiqa madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi, tarixi O'zbekiston hududiy tamoyillari va xalqlar musiqa madaniyati va namoyandalarining turli og'zaki (lokal) janrlari haqida tushunchani shakllantirish, ularni his etish, kuzatish, uning ko'rinishi, tuzilganligi va mohiyatlarini tushunib olish bo'yicha nazariy va amaliy bilim va malakalar hamda ko'nikmalarni shakllantirish.

Rejalashtirilayotgan o'quv natijalari: bakalavrga eng qadimgi, antik, o'rta asr, sharq renessansi, temuriylar va xonlik davri, totalitar va Mustaqillik davri musiqa madaniyatida o'zgarishlar, rivojlanishlar innovatsion texnologiya va ta'lif texnologiyalarini musiqa tarixi darslarida foydalanish hamda ularning usul va uslublarini qo'llay bilish malakalarini shakllantirish. O'zbekiston Bastakori va kompozitorlarining musiqiy asarlarini darsda talab qilingan darajada bajarish maqsadiga erishamiz. O'quv qo'llanmaning boblari quyidagicha o'z yechimini topganligi bilan ahamiyatlidir. Bular:

**I BOB:** - Nomoddiy madaniy merosning sohalar;

XVI asr Buxoro Miniatyura maktabida mavrigixonlik badiiyligi

**II BOB:** Markaziy Osiyo xalqlari mahalliy uslublari va turkumlari: qo'shiq janrlari; yalla, ashula, katta ashula, lapar va xalq eposi-dostonlar tasnifi

**III BOB:** Uyg'onish davri ilk Sharq Renessansi musiqiy nazariy meros: (XI-XIII.XV-XVII) asr 12-Maqom va Shashmaqom misolida

**IV BOB:** - XX-asrning 1917-1941 yillardagi o'zbek musiqasi musiqali drama va opera teatrlarining tashkil etilishi, vokal musiqasi, cholg'u musiqasi

**V BOB:-Nota majmuasi.** Nomoddiy madaniy merosning sohalariga oid testlar loyiha bo'yicha ish tartibi: darsdan tashqari faoliyat sharoitida bajariladi. Nazariy va amaliy darsda taqdim etiladi.

Tayyorgarlik bosqichi: loyiha kirish, bakalavrlar faoliyatini tashkillashtirish – auditoriya ishi.

Loyihani bajarish bosqichi: auditoriyadan tashqari ish.

Yakuniy bosqich: loyiha taqdimoti, loyihami va talabalar faoliyatini baholash.

O'qitish usullari: loyihamar usuli, aqliy hujum, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish, yo'riqnomalar berish, ko'rgazmali qurollar, darsliklar, ilmiy adabiyotlar bilan ishlash.

O'qitish shakllari: guruhli, jamoaviy va yakka tartiblarda.

O'qitish vositalari: O'UM (O'quv uslubiy majmua), ma'ruza matnlari, o'quv qo'llanma, Elektron darslik, doska, loyiha topshirig'i, uslubiy ko'rsatma, ko'rgazmali qurollar va boshqalar.

## SO'Z BOSHI

Jahonning ilk bиринчи тили бу мусиқадир. Мусиқанинг ham falsafiy hamda psixologik ta'sirotida ezgulik yoxud yovuzlikni ruhan tasvirlanishi, ijobiy va salbiy ko'rinishlarning harakatga kirishi va tegishli ta'sirotni ong asab faoliyatini bilan bo'g'lanib turishi va ruhan jumbushga keltirishi, bu musiқanинг tengsiz mo'jizakor va tilsiz qudratidir. Ularni faqat milliyligi-mahalliyligi, urf-odatlari va madaniy rivojidagi cholg'ulari va ladlarigina u yoki bu davlat musiқasi eganligini ajratib turishi bilan hammaga bir xil ijobiy yoxud salbiy differensial psixologik ta'ssurot qo'zg'atadi<sup>1</sup>.

**O'zbekiston prezidenti Shavkat Miramonovich Mirziyoyevning 2017-2021 yillardagi 5 ustuvor harakatlar strategiyasi hamda 2019 yildagi "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbus;**

1. Yoshlarning musiқa, rassomchilik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga keltirishda xizmat qiladi.
2. Yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularni sport sohasida qobiliyatini namoyon qilish uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan.
3. Aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.
4. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish uchun ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan.
5. Xotin qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini nazarga tutadi.

O'zbekiston xalqining mahalliy uslublari xalq og'zaki ko'rinishida 3000 ming yillik an'analarini saqlab, avaylab bugungi kun madaniyati peshqadamining timsoli asnosida jahon musiқa olamini hayratga solib, mo'jizali ta'sirot qoldirmoqda. Mutaxassis tayyorlashning maqsadi, vazifalari ushbu fanning xususiyatlarini o'rganish, talablarni o'qitish hamda tarbiyalashning mazmuni, tamoyillari va usullarini to'g'ri belgilash eng muhim shartlardan biridir.

O'quvchilarda badiiy bilimlar qancha ko'p bo'lsa, ular har xil san'at asaridagi obrazlarni shuncha to'la va chuqur tushunishlari va anglashlari mumkin. San'at bilan bevosita amaliy shug'ullanishning o'zidanoq juda katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Ijro etilayotgan obrazlarga va ular orqali voqeiylikdagi hodisalarga, hissiyot va kechinmalarga estetik munosabatda bo'lisch, o'quvchilarni estetik tarbiyalashning eng bevosita va faol yo'lidir.

Maktab ta'lim jarayonida an'anaviy va zamonaviy janrlarining qo'llanish metodologiyasi va ilmiy uslubi: O'zbekiston musiқa madaniyatida musiqashunosligi, "O'zbek xalq musiқa ijodi (O'zbek musiқa folklori misolida) qabul qilingan qiyosiy-tizimli tahlil hamda ilmiy-qiyosiy tadqiqotlarida bayon etilgan uslubiy xulosalar va innovatsion ko'rsatmalar, fotoillyustratsiyalar orqali asoslangan.

Ushbu ish yechilishi kerak bo'lgan muammolar va mavzularning dolzarbliги xalq og'zaki ijodiyoti ilmida muhim o'rinni egallaydi. Shuningdek, Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari, talabalari hamda san'at maktablari o'quvchilari uchun ilk marotaba mo'ljallangan.

Bolalar musiqani tushunishi uchun musiқa tilining ma'naviy va shakl yasash xususiyatlarini bilishlari, muayyan darajada rivojlangan musiqiy (tovush balandligi, tembri, musiқanинг garmonik, dinamik xususiyatlarini anglash, lad va ritmni his qilish, musiqani eslab qolish) qobiliyatga, musiqani idrok va ijro etishi bilan birga, ushbu tanlangan uslublarni yoddan va umrboqiy bilish bilan malakalariga ega bo'lishlari zarur.

**Muallif**

<sup>1</sup> S.Saidiy falsafa va psixologiyaning musiqadagi o'rni. Qo'lyozma.Toj.Dushanbe.Falsafa fanlari Akademiyasi Aspiranturasi BMIsii.1990 yil.

## I BOB. NOMODDIY MADANIY MEROSENING SOHALARI

**Reja:**

1. O'zlikni namoyon qilishning og'zaki shakl va an'analari.
2. Ijro san'ati. Sahnaviy ijro san'atining janrlari.
3. Urf-odat, marosim va bayramlar.
4. Tabiat va koinot bilan bog'liq bilim va ko'nikmalar.
5. An'anaviy hunarmandchilik.
6. Qo'g'irchoqsozlik

**Tayanch iboralar:** Yunesko, Konvensiya,nomoddiy madaniy meros, madaniy meros, operativ yo'riqnomma, ijro san'ati, kotibiyat, reprezentativ ro'yxat, ratifikatsiya, tarixiy-madaniy ekspertiza, urf-odat,marosim, nomoddiy madaniy meros sohalari, bilim va ko'nikmalar, hamjamiyat, merosni o'zida saqlovchilar, nodavlat-nohukumat tashkilotlari.

### 1. O'zlikni namoyon qilishning og'zaki shakl va an'analari.

O'zlikni namoyon qilishning og'zaki an'ana va shakkari bizning tushunchamizdag'i xalq



og'zaki ijodining o'zidir. Xalq og'zaki ijodida til muhim rol o'ynaydi. Chunki til ushbu merosni ifodalashda va kelgusi avlodga yetkazishda eng asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Xalq og'zaki ijodining tur va janrlari juda keng. Uning tarkibiga mif, afsona, rivoyat, ertak, maqol, matal, doston, masal, hikmatli so'zlar, tez aytish va boshqa janrlar, muxtasar qilib aytganda xalq merosining og'zaki ravishda ifodalanadigan barcha tur va janrlari kiradi<sup>1</sup>.



Mif (afsona, rivoyat, asotir) qadimgi odamlarning borlik olam haqidagi ibtidoiy tasavvurlari majmui bo'lib, koinotning yaratilishi, insonlar, hayvonlar va o'simliklarning vujudga kelishi, samoviy jismlarning paydo bo'lishi, tabiiy hodisalarning sabablari va mohiyati, afsonaviy qahramonlar, ma'budalar va ilohlar to'g'risidagi etiqodiy qarashlarni o'z ichiga olgan. Qadimda xalqlarda bo'lgani kabi, Markaziy Osiyo miflari mazmun va mohiyat jihatdan quyidagi turlarga bo'linadi:

- olam yaratilishi va hayot paydo bo'lishi haqidagi miflar;
- osmon jismlari va tabiat hodisalari haqida hikoya qiluvchi samoviy miflar;

- Gerakl, Gilgamish, Hubbi, Alpomish kabi g'ayrioddiy hislatga ega bo'lgan afsonaviy pahlavonlar haqidagi antropogenik miflar;
- muayan e'tiqodlar bilan bog'liq (masalan, mo'l hosil so'rash, o'simlik yoki olovga topinish) sig'inish miflari;

<sup>1</sup> Ў.Тошматов, Н.Исақулова. Номоддий маданий меросни муҳофаза қилишининг ҳуқуқий асослари (монография). Тошкент, 2015 й.

- xalqlarning kelib chikishi (masalan 92 ta o’zbek urug’larining paydo bo’lishi) bilan bog’liq etnogenetik miflar;
- taqvimiylar (masalan chillar, ayyom ajuz, ahman-dahman va h qz. haqida);
- olamning intihosi haqidagi esxatologik miflar.

Miflar “Avesto”, “Iliada”, “Ramayana”, “Shohnoma”, “Qalevala”, “Alpomish”, “Go’ro’g’li” kabi adabiy yodgorliklarning yaratilishida ham salmoqli o’rin tutgan.

**Rivoyat** voqealari va hodisalarini, inson faoliyatini ba’zan uydirmalar vositasida, ba’zan real tasvirlovchi folklor janridir. Hajmi qisqa, 2-3 epizoddan oshmaydi, an’anaviy shaklga ega bo’lmaydi. Odatda bir hikoyachi bayonidan boshlanib, og’izdan-og’izga o’tish jarayonida erkin talqin qilinadi. Mazmuniga ko’ra rivoyatlar tarixiy hamda toponimik bo’ladi. Tarixiy rivoyatda biror tarixiy shaxs yoki xalq qahramoni bilan bog’liq hodisalar hikoya qilinadi, axloq va odobning ideal me’yorlari tashviq etilib, muayyan faqtlar haqida axborot beriladi. Bunday rivoyatlar, xususan Alisher Navoiy, Mirzo Ulug’bek, Amir Temur, Bobur, Mashrab va boshqa buyuk shaxslarning hayoti bilan bog’liq voqealari hodisalar asosida ham yaratilgan. Toponim rivoyatlarda esa shahar, qishloq, qo’rg’on, saroy, maqbaralar nomi hamda ularning yuzaga kelishi sabablari bilan voqealar hikoya qilinadi. Odatda xotimasida hikoyadan maqsad ta’kidlanadi va muayyan fakt izohlanadi. O’zbek rivoyatlari bizgacha og’zaki, qisman yozma shaklda yetib kelgan.

**Matal** - muayyan hayotiy hodisani aniq va to’g’ri belgilab beradigan obrazli ifoda, ibora. Matalda o’xshatish, taqqoslash, kinoya, qochiriq so’z kabi badiiy vositalardan foydalilanadi. Majoziy iboraning o’z asl ma’nosini bilan ko’chma ma’nosini o’rtasida yaqinlik, mantiq iy bog’lanish bo’lishi lozim. Matal bir yoki bir necha jumladan tuziladi, ular orasida qofiyalanish hamisha ham saqlanmaydi. (Masalan: “*Shamol bo’lmasa daraxtning uchi qimirlamas*”, “*qizim senga aytaman, kelinim sen eshit!*”).

**Maqol** bu xalq og’zaki ijod janri bo’lib, qisqa va lo’nda, obrazli, grammatik va mantiqiy tugal ma’noli hiqmatli ibora, chuqur mazmunli gap. U muayyan ritmiga ega bo’lib, avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg’ulari, ijobiy fazilatlari mujassamlashgan. Asrlar davomida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan. Maqollar mavzu jihatidan nihoyatda boy va xilma-xil. Turkiy xalqlari maqollaridan namunalar dastlab Mahmud Qoshg’ariyning “Devonu lug’otut-Turk” asarlarida keltirilgan. Bu maqollarning bir qanchasi hozir ham O’zbek xalqi orasida turli variantlarda ishlataladi.

**Masal** – didaktik adabiyot janridir. Bu ta’limiy xarakterdagi, aksariyat kichik she’riy, ba’zan nasriy shakldagi asar. Masalda insonga xos xususiyatlar, jamiyatga xos ijtimoiy hodisalar, qushlar va hayvonlar orasidagi munosabatlar, tabiat hodisalarini vositasida aks e’ttiriladi. Mazmuni majoziy asosida qurilib, komillikning va kinoyaning, ijtimoiy motivlikning ustunligi masalga hajviy ruh bag’ishlaydi. Masalning hikoya qismi hayvonlar haqidagi ertaklar, novella yoki latifalarga yaqin bo’lib, xotimasi maqol, hikmatli so’z va iboralar tarzida bo’ladi. Masal materiallari aksariyat ertak, majoz, novella, latifa va boshqalarda qo’llanilishi mumkin. O’zbek adabiy ijodida uning namunalari “Kalila va Dimna”, “Zarb-ul-masal” va boshqa asarlar tarzida uchraydi. Masalchilik bilan Faririddin Attor, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy kabi so’z ustalari shug’ullanganlar.

**Afsona** xalq og’zaki ijodi (folklor) shakllaridan biridir. U xayolotiy, uydirma va to’qimadan iborat bo’lsada, so’zlovchi va tinglovchi tomonidan haqiqatdek tasavvur etiladi, hattoki voqealar bo’lib o’tgan davr va makon ham ko’rsatiladi. Afsonalar og’izdan-og’izga, eldan-elga o’tib kelgan, ifoda usuli, bayon tarzi hisoblanadi.

Rivoyatdan farqli o’laroq afsona zaminida mo’jiza, sehr-jodu bo’ladi. O’zbek afsonalari koinot (Yer, Quyosh, Oy, yo’lduzlar va sayyoralar yaralishi), toponomika (masalan, Kavkaz tog’lari, ba’zi daryolar, dengizlar, shaharlar, qishloqlar va h.q), xalqlarning (masalan, Turkiylarning) kelib chiqishi, hayvonot dunyosi, tabiat hodisalari, tarixiy shaxslar (Er Tunga, To’maris va boshqalar), dinlar, payg’ambarlar to’g’risida mavzularda qurilgan.

**Ertak** - xalq og'zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri; to'qima va uydirmaga asoslangan sehli-sarguzasht va maishiy xarakterdagi epik badiy asar. Asosan nasr shaklida yaratilgan, ertak Surxondaryo, Samarcand, Farg'ona o'zbeklari orasida matal, Buxoro atrofida ushuk, Xorazmda varsaqi, Toshkent shahri va uning atrofida cho'pchak deb ataladi. Xayoliy va hayotiy uydirmalarning ishtiroti, syujet chizig'ida tutgan o'rni va vazifasiga ko'ra ertakni 2 guruhga - xayoliy uydirmalar asos bo'lgan ertak, hayotiy uydirmalar asos bo'lgan ertaklarga bo'lish mumkin. Unda asosan, uch maqsadga asoslaniladi: birinchidan, ideal qahramonning jasorati, yovuz kuchlarga qarshi chiqib, xalq manfaatlarini himoya qilishi, ikkinchidan, malika-yu parilarga oshiq bo'lishi, bu yo'lda dev va ajdarlarga qarshi kurashi, uchinchidan esaadolatsizlikka, zulmga qarshi chiqishi.

Ertak janr obrazlari talqini, g'oyaviy mazmuni va konflikti, syujet va kompozitsiyasi, uydirmalarning o'rni va vazifasi, tili va uslubiga ko'ra ushbu janr asarlari shartli ravishda hayvonlar haqidagi ertaklar, sehrli ertaklar, maishiy ertaklar va hajviy ertaklarga bo'linadi.

**Tez aytish** O'zbek xalq og'zaki ijodining bir turi. O'tmishda katta yoshdag'i odamlar ham o'tirishlarda, to'yilda tez aytishda musobaqalashganlar, keyinchalik, asosan bolalar repertuariga aylangan, sababi tez aytish bolalarning fikrlash qobiliyatini, so'z boyligini oshirishga va nutqning ravon bo'lishiga xizmat qiladi.

## 2. Ijro san'ati. Sahnnaviy ijro san'atining janrlari.

*Ijrochilik san'ati* tarkibida nomoddiy madaniy merosimizning juda katta qismi o'z ifodasini topadi. Sodda qilib aytulganda, xalq ijodining ijrochilik bilan bog'liq sahnnaviy janrlarning barchasi undan joy oladi. Bunda musiqa, raqs, xalq tomosha san'atining barcha janrlari tushunilishi kerak. Boshqacha qilib aytganda namoyish etishga (hoh u sahnada bo'lsin, xoh maydonda, xoh kichik davrada) mo'ljallangan janrlar ijrochilik san'ati tarkibiga kiritiladi. Ijrochilik san'atining barcha janrlarini qamrab olmagan holda misol tariqasida quyidagilarni keltirish mumkin<sup>1</sup>.

**Musiqa** yo'naliishi bo'yicha: "Shashmaqom", "Xorazm maqomlari", "Toshkent-Farg'ona maqom yo'llari", Dutor va surnay maqom yo'llar "Tanovor", "Ushshoq", "Feruz", "Suvora", "Lazgi", "Mavrigi", "Miskin" singari turkumlar, "Katta ashula", allalar, o'lanlar, yallalar, laparlar, madhiyalar, termalar shuningdek, "baxshichilik", "xalfachilik" va hududga xos boshqa yo'nalishdagi manbalar.

**Raqs** yo'naliishi bo'yicha: Farg'ona, Xorazm, Buxoro, Surxondaryo raqs maktablari, hududlarga xos bo'lgan raqslar va raqs harakatlari, shu jumladan, bolalar, erkaklar, ayollarning yakka va guruhli raqslari. **Pilla o'yini** – o'zbek xotin – qizlari raqsi. Bu raqsdan qurt boqish, parvarish qilish, pillalarni yig'ib olish va bundan ipak tayyorlash jarayoni raqs va turli harakatlar bilan ko'rsatiladi. Raqs oxirida ipakdan to'qilgan shoyi ro'mol bilan raqsga tushiladi. Pilla o'yin faqat doira jo'rligida ijro qilinib, doyra usullarini mohir doirachi Usta Olim Komilov 1934 yili yaratgan. Raqslarni esa Tamaraxonim sahnalashtirgan.

**Raqs musiqasi** – aniq o'lchovga ega raqsga jo'r bo'lishga mo'ljallangan musiqa. Raqs musiqasi aniq ritmgaga ega bo'lishi, har bir raqsning o'ziga xos xarakteri, ritm va suratiga munosib bo'lishi shart. Har bir raqs uchun turlicha musiqalar yaratilgan. Bularning ritmi ham turlicha bo'ladi, lekin bu ritm raqsdagi ritmgaga bo'ysunishi, bog'lanishi shart. Bu ritm doimiy qaytariluvchi yoki variatsion o'zgaruvchi holatga ega bo'ladi. Raqs musiqasining aksari cholg'u tarzda bo'ladi. Xalq raqslari esa ashula va xorlar bilan ijro etiladi. Raqs musiqasi faqat cholg'u asboblarida chalinib yo ashula qilib aytish yo'li bilangina emas, buning ritmi doira va b. urma sozlarda chalinishi yoki qarsak bilan bajarilishi ham mumkin. Raqs musiqasi baletda, kontsertlarda qo'llanilganidek, yengil musiqa va jazlarda ham salmoqli o'rin egallaydi. Raqs musiqasi ritmlari yirik musiqa asarlarining ayrim qismlarini ham tashkil etadi. Aksariyat syuita, tzikli sonata shaklining ayrim qismlari raqssimon yaratiladi. O'zbek xalq kuylaridan "Mirzadavlat", "Dilxiroj", "Ufor", "Qashqarcha" va b.lar cholg'u raqs musiqasi, "Gul o'yini",

<sup>1</sup> Ў. Тошматов, Н.Исақулова. Номоддий маданий меросни муҳофаза қилишининг хуқуқий асослари (монография). Ташкент, 2015 й.

“Qari navo” va ayrim yallalar ashulali raqs musiqasi namunalaridir. Doira va nog’ora ritmida ijro etiladigan raqlar O’zbekiston va Tojikistonda keng tarqalgan, “Zang”, “Chor qars”, “Duchava”, “Gul o’yin” (faqat doira ijro etiladigan varianti) va b. doira jo’rligida ijro etiladigan raqs o’yinlaridir.



**Raqqos** – raqsga tushuvchi, o’yinchi erkak kishi.

**Raqqosa** – o’yinchi qiz yoki ayol kishi hisoblahadi.

**Tomosha san’ati** yo’nalishi bo’yicha: dorbozlik, polvonlik, an’anaviy sirk, ko’zboylog’ichlik, qo’g’irchoqbozlik, masxarabozlik, morbozlik, besuyak o’yinlari, yog’och oyoq o’yinlari, milliy xalq o’yinlari va boshqalar.

### 3. Urf-odat, marosim va bayramlar, madaniy makonlar.

*Urf-odat, marosim va bayramlar* tarkibiga mehmondo’stlik an’analari, odob - axloq bilan bog’liq urf-odatlar, farzand tarbiyasi bilan bog’liq marosimlar, beshik to’yi, ism qo’yish marosimi, sunnat to’yi, sovchilikka borish, kelin salom, milliy va mahalliy miqyosda o’tkaziladigan sayillar, hasharlar, tomoshalar, bayramlar va boshqalarni kiritish mumkin.

**Navro’z** (fors – yangi kun) – shamsiya (quyosh) yil hisobidan yilning birinchi kuni, O’rta Osiyo va Sharq mamlakatlarda yashovchi xalqlarning qadimiy an’anaviy bayrami. Bahorgi teng kunlikka (21 yoki 22 mart), ya’ni quyoshning Hamal burjiga kirishiga to’g’ri keladi. Navro’z dehqonchilik ishlarini boshlash bayrami hisoblanadi. Bayramda ommaviy xalq sayillari



uyushtirilgan, yangi ungan ko'katlardan tansiq taomlar pishirilgan, ba'zi ekinlarni ekish boshlangan. Dastlab navro'z bayramini o'tkazish o'troq dehqonlarda rasm bo'lган, keyinchalik ular orqali yarim o'troq va ko'chmanchi turkiy xalqlarning ham urf-odatlariga aylangan. Asrlar o'tishi bilan turli xalqlarda navro'z bayramini o'tkazish marosimlari ularning turmush tarziga, mafkurasiga moslashgan.



**Marosim** inson hayotida muhim hodisalar sodir bo'lganida vujudga keladi va kishilar hayotidagi eng muhim voqealarni (masalan, tug'ilish, uylanish, o'lim) qayd etadi, rasmiylashtiradi. O'zbek oilalarida yosh oilalarini tarbiyalash uchun o'ziga xos ma'naviy "zina" sifatida xizmat etadigan, chaqaloq tug'ilgandan, to ulg'ayib, yangi oila qurgungacha bo'lgan hayotiy muhim voqealarni qayd qiladigan marosimlar tizimi ("Chaqaloq dunyoga kelishi", "Ism berish", "Chaqaloq chilla", "Beshik to'y", "Soch to'y", "Tish to'y", Birinchi qadam", "Sunnat to'y", "Muchal yosh", "Nikoh to'y" kabilar) vujudga kelgan.

**Sunnat to'yining** tarixi eng qadimiylarib yoshini nishonlash, bolalarni o'smirlikka o'tish marosimiga borib taqaladi. O'sha davrlardayoq bolani sunnat (xatna) qilish odati vujudga kelib, u bir tomonidan, issiq iqlimda gigiyena (ozodagarchilik)ga rioya qilish vositasi bo'lgan, ikkinchidan, mardlik va jasurlik hisoblangan. Xatna mahalliy odatlar bilan chatishib, to'y-bayram darajasiga ko'tarilgan. To'y kuni bolaning ona tomonidan bo'lmish buvisi turli sarpolar bilan bir qatorda maxsus bezatilgan toycha tortiq qiladi. Toychaga "to'y qahramoni" mindirib, mahalla, qishloq ko'chalarini karnay-surnay sadolari ostida sayr qildirishadi. Bu tantanali sayr to'yxona eshigi oldida katta ommaviy raqsiga tushish bilan kutib olinadi. To'y kattalar mehmondorchilik qilish bilan yakunlanadi.



**Beshik to'y.** Chaqaloqning yaqinlari davrasida beshikka solish xalq tilida "beshik to'y" marosimi deb yuritilgan. Bu udum mamlakatimizning har bir hududida o'ziga xos tarzda, turfa urf-odatlar bilan o'tkaziladi. Ma'lumki, chaqaloqning dunyoga kelishi bilan qudalar, qarindosh-urug'lar, qo'ni-qo'shnilar

uchun katta xursandchilik boshlanadi. Bu marosim odatda to'ng'ich farzand dunyoga kelganda katta tantana bilan qarshi olinadi. Odatda u ayrim joylarda kichik bir oilaviy marosim shaklida o'tsa, boshqa joylarda esa mahalliy bayramga aylanib ketadi. Shuningdek, ba'zi joylarda bu marosim yaxlit bir shaklda tashkil topsa, boshqa yerlarda ikki tadbirdan iborat bo'ladi. Masalan, Toshkentda farzand tug'ilganiga 7-9 kun to'lganda, avvaliga bolani beshikka solish marosimi o'tkaziladi. Go'dakning qirqi (40 kunlik) chiqqandan keyin esa, oila uchun qulay kunlarning birida alohida (ziyofat) beshik to'yini uyushtirish odat tusiga kirgan. Marosim ota-onada va qudalarning o'zaro kelishilgan kuni, maxsus tayyorgarlik ko'rilgan holda o'tkaziladi. Unda kelinning onasi o'z nabirasi uchun yangi chiroyli beshik, xilma-xil kiyim- kechaklar, shuningdek, qizi va kuyovi, qudalari uchun sarpolar tayyorlaydi. To'ya aytilgan qarindosh-urug'lar ham chaqaloqqa atab sovg'a keltirishadi.

Bu tadbir Buxoroda quyidagi o'ziga xos katta tantana bilan o'tkazilgan: "Chaqaloqning ona tomonidan bobosi va buvisi unga boshdan-oyoq ust-bosh, yangi beshik va unga kerakli ashylarni hozirlab, to'y boshlangan kuni ana shu sovg'alar jo'natiladi. Sovg'a jo'natishda oldinda qo'lida qayroq toshli, yog'och bog'lab olgan bolalar nog'orachi, karnaychi va surnaychilarning nag'malariga mos holda o'ynab borishadi. Ularning ketidan sovg'a-salomlarni ko'targan ayyollar, ularning ketidan esa, beshik ko'targanlar boradilar. Uy egalari ularning yuzlariga un surtish bilan kutib oladilar. Bu bilan chaqaloqning umr yo'li oq, o'zi baxtli va farovon bo'lishiga istak bildirishadi". Kelinning onasi qarindosh-urug'lari hamrohligida yasatilgan beshik va sarpolar bilan qudanikiga mehmonga borishadi. Bu marosim ayollar, bolalar va kayvoni ayol (to'y-marosimlar ustasi, ko'p biladigan ayol) boshchiligidagi o'tkaziladi. Asosiy marosim kelinning onasi keltirgan beshikcha qaralqoni yotqizish uchun hozirlik ko'rish bilan boshlanadi. To'ya atab keltirilgan sovg'alar namoyish etiladi. Kayvoni ayol boshchiligidagi bolani cho'miltirishadi.

Chaqaloqni suvg'a solishdan oldin maxsus qumni uning tanasiga surtib chiqishadi. Sababi, badanidagi tuklar kamayib, chiqmasligi uchun qilinsa, undan keyin qatiq surkalib, uning terisi mayin va oqarishini ta'minlaydi. Bola cho'miltiriladigan tog'oraga umri davomida boy-badavlat bo'lsin deb tilla buyumlar va kumush tangalar tashlanadi (ma'lumki, kumush suvni zararkunandalar – mikroblardan holi qiladi). Go'dakni cho'miltirib bo'lgach, buvisi olib kelgan yangi kiyimlar bilan beshikning oldiga olib kelinadi. Beshikni bosh tomoni qibлага qaragan holda boladi belanadi va kayvoni ayol 4-6 qoshiqni beshik atrofida aylantirib o`ladi. Bu harakatda juft qoshiqlarning aylantirilishi bu beshik oiladagi kelgusi farzandlar uchun yashash, to'qchilik ramzi bo'lsin degan ma'noda qilinadi. So'ng beshikning yopinchiquqlari yopilib, kayvoni ayol onaga juft patir yoki nonni tishlatadi. Bu bola to'q bo'lishi uchun onaning suti mo'l bo'lsin, rizqi ulug' bola bo'lsin degan fikrni anglatadi. Ona tishlagan nonni olib qo'yiladi yoki bo'lmasam o'tirganlarga tarqatiladi. Kayvoni ayol xonaga isiriq tutatib, ona va beshik atrofida aylantiradi. Bu bilan uyning havosi tozalanib, bolani nazar-nafaslardan himoya qiladi. Ona bolani emizib uxlata boshlaydi, shu payt o'tirganlar birgalikda chaqaloqqa alla aytishadi.

**Nikoh** - yangi oila yaratilishi maqsadida tashkil etiladigan marosim, udum va tadbirlar majmuasi hisoblanadi. Nikoh – to'y marosimi, undan oldindi va undan keyingi qismlarga bo'linadi.

To'yan dan oldindi qism: qiz tanlash, sovchilikka borish, fotiha to'yi singari bo'laklarga bo'linadi.

Qiz tanlash turli hududlarda turlicha bo'lishi mumkin. Bunda ikki holat kuzatiladi: Yigitning o'zi tanlashi. Ota-onada yoki qarindosh-urug' tomonidan tanlash. Odatda yigitning ota-onasi yigitdan "ko'z ostiga olib qo'yaning bormi?" deb so'raydi. Yigit biror qizni tanlaganini aytsa, bu xonadon yigit xonadoniga mos yoki mos emasligi muhokama qilinib, ma'qul deb topilgan holda shu xonadonga sovchilikka boriladi.

Toshkent shahrida qiz tanlashda odatda yigitning ayol qarindoshlari turli joylardan qiz to'g'risida ma'lumotlarni surishtirib, qaysi xonadonda ularga mos qiz borligini aniqlab, shu xonadonga kirishadi va surishtirish boshlanadi. Boshqa hududlarda esa oldindan mo'ljallangan xonadonga borish odat tusiga kirgan.



Ikki tomon (qiz va yigit tomoni) bir-biriga ma'qul bo'lgandan keyin yigit va qizning uchrashuvi tashkil etilib, ularning roziligi olinadi. Keyingi paytda Toshkent shahrida qizning otasi yoki erkak qarishdoshlaridan biri yigit bilan uchrashib, suhbatlashishi ham rasm bo'lgan. Hamma rozi bo'lgandan keyin qizning uyiga sovchilikka (ba'zi hududlarda erkaklar, ba'zi hududlarda ayollar) boriladi va "non sindirish" yoki "oq

"o'rash" marosimi o'tkazilib, fotiha to'yi belgilanadi. Marosim paytida ikkita nonni qo'shib sindirish, qiz tomonga oq ro'mol taqdim etish ikki tomonning rozilik alomati hisoblanadi. Sovchilar qiz xonadoniga kirib kelishida "qulchilikka keldik" degan ibora bilan kirishadi, bu – shu xonadondagi qizni kelin qilib olish ma'nosini bildiradi.

**"Fotiha to'yi"** – qizning qo'ni-qo'shnilar, mahalla va qarindoshlariga qizning unashtrilganligini ma'lum qilish maqsadida o'tkaziladi va "bo'xcha", ya'ni qizga atalgan narsalar (kiyim-kechak va taqinchoqlar) qiz tomonga taqdim etiladi. Odatda, fotiha to'yiga ketadigan xarajatlar yigit tomonidan qoplanadi. O'zbekistonning turli joylarida bu marosim turlicha qo'lamda o'tkaziladi.

Masalan, Buxoro va Samarqand shaharlarida bu tadbir juda katta miqyosda o'tkazilib, olib kelingan buyumlar yoyib qo'yiladi va kim qaysi buyumni sovg'a qilganligi ham e'lon qilinadi. Fotiha to'yi kuni Nikoh to'yining muddati va sarf xarajatlari aniqlanadi. Yigit tomonidan "qalin puli" (Toshkentda "sut haqi deyiladi) beriladi. "Qalin puli" miqdori turli hududlarda turlicha bo'lib, Xorazmda beriladigan qalin puli eng katta hisoblanadi. Boshqa hudularda ham qalin puli to'lanadi yoki qiz tomon olib kelishi lozim bo'lgan biror buyum (masalan shkaf, javon yoki boshqa mebel) yigit tomonidan sotib olinishi bilan ham belgilanishi mumkin. Nikoh to'yi o'tadigan kuni rasmiy va shar'iy Nikoh marosimi tashkil etiladi. Shar'iy nikoh – mulla tomonidan o'qilib, diniy nuqtai-nazardan shu vaqtdan boshlab qiz va yigit er-xotin hisoblanishini bildiradi. Rasmiy nikoh – shu hududdagi tegishli rasmiy idorada yigit va qizni "er va xotin" deb qayd etish uchun tashkil etiladi. Nikoh qaydnomasini topshirish tantanali ravishda rasmiy idorada yoki nikoh to'yi marosimi tarkibida o'tadi.

Nikoh to'yi xonadonlarning iqtisodiy imkoniyatlari va shu hududda qabul qilingan qoidalarga qarab juda katta yoki nisbatan kichikroq o'tkazilishi mumkin. Nikoh to'yiga yigit va qiz tomonidan mehmonlar taklif etiladi. To'y marosimi tugagandan keyin qiz yigitning uyiga kuzatiladi. Unga qizning onasi va yaqin ayol qarindoshlari hamroh bo'ladi.

To'ydan keyingi qismda: **bet ochar (yuz ochdi), kuyov oshi, chorlar, quda chaqiriq** o'tkaziladi.

To'yning ertasi kuni ertalab "bet ochar" yoki "yuz ochdi" deb nomlanadigan marosim o'tkaziladi. Bu marosimda kelin boshiga yopilgan katta ro'mol olib tashlanib, u shu xonodon egalari va qarindoshlariga "salom soladi" (egilib ta'zim qiladi). Kimga salom berishni kelinning yonida turgan ayol belgilab, she'riy tarzda e'lon qilib turadi va salom berilgan qarindoshlar kelinga "ko'rmana" (o'zlarining sovg'asi)ni berib kelinning boshini silaydi, kelin tomonidan o'z navbatida kichik sovg'alar beriladi. Toshkent shahridagi to'ylarda kelin salom bevosita nikoh to'yi kuni, to'yxonaning o'zida o'tkazilishi rasm bo'lgan.

Shu kuni yigitning o'rtoqlari biror choyxonaga yig'ilib "kuyov oshi" tashkil etiladi va yigitning kuyov bo'lganligining isboti sifatida osh pishirib yeyiladi.

To'ydan keyin tomonlar kelishib belgilagan muddatda "chorlar" (qizning o'z ota-onasi xonadoniga tashrifi) marosimi o'tkaziladi. Bunda kelinning qaynonasi boshchiligidagi qarindoshlar kelinni olib quda tomonga borishadi. U yerda katta ziyofat beriladi va har ikki tomonning ayollari bir-birlari bilan tanishadilar.

Erkaklarning tanishuvu "**quda chaqiriq**" nomli marosimlarda amalga oshiriladi. Avval bir tomonga ikkinchi tomon erkaklari chaqirilib, keyin ikkinchi tomonga ham xuddi shunday chaqiriq uyushtirilib, ziyofat beriladi va ikki tomon erkaklari tanishib oladilar.

#### **4. Tabiat va koinot bilan bog'liq bilim va ko'nikmalar**

**1. Tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlar** deganda biz an'anaviy xalq taqvimlari, kunning botishiga qarab kelgusi kunning qanday kelishini aytib berish, oyning turishiga qarab keyingi oyning taxminiy ob-havosini aniqlash, hayvonlar harakati orqali sodir bo'ladijan voqealarни bashorat qilish, quduq qazish o'rni yoki imorat qurish joyini aniqlash, milliy sartaroshlik, an'anaviy tabobat, imoratsozlik, miroblik bilan bog'liq bilim va ko'niqmalar, pazandachilik san'ati kabilarni tushunamiz<sup>1</sup>.

Ma'lumki qadim zamonlardan buyon Sharq xususan O'rta osiyo xalqlari hayotida suv va namgarchilikni qadrlash alohida o'rin tutgan. Chunki dehqonlar uchun hosildorlikni yaxshi bo'lishi, chorvadorlar uchun yaylovlarda o't-o'lanlarni o'sishi, ular hayotining to'kin sochin bo'lishini ta'minlagan albatta, bularning barchasi ob-havoning qanday kelishiga bog'liq bo'lган. Bu esa asrlar davomida O'rta osiyo xalqlarida suv va namgarchilik bilan bog'liq turli urf-odat va marosimlarni vujudga kelishiga sabab bo'lган.

Suv va namgarchilik bilan bog'liq urf-odat va marosimlar o'zining uzoq tarixiga ega bo'lib zardushtiylikning muqaddas kitobi Avestoda yer, suv va hosildorlikning xudosi deb «Anaxita» talqin qilingan. Unda: «Anaxita doimo go'zal baquvvat, xushqomat, kamarini baland bog'lagan, oltin ziynatli ko'p burmali mursak kiygan bir qiz sifatida ta'riflanadi». Zardushtiylik davrida unga atalgan gimnlar, qasrlar va haykallar mavjud bo'lgan bo'lsa, ayrim manbalarda ko'rsatilishiga unga atab hatto odamlar ham qurban qilingan. Ko'pchilik manbalarda Anaxita osmon suvlari ya'ni bulut va yog'ingarchiliklar xudosi deb talqin qilinsa, ayrim mualliflar uni yerdagi oqar suvlarining kulti bilan bog'lashadi. O'rta Osiyoda Anaxita kulti bilan birga er xubbi yoki Xubbi kulti ham mavjud bo'lib, ushbu kult haqida mualliflar tomonidan ko'plab afsona va rivoyatlar qayd etilgan. Ko'pchilik olimlarning ushbu kult islomga mavjud bo'lganligini qayd etadi. Bu haqda Akademik Ya.G'ulomov quyidagilarni yozadi: «Tabiiyki, islom dini yoyilgandan so'ng ham xalq islomgacha bo'lgan suv xudosi Xubbi haqidagi afsonani saqlab qoldi natijada u musulmon giografik adabiyotiga kirib keldi». Yuqorida keltirilgan har ikkala kult haqida folklorshunos B.Sarimsoqov hamda U.Jumanazarovlar o'z izlanishlarida qimmatli ma'lumotlarni keltiradilar. Xubbi kultiga sig'inish O'rta Osiyoning deyarli barcha xududlarida, xususan Farg'ona vodiysida ham uchraydi. Vodiyning So'x tumani dehqonlari erta baxorda ariqlarga suv ochishdan oldin daryo bo'yida turli er Xubbi kultiga atab qurbanlik qilishgan bu yerda er xubbini «yigit xubbi» deb atashgan. Daryo va soy bo'yalarida qurbanliklar keltirish O'rta Osiyoning boshqa xududlarida ham mavjud bo'lgan. Yuqoridagilardan tashqari O'rta Osiyo xalqlarida yomg'ir chaqirish bilan bog'liq turli urf-odat marosimlar ham mavjud bo'lgan. Ushbu marosimlar turli joylarda turlicha shaklda va har-xil nomlar bilan qayd etiladi. Chunonchi, bunday marosimlar Qashqadaryo viloyatida «**Suz xotin**», «**Chayla qozoq**», Surxondaryoda «**Bo'z xotin**», «**Sust xotin**», Zarafshon voxasida «**Sus xotin**», Turkistonda «**Choy momo**», Buxoroda viloyati qishloqlarida «**Chayla xotin**», «**Qo'sam-qo'sam**», «**Sur xotin**», nomlari bilan atalib, ushbu marosimlardan maqsad, yomg'ir chaqirish bo'lgan. Ushbu marosimlar haqida M.Jo'rayev izlanishlarida qimmatli ma'lumotlar keltiriladi. Yuqoridagi yomg'ir chaqirish bilan bog'liq marosimlar O'rta Osiyoning ko'plab xududlarida mavjud bo'lsada, ayrim dehqonchilik hududlari, masalan Farg'ona vodiysida kamroq uchraydi. Bu yerda yomg'ir chaqirish bilan bog'liq turli ko'rinishdagi o'ziga xos bo'lgan udumlar mavjud bo'lgan.

<sup>1</sup> Ў.Тошматов, Н.Исакулова. Номоддий маданий меросни муҳофаза қилишининг хуқуқий асослари (монография). Тошкент, 2015 й.

Masalan vodiyning So'x tumanida yomg'ir chaqirish bilan bog'liq marosim mavjud bo'lib uni mahalliy xalq «tarishkunoq» deb atagan. Unga ko'ra qurg'oqchilik bo'lib uzoq vaqt yog'ingarchilik bo'lmasa, qishloq erkaklari yarim yalang'och holda ko'chaga chiqishgan va bir birini ustidan suv quyishgan hamda ariqqa tashlashgan. Shu kunlari qishloq erkaklari xohlagan xonadoniga mehmonga kirishgan, xonadonlarda esa ularni faqat shu marosimda pishiriladigan «qashqi chavari» deb nomlangan chalpak bilan mexmon qilishgan. Vodiyning Quva tumanida esa qurg'oqchilik yillari qishloq aholisi Ollohdan yomg'ir so'rab xayri xudoyilar o'tkazganlar. Ushbu xudoyilar odatdag'i xudoyilardan shunisi bilan farq qilganki unda qatnashayotgan oqsoqollar soni yetti yoki o'n yetti kishi bo'lishi shart bo'lgan. Vodiyning tog'oldi tumanlaridan bo'lgan Farg'ona tumanida esa, qurg'oqchilik yillari dehqonlar turli xayri-xudoyilar o'tkazish bilan birga, o'z ekin maydonlari chetlariga qurbaqalarni tutib kelib osib qo'yishgan. Dehqonlar qurbaqa yomg'ir chaqiradi deb ishonishgan.

Hozirda ham «vodiya qurbaqani o'ldirgan odamning to'yida yomg'ir yog'adi»-degan tushuncha saqlanib qolgan. Qurbaqa obrazining yog'ingarchilik bilan bog'liqligi to'g'risida dunyo xalqlarining ko'pchiligidagi turli talqinlar uchraydi. O'rta Osiyoda ham qurbaqanining namgarchilik timsoli sifatida talqin qilinganligini L.I.Rempel tasdiqlab quyidagilarni yozadi: «O'rta Osiyo xalqlarining san'atida qurbaqa obrazidan namgarchilik va yomg'ir ifodasi, baxt va omad timsoli, bamisol tumor sifatida foydalanilgan».

**2.Yomg'ir chaqirish** bilan bog'liq rasm rusumlar O'rta Osiyoning boshqa xalqlarida ham mavjud bo'lgan. Xususan Turkmanlarda yomg'ir chaqirishda «Burgut baba» obraziga sig'inilib, unga yomg'ir piri sifatida qaralgan va u haqda turli rivoyatlar to'qilgan. O'rta Osiyoning ayrim dehqonchilik xududlarida esa yomg'ir chaqirishning g'ayri oddiy usullari mavjud bo'lgan. Bizga ma'lumki, qadimda Turkiy qavmlar orasida «Yada» toshi vositasida ham duo o'qib yomg'ir chaqirish udum bo'lgan. «Yada» atamasi ko'pchilik olimlarning e'tiroficha Avestoda keltirilgan «yadu» (yoki «yatuu») ya'ni «sehr jodu» so'zi bilan bog'liqdir. «Yada» atamasi bilan bog'liq tushunchalarini qadimiy Sharq yozma manbalarida uchratish mumkin. Jumladan, Xitoy sayyohi Si Yuy Vindzyan-lu «yada» toshi haqida ma'lumot berib, ushbu toshni oq, qora, Kulrang ko'q, yashil va sariq ranglarda bo'lismi ta'kidlaydi. «Yada» toshi haqida ma'lumotlarni biz X asrda yashagan arab geografi Ibn al-Faqihning «Kitob axbor al buldon» (mamlakatlar haqida axborotlar kitobi) asarida, Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'atit Turk» nomli mashhur ishida hamda XV asrda yashab ijod qilgan tarixchi Rashiddin asarlarida uchratamiz.

Abu Rayhon Beruniy ham o'zining «Minerologiya» asarida «yada» toshi haqida ma'lumot berib, ushbu tosh Turkiy xalqlar orasida nafaqat yomg'ir chaqiruvchi, balki g'alaba va omad keltiruvchi tosh sifatida ham qadrlanganligini yozgan edi. Uning ta'kidlashicha, ushbu toshdan o'sha davrning shox va sarkardalarining qilich, uzuk va boshqa buyumlarini ziynatlashda foydalanilgan. Ilohiy qudratga ega bo'lgan «yada» toshi haqidagi ma'lumotlarni qadimiy dostonlardan ham topish mumkin. Jumladan, qirg'iz xalqining «Manas» eposida «yada» toshi haqida afsona mavjud bo'lib ushbu asarda u «djay tash» deb atalgan. Bundan tashqari, «yada» toshi haqidagi ma'lumotlar Oltoy xalqlarining «Anoss to'plamlari» (Anosskiy sbornik) deb nom olgan folklor asarlarida «sata» nomi bilan atalib, u iloxiylashtirilgan. Oltoy xalqlari ushbu ilohiy toshning kuchi nihoyatda ulug'vorligiga ishonganlar, hatto ular «sata» toshi quyosh nurini ham «sindiruvchi» kuchga ega deb bilganlar.

S.Ye.Malovning yozishchicha, XIX asr oxirlarida Sharqiy Turkistonda bir «yada»chilik bilan shug'ullanuvchi mulla, ayni hosil yig'im terimi davrida yomg'ir chaqirganlikda ayblanib, qattiq jazolangan. Bundan tashqari S.Ye.Malovning ta'kidlashicha Turkiy qavmlarda ushbu toshdan nafaqat yomg'ir chaqirish, balki boshqa maqsadlarda ham foydalanilgan. «Yada» toshi haqida o'zbek elshunos olim Q.Shoniyofov hamda M.Jo'rayevlar o'z ishlarida ma'lumotlar keltirib o'tadilar. Q.Shoniyofovning yada toshini qadimdan oq Turkiy xalqlarning turmush tarzida muhim o'rin tutganini va u haqida ilk o'rta asr yozma manbalarida ham ko'plab ma'lumotlar uchrashini ta'kidlaydi. M.Jo'rayevning yozishchicha, qadimda har bir Turkiy qavmning o'z yadachasi bo'lgan va yomg'ir chaqirish uchun yada toshiga qush yoki hayvon qoni surtilib afsun o'qilgan.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rindiki, O'rta Osiyoda suv va namgarchilik bilan bog'liq urf-odat va marosimlar o'zining uzoq tarixiga ega bo'libgina qolmay, balki O'rta Osiyo xalqlarining ma'naviy merosini ajralmas va bebaho durdona sifatida boyitadi. Ushbu marosimlarni o'rganish esa tariximizni yanada boyitishiga shubha yo'q.

**3.An'anaviy tabobat:** Miloddan ikki ming yil oldin va miloddan avvalgi ikkinchi asrlarda doirachi ayollarning gildan yasalgan terrakota haykalchalarida zamonaviy o'zbek va tojik doirasi tasvirlangan. Bu ma'lumotni A.Nazarov to'ldirib, haykalcha tasviridagi doiralarning shakli, ushslash va ijro uslubi, hatto doyrachi ayollarning kiyinish jihatlari ham bugungi o'zbek va tojik doirachisiga hamda baxshi ayollarning qiyofasiga aynan o'xshashligini<sup>1</sup> ta'kidlab o'tadi. Shu davrlarda Surxondaryo, Buxoro va Turkmanistonning Marv hududlarida baxshilar ijrosi keng tus olganligi ham tarixiy manbalarda ko'rsatilgan.

San'atshunos olim S.B.Saidiy ma'lumotlarida Turkmanistonning Mari, Murg'ob, Qirq-qiz, Kaspiy dengiz bo'yłari, O'zbekistonning Buxoro-I, Darvozaqir-1 va 2, Qizbibi [Olot], Buxoro-2, Varaxsha [Jondor], Buxoro-3, [Romitan], Buxoro-4 [ARK] registoni va Amudaryo bo'yłari, Surxondaryoda [Boysun, Teshiktosh, Ayratom, Sinomolali], eski Termiz [Toxariston], Sirdaryo va Zarafshon bo'yłari sohillari atroflarida, Samarqand eski shahar markazlarida, Tojikistonning Badaxshon, Ro'shan va Ishqoshim, Xatlon zaminlaridagi tog'li-dashtli hududlarida, Shimoliy Sharqiy Afg'onistonning va Panj daryosi atroflarida ham madaniy hayot rivojlangan bo'lib, musiqiy an'analar ham taraqqiy etganligi tarixiy manbalarda qayd etiladi<sup>2</sup>. Shu davrda ayollarning doira ijrochiligi barcha uslubiy jilolari bilan namoyon bo'lgan. Bunda, doira usullari vositasida davolaydigan [tabobat qiluvchi], ya'nig qo'chirmachi ayollarni baxshi ayollar deb ham atashgan. Doira chalib fol ochuvchilarini folbin, jodugar, ruhshunos farishta chaqiruvchi, parxon [parixon] deb ham ataganlar. Baxshi, ko'chirmachi deb nomlangan doirachi ayollarning ijrolaridagi xilma-xil zarbu usullari yordamida ayrim ruhiy kasallar shifo tobib tuzalganliklari, bu insonlar muolajasi ruhiy ishonch paydo qilish maromi bilan bog'liq bo'lganligini alohida qayd etish joiz. Fol ochuvchi parxonlar faoliyati ham doira jo'rligida bo'lib o'tgan: oldinda kutilayotgan xabarlarni ularning ruhiy ta'sirotlariga yetkazganlar va bu bilan fol ochish mahoratlarini namoyish qilganlar.<sup>3</sup> Demak, sof musiqiy ijrodan tashqari diniy-falsafiy, kosmologik usullar ham bo'lgan. Bunday ijrolar Hindiston, Xitoy, Afg'oniston hududlarida nisbatan kengroq taraqqiy etganligi haqida turli ma'lumotlar mavjud<sup>4</sup>.

Markaziy Osiyo xalqlari milliy va mahalliy usullari vatanimizning Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida istiqomat qiluvchi aholining ijrochilik an'analarida yaqqol namoyon bo'ladi. Ayniqsa, Surxondaryoda, «badashlar» - ya'ni baxshi ayollarning doirada ikki hildagi ijro uslubi bo'lganligini alohida ta'kidlash joiz, Surxondaryo baxshilarini tabobatchi va folklor ijrochilari ajralib turadi. R.Abdullaev shulardan madaniy taomil "Badiklar"<sup>5</sup> intilishida xastalikni haydash, bolani davolash kabi shifikorlik odatlari va uslublarini izohlab o'tgan . Buxoroda ham bunday muolaja usullarini bajarish, xususan, yosh bolalarni davolash XX asr boshlarida kuzatilgan. Surxondaryo badashlarining doiradagi ijro uslublarida tabobatchilar uslubidagi usullarga yaqinlik tomonlari sezilib turadi. O'tgan asrning boshlariga qadar doira orqali Buxoroda Hazrati Imom Al-Buxoriy qabristoni markazidagi hovuzi Kabir va Xo'jai jahon hamda Ismat Buxoriy qabristonining markazida, Avliyoi Xo'ja Devgardon [Asp gardon]<sup>1</sup> hududlarida yosh bolalarning ruhiy xastaliklarini davolash ishlari olib borilgan. Hozirgi kunda bunday «doiradast» ko'chirmachi ayollar deyarli yo'q hisobi; ularning ijro usullari ham bizga hozircha nomalam va alohida tadqiqot talab etmoqda.

<sup>1</sup>НазаровА.Ф. Мумтоз ийқоъ назарияси. Санъатшунослик фанлари доктори илмий даражасига даъвогар диссертацияси.- Тошкент.- 1996.

<sup>2</sup> Saidiy S.B. Zardushtiy va buddaviylar davri musiqa san'ati //J. Moziydan sado.- T.- 2003.- №№ 3-4.- 28-29 b.

<sup>3</sup>S.B.Saidiy. "Markaziy Osiyo madaniyatida urma zarbli cholg'ular (o'zbek va tojik musiqa an'analar misolida)"cholg'ushunoslik asoslari darsligi - Toshkent "musiqa" nashriyoti. 2008 yil.

<sup>4</sup> O'sha asar, 44-48.bb.

<sup>5</sup> Каримов Б. Фалсафа ваъз матнлари.- Т.: Фан, 1995.- 239 б.

\* Лугавий жихатдан "асл-гардон" ўз холатига келтириш маъносига эга бўлиб, бу болаларнинг кўркмаслиги учун ишлатиладиган сўз.

Zamonaviy meditsina paydo bo'lgangacha davrda insonlarning organizmida paydo bo'ladigan turli jismoniy va ruhiy kasalliklarga qarshi kurashish vositasi bo'lib xizmat qilgan. Zamonaviy meditsina tatbiq etilgandan keyin ham O'zbekiston aholisining juda ko'p qismi an'anaviy tabobatga murojaat etib keladi.

An'anaviy tabobatning ayrim sirlari oddiy odamlar tomonidan ajdodlardan avlodlarga uzatilib, oila a'zolarini mustaqil davolashga xizmat qilgan bo'lsa, ayrim sirlari faqat shu soha bilan chuqur va muntazam shug'ullanib kelgan kishilargagina ma'lum bo'lgan. Masalan, og'iz bo'shlig'iga yara toshib ketishi (xalq tilida "og'iz uvilishi", zamonaviy meditsinada "stomatit" deyiladi)ni oilada doim bo'ladigan achchiqtosh bilan og'izni chayish orqali davolangan bo'lsa, suyak sinishini faqat "siniqchilar" davolaganlar. Insonlardagi jismoniy kasalliklarning aksariyati dorivor o'tlar, qo'l bilan uqalash orqali davolangan holda, ruhi kasalliklarning aksariyati duo o'qish va ruhiy ta'sir o'tkazish orqali davolangan.

An'anaviy tabobatning hozirgi ahvoli har tomonlama o'rganilmagan. An'anaviy tabobat bilan shug'ullanuvchi shaxslarning ta'biricha, zamonaviy meditsina kasallik natijasida organizmda paydo bo'lgan og'riq joyining o'zini davolaydi (masalan, qo'lga yara chiqsa yarani davolaydi), an'anaviy meditsina esa uning sababini topib kasallikning ildizini davolaydi va shu bilan kasallik qo'zg'alishining ham oldini oladi.

An'anaviy tabobat sirlari asosan oila ichida (juda kam hollarda begonalarga) keyingi avlodga uzatiladi. An'anaviy tabobatning juda katta sirlari Abu Ali ibn Sino tomonidan "Tib qonunlari" risolasida yozib qoldirilgan.

An'anaviy tabobatda bir xil kasallikni turli yo'llar va vositalar bilan davolash amaliyoti ham uchraydi. Bunda tabib (an'anaviy tabobat bilan shug'ullanuvchilar shunday ataladi) o'zi o'rgangan uslubdan foydalanadi aslida, an'anaviy tabobatda deyarli barcha kasalliklarga qarshi davo uslublari mavjud. Davolash jarayonini to'g'ri va samarali tashkil etish tabibning mahorati va tajribasiga bog'liq. Masalan, Toshkentdagi Xonobod qishloq fuqarolar yig'ini "Yangi turmush" mahallasida yashovchi Karimshayx Usmonshayxov ismli tabib "spid" kasalligini ham davolagan, degan ma'lumotlar internet saytida e'lon qilingan.

**5. An'anaviy hunarmandchilik.** *An'anaviy hunarmandchilikka oid bilim va ko'nikmalar* misolida zardo'zlik, quroqchilik, kandakorlik, gilamchilik, do'ppido'zlik, qo'g'irchoqsozlik, kulolchilik, ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi, san'ati va hunarmandchilikning boshqa yo'nalish va turlariga oid tajriba, bilim va ko'nikmalarni kuzatishimiz mumkin bo'ladi<sup>1</sup>.



<sup>1</sup> Ў. Тошматов, Н.Исақулова. Номоддий маданий меросни муҳофаза қилишининг ҳуқуқий асослари (монография). Ташкент, 2015 й.



**6. Qo'g'irchoqsozlik** - xalq amaliy san'ati hamda san'atning boshqa turlari singari insonlarning tabiatni, yon atrofni, borlikni kuzatishlari, undan hayratlanishlari yoki qo'rqliklari, zavqlanishlari asosida tug'ilgan. Respublikamiz hududida olib borilgan qazishmalar vaqtida topilgan odamlarning yoki hayvonlarning, fantastik-xayoliy jonzotlarning loydan ishlangan kichkina haykalchalari bunga misol bo'lishi mumkin.



O'rta Osiyo hududida yashagan xalqlar asosan dehqonchilik, chovachilik bilan shug'ullanishgan va ularning san'ati shu turmush tarzi bilan bog'liq bo'lgan. Bir vaqtlar diniy xarakterdagi Ashshadaroz (Xorazm viloyati), Suv Xotin (Surxondaryo viloyati) totem yoki ma'buda Anaxita ko'rinishlari vaqt o'tishi bilan katta hajmdagi marosim qo'g'irchoqlariga aylangan. Xalqimiz azaldan bolajon xalq bo'lgan. Bolalar uchun esa ovunchoq qo'g'irchoqlar kerak bo'lgan. Qo'y- qo'chqor, o'rdak, g'oz, xo'roz, balik, chig'anoq shaklidagi xushtaklar ham ovunchoq, ham didaktik o'yinchoq vazifasini

bajargan. Osiyo xalqlarida arusaksoz, qo'g'irchoqsoz, qurjoqchi kabi kasb egalari mahalliy xom ashyodan diniy, marosim yoki ovunchoq maqsadida uyinchoq-qo'g'irchoqlar yasashgan va ular Buyuk Ipak Yo'li orqali ko'p xalqlarga tarqalgan. Mahalliy xom ashyo deganda tuproq-loy, yog'och, qamish, mato, jun, qamish, suyak kabi materiallar nazarda tutilmoqda. Afsuski, davrlar aro sinalgan eng mustahkam xomashyo bu olovda pishirilgan loy -keramika sopol bo'lib chiqdi. Chunki aynan sopol qo'g'irchoq-o'yinchoqlargina biz qadimiy ajdodlarimizdan yetib kelgan xolos. Muzeylarda saqlanayotgan aravaga qo'shilgan ot xaykalchasi, ajdarho ko'rinishi haykalchasi shular jumlasidandir. Loy sopoldan ishlangan o'yinchoqlar an'anasi o'tgan asrda buxorolik Xamro buvi saqlab qolib, o'z jiyانlariga o'rgatib ketgan. Bugungi kunda ushbu an'anani Kubaro aya davom ettirib kelmoqda.

Mustaqillik tufayligina ushbu madaniyat, san'atimizning bir ko'rinishi milliy qadriyatimiz hisoblangan, yo'qolib ketgan qo'g'irchoqsozlik san'ati qayta tiklana boshlandi. Buxoroda, vodiya, Toshkentda loydan ishlangan qo'g'irchoqlarga e'tibor berilgan bo'lsa, boshqa mahalliy xom ashylardan tayyorlangan maishiy xarakterdagi, sovg'abop qo'g'irchoqlar Xorazm viloyatida Kuryazov Mansur rahbarligidagi bir guruh tashabbuskor ijodqorlar tomonidan tayyorlana boshlandi.

**Tayanch Iboralar:** Nomusiqiy, Musiqiy, Avesto, Zardushtish va Buddaviy, Sug'diyona, ko'chirmachi, folbin doiradastlar, afsungarlar muolajasi, parxonlar, rushoniylar.

### Nazorat savollari:

- 1.Eng qadimgi davr nomusiqiy buyumlar ta'rifi va ijro qo'llanishi qanday bajarilgan?
- 2.Xo zamzam va Mozandaron qanday janr?
- 3.Doirachi; Ko'chirmachi, Afsungarlar va kohin hamda Folbinlarning bir-birovidan muolajalarda farqiyati nimada?
- 4.O'zlikni namoyon qilishning og'zaki shakl va an'analarini sharhlab bering ? .
- 5.Sahnaviy ijro san'atining janrlarini sharxlab bering ?.
- 6.O'zbekistonda Urf-odat, marosim va bayramlar turini sharhlab bering.
- 7.Tabiat va koinot bilan bog'liq bilim va ko'nikmalar nimani anglatadi.
8. An'anaviy hunarmandchilik deganda nimani tushunasiz ?.

## **Adabiyotlar:**

1. Ibragimov O. “O’zbek musiqa ijodi”. 1990 y.
- 2.Saidiy.S.O’zbek Musiqasi tarixi. Darslik.I-II qismlar./ “Musiqa nashriyoti.”. Toshkent-2020.yil.
- 3.Toshmatov O’, Turatov S. Ko’hna cholg’ular ijrochiligi./;- Toshkent-2006

## **XVI ASR BUXORO MINIATYURA MAKTABIDA MAVRIGIXONLIK BADIYLIGI**

### **Reja:**

- 1.O’rta Osiyo olimlarining musiqa nazariyasiga oid asarlari tahlili.**
- 2.O’zbek xalqining XVI-XIX-asrlardagi musiqa madaniyati.**
- 3.XVI-asr shoirlari va musiqachilar.**
- 4.Og’zaki an’anadagi kasbiy musiqa maqomlar, maqom yo’lidagi**

O’zbek musiqa risolalarida ko’tarilgan masalalar hozirgi zamon boshlang’ich musiqa nazariyasiga yaqin turadi. Lekin ularda Sharq xalqlari o’tmish musiqasining amaliy tomonlari bilan bog’liq bo’lgan masalalar ham borki, hozirgi zamon musiqa nazariyasida bular umuman uchramaydi. O’rta asr olimlari ko’proq musiqa nazariyasi muammolarini hal etishda maqom musiqasi bilan muhofaza qilganlar. Bunda ular maqomlardagi parda (ton, yarim va chorak tonlar) misolida tahlil etganlar.

Musiqa asarlarini tashkil etadigan elementlarning eng kichik birligi ayrim musiqa tovushi (ton) bizgacha yetib kelgan nazariy kitoblarda “Nag’ma” iborasi bilan atalgan. O’zining baland-pastligi bilan muayyan nuqta (parda) chegarasida ma’lum vaqtgacha cho’zilib turadigan tovush “nag’ma” deb ataladi.

Musiqaga oid nazariy risolalardan “nag’ma” musiqaga bog’liq bo’lmagan boshqa xil tovushlardan keskin farq qiladi. Ular ma’lum xususiyatlarga ega bo’ladi. Masalan insonning qo’pol ovozi, sozlanmagan cholg’ularning ovozi nag’ma sanalmaydi.

### **Musiqada nag’ma ikki xil bo’ladi:**

- Nag’mai qavliy – ya’niy inson tovushi:**
- Nag’mai feliy – musiqa asboblaridan chiqadigan sun`iy ovoz.**

Balandpastligi jihatidan turlicha bo’lgan ikki xil nag’madan “bud” hosil bo’ladi. Bud ikki nag’ma birikmasi va ikki tovush oralig’ida paydo bo’ladigan interval ma’nosini beradi. Shunday qilib, Sharq musiqa nazariyasida hozirda unchalik qo’llanilmayotgan turli iboralar mavjuddir.

O’tmish olimlari tomonidan musiqa nazariyasiga bag’ishlab yaratilgan risolalar musiqa san’atining monodiya (rivojlangan bir ovozli musiqa) ga asoslangan edi. Ushbu risolalarda bиринчи bo’lim (ilmi talif) – ovozlarning o’zaro munosabatlari, tovushqatorlarni o’rganishga, ikkinchi bo’lim esa, (ilmu iqo’) ya’ni Musiqiy ritm to’g’risidagi ta’limotdan iborat bo’lgan. XV-asrning ikkinchi yarmida yashab o’tmishdoshlari Al Farobi, Ibn Sino, Abdulqodir Marog’ylarning musiqa nazariyasi oid asosiy ilmiy g’oyalarni davom ettirgan va rivojlantirgan tojik shoiri Abdurahmon Jomiy (1414-1492)ning “Musiqa haqida risolosi” ana shunday asarlardan hisoblanadi.

Abdurahmon Jomiy ham o’tmishdoshlari singari ovozlarning interval hamda o’zaro munosabatlarni ular torning qismlari nisbatidan holi holda asosiy jins –tovush qator (tetraxford va pentaxord) larni tashkil qilishi hamda ularidan jam –(parda)lar tashkil etish usulini ko’rsatadi.

Og’zaki an’anadagi kasbiy musiqa mahsuli – o’n ikki maqomlardan kelib chiqib asosiy tovush qatorlarni o’n etti pog’onali gamma hosil qiluvchi o’n etti bo’lakka bo’ladi, keyinchalik tovushqator asosini o’zbek musiqasiga xos bo’lgan miksolidiy ladiga muvofiq etti pog’onali gamma tashkil qilishi aniqlandi. Shunday qilib yuqorida bayon etilgan risolalardagi nazariy fikrlar saroy va shahar doirasida ommolashgan boy, rivojlangan musiqa san’ati ajoyib kuylar ijodkori, ijrochilari bo’lgan o’rta asr bastakorlarining professionallanishi, xalq musiqa zaminida

o'sdi va rivojlandi, ijod etishning qatiy qoidalari esa xalq musiqa amaliyotining qo'shimcha ijodiy qayta ishlashi natijasi bo'ldi.

O'zbek xalqining XVI-XIX-asrlardagi musiqa madaniyati XVI-asrning ikkinchi yarmidagi o'zaro urushlar shaharlarning boshlab vayronaga aylanishi, O'rta Osiyo xalq ommasining qashshoqlanishiga olib keldi.

XVII va XVIII-asrlarda feodal tarqoqlik kuchaydi. Katta feoydal davlat alohida xonliklar Buxoro, Xiva hamda Qoqon xonliklariga bo'linib ketdi. Bunday bo'linish O'zbek xalqining musiqa madaniyatida ham aks etdi. O'zbek xonlari saroydagi musiqiy hayot asosan Temuriylarning Hirot va Samarqand saroylardagi an'analarni davom ettiradi, ko'pgina shoir va musiqachilar Buxorodagi Shayboniyar saroyiga bir qismi esa Xorazmga ko'chadi. Buxoro va Xorazmning aralash o'zbek va tojik musiqali poetik an'analari yanada taraqqiy topishi ana shular bilan izohlanadi.

## **XVI ASR SHOIR VA MUSIQACHILARI**

XVI-asr shoirlari va musiqachilari shuningdek, musiqa ilmining bilimdonlaridan Najmuddin Kavkabiy Buxoriy ijodi ilmiy davrlarda katta qiziqish uyg'otadi. Uning "Musiqa haqida risola"si ustoz an'analarni Samarqand va boshqa shaharlarda davom ettirgan shogirdi (Xoji Muhammad, mavlono Rizo Samarqandiy) uchun musiqali poetik qo'llanma bo'lgan edi. XVII-asrning saroy musiqachi va nazariyotchisi Darveshali Changiy edi. Uning risolasi musiqaga oid fikrlarga boyligi bilan ahamiyatlidir. Muallif boshqalardan farqli holda faqatgina musiqa nazariyasi asoslarini bayon qilib qolmay, balki o'z asarining katta qismini turli davrlarda yashab ijod etgan bir qator musiqachilar faoliyati, shuningdek, saroyda mavjud bo'lgan musiqa asboblari tavsifiga ham bag'ishlaydi.

Keyinchalik musiqiy-nazariy risolalar bilan bir qatorda "Bayoz" lar ham vujudga keladi. Ular muayyan kuylar nomi ko'rsatilgan qo'shiqlar matnidan iborat to'plam edi. XVII-asrda Buxoro xonining mehmoni bo'lgan rus savdogari Pazuxin "tushlik paytlarida musiqachilar kitobga qarab kuy chalib, ovoz bilan ashula aytar edilar" deb hikoya qiladi.

Kelib chiqishi qadimiy bo'lgan hamda xalq san'atining har xil elementlari bilan boyigan og'zaki professional musiqa janri-maqomlar ham xalq ijodi asosida uzil-kesil tiniqlashdi va Buxoro Shashmaqomi XVIII-asrda to'liq shakllandi.

Og'ir hayot, qashshoqlikda yashashiga qaramay mehnatkash xalq ijodi davom etdi, musiqa ijodi va ijrochiligi janrlari boy, cholg'u asboblari takomillashdi. Xalq qo'shiqchiligidagi ham cholg'u ijodining xilma-xil turlari O'zbek xalq teatrlarida qo'llaniladigan bo'ldi. Xalq qiziqchiligi, askiyachilik va qo'g'irchoq o'yin, dorbozlik san'ati keng tarqaldi. San'atkorlar xalq sayillari va ommaviy tantanalarda o'z san'atlarini namoyish qilardilar. Ba'zan qo'shiqlar hajviv tavsif kasb etardi. Feodal zulmi og'irliklari xalqni ularga qarshi kurashga chorlab, bu hodisa ijtimoiy narozilik qo'shiqlarida aks etardi.

Bastakor san'ati Ayniqsa XVII-asr mashhur musiqa olimi Darveshali Changiyning "Risolai Musiqiy" asarida keng yoritilgan. Bu asarda juda katta ilmiy tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan vaqtlar epizotlar keltiriladi. Ayniqsa, Kavkabiy Buxoriyning musiqa risolalarida kuy va ashula turlari, shakllari masalasiga alohida boblar ajratilgan.

Kavkabiyning ko'rsatishicha, kuy ashulalar uch xil bo'ladi:

- 1. Alxoni jirmiy (ya'ni, to'liq kuy) musiqa tovushi (Nag'ma), doira usuli (Ritm) va she'r matni qo'shilgan musiqa asari.**
- 2. Alxoni Basitiy (ya'ni oddiy kuy) musiqa asaridagi tovushlar yoki she'rni o'lchovga solib o'qish.**
- 3. Alxoni Xattiy (ya'ni cheklangan kuy) musiqa asaridagi tovushlar, doira usuli va she'rning musiqasi.**

Musiqa asarining bu turlari haqida manbalarda mufassal ma'lumot yo'q.

Kavkabiy va Darveshali o'z risolalarida kuylarning ishlanish uslublari va shakllari haqida ham mulohaza yuritganlar. Bunda qor (forscha-ish, yaratish) hafif o'lchovi doira usulida ijro etiladigan ashula yo'li, Qavl, qor shaklning saql doira usulidagi ritmik variatsiyasidir, amal

(arabcha- ijodiy asar) peshrav (yuqoriga harakat etuvchi) kuy shakli, oviza (vosita) bir kuy jumlasini boshqa kuy jumlasiga bog'laydigan vositadir. Savt (tovush ohang) uch bayt bog'langan ashula yo'lidir.

Yuqorida ko'rsatilgan kuy va ashulalarning ishslash usullari XVII-asr musiqa olimlari asarlarida ancha keng miqdorda, tahliliy tarzda keltirilgan. O'n ikki maqom va Shashmaqom, garchi Markaziy Osiyoda mavjud umumiy an'analar va qoidalar asosida yashab kelgan bo'lsada bizgacha ular juda katta o'zgarishlar bilan yetib kelgan (Rajabov I 1963).

Musiqa doir XV-XVII-asrlarda yozilgan risolalarda kuy va ashula shakllarini yaratilishi va ularning ijodkori haqida boy materiallar mavjud. Bu esa XIV-asrdan boshlab maqom yo'llarining rivojlanishda hal etuvchi rol o'ynagan bastakor an'anasing yanada kuchayganidan XV-XVII-asrlarda esa bu an'ana davom etibgina qolmay, bastakorda yangi ijodiy uslublar va vositalar topilib borganidan dalolat beradi.

XIV-XVIII-asrlar davomida shashmaqomning uzil-kesil shakllanib, qaror topishi uchun zamin yaratildi.

Shashmaqom – Naqsh, Peshrav, Amal, Savt, Qavl, Kor kabi kuy va ashula turlarining va ularni yaratish uslublarini yanada rivojlantirish natijasida bastakor an'analarini mahsuli sifatida yuzaga keldi.

Shashmaqom taxminan XVIII-asrning I-yarimlarida uzil-kesil, o'zbek, tojik xalqlarining mustaqil musiqa janri sifatida yuzaga keldi. Shashmaqomda aytiladigan she'r matnlari orasida XVII-XVIII-asrlarda yashab ijod etgan Bedil, Mashrab, Sayido, Zebuniso, Nozim kabi shoirlarning g'azallaridan foydalanilgan.

Shashmaqom olti turli pardalarga moslab olingan va olti xil ladga asoslanga kuy va ashulalar yig'indisidan iborat. Shashmaqomga: Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh va Iroq kiradi. Olti maqomning har biri juda katta hajmdagi turkum asarlar bo'lib, ularning har-biri tarkibida taxminan 20 tadan 44 tagacha katta va kichik maqom yo'llari bor. Lekin, maqomlarning xalq orasida mashhur bo'lган (cholg'u, ashula va sunray) yo'llari bilan qo'shib hisoblanganda ular juda katta sonni tashkil etadi. Hozirgi nashr etilgan kitoblarda maqomlarning cholg'u va ashula qismlari 250 taga yaqin.

Shashmaqom xalq ijodiyoti bilan doim munosabatda bo'lган va u asosda uzlusiz boyib, rivojlanib kelganligini kuzatish mumkin.

XVI-asrda yashab ijod etgan Amir Ali Akbar Samarcandiy o'z davrining bir qancha san'atkorlariga murabbiylik qilgan. Masalan, Mavlono Darvesh, Mirhoqiy, Mavlono Pirmuhammad Kulol, Ustod Tulag Nayiy, Abdusattor Qonuniy, Ustod Arab Navo Qobo'ziy, Maxzumzoda Qatibiy, Maxzumzoda Xorazmiylar u kishining etuq shogirdlari bo'lган. Bundan tashqari cholg'uchilardan dutorchi Mahmud Ishoq o'g'li, Toshkentlik Amr Fatxiy, Samarcandlik Mavlono Boqiy zardo'z, Xojagiy Jafar Qonuniy, Xofiya tanish, Hofiz Turdiy Qonuniy, Mirzaarabiyo Qo'ng'iroq, Qobuzchi hofiz Poyanda, Qubizchi Shayx Ahmad va Mirmasti, Balxlik ustod Abdulloh naychi, tanburchi Xoja Navro'z, g'ijjakchi Uztod o'zbek kabilarning xizmatlari katta bo'ldi. Ushbu davrda ud, qonun, tanbur, chang, nay, rubob, qubuz, g'ijjak, ishrak, kungura, setor, ruhafzo, sunray, bolabon, nog'ora, doira kabi cholg'u sozlari keng qo'llanilgan.

XVI-XIX-asrlar I-yarmida mamlakatimiz hududida qo'g'irchoq o'yin va dorbozlik san'ati shuningdek, xalq og'zaki ijodi keng rivojlandi. Xalq musiqa folklorining rivojlanishiga "Sumalak sayli", "Darveshona", "Qizil gul sayli", "Lola sayli", "Behi guli sayli", "Boychechak gulardonii", "Bulbul qo'shig'i" kabi bayramlar va xalq sayllari keng imkoniyalar yaratdi.

Xullas, O'zbek musiqasini XVI-XIX-asrlarda barcha janrlar bo'yicha rivojlandi va keyingi davrdagi takomillashuvi uchun keng asosga ega bo'ldi.

### Tayanch tushunchalar:

1. Element (lot-unsur, dastlabki modda). Bu erda musiqiy tovushlarning eng kichik bo'laklari yarim va butun ton – nag'ma iborasi bilan berilib aynan yuqoridagi ma'noni anglatadi.

2. Nag'mai Qavliy –insonning tovushi.
3. Nag'maiy Feliy – Musiqa asboblaridan chiqadigan sun`iy ovoz.
4. Ton (yun-tonos – zo'r berish, kuchlanish ta'kidlash deganidir) bu yerda aniq balandlikka ega bo'lgan tovush ya'ni tovush beruvchi jismning har doim bir xil to'lqinlanishi tushuniladi.
5. Titraxord – yunoncha so'zdan olingan bo'lib, ketma-ket kelgan to'rt pog'ona tovush qatori oralig'i tushuniladi.
6. Pentaxord – yunoncha, ketma-ket kelgan beshta pog'ona tovush oralig'i tushuniladi.

#### **Nazorat savollari:**

- 1.Buxoro Miniyatyura maktabi qaysi davrda shakllangan?
- 2.Kavkabiyyda kuy va ashulular necha turga bo'lingan?
- 3.Buxoro Shashmaqomi XVI –asrgacha qanday nomlangan?
- 4.O'zbekistonda Mahalliy uslublar Qoraqalpog'istonni hisobga olgan holda nechta?
- 5.Buxoro Milliy uslubi qanday nomlanadi ? va O'zbekistonda nechta milliy uslublar mavjud ?.

#### **Adabiyotlar:**

- 1.Ibrohimov O. Maqom va makon. T., 1997.
2. Ibragimov O. "O'zbek musiqa ijodi". 1990 y.
- 3.Saidiy.S. O'zbek Musiqasi tarixi. Darslik.I-II qismlar./ "Musiqa nashriyoti.". Toshkent-2020.yil.
- 4.Toshmatov O', Turatov S. Ko'hna cholg'ular ijrochiligi./;- Toshkent-2006
- 5.To'rayev F. Buxoro Shashmaqomi tarixidan. "Musiqa nashriyoti". Toshkent.2011.

### **XALQ MUSIQASINING MAHALLIY USLUBI**

#### **Reja:**

1. Surxondaryo - Qashqadaryo mahalliy musiqa uslubi.
2. Buxoro-Samarqand mahalliy musiqa uslubi.
3. Buxoro "Oshi Sofiy" udumining o'rni va ahamiyati.
4. Xorazm mahalliy musiqa uslubi.
5. Farg'ona –Toshkent mahalliy musiqa uslubi.

#### **Xulosa**

#### **Adabiyotlar ro'yxati**

#### **Glossariy**

#### **Testlar**

### **SURXONDARYO - QASHQADARYO MAHALLIY MUSIQA USLUBI**

Surxondaryo-Qashqadaryo musiqa uslubi deganda, asrlar davomida shakllangan mehnat aytimlari, mavsumiy marosim qo'shiqlari, cho'ponlar ijodi, baxshilar san'ati va xalq ijodiga oid yana ko'plab aytim va cholg'u kuylari tashuniladi. Shuni ham aytish kerakki, musiqiy an'analarining kelib chiqish negizlari qadimiylar davrlarga taaluqli bo'lib, ular turli vaziyatlarda, xalqning turmush tarzi bilan bog'liq turfa ko'rinishlarda, xususan, mehnat jarayonlarida, oilaviy sharoitda o'tkaziladigan urf-odat va marosimlarda, ommaviy sayil va tantanalarda yuzaga keladi.

Surxondaryo -Qashqadaryo hududlarida yashovchi mahalliy aholi uzoq davrlardan buyon chorvadorlik va dehqonchilik mehnati bilan shug'ullanib keladi.

Shu bois ham bu yerlarda mehnat jarayonlari bilan bog'liq ayrim va cho'pon kuylari juda ko'plab ijod etilgan. Dastlab iste'dodli shaxslar tomonidan (yakka yoki jamoa ishtirokida) aytilib, so'ngra el orasida og'izdan-og'izga o'tib ommalashgan mehnat qo'shiqlari bizga qadar xalq xotirasida va mehnat amaliy tajribasi faoliyatida saqlanib kelindi. Bundan tashqari, mavsumiy marosim, ommaviy bayram va xalq sayillari ("Navro'z bayrami", "Lola sayli") qo'shiqlari hamda Qarsak-o'yin aytimlari va yana ko'plab ommaviy qo'shiq-kuylari o'tmishtdan bizning davrimizga meros bo'lib qoldi.Musiqiy merosning ulkan qismi bo'lgan dostonlarni baxshilar o'z xotiiłari va ijodlarida saqlab, ijro etib kelmoqdalar.

Shuningdek, Surxondaryo — Qashqadaryo an'anaviy cholg'ulari qatorida do'mbira, qo'biz, cho'pon nay, sibiziq, changqobuz va doiralar uzoq o'tmishdan buyon mahalliy aholi orasida ardoqlanib, ularda turfa kuylar ijro etib kelinmoqda.

Do'mbira cholg'usi Surxondaryo — Qashqadaryo mahalliy musiqasida keng joriy etilgan sozlardan bo'lib, ayniqsa, baxshi va cho'ponlar tomonidan sevib ijro etiladi.

## SURXONDARYO - QASHQADARYO DOSTONCHILIK AN'ANALARI

Doston adabiy-musiqiy asardir. Uning tarkibida nasriy va she'riy ohang qismlari bo'lib, ular mazmunan o'zaro mushtarak bo'ladi.

Surxondaryo — Qashqadaryo doston ijrochilarini shoir yoki baxshich deb yuritadilar. Baxshilar san'atida so'z ustasi, qo'shiq kuylovchisi va soz (do'mbira) cholg'uchisi birlashgan bo'ladi. Binobarin, baxshilar dostonlarning nasriy qismlarini mahorat bilan badiiy so'zlab hikoya etsalar, she'riy bo'laklarini qo'shiq shaklida maxsus ichki ("bo'g'iq") ovoz bilan kuylaydilar va bunda do'mbira sozidan jo'rnavoz sifatida foydalanadilar. Dostonlarni ijro etish mavsumi asosan kech kuzda, qishloq ahli dehqonchilik bilan bog'liq yig'im-terim ishlarini tugatgandan so'ng boshlanib, to'erta bahorga qadar davom etadi. Odatda, baxshilar mahalliy aholi tomonidan maxsus uyushtirilgan dostonchilik kechalarini o'tkazish uchun qishloq xonadonlaridan biriga taklif etilgan. Bu xonadonga mahalla ahli, qo'ni-qo'shnilar ham yig'ilishib, baxshining doston ijrolarini tinglashgan. Bunday kechalar bir necha kungacha davom etishi mumkin bo'lgan. Bundan tashqari, baxshilarni oilaviy bayram, to'y marosimlari va boshqa tantanalarni o'tkazishga ham taklif etganlar. Dostonlarni kuylash tartib-qoidalalariga ko'ra, avvalo, termalar aytildi. Terma biror bir doston ijrosidan oldin baxshi tomonidan kuylanadigan aytim bo'lib, bunda baxshi o'z bisotida bor dostonlarni qisqacha ta'riflaydi va shu tariqa tinglovchilarga qarata "Qay dostondin aytayin", deb murojaat etadi. Tinglovchilar tanlovi, xohish-ixtiyori ham sabab bo'lib, baxshi o'z bisotidan bir dostonni kuylashni boshlaydi. "Goro'g'li" yoki "Alpomish" dostonidan parcha tinglang.





## QAY DOSTONDIN AYTAYIN

*Baxshi termasi*

**Shoshmasdan**

The musical score consists of six staves of music in G clef, 2/4 time, and a key signature of one flat. The music is divided into measures by vertical bar lines. Measure groups are indicated by brackets above the staff, with the number '3' enclosed in each bracket. The lyrics are written below the staff, aligned with the notes. The first measure group contains three measures. The second measure group contains two measures. The third measure group contains three measures. The fourth measure group contains two measures. The fifth measure group contains three measures. The sixth measure group contains two measures. The seventh measure group contains three measures. The eighth measure group contains two measures. The ninth measure group contains three measures. The tenth measure group contains two measures. The eleventh measure group contains three measures. The twelfth measure group contains two measures. The thirteenth measure group contains three measures. The fourteenth measure group contains two measures. The fifteenth measure group contains three measures. The sixteenth measure group contains two measures. The lyrics are as follows:

Ter-ma-ni qo'-yay-lik, ay-tay- lik dos-ton, ter-ma-ni  
qo'-yay-lik, ay-tay-lik dos- ton, Qu-loq sol-sang  
yi-g'il-gan qa-dir-don, Cham-bil bel-di kat-ta da-g'i a-  
da- ti, O- lam- ga mash-hur-dir Go'ro'g'li sul-ton,  
o- lam- ga mash-hur-dir Go'r- o'g'- li sul- ton.  
Go'r o'g'- li- dan ay-tay- lik- mi bir su- xan?



E ...

?

- 1.“O‘zbekiston – onajon” qo‘srig‘ining bosh tayanch (tonika) pardasini aniqlang.
- 2.6/8 takt o‘lchoviga qanday dirijyorlik qilish lozimligini o‘ng qo‘l harakati bilan ko‘rsating.
- 3.Quyida keltirilgan “O‘zbekiston – onajon” qo‘srig‘ining kuy jumlasiga she‘r so‘zlarini moslab yozing.



- 4.Yuqoridagi nota misolida qaysi tovushlar orasida yarim ton va butun tonlar kelganligini aniqlang.
- 5.Surxondaryo – Qashqadaryo musiqa uslubi haqida gapiring.
- 6.Surxondaryo – Qashqadaryo an'anaviy musiqa cholg‘ularini aytib bering.
- 7.Baxshilar haqida nimalarni bilasiz?

### **BUXORO - SAMARQAND MAHALLIY MUSIQA USLUBI**

Buxoro - Samarcand musiqa uslubi deganda, Buxoro va Samarcand shaharlari va viloyatlari hududlarida qaror topgan musiqiy an'analar tushuniladi. Diyormizning qadimiy madaniyat maskanlari bo‘lmish bu vohalarda xalq qo‘sriqlari, ashulalari, cholg‘u kuylari, qarsak o‘yin — aytimlari hamda kasbiy musiqaga doir dostonchilik, sozanda san’ati va maqom namunalari keng o‘rin tutadi. Mazkur uslubning o‘ziga xos jihatlaridan biri — ikki tillik, ya’ni o‘zbek va tojik tillari an'anasing namoyon bo‘lishidir. Bu holat ushbu sarhadda yashab, faoliyat ko‘rsatgan ko‘pgina shoirlar, jumladan, Mujrim Obid, Abdullo Mulham Buxoriy, Fitrati Zardo‘zi Samarqandiy, Muznib Shavkatiy Kattako‘rg‘oniylar ijodida, shuningdek, ikki tilda ijro etib kelinayotgan o‘zbek va tojik xalqlarining yuksak mumtoz musiqa namunasi bo‘lgan Shashmaqom (Buxoro maqomlari) turkumida o‘z aksini topgan.

Ikki tillilik an'ansasi xalq musiqasida o‘zgacha shakkarda aks etadi. Chunonchi, ayrim xalq qo‘sriqlarini ayni vaqtning o‘zida ham o‘zbek, ham tojik tillarida kuylash mumkin. Odatda, qo‘sriqning bandlari O‘zbek tilida, naqarotlari esa tojik tilida, ba’zan aksincha ham bo‘ladi. Bundan tashqari, ayrim xalq qo‘sriqlarini O‘zbek yoki tojik tillarida kuylash imkonи mavjuddir. Shuningdek, faqat bir tilda- yo o‘zbek, yo tojik tilida kuylash uchun ijod etilgan xalq qo‘sriqlari ham uchraydi.

Xalq kundalik turmush tarzida, bayram-u to‘y-tomoshalarida musiqa muhim o‘rin tutib keladi. Jumladan, bahor mavsumi bilan bog‘liq "Guli surx" xalq marosimi tantanalarida qo‘sriqlar aytilgan, "Qayroq o‘yin", "Zang o‘yin" kabi buxorocha raqlarga tushilgan.

## SOZANDA SAN'ATI



Buxoro — Samarqand musiqa uslubida (sozandachilik) raqs san'ati ham shakllangan bo'lib, u ayollar ijodi bilan bog'liqdir. Sozanda — bu yakkaxon aytimchi bo'lib, u qo'lida qayroq yoki zang (qo'ng'iroqcha) ushlab raqsga tushadi hamda qo'shiq bandlarini kuylaydi. Ikki-uch ayoldan iborat doirachilar dastasi esa naqarotlar bilan jo'r bo'lib turadi. Demak, sozanda dastasi (ansamblida jami uch-to'rt ayol — yakkaxon sozanda, doirachi, naqarotchi qatnashadi.

An'anaga ko'ra, sozanda dastalari o'z san'atini faqat xotin-qizlar davrasida o'tkaziladigan yig'in, to'y va turli bayramlarda namoyish etadi. Ularning repertuari o'zbek va tojik tilida bo'lgan ko'p qismli o'yin-aytim turkumlaridan iborat bo'ladi. Shuningdek, aytim qo'shiqlarni ham o'zbek, ham tojik tillarida kuylash an'anasi mavjud. Odatda, sozanda o'z aytimini vazmin, lekin tantanavorlik ruhi bilan sug'orilgan "To'y muborak" qo'shig'i bilan boshlaydi. So'ngra asta jadallahish boruvchi raqs — o'yin aytimlari birin-ketin, to'xtovsiz ijro etila boshlanadi.

Doirachilar ham naqarotlar, ham usullar bilan jo'r bo'lib turishadi, ba'zan esa turkum davomida ikki xil tuzilishga ega ritmlarni o'zaro mutanosib ijro etadilar.

**BO'YI-BO'YI**

*Xalq qo'shig'i*

O'rtacha

Sheet music for BO'YI-BO'YI in G major, 6/8 time. The lyrics are in English and Kazakh. The English lyrics are:

Bo'- yi, bo'- yi, bo'- yi,  
ab- ro'- yash du-  
me mo- re. Ni- go- ri no- za- ni- ni ah-  
li dar- dam (ey), Ab - ro'- yash du-  
mi mo- re. Bo'- yi, bo'- yi, bo'- yi,  
ab- ro'- yash du- mi mo- re, Sa-ram- ro gar  
bur- ri bo xan- ja- ri tez (ey),



**BUXOROYI SHARIF UDUMLARIDAN “OSHI SOFIY”, “PADAR OSHI”, “NAHOR OSHI”, “PAYG’AMBAR OSHI”, “OSHI JUMAGI”, “OSHI BIBI SESHLANBE” SHOXONA NOMLANISHINI OLGAN BIR TAOMINING TO’YONA VA DINIY QO’LLANISHI**

**Reja:**

1. Buxoro “Oshi Sofiy” udumining o’rni va ahamiyati.
2. Buxoro “Oshi Sofiy” udumining to’yona xalqchil mahalliy ko’rinishi.
3. Buxoro “Oshi Sofiy” udumining diniy va aza ko’rinishi.



San’atshunos olim S.Saidiyning ma’lumotlarida «Buxoroyi Sharifning 2300 ming yillik tarixiga ega va qadimda askarlarlarning bahodirona va bayramona taomi, (oshi) bilan mashhur bo’lib kelgan va asrlar davomida musulmon dunyosi kirib kelganidan boshlab tarkiban quvvatlanish jihatdan rivojlanib kelgan “Oshi Sofiy” parhez taomli osh bo`lsa (mis qozonga pishiriladi), Buxoroning Qobiliy deb aytiladigan oshi esa beqiyos vitaminlarga boyligi va to’ymligi bilan, butun jahonni hayratga solmoqda. Tarixan qiyoslaganda Aleksandr Makedonskiy Buxoroni ishg’ol qilingandan so’ng, “Mening askarlarimni to’ydiradigan va ularni ko’p vaqtida och qolmaslikka olib keladigan, zararsiz va foydali taom masalasini qo’yganda, Buxoro aholisi katta qozonda birinchni (Guruch) yuvib, go’shtlar esa boshqa qozonlarda qaynatib olingach, unga turli oshbob massaliqlar qo’shilgan yog’li oshni damlab tarqatishadi. Bu taom Aleksadrga ma’qul bo’lganidan so’ng, askarlariga har kuni bir marotaba osh pishirilishini ma’qul ko’radi. Ushbu ta’midot ikki yil davom etgankim, hatto jangda yaralangan yo ko’p qon yo’qotgan askarlar sog’ayib ketgan va yana jangga kirishgan”ligini bayon etadi. Yana ushbu an’ana bugungi kungacha katta jamoa, to’yona va bayramlarda ko’p miqdorli mehmonlarga tortiq etiladi. Osh qadimda “Askarona”, “Toji-ta’to’l” yo “Sajdai ruhon” va qadimgi Buxoroning janubiy qismida Pomirning (Badaxshon)ida, aniqrog’i “Isro’shan” va “Xorug”da yer yuzining (koinotimizning) hamma payg’ambarlarini nazarga olgan holda **“Dandoni Payg’ambaron”** deb nomlanishi jahonda mashhur va ma’qul bo’lganligi bilan ham ahamiyatlidir. Ammo ushbu oshning massalig’i o’zgacha bo’lib, yaxudiyarlarning xalta oshiga yaqin. Ushbu Musulmon dunyosiga kelib “Buxoroyi Sharif”da jahonning eng soflangan, gigiyenik jihatdan har bir masallig’ida sinchkovlik bilan ehtiyyod-korona ahamiyat berilgan holda tayyorlanadigan va keng tarqagan “bir taom” bu “oshi sofiy”, “padar oshi”, “nahor oshi”, “payg’ambar oshi”, “oshi jumagi”, “oshi bibi seshanbe” Shoxona nomlanishini olgan bir

taomning ham qadimda va ham bugungi kunda 3 xil dinlardan evolyutsion asnoda o'tib, rivojlanib kelgan to'yna va diniy qo'llanishidir. Ushbu taomning tayyorlanish qoidalari murakkab va o'zga xos siru- asrорлари va masalliqlaridan iboratdir. Ushbu taomning parhez (diyeta) olgan yoki og'ir jarohatlangan bemorlar iste'mol qilsalar ham shifo topishlari va turli vitaminlarni a'zolariga qabul bo'lganligini sezadilar.

Buxoroda to'ydan oldin "Oshi sofi", "Padar oshi", "Payg'ambar oshi", diniy a'zalarda esa "Oshi Jumagi", "Oshi bibi seshanbe" va "Sunnati" deb tilga olinadi.

Oshi sofiga diqqatimizni jalb etsak, Sohibqiron davrida ham Buxoro oshpazlari tomonidan Sohibqironga va askarlariga katta mis qozonlarda pishirib berilgan va Amir Temurga ma'qul bo'lganligiga sabab, ham to'yimli ochlikdan saqlanishi, tom ma'noda Sohibqiron askarlarining janglarda ko'p qon yo'qotganlar, asab faoliyati yo ko'z asabi bilan chalinganlarga ham as qotganligidadir. Bundan tashqari va "Qobuli" deb nomlangan osh taomi ham to'yna va bayramona hisoblanib, ushbu Markaziy Osiyo va qo'shni davlatlarida, jumladan; O'zbekiston va Tojikiston, Turkmaniston va Sharqdan Afg'oniston, Ozarbaydjon, Eron , Arabiston va boshqa davlatlarni kamrab olganligi, musulmon dunyosida ma'naviy bayramlarda tortiq etishi va odatiy tusiga aylanganligi bilan ammo u "Qobuli" deb nomlanishida hamma taraflama farqlanib boradi. Buxoroda tayyorlangan "Oshi Qobiliy", boshqa hududlardan ham aynan, o'zga xosligi bilan ajaralib turadi va o'xshamasdir. Buxoro tarixida aholi va mehmonlarga tongda sofi osh taomi bilan kutib olishadi va katta davrada **maqomchilar ansamblı** tarovati va qur'on sur'alari o'qiladi. Nahorgi osh goh paytlari namoshom ham o'tkaziladi va nog'orachilar ostida tantanavorlik bilan davra ochiladi va mehmonlarni kutib olishadi. Nog'orachilar ansamblida esa bir necha 2-6 gacha karnaychilar 1-2 tagacha Qo'shnaychi va Surnaychilar, do'l-baraban, baraban, qo'sh-nog'orachi va doirachilardan iboratdir.Ikkinchi turida esa Diniy urf –odatida a'zada "Oshi sofi" tarqatiladi va ushbuga mullo yo Shayx, diniy-qozilar yo Hoji-kalonlarning duolari o'qiladi va oshi "**Jumagi**" deb nomlanadigan sofi oshni ya`ni a`zadan 3 kun otgandan so`ng vafot etgan kishini eslash ushun to`planishadi va taomni dasturxoga tortiq etadilar.



# Oshi sofii Buxoro

Naimiy so'zi  
Shodmon Sulaymon tarjimasi  
To'xtasin Rajabov musiqasi

**♩=105**

Naimiy so'zi  
Shodmon Sulaymon tarjimasi  
To'xtasin Rajabov musiqasi

A-na osh, a-na osh, a-na osh, so-fi osh.

Naqarot

A-na osh, a-na osh, so-fi osh. so-fi osh. O-shi so - fi - yi Bu-xo - ro mis - li bir

gav - har e-rur, Ham a-ziz meh-mon u-chun ming tuh - fa - dan af - zal e-rur. Mis qo-zon

uz - ra ni-goh sol xud-di op - poq mar va-rid, Tan-ga quv - vat, dil - ga mal - ham, po - ki - za

Naqarot

dil - bar e-rur. O-shi so - fi - yi Bu-xo - ro mis-li bir gav - har e-rur, Ham a-ziz meh-mon u-chun

ming tuh-fa-dan af - zal e-rur. Osh - paz us - to Sa-lim - ga yo - g'i - lur ol - qish, du - o, Meh - mon

qad - ri - ni bil - gay, ko'ng - li pok, zar - gar e-rur. Go'sh-tu yog` bir - la gu-ruch - ni tan-la-gay a' - lo - si - dan,

Naqarot

Mur - chu garm - do - ri, ma - yiz sol - gay yana za - far e - rur. O-shi so - fi - yi Bu-xo - ro mis - li bir

gav - har e-rur, Ham a-ziz meh-mon u-chun ming tuh-fa-dan af - zal e-rur. He - lu - dol - chin - lar qo` shib,

Naqarot

qand - choy tu - tar Mir - zo Hu - sen, Jon - ga ro - hat, dard - ga dar - mon, mis - li hal - voy - tar e - rur. O-shi so -

fi - yi Bu - xo - ro mis - li bir gav - har e - rur, Ham a-ziz meh-mon u-chun ming tuh-fa-dan af - zal e - rur.

A-na osh, a-na osh, a-na osh, so - fi osh. A-na osh, a-na osh, so - fi osh. so - fi osh.

Gush-tu eg bир - ла гу-руч - ни тан-ла-гай аль - ло-си-дан, Мур - чу гарм -

до - ри, ма - йиз сол - гай, я - на забь - фар э - рур. О-ши со - фи - ий Бу-хо ро мис-ли бир

гав - хар э- рур, Хам а-зиз мех - мон у-чун минг тух-фа-дан аф - зал э- рур. Хе-лу дол -

чин - лар ку- шиб, канд-чой ту-тар Мир - зо Ху- сен, Жон-га ро - хат, дард-га дар - мон, мис-ли хал -

вой - тар э - рур. О-ши со - фи - ий Бу-хо ро мис-ли бир гав - хар э- рур, Хам а-зиз

мех - мон у-чун минг тух-фа-дан аф - зал э- рур. А-на ош, а - на ош, а - на ош,

со - фи - ий ош, А - на ош, а - на ош, со - фи - ий ош, со - фи - ий ош. Бил - санг ош -

сиз ут - ма - гай кур - кам Бу - хо - ро туй - ла - ри, Тур - фа ноз - не - мат - лар ич - ра ул у - зи

сар - вар э - рур. Бул ша - риф юрт со - фи о - ши уз - га жой - да урф э - мас, Эй На - и

мий, бо - и - си - сер - мех - на - ту аф - сар э - рур. О - ши со - фи - ий Бу - хо - ро мис - ли бир

гав - хар э - рур, Хам а - зиз мех - мон у - чун минг тух - фа - дан аф - зал э - рур. Хам а - зиз

мех - мон у - чун минг тух - фа - дан аф - зал э - рур.



Ана ош, ана ош, ана ош, софийи ош,  
Ана ош, ана ош, софийи ош, софийи ош.  
Оши софийи Бухоро мисли бир гавхар эрур,  
Хам азиз меҳмон учун минг тухфадан афзал эрур.  
Мис козон узра нигоҳ сол худди опшок марварид,  
Танга кувват, дилга малхам покиза дилбар эрур.

Ошпаз Усто Салимга егилур олкиш, дуо,  
Меҳмон кадрини билгай кунгли пок заргар эрур.  
Гушту ег бирла гуручни ташлагай аълосидан,  
Мурчу гармдори, майиз солгай яна заъфар эрур.

Оши софийи Бухоро мисли бир гавхар эрур,  
Хам азиз меҳмон учун минг тухфадан афзал эрур.  
Хелу долчиилар кушиб кандчой тутар Мирзо Ҳусен,  
Жонга роҳат дардга дармон мисли ҳалвойтар эрур.

Ана ош, ана ош, ана ош, софийи ош,  
Ана ош, ана ош, софийи ош, софийи ош.  
Оши софийи Бухоро мисли бир гавхар эрур,  
Хам азиз меҳмон учун минг тухфадан афзал эрур.

Билсанг ошсиз утмагай куркам Бухоро туйлари,  
Турфа ноз - неъматлар ичра ул узи сарвар эрур.  
Бул шариф юрт софи оши узга жойда урф эмас,  
Эй Наимий боинси сермехнату, афсан эрур.  
Оши софийи Бухоро мисли бир гавхар эрур,  
Хам азиз меҳмон учун минг тухфадан афзал эрур.

## XORAZM MAHALLIY MUSIQA USLUBI

Xorazm musiqa uslubi—mazkur vohadagi xalq qo'shiq va laparlari, turli marosim, tomosha va o'yin-raqs kuylari hamda dostonchilik, ashulachilik va maqom san'ati kabi kasbiy musiqa an'analaridan tashkil topgan. O'zbek musiqasining tarkibiy qismi bo'lgan Xorazm musiqasi, ayni vaqtda, o'zgacha tarovatga ega bo'lib, uning ma'lum darajada Turkman va Ozarbayjon musiqasiga yaqin jihatlari ham bordir.

Xorazm musiqa uslubining o'ziga xosligi uning an'anaviy cholg'ularida ham namoyon bo'ladi. Masalan, bulamon damli- puflama cholg'usi bu uslubda keng qo'llaniladi. U boshqa mahalliy uslublar uchun xos emas. Bulamon- tut daraxtidan ishlangan kichik surnay shaklidagi cholg'u bo'lib, unda yakka holda va ansambl tarkibida ijro etish mumkin. Xorazmda Kavkazning mashhur tor cholg'usi ham keng tarqalgan. XIX asr oxiridan boshlab esa, "garmon" cholg'usi ham qo'llana boshlangan. Uni "soz" deb atashadi. Bularidan tashqari, Xorazm musiqa amaliyotida deyarli barcha O'zbek xalq cholg'ulari (dutor, tanbur, g'ijjak, nay, qo'shnay va boshqalar) qo'llangani holda do'mbira sozi kam uchraydi.

Xorazm musiqa uslubida raqs va umuman, o'yin harakatlari bilan bog'liq cholg'u kuylari salmoqli o'rinni tutadi. Raqs-o'yin kuylarini bir necha turlarga bo'lish mumkin.

1. Xalq orasida ommalashgan raqlar. Ularning asoslarini "Lazgi", "Ganji Qorabog'", "Ufori" kabi kuylar tashkil etadi.

2. Dorbozlarning o'yin-kuylari. Ularni "Yelpazalandi", "Ufori Yelpazalandi" kabi kuylar tashkil etadi.

3. Qiziqchi va masxarabozlarning o'yin-kuylari. Bu kuylarni "Chog'olloq", "Az-az", "Az-azning tezi", "Xorazmcha", "Yuz bir", "Ot eroni", "Surnay yo'li" kabi namunalar tashkil etadi.

Xorazm raqs va o'yin kuylari ommaviy bayram, sayillarda ijro etiladi. O'tmishtida esa Xiva xonligida o'tkazilgan xalq sayli kunlari "Xatarli o'yin" nomli turkum mazmunida ham namoyish etilgan. "Xatarli o'yin"da parrandalar va uy hayvonlarining xatti-harakatlari (masalan, "Ot o'yin", "Tustovuq o'yin", "Kabtar" va b.) hamda "Olma terish", "Kampir", "Ko'knori" kabi maishiy sahnalar musiqa jo'rligida komik harakatlar vositasida aqs ettirilgan.

**XORAZM LAZGISI**

*Xalq kuyi*

**Quvnoq**

## XORAZM DOSTONCHILIK AN'ANALARI

Xorazm dostonchilik maktabi o'z an'analariga ega bo'lib, u boshqa mahalliy dostonchilik maktablaridan (masalan, Surxondaryo- Qashqadaryo dostonchilik an'analaridan) farqli jihatlarga ega. Bu farqlar, asosan, quyidagilardan iborat:

a) Xorazm dostonlari (ichki) "bo'g'iq ovoz"da emas, balki "ochiq ovoz" uslubida kuychan xususiyatlar bilan aytildi.

b) Ko'pgina mahalliy dostonchilik maktablarida do'mbira sozi jo'rnavoz sifatida qo'llansa, Xorazm dostonchiligida dutordan foydalaniladi. Shuningdek, doston aytimida ijrochilar ansambl qatnashadi. Bunda ustoz-baxshi dutor, tor yoki rubobda, qolganlari esa g'ijjak, bulamon va ba'zan doira sozlarida jo'r bo'lib turishadi.

d) Xorazm dostonlari repertuarini, asosan, "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Go'ro'g'li", "Kuntug'mish", "Bozirgon", "Oshiq Oydin" kabi dostonlar tashkil etadi. Biroq Xorazm dostonchiligida qahramonlik dostoniga mansub "Alpomish" namunasi uchramaydi.

Xorazm dostonchiligining yirik vakillari qatorida Ahmad baxshi, Bola baxshi, Ro'zimbek Murodov, Qalandar baxshilar nomini aytish kerak.

Xorazm musiqa uslubi doirasida dostonlarni garmonda (sozda) ijro etish an'anasi ham bo'lib, bunda dostonlar bir butun yaxlit shaklda emas, balki undan olingen parchalar va termalar aytildi. Xorazmda bu turdag'i ijrochilarini sozchi, ya'ni Qurbon sozchi, Qodir sozchi deb ataydilar. Shuningdek, san'atkor ayollar — xalfalar tomonidan ham dostonlarning ayrim qo'shiqnomalari shu tarzda aytildi.

### Farg'ona — Toshkent musiqa uslubidan Xorazm musiqa ijro uslubini farqlash.

Farg'ona — Toshkent musiqa amaliyotida deyarli barcha xalq cholg'ulari, jumladan, dutor, tanbur, rubob, chang, sato, g'ijjak, nay, qo'shnay, surnay, karnay, doira, nog'ora va boshqa sozlarni ko'rish mumkin. Bu sozlar vaziyatga qarab, yakka yoki ansambl shaklida namoyon bo'ladi. Xusan, ommaviy bayram, xalq tantanalari va to'y marosimlarida surnay, karnay, nog'ora va doiralardan iborat asnambl sadolari yangrasa, uy-xona sharoitlarida esa sadolanishi nisbatan yumshoq cholg'ular — dutor, tanbur, g'ijjak, qo'shnay va boshqalar qo'llaniladi. Ashula aytuvchi hofizlar ko'pincha dutor va tanbur jo'rnavozligini qo'llaydilar.

Xorazm musiqa uslubida ham shu kabi cholg'ular bilan birga yana bulamon, garmon va kavkaz tori keng qo'llaniladi. Jumladan, xalfalarning turli aytimlariga garmon cholg'usi jo'rnavoz sifatida qo'llaniladi. Tor cholg'usi esa maqom, suvora va doston ijrochiligida jo'rnavoz cholg'ular orasida yetakchi o'rinda turadi. Shu bilan birga bulamon, garmon va tor sozlar turli ansambllar tarkibida ham qo'llaniladi **Go'ro'g'li" dostonidan "Ovozing seni" aytimini tinglang.**

## XORAZM ASHULACHILIK SAN'ATI

Xorazmda ashulachilik san'ati ravnaq topgan bo'lib, ashula-chilarni xalq orasida ko'proq "go'yanda" deb ataydilar. Ashula janrining muhim jihatlari shundan iboratki, u, asosan, mumtoz she'riyat namunalariga asoslanadi. Kuy-ohanglari esa qo'shiq va laparlariga nisbatan keng rivojlangan bo'lib, ovoz qo'lami (diapazoni) bir oqtava va undan ortiq bo'ladi.

Xorazmda "Suvora" nomi bilan ma'lum va mashhur ashula turkumlari mayjud. "Suvora" so'zi fors-tojikcha bo'lib, otlik ma'nosini bildiradi. Ustozlar "Suvora" ashula yo'llarini "ot tuyog'idan hosil bo'ladigan turli ritmik tuzilmadagi usullar va ularga asoslangan kuylarni ifodalaydi, deb ta'kidlaydilar.

Xorazm "Suvora"lari Navoiy, Mashrab, Nodira, Ogahiy, Munis, Avaz O'tar, Bedil kabi shoirlarning she'rlari asosida aytildi. Xorazmda "Suvora" ijrochilarining didalishma yoki diydalashma deb yuritiladigan o'ziga xos musobaqalari o't- kazib turiladi. Bunday musobaqada qatnashayotgan bir necha ashulachining har biri dastlabki (birinchi) ashulachi taklif etgan ashula kuyi asosiga yangi she'rlar bog'lab, navbatma-navbat kuylaydilar. Bu ijodiy vazifani yuqori mahorat bilan bajargan ashulachi didalishma musobaqasida g'olib bo'lib chiqadi.

## OVOZING SENI

### Shoshmasdan

Xalq o'- zi yet- qiz- gan  
a- ziz meh-mo - nim, bo- la- mao'x-  
shay- di o - vo- zing se- ni. Tez xa-ba-rin  
ber- gil chiq-mas- dan jo- nim,  
o'g'- li- mao'x- shay-di o- vo- zing se- ni,  
bo- la- ma o'x- shay- di no- li-shing se-

### Madrahim Sheroyi



"Suvora"larning mashhur ijrochilari qatorida Hojixon Boltayev, Madrahim Yoqubov (Sheroyi), Komiljon Otaniyozov, Otajon Xudoy Shukurov kabi ijrochilarining nomlari alohida hurmat bilan tilga olinadi. Xorazmda "Suvora" ashula yo'llarining ikki turkumi mashhur bo'lib, ular quyidagicha nomlar bilan ataladi:

1. O'n ikki Suvoradan iborat Savti Suvoralar turkumi. Bu turkumdag'i har bir "Suvora" rim raqami bilan belgilanadi. Masalan, Savti Suvora I, Savti Suvora II, Savti Suvora III, Savti Suvora IV, Savti Suvora V va hoqazo. Mazkur turkumdag'i barcha Suvoralar 6/8 o'lchov vaznidagi doira usullari bilan ijro etiladi.

2. Suvoralarning yana bir turkumini yirik shaklli Suvoralar majmuasi tashkil etadi. Bu Suvoralar turkumdag'i har bir Suvoralarning maxsus nomi bo'lib, ular Suvora, Chapandozi Suvora, Yakparda Suvora, Xushparda Suvora, Kajhang Suvora kabi ataladi. Bu

Suvoralarda 6/8, 3/4, 3/8 ritm o'lchovlari va ularga muvofiq doira usullari qo'llaniladi. **"Savti Suvora" I- ni tinglang.**

1 "Qalabandi" kuyini notalar asosida (vazmin sur'atda) •• kuylang.

## FARG'ONA-TOSHKENT MAHALLIY MUSIQA USLUBI

Farg'ona — Toshkent musiqa uslubi — Farg'ona vodiysi, Toshkent shahri va viloyati hududlarida qaror topgan Musiqiy an'analar majmuidir. Bunda xalq musiqasiga oid kuy, terma, lapar, yalla, qo'shiq, ashula kabi aytim janrlari, shuningdek, dostonchilik, ashulachilik, maqomchilik kabi kasbiy musiqa an'analari o'z aksini topgan.

Farg'ona — Toshkent musiqa uslubida bolalar folklori, xotin- qizlarning qo'shiqchilik ijodi, yallachilik, ashulachilik va cholg'u kuylari munosib o'r'in tutadi. Jumladan, mazkur uslubdagi bolalar folklori bo'lgan "Boychechak", "Yomg'ir yog'aloq", "Laylak keldi", "Oftob chiqdi", "Chuchvara qaynaydi", "Chittigul" kabi qo'shiqlar nafaqat shu sarhadda, balki butun diyorimiz bo'ylab mashhurdir.

Xotin-qizlar davrasida lapar-u yallalar, to'y marosimi qo'shiqlari bo'lgan "Yor-yor", "Kelinsalom" va boshqa qo'shiq namunalari sevib aytildi.

Farg'ona - Toshkent musiqa uslubida "katta ashula" deb nom olgan ashula yo'li ham bo'lib, u, odatda, turli ommaviy yig'in va tantanalarda, bayram marosimlari, gap-gashtaklarda hamda an'anaviy choyxona majlislarida hofizlar tomonidan ijro etilgan.

Farg'ona — Toshkent cholg'u musiqaсида raqs kuylari ham mashhurdir. Bu o'rinda, jumladan, "Dilxiroj", "Andijon polkasi", "Farg'onacha rez", "Tanavor", "Katta o'yin" kabi raqs kuylari ni aytish mumkin.

## XALQ ASHULALARI

Farg'ona — Toshkent musiqa uslubida xalq ashulalari muhim o'rin tutadi. Bu ashulalar terma, lapar, qo'shiq singari aytimlarga nisbatan ovoz doirasining kengligi hamda kuychan, so'lim ohanglari bilan ajralib turadi. Xalq ashulalari barmoq vaznida bo'lgan xalq she'rlari yoki aruz vaznidagi mumtoz she'riyat asosida aytildi.

"Tanavor", "Ey nozanin", "Oydek to'libdur", "Farzona", "Ul parivash" singari xalq ashulalari nafaqat hofiz-ashulachilar, balki ziyorilar, hunarmandlar, kosiblar va boshqa kasb egalari tomonidan ham ijro etib kelinadi. Shuningdek, bu turdag'i ashulalar xotin-qizlar tomonidan ham "ichkarida" kuylangan. Jumladan, "Chaman ichra", "Tanavor"ning "Qora sochim" kabi ashula yo'llari dutor jo'rligida xotin-qizlar tomonidan sevib ijro etiladi.

Ashulalar, an'anaga ko'ra, turli yig'in va majlislarda, to'y marosimlari va boshqa xalq tantanalarida ijro etilgan. Choyxonalarda esa ashulachilarning ijodiy musobaqlari ham o'tkazib turilgan.

Taniqli ashula ijrochilari qatorida Mamadbobo Sattorov, Boltaboy Rajabov, Erkaqori Karimov, Ortiqxo'ja Imomxo'jayev, Rasulqori Mamadaliyev, Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov, Mukarrama Azizova, Zaynab Polvonova, Murodjon Ahmedov, Tavaqqal Qodirov, Fattohxon Mamadaliyev, Orifxon Hotamov kabi mashhur san'atkorlar nomini hurmat bilan tilga olamiz.



### KATTA ASHULA VA YALLACHILIK SAN'ATI

Katta ashula Farg'ona - Toshkent musiqa uslubining o'ziga xos xusu- siyatlaridan biridir. Chunki, kasbiy musiqaga oid bu ashula janri boshqa mahalliy uslublarda uchramaydi.

#### Jo'raxon Sultonov



Katta ashula-yirik hajmli va kuy - ohanglari keng nafasga mo'ljallangan ashula bo'lib, u yakka hofiz-ashulachi yoki 2-4 hamnafas hofizlar tomonidan aytildi. Bunda cholg'ular jo'rnavoz qo'llanilmaydi Katta ashulalarning nazmiy asoslarini aruz vaznida bo'lgan diniy-falsafiy, ishqiy-muhabbat, pand-nasihat kabi mavzulardagi she'reiyat (Lutfiy, Sakkokiy, Navoiy, Muqimi, Furqat, Miskin, Habibiy va boshqalarning) namunalari tashkil etadi. Bu turdag'i ashulalar rivojlangan kuylarga ega bo'lib, odatda, erkin ritm - o'lchov asosida kuylanadi. Mazkur janrning "patnusaki ashula", "likobi ashula" singari boshqacha nomlanishlari ham ma'lumki, zero hofizlar ijro paytida qo'llarida patnis yoki likop (tarelka) ushlab turadilar. Boltaboy hofiz, Hamroqulqori, Mamadbobo Sattorov, Akbarqori Haydarov, Erkakori Karimov, Ma'murjon Uzoqov kabi hofizlar kata shulalarning mahoratli ijrochlari edilar. Bu san'atkorlar kuylagan "Ko'p erdi", "Bir kelsun", "Ey dilbari jononim", "Adashganman", "Do'star", "Yovvoyi Chorgoh" singari katta ashulalar keng tinglovchilar ommasiga yaxshi ma'lumdir.

Keyingi yillar davomida ayrim katta ashulalarni cholg'ular jo'rligida ijro etish amaliyoti ham qo'llana boshlandi. Bunga "Mehnat ahli", "Ey dilbarijononim", "O'zbekiston<sup>5</sup>" kabi katta ashulalarni misol keltirish mumkin. Shuningdek, katta ashulalarni alohida cholg'uda, masalan, nayda ijro etish an'anasi ham yuzaga keldi. Bu o'rinda Ismoil naychi, Abduqodir naychi va Saidjon Kalonovlardek ustoz san'atkorlarimizning xizmatlari katta.

Farg'ona — Toshkent musiqa uslubida xotin-qizlar ijodi unumli bo'lib, ular orasida, jumladan, tarafma-taraf bo'lib lapar aytishlar, turli qo'shiqlarni kuylash, to'y marosimi aytimlari bo'lgan yor-yor, kelinsalom va o'lanylarni kuylash ommaviy tus olgan. Bular ichida, Ayniqsa, yallalar sevib ijro etiladi.

Yalla-bu band-naqarot shakliga ega aytim bo'lib, u raqsga tushib kuylanadi. Bunda yakkaxon yallachi doira jo'rligida raqsga tushib bandlarni kuylasa, naqarotlarni davrada hozir bo'lgan ko'pchilik qo'shilib aytadi. Bundan tashqari, Buxoro — Samarcand sozandalari va Xorazm xalfalari san'atiga yaqin bo'lgan kasbiy yallachilar ham bo'lib, ular yakka holda yoki ansambl tarzida namoyon bo'ladi. Yakka holdagi yallachi, odatda, o'z aytimlariga dutor yoki doira sozida jo'r bo'ladi. Yallachilar ansambl esa 2-3 ayoldan iborat bo'lib, faqat doira jo'rligida kuylaydilar. Xotin-qizlar davrasida hozir bo'lgan yallachilarning repertuari asosan qo'shiq, lapar, yalla va to'y marosimi aytimlaridan tuzilgan bo'ladi. Katta ashula janri Farg'ona — Toshkent maqom yo'llariga, ayniqsa ashula yo'llarining avjlariga sezilari ta'sir ko'rsatgan. Qolaversa, bunday ta'sirlanish jarayonida har ikkala janr (katta ashula-maqom) xususiyatlarini o'zida mujassam etgan yovvoyi maqom janri ham yuzaga kelgan edi. Bunda Farg'ona- Toshkent maqom ashula namunalarini jo'rnavoz cholg'ularsiz, katta ashulaga monand erkin uslubda aytishi ko'zda tutiladi. Binobarin, "yovvoyi maqom" iborasi "usulsiz maqom" ma'nosida ham ishlatiladi. Shunga ko'ra, masalan, "Ushshoq" ashula yo'lining usulsiz (katta ashula uslubida) ijro etilishi "Yovvoyi Ushshoq", shuningdek "Chorgoh" yo'li — "Yovvoyi Chorgoh" kabi ataladi.

Ba'zan "Yovvoyi" so'zi o'rnida "Patnusaki maqom" tushunchasi ham ishlatiladi, ya'ni "Patnusaki Chorgoh", "Patnusaki Bayot" singari. Bu borada "patnis" so'zining qo'llanilishi ham katta ashula uslubidagi ijroga ishoradir. "Yovvoyi maqom"larda Lutfiy, Sakkokiy, Navoiy, Muqimiy, Furqat, Miskin, Habibiy va boshqa mumtoz shoirlarning aruz vaznli she'riyat namunalari qo'llaniladi.

### Tayanch tushunchalar:

- 1.Farg'ona-Toshkent uslublaridan katta ashula likopcha tarovati bilan hamohanglik usulida aytildigan ashula turi.
2. Farg'ona-Toshkent uslublari boshqa voha bilan ancha farqlanadi.
3. Farg'ona-Toshkent musiqa uslublari 2200 yillik tarixiga ega.
4. Katta ashula – hajman yirik, kuy-ohanglari keng nafasga mo'ljallangan ashula bo'lib, yakka hofiz (xonanda) yoki 2-4 hamnafas hofizlar tomonidan aytildi.<sup>1</sup>

### Nazorat savollari;

- 1.Katta Ashula deganda nimani tushunasiz?
2. Farg'ona –Toshkent uslublarini sharhlab bering?
- 3.Farg'ona –Toshkent polka raqslari necha o'lchovga teng?
4. Farg'ona –Toshkent uslubi boshqa vohalardan nimalarda farqlanadi.?

### Adabiyotlar:

- 1.Ibragimov O. "O'zbek musiqa ijodi". 1990 y.
- 2.Toshmatov O', Turatov S. Ko'hna cholg'ular ijrochiligi./;- Toshkent-2006
- 3.Saidiy S.B. Markaziy Osiyo madaniyatida urma cholg'ular (o'zbek va tojik an'analari misolida).Toshkent-2008 yil (SITI-Arxiv).
- 4.O'zbek xalq muziqasi. 1-8 jildlar. Yu.Rajabiy, M.Yusupov yozuvlari. T., 1955-1961.

<sup>1</sup> Ibrohimov Oqilxon Akbarovich, Xudoyev G'ani Muhammadovich. Musiqa tarixi. Toshkent - "Barkamol fayz media" – 2018. 219-222 betlarga qarang.

## **II BOB. MARKAZIY OSIYO XALQLARI MAHALLIY USLUBLARI VA TURKUMLARI: QO'SHIQ JANRLARI; YALLA, ASHULA, KATTA ASHULA, LAPAR VA XALQ EPOSI-DOSTONLAR TASNIFI**

**Reja:**

- 1. O'zbek xalq musiqa ijodi**
- 2. O'zbek xalq folklorini o'rganish va uni yozib olish**
- 3.O'zbek milliy qo'shiqchilik san'ati taraqqiyotining uch yo'nalishi.**
- 4. Xalq qo'shiqchiligi janrlari.**
- 5.Mavsumiy qo'shiqlar**

### **1. O'zbek xalq musiqa ijodi**

O'zbek xalqining musiqa merosi juda boy va qadimiy tarixga ega. Uning ajoyib an'analari hozirgi kunda ham o'z badiiy va estetik qiymatini saqlab kelmoqda. Musiqa merosidan, xalq kuy va qo'shiqlaridan ilhom olmagan zamonaviy musiqaning biron-bir sohasini topish qiyin. Ommaviy estrada qo'shiqlaridan tortib, yirik xor, simfonik musiqa, opera, balet janrlarining rivojlanish jarayonini musiqa merosidan ajralgan holda tasavvur etib bo'lmaydi. Ma'lumki, an'anaviy O'zbek musiqasi asrlar davomida ikki asosiy yo'nalishda: folklor va professional yo'nalishda rivojlanib kelgan. Folklor musiqasi, Mustaqil yo'nalish sifatida: "xalq musiqasi", "xalq — professional musiqasi", "mumtoz musiqa" va boshqa turli nomlar bilan atalib kelingan. So'nggi vaqtarda esa ko'proq "og'zaki an'anadagi professional musiqa" deb yuritilmoxda.Og'zaki an'anadagi professional musiqa deganda, eng avvalo, ushbu kasb namoyandalari, mohir sozanda, xonanda va bastakorlarniig ijodiy mahsuloti bo'l mish maqomlar hamda shunga o'xshash yopiq shakldagi murakkab kuy va ashulalar ko'zda tutildi.

Musiqa merosining har ikkala qatlami ham bir-biriga doimo bog'liq holda rivojlanib kelgan. Folklor, og'zaki professional musiqa uchun ilhom manbai, hayotbaxsh kuch bo'lib xizmat qilgan bo'lsa, o'z navbatida maqom yo'llari asosida yuzlab xalq kuy va qo'shiqlari yaratilgan. Folklor va og'zaki an'anadagi professional musiqani bog'lovchi eng muhim omillardan biri — ularning og'zaki an'anaga mansubligidir.

Shu bilan bir qatorda, folklor va og'zaki an'anadagi professional musiqaning farqli tomonlari ham mavjud. Bu kollektiv ijod, mehnat va marosim qo'shiqlarida va o'lanlarda ijrochi, tinglovchi, kuy yaratuvchi birlikni tashkil qiladi. Musiqa namunalari esa o'zining murakkab, barkamol va puxtaligi bilan ajralib turadi. Bu borada yetakchi janr hisoblangan maqomlar – monodik (bir ovozlik) musiqa sharoitida, musiqa taffakurining eng yuksak ko'rinishlaridan birdir. Maqomlarni yuqori saviyada ijro etish puxta bilim, tajriba va alohida mahorat talab qiladi. Bu asarlarni chuqur idroklash uchun ham ma'lum darajada tayyorgarlik lozimdir.

Musiqiy folklor namunalarining ko'pchiligi, odatda, mehnat va turmush tarziga yoki biron-bir marosimiga uzviy bog'liq ravishda joriy qilinadi. Mehnat va marosim qo'shiqlari faqat muayyan sharoitdagina yuzaga keladi va ular hayotning o'zidan olinadi.

Zamonaviy musiqashunoslik fani ham bu borada chuqur izlanishlar olib bormoqda. Og'zaki an'anadagi professional musiqaning tub xususiyatlarini ochish, mohiyatini tushunish borasida olimlar o'tgan asrning boshlaridan musiqa merosini muntazam va atroflicha o'rganish XX-asrning 20- yillaridanoq boshlangan u asosan uch yo'nalishda o'rganilgan.

- 1. Musiqa merosini amaliy o'zlashtirish;**
- 2. Xalq musiqasi va maqomlarni to'plash, notaga olish va nashr qildirish;**
- 3. Meros masalalari ustida ilmiy izlanishlar olib borish.**

Bu davrdan boshlab an'anaviy musiqani amaliy o'rganish uchun o'quv muassasalari keng joriy qilina boshlangan. Buxoro, Samarqand, Xiva, Toshkent va Farg'ona vodiysida tashkil qilingan dastlabki musiqa maktablariga mashhur ustozlar taklif qilingan. Ular og'zaki professional musiqaning kuy va ashula yo'llari hamda maqomlarni yosh ijrochilarga o'rgata boshlaganlar.

1928 yilda tashkil qilingan Samarqand musiqa va xoreografiya ilmiy tekshirish instituti o‘z davrida musiqa merosini o‘rganish bo‘yicha eng katta dargoh bo‘lgan, institutda rus musiqasining vakillari bilan bir qatorda O‘zbekistonning turli joylaridan kelgan mashhur ustozlar ta’lim bergen. Samarqand ijrochilik matabining vakili Halim Ibodov, Levi Boboxonov, Xorazm maqomlarining ajoyib ustozи Matyusuf Xarratov, Farg‘ona—Toshkent yo‘llarining taniqli ijrochilarи Abduqodir Ismoilov va boshqalar saboq bergenlar.

Xalq kuylari va maqomlarni notaga olish masalasiga kelsak, ma’lumki, Sharq musiqasining rivojlanish jarayonida turli xil yozuvlar qo‘llanilgan. Bu o‘rinda Safiaddin Urmaviy qo‘llagan nota yozushi birinchi navbatda musiqa yo‘llarini biladigan ijrochilar uchun yordamchi vosita bo‘lib xizmat qilgan. Safiaddin Urmaviyning ud sozi, Komil Xorazmiyning tanbur uchun yaratgan tabo‘laturalarining asosiy vazifasi ijrochiga tanish bo‘lgan kuy va ashulalarni xotiraga keltirishdir. Boshqacha qilib aytganda, bular og‘zaki an'anadagi (Og‘zaki rivojlanadigan va tarqaladigan) musiqa sharoitidagi yozuvlar bo‘lib xizmat qilgan.

Maqomlarni zamnaviy nota sistemasi asosida yozishga birinchi bo‘lib taniqli etnograf va kompozitor V.A.Uspenskiy kirishgan. U 1922 yilda Buxoroga borib, atoqli maqomchi ustozlar-Ota Jaloliddin Nosirov, Ota G‘iyos Abdug‘aniy va ularning shogirdlari Domla Halim Ibodov, Levi Boboxonov hamda Ma’rufjon Toshpo‘latovlardan notaga yozib olingan “Shashmaqom” Buxoro Xalq respublikasi tomonidan 1924 yilda nashr qildirilgan. V.A.Uspenskiy Shashmaqomining cholg‘u va ashula bo‘limlarini ham tanbur talqinida yozib oлган. Demak, ashula bo‘limlari she’r tekstlarisiz berilgan.

1934 yilda musiqashunoslar Ye.Ye.Romanovskaya va I.A.Akbarov tomonidan Xorazmga ekspeditsiya uyushtirilib, mashhur maqomchi ustoz Matyoqub Xarratovdan Xorazm maqomlari fonogrammaga yozilgan va notaga tushirilgan. Keyinchalik maqomlar “Xorazm klassik musiqasi» nomi bilan Ye.Ye.Romanovskaya tomonidan nashrga tayyorlanib, chop etilgan.

Tojikistonning taniqli ijrochilarи Boboql Fayzullaev, Fazliddin Shahobov va Shonazar Sohibovlar Shashmaqomning to‘la tekstini yozib, besh jildlik kitob shaklida atoqli olim V.M.Belyaev tahriri ostida Moskvada nashr qildilar.

O‘zbekistonda maqomlar va og‘zaki professional musiqa merosini to‘plashda Akademik Yunus Rajabiyning xizmatlari benihoyat kattadir. An‘anaviy musiqaning ulkan bilimdoni, ustoz Yu.Rajabiy uzoq yillar davomida izlanishlar olib bordi va maqomlarning mukammal matnini tayyorlash maqsadida uni uch marta qayta ishladi.

Dastlab maqomlar va xalq qo‘sishlari tarqoq holda “O‘zbek xalq musiqasi” turkumining I-IX kitoblariga kiritilgan. Keyinchalik maqomlar yaxlit to‘plam tarzida “O‘zbek xalq musiqasi»ning V kitobini tashkil qildi. Xalq kuy va qo‘sishlari va doston yo‘llari alohida kitob qilib chop qilindi.

1958 yilda O‘zbekiston Radio va televidenie komiteti qoshida Yu.Rajabiy rahbarligida maqomchilar ansambl tashkil qilinib, unga respublikaning turli joylaridan maqomdon ijrochilar taklif etildi. Ansamblning ish faoliyati jarayonida oldingi qilingan maqom yozuvlarini yana ham takomillashtirish va yanada mukammalroq yozuvni yaratish maqsadida uchinchi nashri tayyorlandi. Bunda Shashmaqom to‘laligicha olti jildlik kitob bo‘lib chop etildi.

Xorazm maqomlari Matniyoz Yusupov tomonidan notaga olindi. Hozirgi kunda Xorazm maqomlarining M.Yusupov tomonidan tayyorlangan to‘laroq variantining ikki jildi nashrdan chiqdi.

O‘tgan asrning boshlarida yozilgan dastlabki ilmiy izlanishlar musiqaning ko‘proq amaliy masalalariga qaratilgan. Maqomlar haqidagi dastlabki kitoblar Bekjon Rahmon va Matyusuf Xarrotlar yozgan “Xorazm Musiqiy tarixchasi” va A.Fitratning “O‘zbek klassik musiqasi” kitoblari aynan shu yo‘nalishda bo‘lgan. Bu asarlarda ko‘proq amaliy masalalar, maqom ijrochiligi, ularning tarkibi va tuzilganligiga oid fikrlar bayon qilinadi.

Maqomlar haqida N.N.Mironovning "O'zbek va boshqa Sharq xalqlarining musiqa madaniyati" kitobida ham ma'lumotlar berilgan. Bu asarda maqomlar to'g'risida umumiyl tushunchalar berilishiga qaramasdan, bu san'atning asl mohiyatini tushunishda ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yilgan. Jumladan, maqomlar "arab – fors dostonchiligi" mahsuloti deb tushunilgan.

Ye.Ye.Romanovskayaning "Xorazm klassik musiqasi" kitobiga yozilgan kirish so'zida ekspeditsiya paytida olingen taassurotlar va maqomchilik to'g'risidagi Xorazm ijrochilari orasida yurgan fikrlari ham bayon etilgan.

Buxoro va Xorazm maqomlari to'plamining kirish maqolalarida I.Akbarov tomonidan yozilgan maqomlarning cholg'u va ashula yo'llarini lad, ritm va shakl masalalari yoritilgan.

Maqomshunoslikni yangi pog'onaga ko'targan ilmiy asarlardan biri Is'hoq Rajabovning "Maqomlar masalasiga doir" kitobidir. Maqomchilik masalalari dastlab shu kitobda keng va atroficha yoritilgan. Tarixiy manbalar, o'tmish musiqa risolalari, zamonaviy ma'lumotlar asosida hamda musiqa amaliyatiga tayangan holda maqomlarning tarixiy va nazariy masalalari mukammal bayon etilgan. Bu monografiyada maqomlarning rivojlanish jarayoni va ichki tuzilgan masalalari keng yoritilib, she'riy asosi va ijrochilik muammolari yangicha talqin qilingan. Ilgari jiddiy o'rganilmagan namudlar masalasi olib berilgan. Maqomlarning tuzilganligida muhim ahamiyat kasb etuvchi namudlar sistemasi I.Rajabov tomonidan ishlab chiqilgan.

XX asr ijodiyotida, mintaqamiz san'atining boy tarixida uchramagan keskin burilishlar sodir bo'ldi. Uning shiddatli to'lqinida qadimiy madaniyatimizning butun bir qatlamlariga talofotlar keltirgan oqimlar, yuksalishga yuz tutgan jarayonlar to'qnashuvida, kutilmagan yo'naliishlarda milliy musiqaning G'arb uslublari bilan qorishgan yangi navlari, shakl va ifoda vositalari yuzaga keldi. Asr oxiriga kelib, o'zbek musiqasining butun borlig'i o'zgarib, jahon talablari darajasidagi mustaqil badiiy qiyofasi shakllandı.

So'nggi o'n yilliklarda maqomshunoslikning jonlanishi talqinida Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva va boshqa shaharlarda mavzuga oid Respublika va Xalqaro doiradagi ilmiy anjumanlar o'tkazildi. Ularning eng nufuzlilari 1974 yil Toshkentda o'tgan "Maqom, mug'om va zamonaviy kompozitorlik ijodi" konferensiyasi hamda "Yaqin va O'rta Sharq xalqlarining Og'zaki an'anadagi professional musiqasi va zamonaviylik" mavzusida 1978, 1983, 1987 - yillardagi Samarqand xalqaro simpoziumlarini alohida qayd qilish lozim: 1990 yildan e'tiboran Yunesko qoshidagi Xalqaro An'anaviy Musiqa Kengashi tarkibida maxsus "Maqom guruhi". O'tgan davr ichida Mazkur guruhning Germaniya (1990, 1992 yy.), Finlandiya (1996 y.), Turkiya (1998 y.), O'zbekiston (2001 y.) mamlakatlarida ilmiy konferensiyalar bo'lib o'tdi.

Mamlakatimizda Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq barcha jahbada bo'lgani kabi san'at borasida ham noyob durdonalarni tiklashga, milliy musiqa madaniyatini jahon uzra ko'z-ko'z etishga jiddiy e'tibor berib kelinmoqda. «Sharq mamlakatlari xalqlari milliy musiqa va qo'shiqchilik san'atining noyob namunalarini keng targ'ib qilish, milliy musiqa an'analarini avaylab-asrash, xalqlar o'rtasidagi do'stlik, birodarlik rishtalarish yanada mustahkamlash, ijodiy hamkorlik, madaniy – ma'naviy munosabatlar doirasini xalqaro miqyosda kengaytirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko'ra, «Sharq taronalari» Xalqaro musiqa festivali har ikki yilda bir marta o'tkazilishi belgilab qo'yildi. Festival ilk marotaba 1997 yilning 25 avgust kuni Samarqanddagagi Registon yodgorliklar majmuasida o'z faoliyatini boshladi. Bunda dunyoning turli burchaklaridan kelgan atoqli san'atkorlar, yirik musiqashunoslar, taniqli olimlar va jamoat arboblari, musiqa shinavandalar, san'at bayramining guvohi bo'ldilar.

Mustaqillik davrida ta'lim sifatini qayta ko'rib chiqilishidan tashqari nafaqat uning ayrim tuzilganmalarini qayta muvofiqlashtirishda, balki mazmunini yangilash, shunindek, to'plangan tajribani inobatga olgan taqdirda ravnaq toptirishda talaygina yutuqlar qo'lga kiritildi.

O'zbekiston siyosiy, iqtisodiy va madaniy yutuqlarini butun jahonga namoyish etmoqda. Birgina musiqa sohasida, mamlakatimizda bu borada "Sharq taronalari", "Zamonaviy musiqa", "Simfonik musiqa", "Milliy cholg'ular" kabi nufuzli xalqaro festivallarning o'tkazilishi,

qator teatr va musiqa koshonalarining yuzaga kelishi ma’naviy islohotlar yo‘lidagi ulkan odimlar ekanligini isbotlashga ortiqcha hojat yo‘q.

Toshkentning markazida konservatoriya yangi binosining qad ko’tarishi va unga O’zbekiston davlat konservatoriysi nomining berilishini esa O’rta Osiyo xalqlarining musiqa tarixidagi jahonshumul voqeа deyish mumkin. Bu mo’tabar dargohning ijodiy va ilmiy jarayoniga asos bo‘ladigan milliy va umuminsoniy qadriyatlar qatorida asrlar osha bizgacha yetib kelayotgan mumtoz musiqamiz — maqomlar va xalqimizning musiqiy merosi beqiyos o‘rin tutadi.

## **2. O’zbek xalq folklorini o’rganish va uni yozib olish**

1920 yillardan boshlab xalq Og’zaki ijodiyotini o’rganish va uni yozib olish alohida o’rinni egalladi. 1919 yilda Turkiston respublikasida badiiy-etnografik komissiya tuzilgandi va bu komissiya hay`atida V.A.Uspenskiy, G’ulom Zafariy, E.Melngaylis, N.Mironovlar kirdilar. Komissiya o’ziga maqsad qilib birinchi o’rinda «Shashmaqom» ni va O’rta Osiyoda yashovchi barcha xalqlar ijodiyotini o’rganishni o’z oldiga qo’ydi. 1923 yilning boshlarida V.A.Uspenskiy boshchiligidagi komissiya Buxoroda bo’lib Ota Jalol Nosirov va Ota G’iyos Abdug‘anilarning maqom majmuasini hammasini yozib oladilar. Lekin bu noyob xalq durdonalarini yozib olishda ancha qiyinchiliklar ham bo’ldi, Chunki maqomlardagi qochirmalar, nolalar va kuylarning yo’nalishi Uspenskiyni qiynab qo’yishdi. Shashmaqom bilan bir qatorda komissiya hay`ati xalq qo’shiq va kuylarini ham yozib olgan edilar.

1925 yilning bahorida V.A.Uspenskiy boshchiligidagi komissiya hay`ati Qo’qon ovullarida bo’lib u yerdan ham birqancha xalq qo’shiqlarini yozib oladi. Masalan: «Lola bayrami»-dagi Naqshi kalon, Naqshi xurd va boshqalar.

V.A.Uspenskiy boshchiligidagi ekspeditsiya faqatgina xalq qo’shiqlarini yozib olmasdan balki ilmiy-tadqiqot ishlari bilan ham shug‘illanadilar va 1927 yilda «O’zbeklar klassik musiqalari» nomli katta maqola chop etadilar. O’sha yili Uspenskiyning bu maqolasi qatorida Abdurauf Fitratning «O’zbeklar klassik musiqalarining tarixi» nomli ishi ham chop etiladi va bu to’plamda Abdurauf Fitrat mahalliy mutaxassislardan ilmiy ishlarni tayyorlash to’g‘risidagi o’z fikrlarini bayon etadi. Fitrat to’plamida «Shashmaqom» qismlari to’g‘risida batafsil fikrlar yuritilib ularning ijrochilari haqida ham yozilgan.

1928 yilda Samarqandda musiqa va xoreografiya ilmiy-tadqiqot instituti ochildi. Bu oliy dargohda milliy musiqa mutaxassislarini tayyorlash asosiy maqsad qilib qo’yilgan edi. Institutga N.N.Mironov rahbarlik qiladi va u kishi o’sha davrda mashhur bo’lgan hofizlar, xonanda va sozandalardan: Ota Jalol Nosirov va Ota G’iyos Abdug‘ani, Domla Halim Ibodov, Abduqodir Ismoil (nay, qo’shnay, surnay ijrochisi), Matyusuf Xarratovlar bilan bir qatorda yosh san’atkolar M.Ashrafiy, T.Sodiqov, Sh.Ramazonovlarni qo’ishga taklif etadi.

Institut ilmiy ishlarni natijalari sifatida biz N.N.Mironovning kitobini «O’zbeklar musiqasi» (Samarqand, 1929 yil), «O’zbeklar va boshqa Sharq xalqlarining musiqa madaniyati to’g‘risida» (Samarqand, 1931 yil), «Buxoro, Xiva, Farg‘ona qo’shiqlari» (Toshkent, 1931 yil) misol keltirishimiz mumkin.

Samarqand institutining ilmiy ishlari bilan bir qatorda Toshkentda Ye.Ye.Romonovskaya boshchilik ekspeditsiya ham xalq kuy va qo’shiqlarini yozib olgan edi. Bu ekspedisianing eng muhim ilmiy yozuvlaridan biri bu O’zbek Xotin-qizlarining ichkarida aytiladigan kuy va qo’shiqlari edi, Ye.Ye.Romanovskaya bilan H. Muhammedovalar bu ishga asos solgan edilar. 1917-1932 yillardagi ilmiy ishlar folklor yozishlarni yakunlab shuni ta’kidlash keraki, xalq noyob durdonalarini yozib ularning abadiy tarixda va xalqimizga taqdim etilib bu buyuk xalq musiqiy asarlari qanchadan-qancha avlodlarga meros sifatida qoladi.

Xalq kuy va qo’shiqlarini yozib olish bian bir qatorda ularni qayta ishslash xor va orkestr jamoalariga moslash ishlari ham boshlanadi. 1922 yilda V.A.Uspenskiy va N.N.Mironovlarning birinchi simfonik qayta ishlagan partituralari tinglandi. «Sharq musiqa kechalari» Konsertlarida Mironovning «Turkiston» va Uspenskiyning «Latifa», «Zar kokul» xalq qo’shiqlarini qayta ishlab orkestriga moslaganlari tinglovchilar diqqatini o’ziga jalb etdi.

«Turkiston» syuitasida 4 O'zbekcha va 4 qozoqcha xalq qo'shiqlari garmoniyalashdirilib orkestrga moslashtirilgan. Bu asarda O'zbek xalq qo'shiqlaridan «Sarbozlar», «Azizam», «Layzongul» va «G'ayro-g'ayro dambadam»-lar qayta ishlanib orkestr ijrosida o'zgacha jiloga erishgan.

Puflab chalinadigan orkestr uchun ham O'zbek xalq kuy va qo'shiqlarini qayta ishlash ishlari boshlanib bu hayrli ishlarni chek millatiga mansub V.V.Leyseq bajarishga kirishgan. Masalan: Leyseq «Rajabia» nomli kuyni orkestrga moslab qayta ishladi va bu asar o'sha yillardagi konsert dasturlaridan mustahkam joy oldi.

20 yillarda Karim Abdullayev fortepiano asbobi uchun O'zbek xalq kuy va qo'shiqlarini qayta ishlab shu fortepiano asbobi uchun «16 ta O'zbek qo'shiqlari» nomli to'plamini nashrdan chiqardi.

Qilgan ishlarni xulosa qilib shuni izohlash kerakki 20-30 yillar davomida xalq kuy va qo'shiqlarini aranjirovka va orkestrlash ishlari boshlanib, O'zbek diyorining musiqa san'atini rivojlantirishda bu xayrli ishlar O'zbek musiqa muammolarini bajarishdagi birinchi qadamlar edi.

Bugungi davrimiz milliy qadriyatlarimizning qayta tiklanish jarayoni madaniy merosimizni, shu jumladan asrlar davomida shakllangan badiiy an'analarmizni har tomonlama o'rganishni taqozo etmoqda. Bu borada xalqimizning bebafo ma'naviy mulki bo'lган an'anaviy sozanda bastakor san'ati muhim va qimmatli manbalardan biri bo'lib, ularning keng miqyosda tadqiq etish masalasi hozirgi vaqtda alohida kasb etadi.

Hech kimga sir emaski, bastakor ijodi masalasiga yaqin-yaqinlargacha asosan g'arbiy musiqashunoslikda qabul qilingan mezonlar bilan yondoshildi. Shuningdek kompozitorlik ijodi uchun birdan bir xos bo'lган nuqtalar umuman zamonaviy musiqiy ijodkorlikning shartlariga aylandi.

Xususan, an'anaviy sozanda bastakor san'ati tarixining buyuk ijodkorlari tarixini har tomonlama chuqur o'rganish, izlanish hamda xalqimizga yetkazishga keng imkoniyatlar ochildi.

An'anaviy sozanda bastakor san'atiga xos asosiy xususiyatlar quyidagilardan iborat:

- 1. Tayyor kuya so'z solish.**
- 2. An'anaviy Musiqiy merosimizdan foydalanib asar yozish.**
- 3. Og'zaki an'anaga murojaat qilib asar yozish.**
- 4. Har xil janrlarni uyg'unlashtirib asar yozish.**
- 5. Qardosh xalqlar ohangini O'zbek uslubiga moslab asar yozish.**

“Bastakor” atamasining “Kompozitor”, “Kompozitor” atamasining O'zbekchasi “Bastakor” degan fikrga qo'shilib bo'lmaydi. Chunki, bu ikki musiqiy ijod yo'naliishi bir-biridan tubdan farq qiladi. Bastakor forscha so'z bo'lib, „basta-tuzish”, bog'lovchi ma'nosini, korishlash mazmunini bildiradi. Bastakor ijodi monodiya, ya'ni bir ovozli kuy ma'nosini bildiradi. Kompozitor-fransuzcha so'z bo'lib, yaratuvchi degan ma'noni anglatadi. Bu musiqiy ijod ko'p ovozli musiqa uslublari garmoniya va polifoniya bog'langan ijoddir. Bastakor ijodi asosan ikki yo'naliishda:

- 1. Og'zaki, ya'ni nota yozuvisz**
- 2. Nota yozuvi yordamida rivojlanib kelmoqda.**

Darslikda kiritilgan bastakorlar odatdagidek alifbo tartibida emas, tarixiy – tavalludi xronologiyasi tarzida berildi. Shuningdek ushbu risolani yaratishda mazkur ma'lumotnomaga kiritilgan bastakorlar hayoti va ijodiga doir barcha ilmiy ishlar, maqola va qo'llanmalardan samarali foydalanildi. Albatta musiqashunos olimlar, bastakorlar, eng muhimi kitobxonlar taklif – mulohazalari asosida kelgusida mazkur bastakorlar ijodi ma'lumotnomasini yanada sifatli bo'lishi hisobiga mukammallashtirish imkoniyati tug'iladi deb umid qilamiz.

Ishonamizki, bastakorlar ijodi o'quv qo'llanmasida jamlangan barcha ma'naviyat chashmalari aziz kitobxoni ham befarq qoldirmaydi. Ayniqsa milliy musiqiy san'atimiz ixlosmandlari uchun doimiy qo'llanma bo'lib qoladi deb umid qilamiz.

## **O'ZBEK MILLIY QO'SHIQCHILIK SAN'ATI TARAQQIYOTINING UCH YO'NALISHI**

**Reja:**

- 1.O'zbek milliy qo'shiqchilik san'ati taraqqiyotining uch yo'nalishi**
- 2. Xalq qo'shiqchiligi janrlari.**

### **1. O'zbek milliy qo'shiqchilik san'ati taraqqiyotining uch yo'nalishi**

O'zbek milliy qo'shiqchilik san'ati tarixi uzoq ming yilliklarga, ya'ni ibridoiy jamoa davriga borib qadalishini ba`zi arxeologik topilmalar tahlili hamda yozma tarixiy manbalarni o'rGANISH orqali bilib oldik.

Tarixiy taraqqiyot jarayonida qanchadan-qancha suronli davrlarni, qonli voqealarni boshdan kechirgan xalqimiz Temuriylar hukmronligi davridan so`ng, ya'ni XVI asrning ikkinchi yarmidan boshlab uchta xonlikka (Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonligi) bo'linib ketdi, natijada ilm ahli va san'atkorlar uch xonlik saroylari hamda saroy atroflarida to`plana bordilar. Uch yuz yildan ortiqroq davom etgan bu davr o'z samarasini ko'rsatdi natijada musiqa san'atida bir-biridan farqli, lekin yaqin bo'lgan Toshkent-Fargona, Buxoro va Xorazm musiqa, qo'shiqchilik yo'nalishi paydo bo'ldi.

Qo'shiqchilik san'atining uch yo'nalishiga bo'linishi bundan tashqari respublikamiz xududida yashovchi aholining etnik tarkib topishiga ham bog'liqidir. Fargona vodiysida yashovchi xalqlar shevasi Toshkent viloyatida yashovchi xalq she'vasiga yaqin bo'lib, qo'shiqchilik va musiqa ijrochiligi deyarli farq qilmaydi. Buxoro va Samarcand viloyati aholisi tarkibiy qismi ko'proq forsiy zabon aholi bo'lganligi, xonliklarda saroy tili ham fors tili bo'lganligi bu viloyatlar qo'shiqchilik san'atida ham o'z aksini topgandir. Xorazm xalqi xonliklar davridan oldin ham hatto qo'shonlar sultanati davrlarida ham xonlik bo'lganligi ushbu viloyat qo'shiqchilik san'ati, hatto musiqa san'atida ham uz ifodasini topgan bo'lib, o'zbek milliy musiqa san'atida kuy va yo'nalishi ohanglarga boyagini, o`ynoqi va dilga yaqinligi bilan ajralib turadi. Xorazm musiqasini bezashda Xorazm she'vasining ham roli kattadir. Xorazmcha qo'shiqni o'zbek adabiy tilida kuylash, she'vada kuylashga nisbatan qo'shiqni bir oz suniylashtiradi.

Qo'shiqchilikdagi bunday alohida rivojlanish tarixi ancha uzoq bo'lganligi sababli shu uch yo'nalishlarda ham maqomlar shaklida boshlangan. Buni biz Buxoro shashmaqomi, Xorazm olti yarim maqomi hali shakllanib nihoyasiga yetmagan Fargona chormaqomi misolida ko'rshimiz mumkin.

Bu yo'nalishlar qo'shiqchilikning boshqa janrlari bo'l mish laparlar, yallalar, doston qo'shiqlari, termalar, o`lanlar ashula va katta ashulada ham ko`zda tutiladi.

Masalan: Yalla janri har uchala yo'nalishda ham mayjud bo'lsada Farg'ona-Toshkent yo'nalishida u ikki xil ko'rinishda (birinchi qo'shiq raqsi bilan yoki yakka doirada terma shaklida avjsiz kuylanadigan qo'shiq) bo'ladi. Samaraqand-Buxoro yo'nalishida esa mavrigi shaklida. Xorazmda ham yakkaxon xonanda chalgu jo`rligida kuylashi va unga raqs qo'yilishi yalla deb yuritiladi. Xorazm xalfalari ham ko'proq raqsli qo'shiq, ya'ni yalla kuylaydi.

O'zbek musiqa madaniyati rivojlanishidagi bu uch yo'nalish bir biridan qisman farq qilsada misoli uch xil rangdagi gul kabi o'zbek musiqa guldastasini tashkil qiladi. Zero, san'atning bunday yo'nalishlardagi taraqiyot milliy musiqa madaniyatimizning tez sur'atlar bilan gurkirab rivojlanishiga sabab bo'lmoqda.

Har uchala yo'nalishdagi qo'shiqchilik janrlarining mohir ijrochilari, xalqimmz sevgan mashhur qo'shiqchilik madaniyatimiz ravnoqiga ular o'zining munosib hissalarini qo'shganlar. Fargona-Toshkent yo'lida Jo'raxon hofiz. Ma'murjon hofiz, xonanda Faxriddin Umarov, Tavakkal Qodirov, Samarcand-Buxoro yo'lida Xoji Abdulaziz, Levicha hofiz, Domla Halim, Xorazm yo'lida Sheroziy, Xojixon hofiz, Komiljon Xofiz va boshqa ko'plab san'at darg`alarini ko'rsatish mumkin.

### **2. Xalq qo'shiqchiligi janrlari.**

Xalq qushiqchiligi qo'shiqchilik san'atining eng ko'hna turidir. U xalqning orzu-umidlari, turmushi, axloqi, maksimal va milliy ozodlik uchun kurashini o'zida ifodalaydi. O'zbek xalq qo'shiqchiligining janrlari jihatidan xilma-xilligi va hayotda tutgan o'rnining xilma-xilligi bilan

boshqa xalqlar qo'shiqchiligi madaniyatiga ko'p jihatdan o'xshashdir. O'zbek qo'shiqchiligini o'z funksiyasi va hayotda tutgan o'rniqa ko'ra ikki guruhga bo'lish mumkin.

**1. Ma'lum vaqt va sharoitda** ijro etiladigan qo'shiqlar. Bunga oilaviy marosim qo'shiqlari, mehnat qo'shiqlari, allalar va har xil tantanalarda ijro etiladigan qo'shiqlar qiradi.

**2.Istalgan vaqtida**, har qanday sharoitda ijro etiladigan qo'shiqlar. Bularga laparlар, yallalar, ashula qo'shiq, chalgu kuylari, chulama doston qo'shiqlari, aytishuvlar kiradi.

Har biri guruhga kiruvchi qo'shiqlar o'ziga xos tavsifli belgilarga ega. Masalan: Ijro etilishi ma'lum vaqt, yoki sharoitni taqoza etadigan birinchi guruh qo'shiq janrlarining mavzusi muayyan marosim yoki boshqa vaziyat bilan bog'liq, bo'lib, ulardan deyarli chetlashmaydi. Bunga yor-yorlarni misol keltirish mumkin. Ikkinci guruhga kiruvchi qo'shiqqa esa joy va vaqt tanlamaydi. Ular umuminsoniy qadriyatlar asosidagi qo'shiqlar bo'lib, janr jihatidan ham xilm-xil va murakkabdir.

**Maqomlar** – Maqomlar mumtoz qo'shiqlarning ma'lum yo'nalishi va lad asosida uyg'unlashgan hamda birlashgan ko'rinishdir, desak xato bo'lmaydi. Shashmaqom ana shunday 250 ga yaqin mumtoz qo'shiq va kuylarni olti lad va yo'nalishga birlashtirgan yaxlit yirik musiqiy asarlar majmuasidir.

**Mumtoz ashulalar va kuylar.** Xalq hamda Bastakorlar tomonidan yaratilib, uzoq davrlar iste'moldan tushib qolmagan kuy va qo'shiqlardir. Hatto keyingi davrlarda bastakorlarimiz tomonidan yaratilgan ko'pgina musiqa asarlari ham mumtoz kuy-qo'shiqlar darajasida bo'lib, tinglovchilar, qalbidan chuqur o'rinni egallaganligi bois mumtoz asarlardir.

**Katta ashula.** Bu yirik hajmli ashula bo'lib, uning kuy ohanglari keng nafasli hofizlar ijrosi uchun mo'ljallangandir.

Katta ashula asosan Fargona-Toshkent ashula yo'liga xos bo'lib, uni odatda ashulachi hofiz, yoki 2-4 hamnafas ashulachi-hofizlar aytadilar. Bu ashula janri keng diopazonali bo'lib, odatda musiqasiz kuylanadi (cholgu sozlari jo`rligisiz).

**Ashula.** Nisbatan keng diopazali, aksariyat hollarda g'azallarga bastalanadi. Uni yakka hofiz hamda ashulachilar ansambil kuylashi mumkin. Ritm jihatidan ham qo'shiqqa nisbatan murakkab bo'ladi.

**Qo'shiq.** Janr sifatida nisbatan kichik diapozonli kuydan tashkil topgan, ko'proq barmoq vazndagi she'rlar, mustaqil to'rtliklar hamda termalar asosida yoziladi, qo'shiqlar ko'p hollarda naqoratli bo'ladi. Naqorat ko'pincha bir kuplet she'r hajmida bo'lib, qo'shiqchidagi har bir kупplet dan so'ng takrorlanadi.

**Qo'shiq**-kichik avjli bo'lgan va hor bandida ko'tariladigan quyidan iborat vokal janri. Masalan «Oy layli», «Yoshligim», «Bahor keldi» Alla-onalar tomonidan yaratilib, ular tomonidan aziz farzandlariga mehr-muhabbat va orzu-umidlarni ifodalab kuylanadigan musiqa. Shu bilan birga mayin orombaxsh yoqimli ohangga ega bo'lib bola ruhiyatini tinglashini yoshlikdan musiqaga idrok etishni o'rgatadi.

**Yalla.** Yalla o'zbek qo'shiqchilik san'atida alohida o'rinni egallaydi. Odatda yalla qo'shiqning raqs bilan birga ijro etilgan ko'rinishidir.Yalla-cholg'uchilari yakkaxon yoki xonandalar ijrosida aytildigan vokal janr, raqsbopligi ijrosida ko'pchilik ishtirot etishi kabi jihatlari bilan laparga yaqin turadi.

**Lapar.** Odatda qo'shiqning duet, aytishuv shakllariga yaqin bo'lib, ikki xil ko'rinishda bo'ladi. 1. Yakka ijrochi o'zi qo'shiq kuylab, o'zi raqs harakatlari bajaradi. Ikki erkak va ayol, ona-bola, ota-bola o'rtasida kechayotgan voqealarni hazil tariqasida ifodalaydi.2.Cholg'uchilari jo`rligida yakka ijrochi ham kuylab ham raqsga to'shadi. Masalan: «Bug'macha bilagim» «Fabrika», «boshginam og'riydi» kabilari. Shuningdek, lapar birin-ketin savol-javob tarzida ham aytildi.

**O'lan.** O'lan ma'lum bir ladga to'liq rioxha qilmagan xolda, terma, she'rlar asosida aytildi,ko'p hollarda erkak va ayol, yigit va qiz o'rtasidagi aytishuvga o'xshaydi.

**Yor-yor** qo'shig'i kelinni kuyovnikiga uzatib borishi jarayonida ayollar tomonidan ijro etiladi. Hududiy yor-yorlar ham mavjud. Masalan: Toshkent

yor-yori, Fargona yor-yori, Namangan, Andijon, Buxoro yor-yorlari mavjuddir.

**Terma-rechitativ** tarzida qaytarma kuya ko'proq pand-nasihat odamiylik, mehr-muhabbat kuylanadi. Termalar ikki asosiy ko'rinishda bo'ladi.

## **1. Baxshi (shoir, dostonchi) termalari**

**2. Xalq termalari, ommaviy xalq kuylari-tizimi oddiy bo'lgan va ijroda qulay bo'lgan kuylar.** Masalan «Ufor», «Andijon pol'kasi», «O't bo'laman», «Chertmak», «Qashqarcha», «Do'loncha» va boshqalar. Shu bilan birga bolalar uchun ham ko'pincha hazil, kulgili aytishuvli qo'shiqlar bor, ular sevib eshitib kelmoqdalar.

**Xalfachilik** san'ati Xorazm xalqiga xos janr turi bo'lib, bunda ikki ayyol garmon cholg'usi ijrosida mahalliy va oddiy turkumdan iborat badiiylikni ijro etilgan holda kuylashadi va raqsbop hazilomud aytishuvlarni ham bellashuvdek ifoda etishadi. Bir qatorda Xorazmning milliyligi liboslarida aks ettirganidek, badiiylikni guli darajasiga yetgan deyish mumkin.

**Bayram va marosim qo'shiqlari:** O'zbek xalqining uzoq o'tmishi davomida turli bayram va marosimlar hamda urf-odatlar shakllanib, ularda xalqimizning dunyo qarashi, hayotiy qismatlari orzu-istiklari va ma'naviy dunyosi asosida uni aks ettiruvchi kuy va qo'shiqlar yaratilgan.

Ma'lumotlarga qaraganda to'rt faslga bo'lingan quyidagi marosimlar o'tkaziladi.

**1. Bahor faslida «Navro'z bayrami»**

**2. Yoz faslida «Choy momo»**

**3. Kuz faslida «Obla baraqa»**

**4. Qish faslida «Yas yusup» «Gap-gashtak**

Mavsumiy marosim qo'shiqlarining eng namunalari go'zal bahor va undagi asosiy sana-Navro'z bayramiga bog'liq ijod etilgan e'tiborli joyi shundaki, bu toifa namunalari asosan bolalar fol'klori tarkibida bizgacha yetib kelgan. Ommaviy bayram va marosimlarda musiqa muhim o'rinn tutadi. Hatto shu tadbirlarni o'tkazish uchun karnay, surnay, nog'ora, doira, dovul kabilardan foydalanishadi.

Mavsumiy marosim qo'shiqlari deganda, xalqimizning yil fasllari va mehnat mavsumlariga bog'liq xolda o'tkazilgan marosimlari hamda shu marosimlarning tarkibiy qismi bo'lган aytimlari tushuniladi.

O'zbek xalqining dostonchilik san'ati; o'zbek xalqining dostonchilik san'ati haqida so'z borganda Surxandaryo-Qashqadaryo, Buxoro -Samarqand, Xorazm dostonchilik musiqiy uslublari haqida so'z yuritish joiz bo'ladi.

**Surxandaryo-Qashqadaryo** dostonlari adabiy-musiqiy asar sifatida talqin qilinadi. Ular nasriy va nazmiy qismlarga bo'linib, o'zaro bir-biriga bog'langandir. Doston ijrochilarini baxshi, shoir, yuzboshi deb ataydilar. Dostonlar asosan do'mbira cholg'u jo'rligida bo'g'iq ovozda kuylanadi, bo'g'iq ovozni hosil qilish va ishlatish alohida mashqlar natijasida amalga oshiriladi. Ushbu malakani oshirishda ustoz-shogird an'analariga rioya qilinadi natijada shogirdlar ushbu vohalarda mashhur bo'lgan «Alpomish», «Avazxon», «Go'ro'g'li», «Kuntug'mish» dostonlarini yod oladilar va ko'rikdan o'tadilar. Baxshilar dostonlarning nasriy qismlarini qo'shiq shaklida kuylaydilar. Surxondaryo-Qashqadaryo dostonchilik san'atida Shahrisabz va Sherobod maktablari asosiy markaz sanaladi. Abdulla Nurali o'g'li va Islom Nazar o'g'li kabi baxshi shoirlar Shahrisabz dostonchilik maktabining yirik namoyandalari bo'lsa, Shernazar Beknazar o'g'li, Mardonqul Avliyoqul o'g'li, Umar Safar o'g'li, Normurod baxshilar esa Sherobod dostonchilik maktabining mashhur ijrochilari hisoblanadilar.

Dostonlarni ijro etish ham asosan mavsumiy bo'lib, kech kuzda dehqonlar hosillarini yig'ishtirib bo'lganlaridan so'ng boshlanib, erta bahorgacha davom etadi. Dostonchi baxshilar xonodonlarda uyushtirilgan dostonchilik kechalariga taklif qilinadilar va mahalla, qo'ni-qo'shni yig'ilishib, dostonlar tinglashadi bu azaldan odat tusini olgan bo'lib, baxshilarni oilaviy bayramlarga, to'y-tomoshalarga, hosil bayramlariga ham taklif etganlar ya'ni dostonchi baxshi o'z dostonlarini qisqacha aytim yo'li bilan ta'riflab beradi va eshituvchilarning xohishiga ko'ra bir dostonni boshlaydi dostonchi baxshilar doston ijrolaridan tashqari bag'ishlov ijrolariga ham juda usta bo'lib, biron yaxshi kunga, marosimga, mashhur odamlarning ismlariga monand bag'ishlovlarni nasriy va she'riy yo'llarda ham ijro etadilar. Bu ijro baxshilardan o'ta zukkorlikni talab qiladi xozirgi davr dostonchilik ijrochiligi Shoberdi baxshi Boltayev maktabi yetakchilik qilmoqda.

Surxondaryo-Qashqadaryo musiqasida dostonchilik san'atidan tashqari keng ommalashgan mehnat qo'shiqlari alohida ahamiyat kasb etadi. Qo'sh, o'rim, yorg'inchoq qo'shiqlari

dehqonchilik bilan bog'lansa, «xo'sh - xo'sh», «Churey», «Turey-turey» qo'shiqlari chorvachilik bilan bog'liqdir. Charx, o'rmak, kashta, bo'zchi qo'shiqlari esa hunarmandlar mehnati qo'shiqlari sanaladi.

**Buxoro-Samarqand** musiqa uslubiga doir dostonchilik maktablari asosan viloyat tumanlarida qaror topgan bo'lib, ular, «Bulung'ur dostonchilik maktabi», «Narpay dostonchilik maktabi» kabi ataladi. Shulardan Bulung'ur va Qo'rg'on dostonchilik maktablari mashhurroqdir. Bulung'ur dostonchilik maktabida «Alpomish», «Yodgor», «Yusuf bilan Ahmad», «Rustamxon», «Go'ro'g'lini tug'ilishi» kabi qahramonlik dostonlari yetakchi o'rinni tutadi. Jo'rovoz soz sifatida do'mbira sozi qo'shiladi. Amin baxshi, Chinni Shoир, Tavbuzar shoир, Qurbonbek shoир, Yo'ldoshbulbul, Jumanbulbul, Yo'ldoshshoir, Qo'ldash Suyar kabi baxshilar bu maktabning o'tmishidagi (XIX asr) yirik namoyandalaridir. Fozil Yo'ldosh o'g'li (1872-1955) bu maktabning so'ngi yirik vakillaridan biri edi. Qo'rg'on dostonchilik maktabida «Alpomish» dostoni ijro etilgan bo'lsa-da, biroq unda ishqiy-romantik dostonlarga jumladan, «Gumor pari», «Kunduz» bilan «Yulduz», «Oysuluv», «Kuntug'mish» singari dostonlarga e'tibor beriladi. Qo'rg'on dostonchilik maktabining o'tmishidagi yirik vakillari qatori Yodgor, Laras, Mulla-Tosh, Mulla Xolmurod, Jumanbulbul kabi baxshilarini aytish kerak. Ergash Jumanbulbul o'g'li (1868-1937) va Po'lqan shoirlar (1874-1941) bu maktabning so'ngi yirik namoyandalarini eddi.

**Xorazm** dostonchilik maktabi o'z an'analariga ega bo'lib, boshqa mahalliy dostonchilik maktablardan farqli jihatlarga ega. Bu farqlar asosan quyidagilardan iborat.

A) Xorazm dostonlari «Bog'liq ovozda» emas, balki «Ochiq ovoz» uslubida kuylash xususiyatlari bilan ohanglanadi.

B) Ko'pincha mahalliy dostonchilik maktablarida do'mbra sozi jo'rnavoz siyratida qo'llanilsa, Xorazm dostonchiligida dutor, tor so'zlaridan foydalaniladi. Shuningdek, doston aytishda ijrochilik ansambli qatnashadi. Bunda ustoz baxshi dutor, tor yoki rubobda, qolganlar esa g'ijjak, bo'lamon va ba'zan doira sozlarida jo'r bo'lib turishadi.

V) **Xorazm dostonlari repertuarini** «Oshiq G'arib va Shohsanam», «Go'ro'g'li», «Kuntug'mish», «Bozirgon», «Oshiq Oydin» kabi dostonlar tashkil etadi. Biroq, Xorazm dostonchiligida gahramonlik dostoniga mansub «Alpomish» namunasi uchramaydi. Xorazm dostonchiligining yirik vakillari Ahmad baxshi, Bola baxshi, Ro'zimbek Murodov, Qalandar baxshilar nomini aytish joizdir. O'tmishda doston aytuvchilarini go'yanda, ular ijro qiladigan yo'llarini noma deb yuritilgan.

**Ergash Jumanbulbulning** quyidagi she'rida esa Nurota maktabi uslubiga oid dostonlar nomalari sanab o'tildi:

Yigirma xil ohang bilan so'z aytib,  
Yigirma xil noma do'mbira chertib  
Xoh katta, xoh kichik eshitsa,  
Har qanday odamni balkitib, eritib

Sherobod maktabining mashhur baxshisi Umar shoир Safar o'g'li ijodiga mansub she'rda esa Surxondaryo-Qashqadaryo dostonchiligidagi nomalar soni keltiriladi.

Ey do'mbiram kajakdor,  
O'ttiz ikki nomang bor,  
Hammasi ham maftunkor,  
Birin chalsam biri bor...

deb, 32 noma borligi ta'riflanadi. Keyinchalik 60 ga yetkazilgan. Ushbu ma'lumotlardan ko'rindaniki, doston qo'shiqlari qadimdan nomalar deb yuritilgan.

Xorazm nomalari yirik hajm, kuy yo'naliши, pardal, lad va avjali o'ziga xos yorqin uslubi bilan ajralib turadi. Maxsus til irodasi, musiqiy nuqtai nazardan Xorazmda ikkita yirik dostonchilik uslubi mavjud. Ular baxshilarining iboralari bilan Shirvoni va Eroniy yoki Janubiy yoki Shimoliy Xorazm uslublari deb yuritiladi. Shirvoni uslub o'z ichiga Xazarasp, Bog'ot, Yangiariq, Qo'shiko'pir, Urganch, Xonqa, Shovot, Toshovuz tumanlarining Ilonli, Ko'hna Urganch, Qoraqolpog'istonning To'rtko'l, Ellikqal'a tumanlarini kamrab oladi. Uning markazini shartli ravishda Xiva shahri deb belgilash mumkin. Mazkur uslub nomalari 72 ta bo'lib, ular doston she'rlarining vazni, bo'g'inlariga ijrochi baxshini ovoz imkoniyatlariga qarab o'qiladi.

### **Tayanch iboralar:**

- 1.Xalq qo'shiqchilik san'ati janrlari 10 dan ziyod uslublaga egadir.
- 2.Ergash Jumanbulbul Navoiy viloyatining Nurota tumani dostonchilik maktabi namoyandasidir.

### **Nazariy savollar:**

1. Xorazm qanday ovoz uslubida kuylashadi ?
2. Go'ro'g'li haqida sharxlab bering ?
3. Qish faslidagi qo'shiq turlari haqida sharxlab bering ?
4. Bahor faslida qo'shiq turlari haqida sharxlab bering ?
5. Yoz faslida qo'shiq turlari haqida sharxlab bering ?
6. Kuz faslida qo'shiq turlari haqida sharxlab bering ?
7. Akademik vokal qo'shiqchiligi deganda nimani tushunasiz ?

## **XORAZM XALFACHILIK SAN'ATINI MAKTAB JARAYONIGA QO'LLASH USULLARI**

**(fotoillyustrasiyalar va innovasion texnologiyalar misolida)**

### **Reja:**

- 1.Xorazm xalfachilik san'atini maktab jarayoniga qo'llash usullari**
- 2.Xorazm xalfachilik san'ati namoyandalari**
- 3.Xalfachilik san'atining maktab repertuariga kiritish masalalari.**

### **1.Xorazm xalfachilik san'atini maktab jarayoniga qo'llash usullari**

Eroniy uslub Gurlan tumanining bir qismini Qoraqolpog'istonning Amudaryo, Xo'jayli Toshhovuz viloyatining shimoliy tumanlarini o'z ichiga kamrab oladi. Uning markazini shartli ravishda Mang'it shahri deb belgilash mumkin. Ustoz baxshilarning fikricha musiqiy mohiyatga ko'ra shirvoniy uslub 72, eroniy uslub 32, Surxondaryo, Qashqadaryo vohalarining Sherobod maktabi 64 nomadan iborat. Xulosa qilib aytganda doston ijrochiligi O'zbek musiqa san'atining ajralmas bo'lagidir.

Milliy musiqamizda dostonlar keng tarqalgan. Ular kishini maftun etuvchi qiziqarli mazmun va ajoyib she'riy-musiqiy qo'shiq aytimlaridan iboratdir, odatda dostonlar ishq muhabbat yo'lidagi vafodorlik, Vatanga sadoqat, qahramonlik, do'stlik tuyg'ulari, tabiat go'zalligiga maftunkorlik kabi muhim ijtimoiy mavzular kuylanadi.

Dostonlikning maftunkorligi shundan iboratki, unda yirik nasriy hikoya va she'riy musiqa bir mushtarak asar bo'lib, uni san'atkor baxshi ijro etadi.

Baxshi asarning nasriy qismlarini mohirona hikoya qiladi, she'riy bo'laqlarni esa qo'shiq va ba'zan musiqiy sozlama (rechattiv) tarzida kuylaydi. Qo'shiqlar asosan o'zining ijrosidagi yakka cholg'u ijrosida kuylanadi. Dostonxonlik o'ziga xos zavqli va qiziqarli adabiy-musiqiy kecha bo'lib, tinglovchilar diqqat e'tiborini soatlab jalb etadi. Mahoratli baxshi ijrosidagi doston mazmuni va obrazlarini tinglovchi tasavvur qilib boradi va asardagi voqealarga beixtiyor qatnashayotgandek bo'ladi.

Dostonchilik Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan bo'lib, do'mbira jo'rлиgi va kuyi registrli bo'g'iq ovozda kuylanadi. Xorazm vohasida esa dutor, tor yoki cholg'u ansambl jo'rligida ochiq ovozda ijro etiladi. Xalq orasida "Go'r o'g'li", "Alpomish", "Avazxon", "Kuntug'mish", "Ravshan va Zulkumor", "Oshiq g'arib va Shoxsanam" kabi dostonlar mashhurdir. Ergash jumanbulbul o'g'li, Fozil yo'ldosh o'g'li, Po'lkan shoir, ijrochilari va ijodkorlari xalqimiz orasida mashhurdir.

**Xorazm xalfachilik san'ati mактабининг  
намояндалари Gulbahor Norquliyeva, Xolbuvi  
Matyoqubova, Parigul Jumaniyozova**



**Bastakor Hayitboy Norboyev va  
Parigul Jumaniyozova**



## Olti xalfa

M.M. = 90

Sheet music for 'Olti xalfa' in G major, 6/8 time. The lyrics are written below the notes.

Ol-ti xal-fa bi- ri Ay- sha, Bar-moq-la-ri qo'-  
 sha qo'- sha, Qo' shiq ay-tar jo' - sha jo' - sha (yay). El-ga bal - li ol -  
 - ti xal - fa. Ol-ti xal-fa bi - ri Yo - qit, O' ti-rib-di qo - shin qo - qib,  
 Ham-ma-la-ra qol - g'an yo - qib (ay) El-ga bal - li ol - ti xal - fa.

Olti xalfa biri To`ti,  
Chellere bitgan suv o`ti,  
Yurakimda bordir o`ti,  
Elga balli olti xalfa.

Olti xalfa biri Tursin,  
Arvaga sakrab o`tirsin.  
Arvani ko`chari sinsin,  
Elga balli olti xalfa.

Olti xalfa biri Bo`ston,  
Otlari olamga doston.  
Yurgan eri bog`-u bo`ston,  
Elga balli olti xalfa.

Olti xalfa biri Fotma,  
Uzin bo`yli o`zi qatma.  
Qizil yuzli, qoshi chatma,  
Elga balli olti xalfa.

### Tayanch iboralar:

- 1.Xorazm xalfachilik san'ati qadimiy san'at turlaridan iridir.
2. Xorazm xalfachilik san'ati akkordeon va bo'lamon ijrosida kuylanadi.
3. Xalfachilik san'atining maktab repertuariga kiritilishi 2018 yildan boshlangan.

### Nazariy savollar:

- 1.Xorazm xalfachilik san'atini maktabini sharxlab bering ?
- 2.Xorazm xalfachilik san'ati namoyandalari kimlar?
- 3.Xalfachilik san'atining maktab repertuariga kiritish qachondan boshlandi ?
4. Xorazm Xalfachilik san'ati nimani anglatadi va qanday ijroni bildiradi?

## MAVSUMIY QO'SHIQLAR

### Reja:

1. Mavsumiy qo'shiqlarning ommaviy o'rni va ahamiyati
2. Mavsumiy qo'shiq uslublari sharxi

### 1.Mavsumiy qo'shiqlarning ommaviy o'rni va ahamiyati

Mehnat qo'shiqlari; Surxandaryo-Qashqadaryo musiqa uslubida mehnat jarayoni bilan bog'liq qo'shiqlar salmoqli o'rinni tutadi. Bu turdag'i qo'shiqlar aholining qadimgi davrlaridan buyon shugullanib kelayotgan chorvachilik va dehqonchilik kasblari bilan bog'liq holda yuzaga kelgan. Chorvachilikka doir qo'shiqlari (aytmlari) asosan sogim qo'shiqlaridan iborat bo'lib ular qora mol, biya, tuya, eski kuy kabi uy hayvonlarini sog'inish paytida kuylangan. Bunda «Xush-xush» «Turey-turey», «Churey-churey» kabi qo'shiqlari aytilgan.

Dehqonchilikga doir qo'shiqlardan «Qo'sh xaydash», «Xo`p Hayda», «Mayda-mayda» «Yozi» kabilardir.

*Xo`p xayda xayda xayda  
Qalqon qulog`im xayda  
Temir tuyogim xayda  
Somonni qilgin mayda*

Xalq musiqa ijodi ham folklorning boshqa turlari singari badiiy va g'oyaviy mazmunan sodda, ixcham va mukammal formulalarga juda ko`p tarixiy faktlarga ega bo`lgan san'at turidir. Dono xalqimiz yaratgan boy musiqa ulkan ma'naviy boyligimiz bo`lib, u yosh avlodni axloqiy va g'oyaviy estetik taribyasi uchun ham bebaho manba bo`lib hisoblanadi. Demak xalq musiqasi san'atining kishi qalbiga eng yaqin turidir. SHu bilan birga ko'pgina qo'shiqlar xalqimiz qon qoniga singib ijro etilib kelmoqda.

b) Lola sayli; O'zbek xalqining uzoq o'tmishi davomida turli marosim va ommaviy tantanalar shakllangan bo`lib, ular ko'hna hayotimizga taaluqli. Shunday marosim-bayramlardan biri bahor mavsumida o'tkazilgan. «Lola sayli» dir.

## **Lola sayli Navruz bayramining birinchi kunida o'tkazilgan.**

Bu bayramni an'anaviy o'tish shunday bo'lган: mahaliy aholi keng yig'ilishib, yoshlarni lola terimiga kuzatganlar. Terimchilar qir-adirlarga sayr qilishib quchoq-quchoq lola terishgan qo'shiqlar kuylashgan. Lola aytimlari o'zining yorqin kuy-ohanglari va sho`x-o`ynoqi doira usullari bilan shodlik tuyg'ularini ifoda etadi.

*Lolachaga ishim bor, hey lola  
Kissanda kishmishim bor, hey lola  
Kishmish bo'lsa mayliga haylola  
Qiz bolada ishim bor hey lola*

*Lola lola lolajon  
O'sar joying dalada  
Lola, lola lolajon  
Chidadingmi jalaga*

Demak, misollardan ma'lum bo'ladiki, har qanday qo'shiqlar og'izdan-ogizga o'tib, O'zbek xalqining sevimli qo'shiqlari bo'lib kelmoqda.

**O'zbek musiqasida bastakor uslubi.** O'zbek musiqamizning rivojiga ulkan hissa qo'shgan yirik musiqashunoslarimiz bor. O'ziga xos uslubiy-yaratgan kuy qo'shiqchilari ular g'ijjaq, chang, tanbur dutor kabi asboblarda ijro etishganlar. SHunday bastakorlarimizdan M.Burxonov, YU.Rajabiy Hoji Adulaziz Rasulov, Q.Jabborov T.Jalilov kabilardir. Ular o`z ish faoliyatida tinmasdan qo'shiqlar kuylar yaratgan. «Diyorimsan», «Oyxon», «Boboxon qiz» kabi bir necha asarlarni yaratdi.

Milliy xalqimizning rivojiga hissa qo'shgan O'zbek xalq musiqa mohir bilimdoni Bastakor, mehribon murabbiy xush ovoz xonanda YU.Rajabiy «Shashmaqom» ya'ni bu olti maqom degani bo'lib ular Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh Iroq maqomlarini yaratdi. Olti maqomning har biri o'ziga xos tovush pardalarga ega bo'lib bu pardalar asosida bastakorlar cholg'u kuy va ashulla yo'llarini yaratdilar.

O'zbek musiqamizning o'ziga xos va mos uslublari bor shu qatorda biz Xorazm musiqa uslubini ham aytmasak bo'lmaydi. Bu voxada ham ko'pgina bastakorlarimiz ijod qilgan. Bu yerda asosan xalq qo'shiqlari laparlari turli marosmi, tomosha va o'yin raqs kuylari hamda dostonchilik ashulachilik kabi musiqa an'analaridan tashkil topadi.

Xorazm musiqa uslubining o'ziga xosligi uning an'anaviy cholg'ularida namayon bo'ladi. Demak bastakorlarimiz har xil janrlarda va har xil yo'naliishlarda ijod qiladilar. Ular qoldirgan boy merosimizni biz yosh avlodni qo'lidan qo'lga o'tkazib, o'rganib kelmoqdamiz.

g).O'zbek xalq ommaviy aytimlar; O'zbek xalq musiqasining ommaviy aytimlari: qo'shiq, yalla, lapar, alla va boshqalardir.

Terma-rechitativ tarzda qaytarma kuyda ko'proq pand-nasihat odamiylik, mehr-muhabbat kuylanadi. Termalar ikki asosiy ko'rinishda bo'ladi.

1. Baxshi (shoir, dostonchi) termalari

2. Xalq termalari ommaviy xalq kuylari-tizimi oddiy bo'lgan va ijroda qulay bo'lgan kuylar. Masalan «Ufor», «Andijon polkasi» «As bo'laman» «Chertmak» «Qashqarcha» «Do'lancha» va boshqalar. Shu bilan birga bolalar uchun ham ko'pincha hazil, kulgili aytishuvli qo'shiqlar bor. Ular sevib eshitib kelinmoqda.

**O'zbek dostonlari;** Milliy musiqamizda dostonlar keng tarqalgan. Ular kishini maftun etuvchi qiziqarli mazmun va ajoyib she'riy-musiqiy qo'shiq aytimlaridan iboratdir, odatda dostonlar ishq muhabbat yo'lidi vafodorlik, vatanga sadoqat, qahramonlik, do'stlik tuyg'ulari, tabiat go'zalligiga maftunkorlik kabi muhim ijtimoiy mavzular kuylanadi.

Dostonchikning maftunkorligi shundan iboratki, unda yirik nasriy hikoya va she'riy musiqa bir mushtarak asar bo'lib, uni san'atkor baxshi ijro etadi. Baxshi asarning nasriy qismlarini mohirona hikoya qiladi, she'riy bo'laklarni esa qo'shiq va ba'zan musiqiy sozlama (rechitativ) tarzida kuylaydi. Qo'shiqlar asosan o'zining ijrosidagi yakka cholg'u ijrosida

kuyylanadi. Dostonxonlik o‘ziga xos zavqli va qiziqarli adabiy-musiqiy kecha bo‘lib, tinglovchilar diqqat e’tiborni soatlab jalb etadi. Mahoratlari baxshi ijrosidagi doston mazmuni va obrazlarini tinglovchi tasavvur qilib boradi va asardagi voqealarga beixtiyor qatnashayotgandek bo’ladi.

Dostonchilik Samarqand, Qashqadaryo, Surxandaryo viloyatlarida tarqalgan bo‘lib, do‘mbira jo‘rligi va kuyi registri bo‘g‘iq ovozda kuyylanadi. Xorazm vohasida esa dutor, tor yoki cholg‘u ansambli jo‘rligida ochiq ovozda ijro etiladi. Xalq orasida “Go‘ro‘g‘li”, “Algomish”, “Avazxon”, “Kuntug‘mish”, “Ravshan va Zulxumor”, “Oshiq g‘arib va Shoxsanam” kabi dostonlar mashhurdir. Ergash jumanbulbul o‘g‘li, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Po’lkan shoir, ijrochilari va ijodkorlari xalqimiz orasida mashhurdir.

### **Tayanch iboralar:**

1. Tayyor kuya so’z solish an’anada yakka ovozda, kompozitorlar faoliyatida esa ko`p ovozda bastalash.
2. An’anaviy musiqiy merosimizdan foydalanib asar yozishda milliy o’zlik ladlariga ahamiyat beriladi.
3. Og’zaki an’anaga murojaat qilib asar yozishda kunlik yoxud bir voqeadan kelib chiqqan holda asar yozish va to’qimalar bilan bog’lash. Bunda metroritmikalarini o’zgartirib, ya’ni jo’shqinlashtirib borish ham mumkin.
4. Har xil janrlarni uyg’unlashtirib asar yozishda hozirgi Estrada uslubidan foydalanish mumkin. (Xobbi uslubining zamoniaviyligi ham kiradi).
5. Qardosh xalqlar ohangini O’zbek uslubiga moslab asar yozishda ladlarimiz va milliy cholg‘ularimizdagи nag’malardan foydalaniladi.
6. Og’zaki, ya’ni nota yozuvisiz ustoz-shogird tizimiga asoslanib kelgan an’anaviy (qulq eshitish, idrok etish) yo’llari.
7. Nota yozuvi yordamida rivojlanishda hozirgi professional va internatsional tizimni nazarga tutadi.
8. Xalfa san’ati 2018-2019 yillarda maktab faoliyatiga ham kiritilmoqda.
9. Xalfachilik Xorazmning an’anaviy xalq og’zaki ijodi bo‘lib xonlik davrida ayollar tomonidan bazm goh esa musobaqa tarzida bir-biriga qarab (ta’riflar, qutlovlari, oilaviy hayotdan kelib chiqadigan kunlik obzorlar, ta’riflar va sevgi va boshqa hayat tarzlari bilan bog’liq kechinmalar ham kirgan).

### **Nazorat savollari:**

1. O’zbek xalq musiqa ijodi nehca asrga teng?
2. O’zbek xalq folklorini o’rganish va uni yozib olishga asoslangan tadqiqotchi olimlar nomini keltiring?
3. O’zbek milliy qo’shiqchilik san’ati taraqqiyotining uch yo’nalishi deganda nimani tushunasiz?.
4. Xalq qo’shiqchiligi janrlarini izohlab bering?.
5. Mavsumiy qo’shiqlarning har biriga misol keltiring?
6. Xorazm Xalfachilik qanday janr va kimlar tomonidan ijro etiladi?
7. Xalfachilik san’atida qaysi cholg‘udan foydaanishadi?
8. Xalfachilik san’atida qanday repertuarlar qo’llaniladi.
9. Xalfachilik san’ati katta janrmi yoxud kichik laparsimon holatmi?

## MARKAZIY OSIYO MAHALLIY USLUBLARIDA O'LCHOVLAR METRORITMIKASI

**Reja:**

### **1. Mahalliy uslublarida o'lchovlar metroritmikasi**

#### **3. Uslublarining usul tuzulishi va ijro tasnifi**

#### **3. Xududiy ijrolarning qo'llanishi va tarbiyaviy ahamiyati**

##### **1. Mahalliy uslublarida o'lchovlar metroritmikasi**

San'tshunos olim, professor S.Saidiyning tadqiqotlarida "Markaziy Osiyo milliy va mahalliy ufarlari, har bir davlat va undagi xalqlarning eng sevimli, raqsbob, jo'shqin, zavqona zarb usullari hisoblanadi. Ular urma cholg'ular vositasida ijro etiladi va tantanali [og'ir, o'rtacha, tez] uslubiy tavsifi ko'rinishga ega. O'lchovlari: 2/4; 4/4; 5/8; 6/8; 7/8; 8/8 takt o'lchovlarda dinamik belgilardan urg'u, [aksent] belgisi va zarblarning past-balandligidan kelib chiqqan sado, tasniflangan holda ajralib turadi, 8/8 o'lchovli raqsona tuzilgan Tojikistonning Pomir hududida eng sevimli hisoblansa, Qo'lobda 5/8; 7/8 o'lchovlarda, Xo'jand va Do'shanbeda 2/4; 6/8; 7/8 o'lchovli usullar kengroq qo'llaniladi", deyilgan<sup>1</sup>.

Yana, O'zbekistonning Surxondaryo viloyatida 2/4; 6/8; 7/8; Qashqadaryoda 2/4; 6/8; Buxoro, Samarqandda 2/4; 4/4; 5/8; 7/8; Xorazmda 2/4; 4/4; 5/8; 6/4; 12/8 . Farg'onada 2/4; 6/8; 7/8; Andijon, Namangan va Qo'qonda 2/4; 6/8; Toshkent, Jizzaxda 2/4; 6/8; Qoraqalpoqlarda 2/4; 5/8; 6/8; 7/8 va hoqazo. Qirg'izistonda 2/4; 6/8; 5/8; Turkmanistonda 2/4; 5/8; 7/8 va hoqazo. Qozog'istonda esa 2/4; 5/8; 6/8 o'lchovlari kengroq Kuzatiladi.

M:m =120. Zavqona, tantanali.

The musical notation consists of two staves. The top staff is in 2/4 time and features a continuous sequence of eighth-note pairs and sixteenth-note patterns. The bottom staff is in 5/8 time and shows a similar pattern of eighth-note pairs and sixteenth-note groups. Both staves begin with a common time signature (C) and transition to their respective time signatures.

Albatta, barcha usullar mahalliy ko'rinishlarida o'zaro farq qilgan, ularning cholg'u ansamblarida sadolanishi, savt ijro usullarida, qo'shma qaytarmalar yoki to'ldiruvchi urma cholg'ularda farqlanadi.

Buxoro qo'g'irchoqbozlar ufgari.

A single staff in 6/8 time showing a rhythmic pattern of eighth-note pairs and sixteenth-note groups, typical of the Buxoro style.

Qo'qon an'anavyi erkaklar Raqs ufarisi zorb usuliga xosdir.

A single staff in 6/8 time showing a rhythmic pattern of eighth-note pairs and sixteenth-note groups, characteristic of the Qo'qon style.

Nog'ora ufgari

A single staff in 2/4 time showing a rhythmic pattern of eighth-note pairs and sixteenth-note groups, typical of the Nog'ora style.

Farg'onadagi dorboz ufgari Buxoroning ufar uslubidan farqlanadi. Farg'ona dorbozlar ufgari o'yinida.

A single staff in 6/8 time showing a rhythmic pattern of eighth-note pairs and sixteenth-note groups, typical of the Farg'ona style.

bo'lsa,

<sup>1</sup> S.Saidiy. Markaziy Osiyo madaniyatida urma zorbli cholg'ular. (O'zbek va tojik musiqa an'analari misolida). O'quv qo'llanmasi. Toshkent. "Musiqa" nashriyoti. 2005, 2015 yil.

Buxoro dorboz ufarisi. M:m =120



yoki o'yin usuli:



Buxoro "gushtingir" ufarisi [Pahlavonlar kurashi]dagi usul:



Samarqandda ham xuddi shu usullar ijro etiladi. Toshkent dorboz o'yinida: M:m = 80-100





Andijon dorboz o'yinida:



Xorazm dorboz ufarisi.




Toshkent nog'ora usulining tasnifi, kuy va ohanglarda ham usuliy tuzilgan jihatidan boshqa mintaqalarning zamonaviy kuy va ohanglarida uchratish mumkin. Bular:



Namangan va Farg'ona mahalliy raqs usullarida ["Keldim", F.Karomatli yozuvida] doyraning alohida Erkin usul bajarishi kuzatiladi.


M:m =120



Atoqli san'atkori Yu.Rajabiy: "Avloddan avlodga, ustozdan-shogirdga Oq'zaki o'tib, bizga yetib kelgan maqomlarning shakllanishi va taraqqiyotiga har bir avlod, sozanda, xonanda va bastakorlar o'z hissalarini qo'shganlar, shu sababli maqomlarning ohang tuzilganligida, ularning nomlanishida va maqom yo'llarida jalb etiluvchi doyra usullarida turli davr yo'nalishlari chuqur iz qoldirgan" <sup>1</sup>, – deb ta'kidlaydi. Yu.Rajabiy Shashmaqom usul tuzilganishlarini chuqur tahlil etgan Buxoro Shashmaqoming barcha qismlarida usul tizimining qator variantlari mavjud

<sup>1</sup>S.Saidiy . 1998 йилда муаллиф томонидан Бухоро АРК дорбозчилари ижроларидан ёзиб олинган.

bunday holat O'zbekiston va Tojikistonda Shashmaqom «Suvoriy zarb» doira usullarida kuzatiladi.



dan iborat.

Xorazmda esa quyidagicha:



### 3. Xududiy ijrolarning qo'llanishi va tarbiyaviy ahamiyati

Markaziy Osiyo milliy va mahalliy usullaridagi urma cholg'ular bir-biridan ma'lum darajada farqlansa-da, ularning usul tasniflarida, ayniqsa ular ijrosidagi mahalliylik xususiyatlari kuy ohanglar jo'rnavozligida bir xil bo'ladi.

Urma cholg'ular ijrolaridagi ufar usuli milliy va mahalliy uslublarning eng qadimgi va sho'x, «doira zarb» usuli hisoblanadi. Sho'x bazmlar ugarsiz o'tmaydi. Ufar Buxoro Shashmaqomi, Farg'ona maqom yo'llari Toshkent va Xorazm maqomlaridan ham o'ren olgan, unda Buxoro Shashmaqomining o'zida bir necha uslubli ufarlar tasnifini ko'rish mumkin. Bular - «vazmin», «tez» va «chilliki» ufar uslubiy usullaridir. (Chilliki – 5-barmoq). S.Saidiy ma'lumotilar.

#### Tayanch iboralar;

- 1.O'zbekiston mahalliy uslublarini yozib olgan rus olimlari va etnograflari V.Uspengkiy, A.Belyayev,N.Mironov, Eyxgorn va A. Leysik va boshqalar.
- 2.O'zbekistonda rus olimlari T.Vizgo, G.Pugachenkovning tadqiqotlari san'atshunoslik ilmi va tarixiga ulkan hissa qo'shgan.
3. Buxoro Shashmaqomini ilk marotaba Levi Boboxon, keyinchalik V.Uspenskiylar yozib olganlar.

#### Nazariy savollar:

- 1.Buxoro shashmaqomini so'ngi yillarda o'zbek musiqashunoslardan kim yozib olgan?.
- 2.O'zbek xalq folklorlarini ilk marotaba kim yozib olgan?
- 3.Xalq og'zaki ijodi deganda nimani tushunasiz ?
2. Kompozitor va Bastakorning farqi nimada?
3. Yunus Rajabiy kim?

### **III BOB. UYG'ONISH DAVRI ILK SHARQ RENESSANSI MUSIQIY NAZARIY MEROΣ: XI-XIII, XV-XVII ASR 12 MAQOM VA SHASHMAQOM MISOLIDA**

**Reja:**

#### **Kirish**


- 1. Buxoro ajdodiy “shashmaqom” san’atining tarixi**
- 2. Buxoro maqomlari («Shashmaqom»)**
- 3. Xulosalar**

#### **BUXORO AJDODIY “SHASHMAQOM” SAN’ATINING TARIXI**

Markaziy Osiyo xalqlari Musiqiy merosini o’rganish borasida musiqa-shunos-manbashunos olimlar I.Rajabov, F.Karomatli, O.Matyoqubov, A.Nazarov, R.Abdullaev, O.Ibrohimov, S.Saidiy, R.Yunusovlarning ajdodlarimiz musiqa merosini o’rganishga doir olib borgan tadqiqotlari diqqatga sazovordir.

Ushbu davrda mavjud bo’lgan: 1.Buxoro ajdodiy san’ati bugungi “Shashmaqom”2. Musiqiy cholg’uchilar va hofizlar; 3. Raqqoslari; 4. Aktyorlar va masqarabozlar; 5.Yig’ichilar; 6. Qo’rikchi mextarlar,<sup>1</sup>dan iborat bo’lgan. Abu Rayhon Beruniy keltirgan ma’lumotlarga ko’ra, shu davrda Markaziy Osiyoda mahalliy aholi yil davomida 7 turdag'i bayramni keng nishonlagan bayramlardan «Navro’z» podshohnning tug’ilishi kuni sifatida tantana qilingan. Ayniqsa, xuddi shu bayram hamda shu tusdag'i o’zga urf-odatlar, marosimlar o’z navbatida yangi an’analarning shakllanishiga olib kelgan. Bu davrda fleyta [nay], arfa [chang] eng qadimgi cholg’ulardan do'l-nog’ora, yirik rez nog’ora, harbiy nog’ora, kichik nog’ora, doyra [daff], tabla, hind tablesi, qo’s, tabira kabi urma cholg’ularning o’sha davr turlari yetakchilik qilgan.Buxoro musiqa madaniyatining o’ziga xosligi darboriy [saroy] musiqa, ya’ni Buxoro mumtoz san’ati [keyinchalik Shashmaqom turkumi], diniy-marosimiy musiqa an’analari, harbiy musiqa turlari, pahlavonlar musiqasi, shahar hunarmandchilik musiqa yo’nalishi, Rustoy va Dehat, ya’ni folklor ijodiyoti namunalaridan tashkil topgan.Markaziy Osiyo va yaqin Sharq mamlakatlari zaminida musiqiy madaniyat va tasviriy san’at Yevropa va ayrim Sharq davlatlariga qaraganda juda erta rivojlangan.

Zardushtiylar davrida saroy marosimiy musiqa ijrochilik amaliyoti yuqori darajaga ko’tarilgan. Musiqa san’ati namunalarining arxeologik topilmalari, umum ijrochilik madaniyati bilan ham bog’liqidir. Chunonchi, sahnnaviy holatdagi Riton [budda haykali] minbari miloddan oldingi IV-V asrlarga tegishlidir. N.Hakimov tadqiqotlarda asosiy ta’sir doirasidagi musiqaviy san’at turlarining uslublari quyidagicha tasnif etiladi: 1. Saroy marosimiy uslublari, ya’ni haram va saroy uslublari; 2.Saroy harbiylari uslublari -a] ogohlantiruvchi tartib [salyutlar, chrashuv marshlari]; b] harbiy orkestr uslublari; 3. Madaniy tarzdagi uslublar - a] vokal madaniyati. b] sozandalik madaniyati. 4.



<sup>1</sup> Hakimov N. Istorya ispolnitelstva na narodnix instrumentov Sredney Azii.- D.: Irfon, 1989.- 160 s

Qo'shon musiqachilari madaniyati -a] shahar uslubi, b] qishloq uslubi, v] vokal va cholg'uchilik uslubi, g] harbiylar uslubi [shahar qo'riqchilari], d] marosimiy uslublar<sup>1</sup>.

Markaziy Osiyo xalqlari Musiqiy an'analaring o'xshashligi ularning yanada takomillashib borishiga asos bo'lgan. Bunda, ayniqsa, o'sha davr saroy musiqa san'ati ta'siri yetakchilik qilgan. Ijrochilik amaliyotida ayniqsa, "dabiriston" maktabi an'analarga boy bo'lgan. Shahar musiqiy madaniyatida quyidagi yo'nalishlar; Darboriy musiqasi o'sha davrda mohir va mashhur ijrochilarni saroyda jamlab, muayyan kasbiy ijrochilik oily professional maktabini rivojlantiradi. Diniy-marosimiy musiqa esa, har bir insondan Avestoning 21 kitobi, ya'ni «Gatho»larni maxsus an'analarda qayta bilishni talab qiladi.<sup>2</sup> Harbiy musiqa ustoz sozanda - mehtar rahbarligida ijro qilingan va ustoz-shogird tizimida o'rganilgan. Pahlavoniyarning alohida musiqa maktablari bo'limgan, ular asosan diniy va darboriy maktablarda ta'lim olganlar. Buxoroda shahar ustozona kasbiy musiqasi ancha taraqqiy etgan bo'lib, undan boshqa viloyatlar va davlatlarning sozanda, xonandalari ham ustoz va shogird tarzida ta'lim olganlar.

Markaziy Osiyo tarixinining V- VII asrlarda kelib Buxoro tojik musiqa san'ati yanada tiklanib, islomdan oldin rivojlanib ravnaq topgan edi. Biroq, arablar harbiy yurishidan so'ng, Markaziy Osiyoda islom dini o'rnatildi va Buxoro xalqining ajdodiy san'ati bo'lmish, hozirgi "Shashmaqom" esa "Maqom" deb yuritildi. Undan oldin esa davlatning "Ramz"i, "Madhiya"si sifatida saroy oliy an'anaviy (ajdodlar ruhi va tarixi bilan bo'g'lik) musiqa ijrochiligi merosi hisoblangan. Ushbu meros ARK-da podshohning qattik nazorati ostida kechgan va rivojlangan edi. Aholiga xizmat qilish, turli ommaviy tadbirlar o'tkazish uchun saroydan ruhsat olgandan so'ng, maxsus nazoratchilar ostida amalga oshirilgan boshqa vaqtarda esa saroyning ARK-darvozasi teppasidagi "Nog'oraxona" ostida joylashgan 25-30 metr balandlikdagi ichki va tashqi saxnasidan turib namoyish etilgan. Arab halifatchiligi Buxoro fahri bo'lgan milliy merosiga zid qarashlari bilan uni Buddaviylik san'ati va cholg'ularni ham shaytonning amri deya olovga yoqib yuborish, qonunga zid chiqqan xonandayu-ijrochilarni, raqqosu-raqqosalarni o'lim jazosigacha amr ettirilgan davr ham 200 yil davomida to'sqinlik,yo'l bermaslik va qarshiliklar ostida qoldi. Biroq, Samoniylar Davlatida buyuk feodal Podshohligi e'lon qilingandan so'ng, ushbu davrda Buxoroni "Buxoroyi-Sharif" ya'ni islom dini va madaniyati markazlaridan biri darajasiga ulug'lanishi, uning ma'nan madaniy- ma'rifiy, ilmu-fan ravnaqi rivoji va obodonchiligi hamda buyuk siymolarimizning ahamiyatidandir. Milliy san'atimiz Hazrat Ismoil Samoniyning san'atga bo'lgan alohida ahamiyati va safdoshlarining ijobiy falsafafiy dunyoqarashlari zamirida yana tiklana boshlandi.

O'zbek adabiyotshunos olimi N.Mallayev qadimiy qo'lyozmalardagi ma'lumotlarga tayanib X-XII asrlarda O'rta Osiyoda musiqa cholg'ularidan – tanbur, rubob, ko'ssa(qo'sh) nag'ora, qo'buz, tabl, zurna, nay, chag'ona, shanfur, surnay, karnay, arg'unun, qonun kabi hamda zarbli va puflama musiqa cholg'ulari ijrochilikda keng qo'llanilganligi haqida, shuning bilan birga shu davrda "Rost", "Xusravoniy", "Boda", "Ushshoq", "Zurafqand", "Bo'slik", "Sipaxon", "Navo", "Basta", "Taron" va juda ko'p Musiqiy asarlar shu nomlanishi bilan ijro etilganligi haqida ma'lumot bergen.<sup>3</sup> Tibbiyot dunyosining shayxu-raisi va allomasi Abu Ali Ibn Sino (980-1037) ham musiqa ilmiga katta e'tibor bergen. Ba'zi musiqiy risolalarda zikr etilishicha Abu Ali Ibn Sino go'yo Sulton Mahmud G'aznaviy, Nosir Xusravlar bilan birgalikda "G'ijjak" musiqa cholg'usini ixtiro qilganligi haqida ma'lumot berilgan<sup>4</sup> X asrda yashagan Muhammad Ibn Muso al Xorazmiy ham musiqa ilmiga katta e'tibor bergen. Shunday qilib XII asrlarga kelib Forobiy va Ibn Sinolarning musiqa nazariyasi asosida Xorazmlik olim Ar-Roziy hamda Ash Sherazi, Urmaviy, Amuliy va boshqa olimlar ham musiqa ilmi bilan shug'ullanganlar.

Markaziy Osiyo xalqlari tarixda juda ko'p istilochilarni, bosqinchilik harakatlarini o'z boshidan kechirgan. Masalan: Axmoniylar, Sosoniylar, Makiedoniyalik Iskandar (334), Chin xoqonlari (IV asr), Arab halifaligi (VII asr. 665), Mo'g'ul istelochilari (XII asr. 1219), va

<sup>1</sup> Saidiy S.B. Zardushtiy va buddaviyalar davri musiqa san'ati //J. Moziydan sado.- T.- 2003.- №№ 3-4. 28-29 b.

<sup>2</sup> Hakimov N. Istorija ispolnitelstva na narodnix instrumentov Sredney Azii.- D.: Irfon, 1989.- 160 s

<sup>3</sup> N.M. Mallayev. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent 1965. 94 s.

<sup>4</sup> Askarali Rajabov. "Nag'mai Niyogon". Dushanbe. Adib. 1998. 194 s.

boshqalar. Bu davrlarda Buxoro, Xorazm, Surxandaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Farg‘ona vodiysining ko‘p joylari xarobaga aylangan. Hozirgi kunda O‘zbekiston hududidagi Xorazm, Afrosiyob, Xolchayon, Termiz, Varaxsha, Bolaliktepa, Dalivarzintepa hududlarida olib borilayotgan arxeologik qazilmalar natijasida topilgan juda ko‘p yodgorliklarda adabiyot, san’at va madaniyat sohasiga tegishli hamda juda ko‘p musiqa cholg‘ularining qoldiqlari, xonanda va sozandalar aks ettirilgan suratlarning nusxalari topilmoqda.

Faqat Amir Temur zamonida Turkiston mo‘g‘ul bosqinchilaridan ozod qilindi. Movarounnahr qo‘lga olinib, Samarqand uning poytaxti deb e’lon qilindi. Undan tashqari Oltin O‘rdaga yurib Shimoliy Kavkazni, Astraxan, Qora dengiz bo‘ylari 1399 yil, Eron, Shimoliy Hindiston, Turkiya 1402 yil, keyin Iroq, Suriya va boshqa juda ko‘p mamlakatlarni egalladi. Shu davrda Movarounnahrda madaniyat, adabiyot, san’at rivojlandi.

Shuni qayt etish joizki, Temuriylardan so‘ng Markaziy Osiyoda zaminidagi ichki urushlari ham bir-biroviga qarshi bo‘lgan munosabat natijasida san’at ahlining ijodiyoti va tadqiqot-yurishlariga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. So‘ngi asrlarda Shayboniyxon davrida to’liq shakllangan “Shashmaqom” nomi bilan yana tiklandi. Ammo, Buxoro Amirligi davrining boshlarida san’at yo’nalishlari va “Shashmaqom” san’ati yana qiyinchiliklarni boshidan kechirilishiga sabab, diniy aqidaparastlarning zarbasida, ayrim qismlarni ijrochiligi to’xtatilgani va saroydan tashqariga ruhsatsiz chiqish man etilganidandir. Binobarin, oxirgi Buxoro Amiri Sayyid Olimxon davrida yana tiklana boshlaganida, Markaziy Osiyo davlatlari Chor Rossiyasi bosqini va Ateistik xujumlar qo‘liga o’tib 70-yillik zarbani boshidan kechirdi. Bunda; “Shashnaqom” go‘yo diniy, uni iijo etishni ta’qiqlash va unga nisbat milliylikni aks etguvchi eng peshqadam an’anaviy cholg‘ularimizni kasb sifatida qabul qilmaslik, bular; Tanbur, Sato, Manzur, Tablalar, Qonun va boshqa chog‘ularni o‘qitish tizimidan chetlashtirilgan edi.

Milliy iftihorimiz bo‘lgan “Shashmaqom” qariyb unutish arafasida edi, falsafiy qilib aytganda davlatimizni madaniyatini o‘ldirishga bo‘lgan intilishlar qo‘l kelayotgan edi.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov tashabbuslari ila qilingan sa’yi harakatlari natijasida 1991 yil 1-sentyabr kuni jahon oldida O‘zbekiston Mustaqil Davlat deb e’lon qilindi. Qiziqarlisi Mustaqilligimizning ravnaqi rivojida bugungi 2400 yillik tarixni qamrab olgan va ijobjiy-salbiy, u yo bu kunlarni boshidan kechirgan “Shashmaqom”, - jahonda keng dong taratgani bilan birga 2005 yilda va takroran YUNESKO- tomonidan abadiy video-tasvirga tushurilgan va arxivlangan.

Eng dolzarb yutug‘imiz va fahrimiz shundaki, Buxoro “Shashmaqom”i jahon an’anaviy musiqa san’atining markazida ham cholg‘u (Mushkulot) hamda ashula (Nasr) yo’nalishlarida abadiy 1 –(birinchi) o‘rinni egallaydi. Ikkinci o‘rinni ijrochilikda Hindiston “Raga”si egallasa, Ashula yo’nalishida Italiya “Opera”si deb YUNESKO<sup>1</sup> tomonidan abadul-abad muhrlangan!!!!

### BUXORO MAQOMLARI («SHASHMAQOM»)

Shashmaqom, ya’ni olti maqom majmuasi XVIII asrning birinchi yarmini Buxoroda (saroy sharoitlarida) maqomdan ustozlar ijodiy faoliyatiga uzil-kesil shakllangan. Ushbu muxtasham turkumini «Buzruk», «Rost», «Navo», «Dugoh», «Segoh» va «Iroq» nomli maqomlari tashkil etadi. Ularning negizida asosan parda tuzilganligi (lad, tuzuq), vazn hamda shakl qonuniyatları birligi yotadi.

Mazkur maqomlar har birida avvalo muayyan ruhiy holat, u bilan bog‘liq g’oya, mavzu va mazmun mumtoz darajada ifoda etilgan. Ilmiy-nazariy jihatdan esa maqomning mezonlari pardalar uyushmasi, uning zamirida bitilgan kuy-ohanglar vobastaligi, vazn-usul tartibi bilan belgilanadi.

Maqom nomlarining asosiy lug‘aviy ma’nolari qo‘yidagicha:

- «Buzruk» - **katta, ulug’;**
- «Rost» - **to‘g’ri, haqqoniy;**
- «Navo» - **ohang, kuy;**


<sup>1</sup> Farnsiya jurnali//, 2005 yil. Buxoro “Shashmaqom” ijrochilari rangtasvirda o‘rin olgan.

- «Dugoh»** - ikki parda yoki ikkinchi parda;  
**«Segoh»** - uch parda yoki ikkinchi parda;  
**«Iroq»** - mamlakat nomi.

Ushbu muazzam turkumga o'z mumtoz musiqa merosining alloma-tadqiqotchilaridan san'atshunoslik fanlari doktori, ustoz Ishoq Rajabov tomonidan: «Shashmaqom olti turli pardalarga moslanib va olti xil ladga asoslangan kuy va ashulalar yig'indisidan iborat» deya qisqa va lo'nda ta'rif berilgan.

Buxoro maqomlari ichidan Tasnif, Saqil, Saraxbor, Muhammas kabi kuylar, shuningdek, Xorazm maqomlari ichidagi Peshrav, Muhammas va Saqil kuylari doimiy hisoblanadi.

### Bastakor fanidan innovasion pedagogik texnologiyalar



Talabani kasbiga xos bilimini rivojlantiruvchi o'yinlar

"Insert usuli" Insert - samarali o'qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, Mustaqil o'qib-o'rganishda yordam beradi. Bunda ma'ruza mavzulari, cholg'ular haqida zamonaviy tasnif va ergologiyasi, diopozoni, qo'llanish sohasi, kitob va boshqa materiallar oldindan talabalarga vazifa qilib beriladi. Uni o'qib chiqib, «V; +; -; ?» belgilari orqali o'z fikrini ifodalaydi.

1 - ilova. Matnni belgilash tizimi

(v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.

(+) - yangi ma'lumot.

(-) - men bilgan narsaga zid.

(?) - meni o'yantirdi. Bu borada menga qo'shimcha ma'lumot zarur.

Buxoro "Shashmaqom"i yo'nalishi	V	+	-	?
Buzruk	Tasnif			
Rost		Gardun		
Navo			Tarje Navo	
Dugoh		Samoi Dugoh		
Segoh			Nasri Segoh	
Iroq				Saqiyli Iroq
Mushkulot	Cholg'u ijrochiligi			
Nasr		Ashula qismi		
Roq				Topshiruv

**Xulosalar:** Movoraunnaxr, Ayniqsa, O'zbekiston xalqlari Musiqiy merosini o'rganish borasida musiqashunos-manbashunos olimlardan; Abdurauf Fitrat, Galina Pugachenqova, Tatyana Vizgo, Fayzulla Qaromatli, Ishoq Rajabov, Otanazar Matyoqubov, Abdumannon Nazarov, Rustam Abdullaev, Oqilxon Ibrohimov, R.Yunusovlarning ajdodlarimiz musiqa merosini o'rganishga doir olib borgan tadqiqotlari diqqatga sazovordir.

Ayniqsa, I.Rajabovning "Maqomlar masalasiga doir", "Maqomlar", O.Matyoqubovning "Maqomot" asarlari va S.Saidiyning "Shashmaqom va maqom doyra usullari semantikasi"da milliy qadriyatlarimizdan bo'lmish maqomlarning nazariy va amaliy asoslari, qariyib 2000 yillik ko'hna tarixga ega bo'lgan ushbu sohada, buyuk Turon zaminida musiqa madaniyati va ijrochilik san'atining rivojlanishi qadim zamonlarga bog'lanib ketadi. Buyuk Sharq allomalari Borbad Marvaziy, Muhammad Al- Xorazmiy, Abu Nasr Forobi, Ahmad al Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Paxlavon Mahmud, Umar Hayyom, Mirzo Ulug'bek, Zaxiriddin Muhammad Bobur, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Paxlavon Muhammad, Najmuddin Kavkabi, Darvish Ali Changiy va boshqa ulug' bobokalonlarimiz o'zlarining risolalarida ijrochilik san'ati, musiqa ilmi va tarixi, cholg'u sozlarining tuzilganligi, ijroviy uslublari, san'atkorlik qonun - qoidalariga oid qimmatli ma'lumotlarni bayon etib ketganlar.

Darvishali Changiying 12 –maqom falak burjlari 12-fazoviy qarashlaridagi falsafaviy, koinotiy qarashlari masalaning teran izlanishga va yanada chuqurroq e'tibor berilishiga hayrotomuz tadqiqot talabini yuzaga keltiradi.

Munis va Ogahiying tarixiy asarlarida Niyozjon Xo'janing ismi Sayid Niyozjon tarzida uchraydi. Niyozjonxo'janing Xorazm maqomlariga qilgan muhim xizmati shundan iboratki, u Buxoro SHashmaqomi asosida Xorazmnинг milliy maqomlarini paydo qilib, kuy-qo'shiqlarini qayta ishlab, Xorazmnинг o'ziga xos milliy-mahalliy maqom tizimini ishlab chiqdi. Bunda, Xorazmnинг olti yarim maqomi nazarda tutiladi, albatta. Xorazmnинг el maqomlari, xalq kuylari esa Dutor maqomlari sifatida alohida tizim bo'lib, azaldan kelayotgan mumtoz kuy va ashulalar bo'lib qolaverdi. Zero qayd etish joizki, Buxoro shashmaqomi 6 maqomdan iborat bo'lsa, Xorazm maqomi esa Buxoroning maqomidur. Ammo, ularda teskarisiga qarab maqomni so'zlarini ham o'zgartirganlar va unga faqatgina yarim maqomga erishganligi ma'lum bo'lmoqda. Demak, 7 maqom yo 6,5 maqom emas, balkim 6 maqomligicha qoladi.

Sharqda bastakor va kompozitorlarni "Mussandif",<sup>1</sup> deb tilga olingen. Hatto, Sohibqiron Amir Temur Samarcanddagi saroyida («Mussandif»-larni jalb eting !), degan edi. Kompozitor va bastakor atamasini "Mussandif" so'ziga almashtirilsa ayni muddao bo'lur edi. Insoniyat ma'naviyati ravnaqi misolida olloh nazar solgan O'zbekiston madaniyatining serqirraligi va betakror maqom san'ati mo'jiza, bunday o'lkaning har tomonlama chuqur tarixi hamda bugungi kundagi o'mi va ahamiyati, azaldan hozirgacha moziyidan sado kabi jahonni hayratga solib bormoqda!.

## **O'N IKKI MAQOM VA TASNIFLANISHI REJA:**

- 1. O'n ikki maqom tarixi**
- 2. Shashmaqom bo'limlarida ijro namudlari**
- 3. Maqom namoyandalari faoliyati**

### **1. O'n ikki maqom tarixi**

XIV- XVII asrlarda Markaziy Osiyo, Xuroson, Ozarbayjonda o'n ikki maqom (duvozdax maqom) mavjud bo'lganligi tarixiy manbalarda o'z aksini topgan. O'n ikki maqom haqida aniq ma'lumotlarni XVI - XVII asrlarda yashab ijod etgan olimlar Najmuddin Kavkabi, Buxoriy va Darveshali Changiy o'z asarlarida aks ettirib bergenlar. Ularning risolalarida Buxoro xonligi davrida ijro etilgan o'n ikki maqom va ular asosida bastakorlar tomonidan bastalangan kuy va ashulalar va bastakorlar haqida ma'lumotlar beriladi.

Shundan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, o'n ikki maqom XVIII asrgacha qo'llanilgan. XVIII asr o'rtalariga kelib o'n ikki maqom asosida shashmaqom shakllangan deyishga to'la asos bo'ladi. Chunki o'n ikki maqomdagagi nomlarning Is'oq Rajabovning «Maqom asoslari» metodik qo'llanmasi asosida yoritildi. Toshkent – 1992 yil. Masoul mu'arrir R. Yunusov. ko'pchiligi nota

<sup>1</sup> S.Saidiy. "Sohibqiron A. Temur risola ul- Sharafiya". / Toshkent; "Musiqa" nashriyoti. 1014 yil 29-32 bb.

yozuvi bo'limganligi sababli barcha ijrodagi maqom turkumlari saqlanib qolmagan ham bo'lishi mumkin, degan xulosa ham ehtimoldan holi emas. O'n ikki maqomning sho'balarida Shashmaqomning barcha sho'balarini uchratamiz. Najmiddin Kavkabiy o'n ikki maqom tuzilganligini quyosh burjlariga asoslab 12 yo'lduz turkumlariga qiyoslaydi va quyidagi nisbat bilan tartib beradi:

- |                               |                            |
|-------------------------------|----------------------------|
| <b>1. Hamal - Rohaviy</b>     | <b>7. Mezon - Rost</b>     |
| <b>2. Savr - Zangula</b>      | <b>8. Aqrab - Hijoz</b>    |
| <b>3. Javzo - Buzurg</b>      | <b>9. Qavs - Iroq</b>      |
| <b>4. Saraton - Husayniy</b>  | <b>10. Jadiy - Busalik</b> |
| <b>5. Asad - Ushshoq</b>      | <b>11. Dalv - Navo</b>     |
| <b>6. Sunbula - Zirofqand</b> | <b>12. Xut – Isfahon</b>   |

Yuqorida ko'rsatilgan burjlar, quyoshning falak bo'ylab harakatlanishi yo'lida joylashgan yo'luzlar nomi bo'lib, quyosh yil davomida har birida bir oy bo'lib o'tadi. Burjlar aylanasinig avvalida hamal oyining kelishi esa yangi yil hisobi Navro'z bilan boshlanishi va shu kunda quyosh hamal burjiga kelishi bilan izohlanadi.

### **SHASHMAQOM (Olti maqom)**

Shashmaqom tojikcha so'z bo'lib, olti maqom ma'nosini anglatadi. Shashmaqom ijrosi qadimdan bastakor an'analari natijasida dunyoga kelgan va xalq bastakorlari ijodining mahsulidir. Bastakor so'zi forsiy atama asosida bog'lovchi degan ma'noni anglatadi. Barcha maqom turkumlari ijolarining sho'balarini qaysidir bir bastakor yaratgan va xalqona bo'lganligi uchun xalq mulkiga aylanib ketgan. Shuningdek, buning natijasida maqom yo'llari boyib boravergan. Shashmaqom o'zbek musiqiy madaniyatida beqiyos o'ringa ega va xalqimiz musiqiy merosining asosini tashkil etadi. Uning tarkibida 250ga yaqin Mushkulot (cholg'u) va nasr (ashula) yo'llari bo'lib, bularning barchasi aniq lad va uslublar asosida bir-biriga bog'langandir. Shashmaqom tarkibida o'ziga xos shakldagi yirik turkumlar bo'lib, ular Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq deb nomlanadi. Bularning har biri 20tadan 45 tagacha katta va kichik hajmdagi maqom yo'llaridan iboratdir. Shashmaqomdag'i har bir turkum yakka kuy va ashulalar tarzida sozanda, xonanda va dastalar tomonidan ijro etilgan va hozir ham ijro etiladi. Maqomlarning har biri ikki bo'limdan iborat bo'lib, ular cholg'u va ashula bo'limlarga ajraladi. Yuqorida aytganimizdek, Mushkulot va nasr deb ataladi.

Maqomlarning Mushkulot qismida bir xil nom bilan aytadigan cholg'u qismlari mavjud bo'lib, ohanglari turlicha bo'ladi, lekin usuli bir xil chalinadi ular Tasnif, Tarji, Gardun, Muhammas, Saqil deb nomlanadi. Maqomlarda nomdosh bo'limgan cholg'u qismlar ham uchraydi. Masalan, Navoda - Nag'mai Oraz, Dugohda Peshravi Dugoh va Samoi Dugoh, Segohda - Xafifi Segoh va hokazo.

Har bir cholg'u qism xona va bazgo'ylardan tashkil topgan. «Xona» - uy ma'nosini bildirib, kuyning o'zgaruvchan bo'lagidir. Bunda kuy mazmuni yangicha uslubda avj tomon harakatlanib, bosh pardaga qaytib to'shadi va mazmunan boyib boradi.

«Bozgo'y» - «qaytariq» ma'nosini anglatadi, bunda kuy xonalaridan so'ng taqroranadi va tugallanadi. Yana ijrolarning takomillashuvida «peshrav» kuy qismlari katta ahamiyat kasb etadi. Peshrav - oldinga yuruvchi ma'noni beradi va kuyning turli balandliklarida bir necha marta takrorlanadi va bozgo'yga ulanib ketadi. Shashmaqomning nasr (ashula) bo'limining sho'balarini ham bastakor ijodining mahsulidir. Bunda 200 dan ortiq turli shakldagi ashulalar mavjud bo'lib, ular asosida ham bastakorlar tomonidan yuzlab kuy va ashulalar yaratilgan. Shashmaqomning ashula bo'limlari anchagina murakkab shakldagi sho'balaridan tarkib topgan va asosan, bir-biridan ajralib turadigan ikki xil sho'balar guruhiga bo'linadi.

Birinchisi \_ Sarahbor, Talqin, Nasr va Ufar qismi. Ikkinchisining esa asosan, Savt - mo'g'ulcha shaklidagi sho'balar kiradi. Ashula bo'limi ijrolarida namudlar katta o'r'in tutadi. «Namud» - ko'rinish, o'xshash ma'nosin anglatib, ma'lum bir ashula qismining ikkinchisida

qaytarilishi tushuniladi. Namudlar shashmaqomning ashula bo'limida ko'p uchraydi. Bular Dugoh, Segoh, Bayot, Navo, Uzzol, Ushshoq, Oraz, Nasrulloyi, Muhayyari Chorgoh namudlaridan iborat bo'lib, bularning atalishidan maqomning qaysi sho'basidan olinganini bilib olish mumkin. Bir maqomdan olingan namud ikkinchi maqomda foydalanilganda, shu maqom sho'basining kuy harakati, tuzilganligi va doira usullariga moslashtiriladi. Namudlar yirik shakldagi xalq ashulalarida ham uchraydi. Bundan tashqari, an'anaviy qo'shiq ijrosidagi asosiy ishlatiladigan avjlar, ya'ni Zebo pari avji, Turk avji singari avjlar ham namudlar vazifasini bajaradi va ijroga jilo beradi.

Zebo pari avji - Segoh maqomidan tashqari barcha maqomlarda ishlatiladi va mashhur avj sanaladi. Bu avjni isfaralik mashhur hofiz Zebo pari yaratgan bo'lib, maqom va an'anaviy qo'shiq ijrosiga yangilik sifatida kirib kelgan va mashhur bo'lib ketgan. Turk avji deb nomlanuvchi avj qadimiy bo'lib, Buzruk va Segoh maqomlari sho'balarida foydalanilgan. Bundan tashqari, an'anaviy qo'shiq ijrosida ham juda zaruriy avj sifatida ishlatiladi. Mazkur namud va avjlar maqom sho'balarida kuy tuzilganmalarining qonuniy rivojlanishi, kuyning ruhi, qiyofasi lad asosining parda tuzilganligi va doira usulining xususiyatlariga moslab olinadi ular turli usuldagagi ashulalarda o'ziga xos ohang bilan jilolanadi.

Yuqorida aytganimizdek, Shashmaqomning birinchi guruh sho'balariga Sarahbor, Talqin, Nasr, ularning taronalari va Ufar qismlari kiradi. Har bir maqom turkumi Sarahbor bilan boshlanadi.

**Sarahbor** - tojikcha «sar», ya'ni bosh, axbor - arabcha «xabar» ma'nosini beradi va osha ijo yo'li mazmunini anglatadi. Olti maqomning har birida ular maqomlar nomi bilan qo'shib, Sarahbor, Buzruk, Sarahbori Rost, Sarahbori Navo, Sarahbori Dugoh, Sarahbori Segoh, va Sarahbori Iroq - deb nomlanadi ular 11-14-15 bo'g'inli she'riy vaznda ijro etiladi.

**Talqin** - arabcha «tushuntirish» ma'nosini anglatib, bu sho'ba Iroqdan tashqari barcha maqomlarda uchraydi va Talqini Uzzol, Talqini Ushshoq, Talqini Bayot, Talqini Chorgoh, Talqini Segoh deb yuritiladi. Talqinning taronalari esa, Sarahbordagi kabi vazifani bajaradi. Foylatun-foylatun-foylun she'riy vazn bilan ijro etiladi.

**Nasr** - sochma ma'nosini anglatib, ular Shashmaqomda o'n to'rtta nom bilan ataladi:

**Buzrukda** - Nasrulloyi, Nasr Uzzol;

**Rostda** - Nasr Ushshoq, Navro'zi Sabo;

**Navoda** - Nasri Bayot, Orazi Navo, Xusayniy Navo;

**Dugohda** - Nasri Chorgoh, Orazi Dugoh, Xusayniy Dugoh;

**Segohda** - Nasri Segoh, Navro'zi Xoro, Navro'zi Ajam;

**Iroqda** - Muxayyari Iroq.

Ular mafoiylun - mafoiylun - mafoiylun vaznli she'riy turkumlar asosida ijro etiladi.

Ufar - maqom ijrolarining yakunlovchi qismi bo'lib, sho'x doira usulida ijro etiladi. Har bir maqomning sho'bali va ularning taronalari turkum tarzida ijro etilib, ufar bilan tamomlanib, oxirgi suporish bilan yakunlanadi. Ufar ijrolarida turli vazndagi she'rlardan foydalaniladi.

Ashula bo'limining ikkinchi guruh sho'balar Savt va mo'g'ulchalar usulida ijro etiladigan ashula yo'llaridir. Ikkinchi guruh sho'balar besh qismdan iborat bo'lib, asosan ashula yo'llaridan iboratdir. Bundan tashqari, Talqincha, Qashqarcha, Soqiynama, Ufar shaxobchalari ham mavjuddir. Ular Ramal, Komil, Muzoreh, Rajaz, Mutroqiy vaznidagi she'rlar bilan ijro etiladi. Ikkinchi guruh sho'balar orasida Roq, Iroqi Buxoro, Mustahzodi Navo o'z tuzilganligi bilan Savt mo'g'ulcha sho'balaridan farq qiladi va ularning bosh qismlari Sarahbor va Talqin usullarida ijro etiladi.

Biz quyida Shashmaqomning har bir turkumining nomlanishi, mazmuni, kuy va ashula yo'llari tuzilganmalari haqida qisqacha bayon etishni lozim topdik va shu asosda jadvalda ko'rsatishga harakat qildik.

### 3. MAQOM NAMOYANDALARI FAOLIYATI Maqom tushunchasi shashmaqom misolida

#### ATOQLI MAQOM IJROCHILARI



Ota Jalol Nosirov



Ota G'iyos Abdug'ani



Levi Boboxonov



Usta Shodi Azizov



Domla Halim Ibodov



Karim Mo'minov

Maqom san'ati o'zining ko'p asrlik tarixiga ega. Bu turdag'i Musiqiy san'at avloddan avlodga "ustoz-shogird" an'anasi orqali meros bo'lib o'tib kelgan kasbiy musiqanining (shuningdek, ustozona musiqanining) yuksak namunalaridir. Kasbiy musiqanining ilk shakllanishida esa dastlab "saroy madaniyati" muhim o'rinn tutgan edi. Chunki, dastlabki davrlarda xalq orasidan yetishib chiqqan iste'dodli musiqachilar xon saroylariga (yoki amaldorlar xonadonida) musiqachi

bo'lib xizmat qilish uchun jalb etilganlar. Xuddi ana shunday vaziyat va shart-sharoitlar yuzaga kelgan davrlardan boshlab kasbiy musiqa qaror topa boshlagan. Demak, o'tmishda maqom san'ati bilan asosan kasbiy musiqachilar (Bastakor, kasbiy sozanda cholg'uchi, kasbiy xonandalar) maxsus shug'ullanib hayot kechirganlar.

"Maqom" atamasi asli arabcha bo'lib, ko'p ma'nolarni, shu jumladan, "o'rin", "joy", "daraja", "martaba", "manzilgoh" kabi tushunchalarni ifodalaydi. Musiqada esa dastlab "cholg'u asboblarida tovush hosil etiladigan joy", ya'ni parda ma'nosiga bog'liqdir. Yana boshqa ko'pgina mazmun jihatlari ham aynan shu pardalarga bevosita bog'lanadi: maqom — bu mukammal pardalar uyushmasi va doira usullari mushtarakligida ijod etilgan cholg'u kuy va ashulalar turkumidir.

Hozir O'zbekistonda maqomlarning uch asosiy turi mavjud bo'lib, ular quyidagicha nomlanadi:

- 1.Shashmaqom.
- 2.Xorazm maqomlari.
- 3.Farg'ona — Toshkent maqom yo'llari.

Shashmaqom—bu Olti maqom degani bo'lib, u quyidagi maqomlardan tashkil topadi:

- I. **Buzruk**—ma'nosи "katta", "ulug'", "buyuk".
- II. **Rost-ma'nosи** "to'g'ri", "chin", "haqiqiy".
- III. **Navо**—ma'nosи "kuy", "mungli kuy".
- IV. **Dugoh**—ma'nosи "ikki o'rin", "ikki joy", "ikki parda".
- V. **Segoh**—ma'nosи "uch o'rin", "uch joy", "uch parda".
- VI. **Iroq**—ma'nosи shu nomli arab mamlakatiga nisbat berilgan.

Shashmaqom XVIII asr o'talarida Buxoroda saroy kasbiy musiqachilari va musiqashunos olimlari tomonidan olti maqomdan iborat turkum tarzida ifoda etilgan edi. Bunda olti xil mukammal parda-tuzuklar uyushmasi bosh omil sifatida olinib, ularning muayyan doira usullari bilan birligi asosida ijod etilgan cholg'u kuy va aytim (ashula) yo'llari alohida- alohida turkumlarga birlashtirilgan. Demak, Shashmaqom, eng avvalo, oltita mukammal pardalar uyushmasini anglatar ekan. Maqom cholg'u kuy va aytim (ashula) turkumlari esa, ana shu mukammal pardalarning ma'lum doira usullari bilan mushtarakligi natijasida yuzaga keladi.

Shashmaqomdagi har bir maqom ikki yirik bo'limdan-cholg'u va aytim (ashula) yo'llari (turkumlari) dan iborat bo'lib, ularni "ustoz-shogird" an'anaviy mакtabida tahsil ko'rgan malakali kasbiy cholg'uchi va ashulachi-hofizlargina mukammal ijro eta oladilar.

Maqomlarni besh chiziq nota tizimi asosida yozib olish ishlari XX asr davomida bir necha bor amalga oshirildi. Xususan, taniqli kompozitor va etnograf V.A.Uspenskiy (1879- 1949) XX asrning 20-yillarda Buxoroda maqomchi ustozlar hofiz Ota Jalol Nosirov va tanburchi Ota G'iyos Abdug'anilar ijrosida salobatli olti maqom tizimini nota yozuvlarida ilk bor muhrlaydi. Shuningdek, Akademik Yunus Rajabiy (1897 -1976) ham Olti maqom tizimini ikki bor 50-yillar va 60 - 70-yillar davomida nota yozuvlari bilan bosmadan chiqardi

#### Tayanch iboralar:

- I.Buzruk—ma'nosи "katta", "ulug'", "buyuk".
- II.Rost-ma'nosи "to'g'ri", "chin", "haqiqiy".
- III.Navо—ma'nosи "kuy", "mungli kuy".
- IV.Dugoh —ma'nosи "ikki o'rin", "ikki joy", "ikki parda".
- V.Segoh—ma'nosи "uch o'rin", "uch joy", "uch parda".
- VI.Iroq—ma'nosи shu nomli arab mamlakatiga nisbat berilgan.

#### Nazorat saollari:

- 1.Buxoro Shashaqomi necha bo'lim va qismlardan iborat?
- 2.Xorazm maqomi asoschilarini kimlar?
- 3.An'anaviy ijro bilan mumtoz ijroni farqi nimada?
- 4.Maqomlarning ma'nosini nimani anglatadi?
- 5.Buxoro shashmaomi bo'limlari nechta va ranglarini izohlab bering?

## SHASHMAQOM BO'LIMLARI VA MA'NOLARI SHARHI

### Reja:

- 1. Buzruk maqomi sharhi**
- 2. Rost maqomi sharhi**
- 3. Navo maqomi sharhi**
- 4. Dugoh maqomi sharhi**
- 5. Segoh maqomi sharhi**
- 6. Iroq maqomi sharhi**

### 1. BUZRUK MAQOMI

*(Nazariy – Amaliy va Seminar)*

Oltita maqomning birinchisi Buzruk nomi bilan ataladi. Bu maqom qadimdan mashhur bo'lgan. Qadimiylar manbalarda Buzruk aniq lad tuzilgan va unga mos kuy va 27 ashulalarni ifodalagan. Hozirgacha esa Shashmaqom tarkibidagi kuy va ashula yo'llari bilan ifodalanadi.

«**Buzruk»** - forscha so'z bo'lib, «katta, ulug'» ma'nolarini bildiradi va ko'plab kuy va ashula yo'llarini o'z ichiga oladi. Shuning uchun ham ulug' maqom deb nomlanadi. Buzruk maqomining cholg'u bo'limi Tasnifi Buzruk, Tarjei Buzruk, Garduni Buzruk, Muhammasi Buzruk, Muhammasi Nasrulloyi, Saqili, Islimxon, Saqili, Sulton cholg'u ijrolaridan iborat. Bu cholg'u qismlar kuy tuzilganligi, ohangdorligi bilan mukammal asarlar sarasiga kiradi. Buzruk maqomining cholg'u va ashula yo'llarining badiiy qimmati shundan iboratki, ular asosida bastakorlar tomonidan juda ko'p kuy va ashulalar yaratilgan.

Buzrukning cholg'u qismidagi kuylar birin - ketin ijro etilgandan so'ng, sho'balarga o'tiladi. Bu sho'balar Sarahbori Buzruk, Talqini Uzzol, Nasrulloyi, Nasri Uzzol, Ufori Uzzol nomlari ostida taronalari bilan turkum tarzda ijro etiladi. Ular orasida Nasrulloyi va Nasri Uzzol Nasr sho'balari sanaladi. Ularning avjlari Ushshoq, Uzzol, Muhayyari, Chorgoh namudlari asosida bo'lib, Nasrulloyida esa Turk avjidan foydalanilgan. Hech qaysi sho'balarni kamsitmagan holda Buzruk maqomining asosiy Nasr sho'balaridan bo'lmish Nasrulloyi haqida biroz to'xtalamiz.

**Nasrullo** - shu nomli kuy va ashulani yaratgan bastakorning tahallusidir. Ba'zi manbalarga qaraganda, Xuroson hukmdori Sulton Sanjar zamonida mashhur Nasrullo hofiz o'tganligi, podshoh Sanjar va Nasrullo hofiz haqida rivoyatlar ham mavjud. Xalq orasida mashhur bo'lgan Nasrulloyi sho'basi 12 maqomda «Rohaviy» nomi bilan atalgan. Nasrulloyi ijrolari Buzrukning boshqa sho'balaridan farq qiladi va musiqa ijodiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Uning asosida turkum tarzida ijro etiladigan Nasrulloyi nomi bilan mashhur bo'lgan 5 qisqli kuylar Farg'ona Nasrullosi deb nomlangan ashula yo'llari yaratilgan bo'lib, so'nggi yillarda mashhur hofiz va bastakor Fattoxxon Mamadaliyev bu ijro yo'llarini yangicha talqin etdi.

Nasrulloyining 5 qisqli kuylar majmuini ko'hna qadimiylar sozlar bilan to'ldirilgan «Meros» ansamblı mashhur sozanda G'ulomjon Xoqiqulov rahbarligida muvaffaqiyatlari ijro etdilar. Buzruk maqomidagi yana bir mashhur ijro ikkinchi guruh sho'balaridan biri «Savti Sarvinoz» nomi bilan mashhur. Savti Sarvinozdagi kuy va ashulalar ohangdorligi bilan ajralib turadi. Bu ashula ohanglari asosida XIX asrning oxirida Shahrisabzlik mashhur bastakor maqomdon hofiz Abdurahmonbek uch qisqli turkum yaratdi. Bu turkum hozirgacha sevib ijro etiladi.

XX asrning boshlarida Marg'ilonlik Madali hofiz Abdurahmonbegi turkumini to'ldirib, uni yetta ashula yo'lini yaratdi va o'z davrida bu ijrolar «Madalibegi» nomi bilan mashhur bo'lgan va 1912 yilda plastinkaga yozdirilgan. Bu noyob plastinka hozirda Marg'ilon san'at muzeyida saqlanadi. Buzruk maqomining 2 guruhdagi sho'balaridan biri xalqning sevimli ijrolaridan Iroqi Buxoro sanaladi. Bu ijro o'zining jozibasi bilan kuy tuzilganligi, avjining xilma - xilligi bilan ajralib turadi. Iroq yo'llari asosida Cho'li Iroq, Suvoriy singari mashhur cholg'u asarlari, Toshkent Iroqi kabi ashulalar yuzaga kelgan va sevib chalinib, kuyylanib keladi. Umuman,

Buzruk maqomi Shashmaqom tarkibida bosh katta maqom vazifasini o'zining Musiqiy salobati bilan to'ldirib turadi.

## **BUZRUK MAQOMINING TUZILISHI** **CHOLG'U BO'LIMI**

1. Tasnifi Buzruk 2. Tarjei Buzruk 3. Garduni Buzruk 4. Muhammasi Nasrulloyi 5. Saqili Islimxon 6. Saqili Sulton

### **ASHULA BO'LIMI**

#### **Birinchi guruh sho'balari**

1. Sarahbori Buzruk. Tarona I-VI
2. Talqini Uzzol Tarona
3. Nasrulloyi Tarona I-III
4. Nasri Uzzol
5. Ufori Uzzol. Suporish. Ufar

#### **Ikkinci guruh sho'balari**

1. Mo'g'ulchai Buzruk  
Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma, Ufar.
2. Savti Sarvinoz shahobchalari:  
Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma, Ufar
3. Roq sho'balari:  
Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma, Ufar
4. Iroqi Buxoro shaxobchalari:  
Talqincha, Chapandoz, Soqiynoma, Ufar.

**Jami: 44 ijro.**

### **2. ROST MAQOMI**

«Rost» maqomi - qadimiylardan biri bo'lib, 12 maqomning biri hisoblangan. Rost maqomi borasida turli afsonalar ham mavjud bo'lib, Odam ato va Momo Havodan qolgan deb ham yuritiladi. «Rost» iborasi «mos keladigan, to'g'ri tushadigan» ma'nolarini bildiradi. Bu maqomning ladiga ko'p kuy va ashulalar mos kelgani uchun Rost deb nomlangan. Rost maqomi ham cholg'u va ashula bo'limlaridan iborat bo'lib, Mushkulot qismi Tasnifi Rost, Garduni Rost, Muhammasi Rost, Muhammasi Ushshoq, Muhammas Panjgoh, Saqili vazmin, Saqili Rak-rak deb nomlanadi. Rostning ashula yo'llari birinchi va ikkinchi sho'balardan tarkib topgan bo'lib, birinchi guruh Sarahbori Rost, Talqini Ushshoq, Nasri Ushshoq, Navro'zi Sabo va Ufari Ushshoq qismidan iborat. Rost maqomining ashula bo'limi bosh mavzui bo'lgan Sarahbori Rost o'zining kuy tuzilganligi jihatdan betakror ashula yo'llaridan bo'lib, juda murakkab qiyofaga ega. Rost maqomining ikkinchi sho'basi «Talqini Ushshoq» deb nomlanadi. Bu maqomda Ushshoqnomada bilan mashhur bir necha sho'ba va qismlar mavjud. Birinchi guruh sho'balardida Nasri ushshoq va Ufori Ushshoq ashula yo'llari mavjud. Ularning barchasi bir-biri bilan hamohang bo'lib, kuy tuzilganligi va tarkibiy qismlari ham bir xildir. Ushshoq iborasi arabcha «Oshiqlar» ma'nosini anglatadi. Ushshoqning cholg'u va ashula yo'llari ishqiy, lirik ohang kasb etishini o'zi ushbu ma'noga monandligini ko'rsatadi.

O'tmish musiqiy manbalarida Navro'zi Arab, Navro'zi Xoro, Navro'zi Bayot, Navro'zi Ajam, Navro'zi Sabo singari navro'z bayramiga nisbatan berilgan sho'balar mavjud bo'lganligi aytiladi. Bahor manzaralarini lirkasini tasvirlaydigan ushbu ijrolar 12 maqomda rohaviy maqomini sho'basi sanalgan. Shashmaqomda esa Rost maqomi tarkibiga kiritilgan.

Rost maqomining birinchi guruh sho'balari juda mashhur ashula yo'llari sanaladi. Ular asosida Savt ijrolari, ularning shahobchalari, Ushshoqning qator variantlari, Gulyori Shahnoz va uning shahobchalari, surnayda chalinadigan qator musiqa asarlari yuzaga kelganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Rost maqomining birinchi guruh sho'balari Sarahbori Rostdan boshlanib,

uning 4 ta taronasi aytildi. Turkum esa Talqini Ushshoqqa ulanib ketadi. Taronasining ijrosidan so'ng Nasri Ushshoqqa ulanib ketadi, so'ngra ikkita taronasi, Navro'zi Sabo uning talqinchasiga o'tiladi. Birinchi guruh sho'balari Ufori Ushshoq va oxirgi siperishi bilan yakunlanadi. Rost maqomining ikkinchi guruh sho'balariga Savti Ushshoq, Savti kalon, Savti Sabo qiradi va Rostning birinchi guruh sho'balari asosida yaratilgan bo'lib, ularning variantlari sanaladi. Bulardan Savti Ushshoq sho'basi alohida mazmunga ega bo'lib, yangicha sayqal bilan jilolanadi va boy mazmundor ashula yo'llariga egadir. Savti Ushshoqning kuy ohanglari asosida xalq Bastakorlari juda ko'p kuy va ashulalar yaratganlar. Xalqimiz orasida mashhur bo'lgan «Guluzorim», «Farg'onacha tanovar», «Tong otguncha», Xorazm dostonlarida aytildigan «Naylayin» ashulasi «Izlayman» va boshqa Farg'onacha qo'shiq va yallalar bunga misol bo'la oladi. Bundan tashqari, Muxtor Ashrafiyning «Dilorom» operasidagi Dilorom ariyasi, Doni Zokirovning «Ko'rmadim» romansi, Dadaali Soatqulovning Muqimiyligiga yozgan «Navbahor» romansi, To'xtasin Jalilov ijodiga mansub bir necha ashula yo'llari, G'anijon Toshmatovning «Istadir» qo'shig'iga o'xshagan mashhur ijrolar Savti Ushshoq hamohangligi natijasida yaratilgan bo'lib, Musiqiy madaniyatimizning durdonalariga aylanib ketgan. Rost maqomining mashhur sho'balaridan biri «Savti kalon» sanaladi. «Kalon» so'zi bastakor taxallusidir. «Savti kalon» besh qismli ashula yo'li bo'lib, uning shahobchalarini Talqincha, Qashqarcha, Soqiyonna va Ufordir. Ular asosida ko'plab kuy va ashulalar yaratilgan bo'lib, Qalandar 1- II (raqqosasidan) "Farhod va Shirin" dramasidagi Shirin ariyasi shular jumlasidandir.

Ushbu sho'badagi Soqinomayi Savti kalon ashulasi mashhur ijrolardandir. Rost maqomi yo'llariga mos kuy va ashulalar xalqimiz Musiqiy merosidan munosib o'rinni olgan bo'lib, san'atkorlarimiz tomonidan sevib ijro etilib kelinadi.

## **ROST MAQOMINING TUZILISHI CHOLG'U BO'LIMI**

1. Tasnifi Rost
2. Garduni Rost
3. Muhammasi ushshoq
4. Nasri Ushshoq. Tarona 1,2
5. Muhammasi Panjgoh
6. Saqili vazmin
7. Saqili rak-rak

### **ASHULA BO'LIMI**

#### **Birinchi guruh sho'balari**

1. Sarahbori Rost Tarona I-IV
2. Talqini Ushshoq Tarona
3. Nasri ushshoq tarona I-II
4. Navro'zi Sabo. Tarona I-II
5. Ufori Ushshoq Siporish

#### **Ikkinci guruh sho'balari:**

1. Savti Ushshoq, Shaxobchalar: Talqinchasi, Chapondozi, Qashqarcha, Soqiyonna, Ufar
2. Savti Kalon. Shaxobchalar: Talqincha, Qashqarcha, Soqiyonna, Ufor
3. Savti Sabo shaxobchalar: Talqincha, Qashqarcha, Soqiyonna, Ufor

**Jami: 35 ijro**

### **3. NAVO MAQOMI**

«Navo» maqomi - «Shashmaqom» tarkibidagi uchinchi maqom sanalib, uning tarixi ham o'tmish zamonalarga borib taqaladi. «Navo» atamasi arabcha so'z bo'lib, yoqimli kuy, ohang

degan ma'noni anglatadi. Buyuk bobomiz Alisher Navoiy ham o'z taxallusini shu atamaga monand qo'llagan bo'lib, «Navo chekuvchi, kuylovchi» ma'nolarini anglatgan. O'tmish musiqa risolalarida Navo maqomi Nag'maiy Dovudiy, ya'ni Dovud payg'ambar kuyi deb ham ataladi. O'n ikki maqomda navo maqomi ikkinchi cholg'u va ashula bo'limganidan iborat. Ashula bo'limi, birinchi va ikkinchi guruh sho'balaridan tarkib topgan. Navo maqomi sakkizta cholg'u qismiga ega bo'lib, Tasnifi Navo, Tarjei Navo, Garduni Navo, Nag'mai Orazi Navo, Muhammasi Navo, Muhammasi Bayot, Muhammasi Xusayniy, Saqili Navo deb nomlanadi. Tasnif - maqomning bosh kuyi, Tarjex – qaytarma ohanglardan iborat kuy, Gardun, Muhammas va Saqil iboralari doyra usullarining ifodasidir. Shuningdek, ashula bo'limidan Nag'mai Orazi Navo, Xusayniy Bastakorning taxalluslariga nisbatan berilgan atama sanaladi.

Navoning cholg'u yo'llari ohanglarga boy, tez ta'sir etadigan, kuylardan tuzilgangan. Navoning cholg'u qismida usullar o'zgarsada, birin-ketin kelgani uchun bir-biriga bog'liqlikni Kuzatish mumkin. Navo maqomi asosida qator cholg'u kuylari, surnay navo yo'llari yaratilgan. Navo maqomining ashula bo'limi birinchi guruh sho'balar Sarahbor, Talqin, uchta Nasr va bitta Ufar qismlaridan tarkib topgan. Birinchi guruh sho'balar - Sarahbori Navo, Talqini Bayot, Nasr sho'balari - Nasr Bayot, Orazi Navo, Husayniy Navo deb nomlanadi va o'zlarining tonlariga ega. Ularning birinchisi Savti Navo, Navo ohanglari ta'sirida yuzaga kelgan. Chapandoz doyra usulida ijro etilgani uchun «Chapandozi navo» deb ham nomlanadi. Ustoz Yunus Rajabiy «Savti» doyra usulini qo'shib, kuy yo'lining barcha harakatlarini saqlab qolib, ashula yo'lini yuzaga keltirdi. Natijada Savti Navo to'ldirilib, uning olti qismli shakli yuzaga keldi. Savti Navoning bosh ashula yo'li ijro etilgandan so'ng ijro etiladi. «Chapandozi Savti Navo» va uning Talqinchasi, Qashqarchasi, Savti Navoning mashhurligi shundaki, shu asosda barcha ijrolarda sevib aytildigan «Avji Turk» yuzaga kelgan.

Navo maqomining ikkinchi guruhga kirgan mashhur sho'balaridan biri Mo'g'ulchai Navo deb nomlanadi hamda Talqincha va Qashqarcha ashula yo'llari mavjud bo'lib, turkum sifatida ijro etiladi. Navo maqomining ikkinchi guruh sho'balaridan uchinchisi Mustahzodi Navo deb nomlanadi va unda ham Talqincha, Qashqarcha, Soqynoma va Ufar qismlari mavjud. «Mustahzod» she'r vazni ifodasi bo'lib, arabchada «orttirilgan» ma'nosini anglatadi.

Mustahzodi Navoning kuy yo'lida ham she'r shaklidagi kabi orttirilgan kuy bo'lagi mavjud bo'lib, har bir kuy jumlesi ketidan uni yakunlab boruvchi kichik bir kuy bo'lagi qo'shiladi. Mustahzodi Navoning birinchi xati - daromad, ikkinchi xati - miyonxat, uchinchi va to'rtinchi xatlar Bayot namudi, beshinchi xati Navo namudi, oxirgi xati esa – tushirim qismlardan iborat. Mustahzodi Navoning bosh yo'li ijro etilgandan so'ng uning shahobchalari - Talqinchasi, Qashqarchasi, Soqynomasi, Ufori o'qiladi. Umuman olganda Navo yirik maqomlardan bo'lib, uning ohanglari asosida juda ko'p kuy va ashula hamda surnay yo'llari yaratilgan. Bu asosda Farg'ona, Toshkent, Tojikiston vohalarida mashhur bo'lgan bayot ijrolari va turkumlari yaratilganligi va sevib ijro etilganligi yaqqol misol bo'la oladi. Bayot yo'llari shu qadar keng tarqalganki, uning asosida ko'plab variantlar yaratilgan va hozir ham izlanishlar davom etmoqda. Bastakorlar bu asosda kuy va ashulalar yaratmoqdalar. Shundan ko'rindiki, Navo maqomi asosida kelgusida ham ko'plab musiqiy asarlar yaratiladi.

## **NAVO MAQOMINING TUZILISHI ChOLG'U BO'LIMI ASHULA BO'LIMI**

1. Tasnifi Navo
2. Tarjei Navo
3. Garduni Navo
4. Nag'mai Orazi Navo
5. Muhammasi Navo
6. Muhammasi Bayot
7. Muhammasi Xusayniy
8. Saqili Navo

**Birinchi guruh sho'balari:**

1. Sarahbori Navo. Tarona I-II
2. Talqini Bayot Tarona
3. Nasri Bayot Tarona I-II
- 4 Orazi Navo Tarona I-III
5. Xusayniy Navo
6. Ufari Bayot. Suporish

**Ikkinchchi guruh sho'balari:**

1. . Mo'g'ilchai Navo shahobchalari:  
Talqincha, Qashqarcha, Soqynoma, Ufar.

2. Savti Navo shaxobchalari: Talqincha, Qashqarcha, Soqynoma, Ufar.

3. Mustahzodi Navo shaxobchalari:

Talqincha, Qashqarcha, Soqynoma, Ufar. **Jami: 40 ijro**

#### **4.DUGOH MAQOMI**

Shashmaqom tarkibiga kirgan to'rtinchi maqom - Dugoh maqomidir. Dugoh atamasи иккি о'рин, иккি joy ma'nosini bildiradi. O'n иккি maqom majmuasida Xusayniy moqomining sho'balaridan biridir. Dugoh maqomining Xusayniy sho'basini, ya'ni Dugoh Xusayniyi tinglab ko'rilsa, kuy boshlanishidagi tovushlar oraliq'idagi daromaddan oldin keladigan иккি pardani guvohi bo'lamiz. Ya'ni ashula tonikadan oldingi pardadan boshlanadi.

**Ey tan bas ayla g'amli qish o'tsa bahor bo'lur.**

Shunga o'xshash ijrolarni dugoh maqomining ko'p sho'balarida uchratish mumkin. Dugoh Shashmaqom tarkibida mustaqil maqom bo'lib, boshqa maqomlar singari cholg'u va ashula bo'limlaridan iboratdir. Cholg'u qismi va sho'baları turkum tarzida ijro etiladi. Dugohning cholg'u yo'llari Tasnifi Dugoh, Tarjei Dugoh, Garduni Dugoh, Peshravi Dugoh, Samoi Dugoh, Muhammasi Dugoh, Muhammasi Chorgoh, Muhammasi Hoji Xo'ja, Muhammasi Chor Sarxona, Saqili Ashkullo deb nomlanadi. Dugoh maqomining cholg'u yo'llari kuy tuzilganligi jihatdan mukammal asarlar bo'lib, ular badiiy bo'yoqlarga boydir. Cholg'u bo'limidagi kuylar ijro etilgandan so'ng ashula yo'li sho'balariga o'tiladi. Ashula bo'limi birinchi guruh sho'baları taronalari bilan yaxlit holda turkum tarzida ijro etiladi. Bular asosiy yo'llar sanalib, Saraxbori Dugoh, Talqini Chorgoh, Orazi Dugoh, Xusayniy Dugoh sho'balaridir va Ufar Chorgoh qismidir.

Sarahbori Dugoh maqom sho'balarining asosiy mazmunini tashkil etadi va

**Navoiyning:**

**Xolu xating xayyolidin, ey sarvi gul uzor,  
Gahi ko'zimga xol tushibdur, gahi g'ubor**

nomli mashhur g'azali bilan ijro etiladi. Sarahbori Dugoh kuy tuzilganligi jihatdan murakkab bo'lib, bir necha kuy qismlaridan tarkib topgan. Uning daromad va miyonxat qismi cholg'u muqaddima bilan boshlanib, yana bosh pardaga qaytib tushadi. Uchinchi xat Zebo pari avj, to'rtinchi, oltinchi xatlar Chorgoh namudi, yettinchi xat furovard qismlaridan iboratdir.

Sarahbori Dugoh Farg'ona - Toshkent ijrochiligida mashhur bo'lган Chorgoh yo'liga juda yaqinlik seziladi va keyin oltita taronasiga ulanib ketadi. Oltinchi taronasi suporish orqali Talqini Chorgoh, Nasri Chorgoh, Ufori Chorgoh ashula yo'llariga ulanadi. Talqini Chorgoh kuy bilan boshlanib, Daromad, Miyonxat, Muhayyari Chorgoh namudi va furovard qismlari mavjud.

Dugoh maqomining Nasr sho'balaridan biri uchta taronasi bir-biriga ulanib ketadi. Oxirgi taronasida suporish aytilib, Xusayniy Dugohga ulanib ketadi. Bu ijro rivojlanib, Farg'ona-Toshkent mashhur ijro yo'llaridan Dugoh Xusayniy turkumlariga olib keladi. Surnay Dugohi, ham shu ijroning davomiyligidir. Dugoh Xusayniy yetti qisqli ashula yo'llarini birlashtirgan. Ular bir-birlaridan Dugoh Xusayniy I, II, III, IV, V, VII deb farqlanadi.

Dugoh maqomining ikkinchi guruh sho'baları Savti Chorgoh, Mo'g'ulchai Dugoh, Oromijon - deb nomlangan ashula yo'llari va ular asosida yaratilgan ashula namunalaridan

iborat. Bular ichida murakkabrog'i Savti Chorgoh bo'lib, Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma, Ufar shahobchalari turkum tarzida ijro etiladi. Savti Chorgohnning Qashqarcha, Soqiynoma yo'llari bir-biriga o'xhash bo'lib, Ufari esa Chorgoh va Ufari Oromijon bilan hamohangdir.

Dugoh maqomining ikkinchi guruh sho'balaridan biri «Sarahbori oromijon» deb atalib, birinchisi Sarahbori Oromijon, Oromijon, Ufori Oromijon deb atalgan uch qismga bo'linadi. S.O. Daromad, Miyonxat, Muhayyari Chorgoh namudi va tushirish qismlaridan tarkib topgan. Boburning mashhur bayti bilan ijro etiladi:

**Jonimdan o'zga yori vafodor topmadim,**

**Ko'nglimdin o'zga mahrami asror topmadim.**

Dugoh maqomi asosida juda ko'p ashula yo'llari yaratilgan bo'lib, Ayniqsa, Farg'ona Toshkent ijrochiligida Dugohi Xusayniy, Chorgoh turkumlari juda mashhurdir. Dugohi Xusayniyning shahobchalari yettita bo'lib, I-Sarahbori usulda, II-Savti usulda, III-Suvoriy usulida keyingisi Qashqarcha Ufor usulda ijro etiladi. Dugoh Husayniyning surnay yo'llari ham mashhur bo'lib, Surnay Dugohi, Mushkuloti dugoh, Samoyi Dugoh deb nomlanadi. Yana bir mashhur turkum «Chorgoh» bo'lib, I, II, III, IV, V, VI tartibida ijro etiladi. Chorgoh I, kuy tuzilganligi jihatdan Sarahbori Dugohning bir ko'rinishidir. Chorgoh II esa Savti Chorgohning o'zgacha variantidir. Savti Chorgoh va Chorgoh III ning kuy tuzilganligi bir xildir. Chorgohning IV, V, VI shahobchalari kuy mavzui jihatdan bir-birining ritmik variantidir. Chorgoh yo'llari asosida ko'plab cholg'u yo'llari, Patnusaki ashulalar, surnay yo'llari yaratilgan bo'lib, ular xalqimiz musiqa merosining rivojlanishida juda katta qiymatga ega.

### **DUGOH MAQOMINING TUZILISHI CHOLG'U BO'LIMI ASHULA BO'LIMI**

1. Tasnifi Dugoh
2. Tarjei Dugoh
3. Garduni Dugoh
4. Peshrav
5. Samoi Dugoh
6. Muhammasi Dugoh
7. Muhammasi Chorgoh
8. Muhammasi Xojixo'ja
9. Muhammasi Chor Sarxona
10. Saqili Ashkullo Ufar

#### **Birinchi guruh sho'balari**

1. Sarahbori Dugoh.  
Tarona. I-VI
2. Talqini Chorgoh. Tarona
3. Nasri Chorgoh. Tarona I-III
4. Orazi Dugoh. Tarona I-III
5. Xusayniy Dugoh
6. Ufari Chorgoh

#### **Ikkinci guruh sho'balari:**

1. Mo'g'ulchai Dugoh shaxobchalari:  
Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma, Ufar, Qalandar
2. Savti Chorgoh shahobchalari:  
Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma, Ufar, Qalandar, Samandar.
3. Sarahbori Oromijon. Oromijon. Ufari Oromijon.  
Dugoh maqomi asosida yaratilgan kuy va ohanglar:  
Dugoh Husayniy I, II, III, IV, V, VI, VII  
Chorgoh I, II, III, IV, V, VI

## Jami: 55 ijro.

### 5.SEGOH MAQOMI

**Segoh** - o'n ikki maqom tizimidagi maqomlarning uchinchi pardasidan boshlanib ijro etiladigan kuy va ashulalarning namunasi bo'lib, «uch o'rinn» ma'nosini anglatadi. Hozirda Segoh atamasi kuy va ashula yo'llarini boshlang'ich uch pardasi ijro jarayonida ishlataladi. Segoh maqomining cholg'u va ashula yo'llari xalq orasida juda keng tarqagan. Segohning Patnusaki yo'li ham mavjud. Segohning cholg'u bo'limida Tasnifi Segoh, Tarjei Segoh, Xafif Segoh, Garduni Segoh, Muhammasi Segoh, Muhammasi Ajam, Muhammasi Mirzo Xaqim, Saqili Bayot Nigor deb nomlangan qismlar mavjud. Segoh maqomi turkum tarzida ijro etilsa, Tasnifi Segohdan boshlanadi. Tasnifi Segohning kuy mavzui Segohning boshqa cholg'u qismlari va sho'balarida tez-tez namoyon bo'lib turadi. Tarjei Segoh xonalari Tasnifi Buzrukdag'i Peshravlarni eslatadi. Xafifi Segoh cholg'u yo'li Tasnifi Segohning ma'lum variantidir. Doyra usullari ham bir-biridan farq qilmaydi. Gurduni Segoh kuyi mashhur bo'lib, juda yokimli eshitiladi. Segoh muhammasidagi xona va bozgo'ylarning har biri to'rttadan bo'lib, 16 taktdan iborat.

Segohning Muhammasi Ajam, Muhammasi Mirzo Xakim, Saqil Basta Nigor cholg'u qismlari kuy tuzilganligi jihatdan rang-barang ohanglardan iborat. Segoh maqomining cholg'u qismlari ijrosidan so'ng ashula qismiga o'tiladi. Ashula qismlari sho'balari ikki guruhdan iborat bo'lib, birinchi guruhga Sarahbori Segoh, Talqini Segoh, Nasri Segoh, Navro'zi Xoro, Navro'zi Ajam va Ufari Segox qismlari kiradi. Bu sho'balar bir necha taronalari bilan turkum tarzida ijro etiladi. Bu sho'balar orasida Sarahbori Segohda yetti tarona, Talqini Segohda, Nasri Segox va Navro'zi Ajamda bittadan tarona, Navro'zi Xoroda uchta tarona mavjud. Bu sho'balar orasida uchta nasr sho'balar bo'lib, ular Nasri Segoh, Navro'zi Xoro va Navro'zi Ajam nomlari bilan mashhurdir.

«Xoro» so'zi arabchada tog'li joy, «Ajam» iborasi Sharq xalqlari nomlanishi ifodasidir. Ashula bo'limi Sarahbori Segoh sho'basi bilan boshlanadi. So'ngra uning taronalari o'ziga xos yangraydi. Oxirgi yettinchi taronasi suporish deb ataladi. Sarahbori Segohga Talqini Segoh sho'basi ulanib ketadi. Talqini Segoh betakror ashula yo'li bo'lib, ko'proq Xusayniy Navo ohangini eslatadi. Nasri Segoh talqini Segoh bilan hamohangdir. Lekin yangicha ohang va mazmun kasb etadi va avjida Navo va Oraz namudlari uchraydi. Navro'zi Xoro, Navro'zi Ajam, Navro'zi Sabo sho'balari o'tmishda o'n ikki maqom tizimidagi sho'balar nomi bilan sanaladi. Navro'zi Ajam sho'basining kuy tuzilganligi bo'yicha boshqa sho'balardan farq qiladi. Unda avji Turk orqali Ufari Segohga ulanib ketadi. Segoh maqom yo'llari asosida juda ko'p xalq kuylari va ashula yo'llari yaratilgan bo'lib, yakka sozlarda, xalq cholg'u dastalari, ashulachilar ansamblari tomonidan sevib ijro etiladi.

Segoh ohanglari zamirida avj ham yaratilgan bo'lib, Segoh namudi deb yuritiladi. Segohning ikkinchi guruh sho'balari Mo'g'ulchai Segoh va segoh ohanglari asosida yaratigan kuy va ashulalardan iborat. Mo'g'ulchai Segoh o'z shahobchalari bilan boshqa maqomlardagi mo'g'ulchalardan farq qiladi. Uning tarkibida Talqinchha, Qashqarcha, Soqiyonna va Ufar yo'llaridan tashqari chapandoz doyra usullari ijro etiladigan nimcho'poniy deyilgan shahobchasi ham bor. Mo'g'ulchai Segohning Talqinchai Mo'g'ulchai Segoh, Nimcho'poniy, Qashqarcha, Soqiyonna va Ufarlari uning kuy tuzmalari negizida yuzaga kelgan. Mo'g'ulchai Segoh talqinchasi ketidan ulanib aytildigan shahobchasi «Karimqulbegi» deb nomlanadi. Mo'g'ulchai Segohning ikkinchi shahobchasi Nimcho'poniy ham xalq orasida Karimqulbegi deb ataladi. U Segohning bosh pardasidan boshlanadi. Avjida Segoh namudi va Turk avjidan foydalanilgan. Karimqulbegi XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yashagan mashhur xonanda va Bastakordir. Mo'g'ulchai Segohning oxirgi shahobchasi Ufar qismidir. Ufari Mo'g'ulchai Segoh o'ziga xos nodir ashula yo'llaridan bo'lib, sho'xchan yangraydi.

Segohning cholg'u va ashula bo'limi juda yoqimli kuy va ashulalardan iborat bo'lib, ular asosida juda ko'p kuy va ashulalar yaratilgan. Ulardan biri xalq orasida mashhur bo'lgan «Giry I-II» ashulalaridir. «Giry 1» Talqinchha usulida ijro etilib, muhammas shaklidagi she'rlar bilan aytuvchi kichik hajmli ashuladir. Uning avjida namudlar tushib qoldirilgan.

**Qo'shilsin bu muhammas bazm ichra savti gulyora**

## **Qo'ying yo'l bermangiz ulfatlar ichra bo'lsa ag'yora.**

Giryā ikkinchingin kuy tuzilganligi birinchidan farq qiladi va jadalroq surhatda ijro etiladi. «Fig'on», «Suvora», «Guluzorim» kabi ajoyib ashula yo'llari ham Segoh sadolariga asoslangan. Segoh yo'llari zaminida juda ko'p cholg'u yo'llari, maxsus surnayda chalinadigan kuylar ham yaratilgan edi.

Mushkuloti Segoh va uning Ufari, Patnusaki Segoh, Sayqal, Navro'zi Ajam va uning taronalari, Ufari Ajam shu kungacha sevib ijro etiladi. Segoh yo'llari Xorazmda ham keng tarqalgan bo'lib, «Norim-Norim» kuyi, «Feruz» ashulasi, «Eshvoy» qo'shig'i o'zining ohanglari jihatdan Segoh yo'llarining o'zgacha ko'rinishidir. Segoh maqomining cholg'u va ashula qismlari va ular asosida yuzaga kelgan namunalar o'zining badiiy - estetik qimmati bilan musiqa merosimizda sezilarli o'rin egallaydi.

## **SEGOH MAQOMINING TUZILISHI CHOLG'U BO'LIMI ASHULA BO'LIMI**

1. Tasnifi Segoh:
2. Tarjei Segoh
3. Xafifi Segoh
4. Garduni Segoh
5. Muhammasi Segoh
6. Muhammasi Ajam
7. Muhammasi Mirzo Xaqim
8. Saqili Basta Nigor

### **Birinchi guruh sho'balari**

1. Sarahbori Segoh Tarona I-VI
2. Talqini Segoh Tarona
3. Nasri Segoh. Tarona
4. Navro'zi Xoro. Tarona I-III
5. Navro'zi Ajam. Tarona
6. Ufari Segoh. Suporish

### **Ikkinci guruh sho'balari:**

1. Mo'g'ulchai Segoh shahobchalari:  
Talqinchai Mo'g'ulchai Segoh Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma, Ufar Segoh maqomi asosida yaratilgan kuy va ohanglar:  
Mushkuloti Segoh va Ufar, Patnusaki Segoh, Sayqal, Navro'zi Ajam va taronalari, Ufari Ajam, Giryā I, II.

**Jami: 45 ijro**

## **6.IROQ MAQOMI**

Iroq maqomi qadimgi maqomlardan bo'lib, u xaqda ma'lumotlar ming yildan buyon manbalarda qayd etiladi. Bu davrlarda lad qurilmalari kuy va ashula bo'limlari bir necha bor o'zgarishi tabiiy bo'lib, «Shashmaqom» tarkibida esa asrlar osha takomillashuvi natijasida o'ziga xos o'ringa ega bo'lган maqomdir. «Iroq» iborasi Sharqda mashhur bo'lган arab mamlakati va unga nisbatan berilgan maqom nomidir. Maqomlar qadimdan mashhur mamlakatlar, shaharlar, yaratilgan betakror bastakorlar nomlari bilan nomlanib kelgan.

«Iroq» maqomi Sharq xalqlari musiqasida muhim o'rin tutadi va turli xalqlarda bir-biriga o'xshamagan o'ziga xos ohanglar asosida yuzaga kelgan. Shashmaqomdag'i Iroq maqomi esa O'zbek va tojik xalqlari musiqasining lad-tonalligi, vazn va usullari, kuy tuzilmalari xususiyatlari orqali chambarchas bog'liqidir. Uning tayanch pardalari I, IV, V, VI- bosqichlardir. Iroq maqomi ham cholg'u va ashula bo'limidan tarkib topgan bo'lib, uning cholg'u bo'limida Tasnifi Iroq, Tarjei Iroq, Muhammasi Iroq, Saqili Iroq 1, 2, Saqili Kalon deyilgan kuy yo'llari mavjuddir. Tasnifi Iroq ushbu maqomning bosh kuy mavzui bo'lib, ancha keng. Sakkizta xona va bozgo'ydan iborat. Iroq maqomining Tasnif, Tarje, Muhammas va Saqil yo'llari yaxlit holda birin-ketin ijro etilgandan keyin, uning ashula bo'limi sho'balariga o'tiladi. Ular Sarahbori Iroq,

Muxayyari Iroq, Chambari Iroq va Ufari Iroq deb nomlanadi. «Iroq»da ikkinchi guruh sho'balari uchramaydi. «Iroq» maqomi sho'balarining kuy tuzilganligi va ijro etish uslubi murakkab bo'lgani uchun ko'pchilik xonandalar ijro eta olmaganlar. Lekin professor Fitratning yozishicha, mashhur Buxorolik maqomdon hofiz Ota Jalol Muhayyari Iroq asosida besh qismli Savt sho'basini yaratgan va «Savti Jaloliy» deb nomlangan. Uning Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma, Ufar shahobchalar bo'lган.

Iroqning ashula yo'llari turkum Sarahbori Iroq bilan belgilanadi. Bu ashula yo'lining kuy tuzilganligi juda murakkab bo'lib, u kichik oktavaning «lya» pardasidan boshlanib, ikki yarim oktavagacha, ya'ni uchinchi oktavaning "re" pardasigacha ko'tariladi. Bu ijroni kamdan - kam hofizlar bajarishgan bo'lib, ko'proq xotin-qiz ovozlar bo'lган maqom ansamblarda avjlarini to'ldirganlar.

Sarahbori Iroq cholg'u muqaddimasidan so'ng ikki baytdan iborat ashula jumlalari bilan boshlanadi. Uchinchi xati o'rta parda, ya'ni Miyonxat, to'rtinchchi va beshinchi xatlar Zebo pari avji, oltinchi va yettinchi xatlar - Muhayyari Chorgoh namudi, oxirgi xat tushurish ya'ni furovard qismlaridan iborat. Saraxbori iroq xalqimiz orasida iroq nomi bilan mashhur hamma kuy ashulalarning asosi bo'lib xizmat etgan. Sarahbori iroq o'qilgandan so'ng uning oltita taronasi birin-ketin ijro etiladi. Qolgan to'rtta taronasi esa Nasr doyra usulida ijro etiladi. Sarahbori Iroq taronalari bilan birgalikda ijro etilgandan so'ng Muxayyari Iroq sho'basiga o'tiladi. Muxayyari Iroq nasr sho'basi bo'lib, Muxayyari Chorgoh namudining turli balandliklarda takror ijro etiladigan variantidir. Muxayyar - «tanlab olingan» degan ma'noni bildiradi. Muhayyari Iroq Dugoh maqomi ladiga mos bo'lib, Chorgoh sho'basi bilan hamohang kuyylanadi. Shuning uchun uning asosida yaratilgan namud «Muxayyari Chorgoh» deb atalishi ehtimoldan holi emas. Muxayyari iroq mungli, dardli, ta'sirchan yangraydi.

Muxayyari Iroq ijrosidan so'ng uning to'rtta taronasi va siperishi o'qiladi. Birinchi taronasi Farg'ona va Toshkentda mashhur bo'lган «Chorgoh-2»ning o'zidir. Lekin avjida muxayyari Chorgoh namudi kiritilgan. Ikkinchi tarona ham Chorgoh yo'llarini eslatadi. Uchinchi va to'rtinchi taronalari kuy tuzilganligi boshqacha bo'lib, Bastakor ohanglardan iborat. Suporish esa Sarahbori Iroq kuy jumlalaridan iborat. Iroq maqomining yana bir sho'basi Chambari Iroq deb nomlanib, birgina ashula yo'lidan iborat. Chambari Iroq Farg'ona va Toshkentda mashhur bo'lган «Suvora»ni eslatsada, talqincha doyra usulida ijro etiladi. Chambari Iroq cholg'u muqaddima bilan boshlanadi. Uning birinchi xati - Daromad, ikkinchi va uchinchi xatlar - o'rta pardalarda ijro etiladigan Miyonxat, to'rtinchi xati Zebo pari avji, beshinchi, yettinchi xatlar Miyonxatning yangilanishi, oxirgi xati esa furovard qismlaridan iborat. Iroq maqomining Ufari muxayyari Iroq bilan ohangdosh bo'lib, uning Ufar doyra usulidagi ko'rinishidir.

Umuman olganda, Iroq maqomi turkum boshqa maqomlarga nisbatan anchagina ixcham, uning tarkibida Sarahbor va bittagina Nasr sho'basi hisoblangan Muxayyari Iroq mavjud bo'lib, unda «Talqin» yoki «Chapandoz», ikkinchi guruhga kiradigan «Savt» va «Mo'g'ulcha» sho'balari ham yo'q. Lekin Iroq yo'llari asosida juda ko'p kuy va ashula yo'llari yaratilgan bo'lib, misol uchun Cho'li Iroq, Ufari Mushkuloti Iroq, Toshkent Iroqi, Bozurgoniy, Surnay Iroq'i va qator ijrolarni ko'rsatish mumkin. Shunday qilib, Iroqning cholg'u yo'llari ijro etilib, uning Sarahbori va Nasr sho'balari taronalari bilan o'qilgandan so'ng Ufar qismi va suporish bilan turkum tugallanadi.

## **IROQ MAQOMINING TUZILISHI CHOLG'U BO'LIMI ASHULA BO'LIMI**

1. Tasnifi Iroq
2. Tarjei Iroq
3. Muhammasi Iroq
4. Saqili Iroq 1,2
5. Saqili Kalon

### **Birinchi guruh sho'balari:**

1. Sarahbori Iroq.  
Tarona I-VI

2. Muxayyari Iroq  
Tarona I-IV
3. Chambari Iroq, Ufar, Suporish «Savti Jaloliy» sho'basi: Talqincha, Qashqarcha, Soqynoma, Ufar
- Iroq maqomi asosida yaratilgan kuy va ohanglar: Cho'li Iroq, Ufari Mushkuloti Iroq, Toshkent Iroqi, Bozurgoni, Surnay Iroqi.
- Jami: 31 ijro**
- Umumiy Shashmaqom ijrosi ba'zi taxminlar asosida 250 ijro deb olindi.

## **XVIII-XIX ASR IKKINCHI YARMI: XORAZM VA FARG'ONA - TOSHKENT MILLIY MAQOM IJROCHILIGI VA NAMOYANDALARI**

**Reja:**

- 1. XVIII asr— XX asr boshlarida Xorazm musiqa madaniyati**
- 2.Xorazm maqomi tarixi va namoyandalar**
- 3. Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari**

### **1.XVIII asr— XX asr boshlarida Xorazm musiqa madaniyati**

Musiqa haqidagi fikr azaldan uning ajralmas bo'lagi bo'lib kelmoqda. Kuy ma'nosini ifodalaydigan maxsus til topilgan emas. Ammo asrlar davomida musiqaning ma'no-mazmuni va tuzilganligiga oid ko'plab afsona, rivoyat, tushuncha hamda ta'limotlar yaratilgan. Ular musiqa madaniyatimizning tarkibiy qismi sifatida kuy va ashulalarning tuzilgani tartib-nizomlarini idroklashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Musiqiy risolalar mazkur fikr va mulohazalarning eng izchil qismi, birinchi navbatda, ilmiy negizlarga tayanuvchi mumtoz musiqa – maqom navlariga taalluqlidir.

Safiuddin Urmaviy (1216-1294) va Temuriylar davrining “so'ibi advori”,sifatida e'tirof etilgan Abdul Qodir Marog'iy (1435) ulug' nazariyotchi va ayni chog'da, zabardast sozanda san'atkor bo'lganlar.

Bag'dodda yashab ijod etgan Urmaviy hamda umrining ko'p qismini Samarqand va Hirotda o'tkazgan Marog'iy islam dunyosida Forobiy va Ibn Sinolardan keyingi musiqa ilmiga ulkan hissa qo'shgan buyuk olimlar sifatida ehtiyoф etilgan. Ularning musiqa ilmiga bag'ishlangan risolalari mumtoz musiqa merosini o'rganishda tayanch manba bo'lib xizmat qiladi.

Advor ilmi hukm surgan davrlardan boshlab, Xorazmda xalfachilik san'ati va dutor maqomlari xalq orasida keng tarqalgan bo'lib, “ochiq tizim” tarzida joriy etilgan. Aniqroq aytganda, bularga usullar almashinib turishi, turkumlanish tartibi, so'z matnlari o'zgarib kelishi xos bo'lgan.<sup>1</sup> Ana shu asosda muayyan parda va usul tizimlari doirasida xilma-xil tasnifot (kompozitsiya) navlarida ijod qilingan. Tasniflar ham parda va usullarga o'xshatib alohida nomlar bilan belgilangan. Yaxlit bir qismliklari kor-amal, qavl, g'azal, savt, tarona, peshrav, ko'p qisqlik turkumlar navba va navbatli murattab deb atalgan<sup>2</sup>.

Maqom atamasi parda tizimidan tashqari, yana nav (janr) ma'nosiga ham ega. Shashmaqom esa muayyan ladlar asosida ishlangan kuy va ashulalardan iborat barqaror majmua. Shashmaqomning 160 yildan ziyod tarixi to'g'risida yozma manbalar mavjud. Shu muddat ichida bitta maqom kamaymadi ham, oshirilmadi ham.Demak, maqom tushunchasi quyidagi ma'nolarni anglatadi. Birinchisi, amalda urf etilgan parda tizimi. Ya'ni, muayyan kuy va ashulalar majmuasiga asos bo'ladijan parda birliklari. Ikkinchisi, bu muayyan parda hamda usullarga asoslangan kuy va ashulalar turkumi. Uchinchidan, mumtoz musiqa janri.

---

<sup>1</sup> Мумтоз мусиқа намуналарини эркин тарзда ижро этилиши “очик тизим”, барқарор шакл сифатида намоён бўлиши “ёпиқ тизим” сифатида эътироф этилган.

<sup>2</sup> Матёкубов О., Болтаев Р., Аминов Х. Ўзбек нотаси. – Тошкент, 2007 Б. 12.

Shashmaqom so'zi esa lug'atda "olti maqom" deganni bildiradi. Shash-maqomning olti qator kuya tenglashtirishni Abdurauf Fitrat ehtirop etgan: "Bizning klassik musiqamiz "Shashmaqom" ismi bilan yurgizilgan olti qator kuylardan iborat"<sup>1</sup>.

Ana shu asosida Shashmaqom tarkibidagi kuy va ashula yo'llari yuzaga keladi hamda ular yaxlit majmuani tashkil qiladi. Bu o'rinda shashmaqomda ikki turga mansub shakllar yuzaga keladi – mushkilot va nasr yo'llari.

Mushkilot va nasr bo'limlari, o'z navbatida, yanada kuyiroq tasnifot turlaridan (tasnif, tarje, gardun, muhammas, saqil, sarahbor, nasr va boshqalardan) tarkib topadi. Xullas, shashmaqom nafaqat murakkab parda tizimi, balki uning asosida yuzaga kelgan serqatlam va ulug'vor shakllar majmuasini ham anglatadi. Shashmaqom negizidagi parda va usul tizimlari ham ilmiy, ham amaliy asoslardan kelib chiqqanligi shubhasiz. Mavzuga oid ilk risola va bayozlar esa, eng avvalo, shashmaqom urf-odatlari haqidagi ko'proq amaliy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Ularni mohiyatan amaliyat qaridagi ilmiy tushuncha va iboralar tizimi deyish mumkin. Mazkur atamalarni izchil nazariy tizim sifatida yuzaga chiqarish uchun shashmaqom udumlarini chuqur va atroflicha o'rganish lozim. Ayniqsa, maqom ustozlari bisotida saqlanib kelayotgan bilim va tushunchalarni yozma manbalardagi ma'lumotlar bilan qiyoslab, ilmiy tahlil qilish zarur.

An'anaviy musiqa tizimida yangi paydo bo'lган nav va uslublar oldingilarini inkor qilmaydi. Ma'lumki, XIX asrning boshlarida Shashmaqom Xorazmda ham joriy etila boshlangan. Mulla Bekjon Rahmon va Muhammad Yusuf Devonzodalarning "Xorazm Musiqiy tarixchasi"da mana bular qayd etiladi: – Muhammad Rahimxon- I zamonida mashhur musiqashunos xivalik Niyozjonxo'ja degan Buxoro o'lkasiga kelib, oldindan ma'lum bo'lган Shashmaqom yo'llarini tanbur bilan o'rganib Xivaga qaytgan ekan. Bu odam Xivaga kelgani bilan sozdagи iqtidor va mahorati Xorazm musiqashunoslarning nazari- diqqatlarini jalb qilgan.

Bugun biz Mazkur jarayon haqida bir muncha aniq taassurotlarga egamiz. Xorazm ustozlari shashmaqomni ijodiy o'zlashtirish bilan bir qatorda juda ko'plab yangi nom, kuy va ashulalarni qo'shganlar. Jumladan, Shashmaqomda ishlatilmagan Suvoriy degan yirik qismlar kiritilgan. Xorazm maqomlarida usullar tizimi Buxoro shashmaqomi bilan farq qiladi (boshqacharoq ishlangan). Nufurdam (Xorazm maqomlaridagi taronaning tezkari usuli), Chor usul, Se usul<sup>2</sup>, Murabba, Musaddas, Musabba, Gulufar, Foxtiy zarb nomli usullar kiritilgan. Ufar usuli (Buxoro maqomlaridagi Ufarlarga nisbatan) Xorazmda ham boshqacha talqin qilinadi (nomi bir xil bo'lsa ham).

XVIII-XIX asrlarda Xorazmga xos "Miskin", "Bebokcha", "Bozurgoni", "Qalabandi" nomli mumtoz kuy va ashula nomlarini tarqalishi shu davrda Xiva va Qo'qon xonliklari o'rtaсидаги madaniy aloqalar mavjudligidan darak beradi. Bu haqda M.Raxmonov o'zining "O'zbeksiy teatr" kitobida shunday yozadi. "Qo'qon xoni Muhammad Umar xon (1808-1822) o'z poytaxtiga Xivadan mashhur sozanda va Bastakor Xudayberdi ustodni oldirdi. Keyin xon bo'lmish Madali xon Xudayberdi ustodni maslahatiga ko'ra, Xivalik sozanda va bastakorlar Solihbek va Mo'min-beklarni oldirdi"<sup>3</sup> deyiladi. O.Odilov "O'zbek cholg'ularida ijrochilik tarixi" kitobida "Xudoyberdi ustodning faoliyati Qo'qonda kechganligi o'zining atrofiga sozandalarni yig'ib ansambl tuzgani hamda ularga ustozlik qilgani" xaqida yozadi.<sup>4</sup> Ushbu ma'lumotlar Xorazmda shu davrda mavjud bo'lган Tanbur va Dutor maqomlarini Farg'ona vodiysi va Toshketda ham keng tarqalganligidan ma'lumot beradi.

Maqom turlarining o'zagini tashkil qiluvchi shashmaqom majmuasi ilk bor XIX asrda Buxoroda yaratilgan musiqiy risola va bayozlarda ta'rif etiladi. Biroq shashmaqomning ayrim sifatlarini oldingi asrlarga oid musiqiy risolalarda qayd etilgan navlarda ham kuzatish mumkin.

<sup>1</sup>Фитрат. Ўзбек классик мусиқаси ва унинг тарихи. – Тошкент ,1993.-Б. 10.

<sup>2</sup> Бухоро Шашмақомида В.Успенский таърифида номи бор, куйи йўқ

<sup>3</sup> М.Рахмонов "Ўзбекский театр".-Тошкент,1981.-Б.-183-185 .

<sup>4</sup> Одилов А."Ўзбек чолгуларида ижрочилик тарихи" Тошкент; 1995.й. Б.-24

Xususan, XVI asr boshlarida Buxoroda yashagan Najmiddin Kavkabiy risolasida umumiy tuzilganligi shashmaqomga o'xshaydigan "Kulliyot" navi tilga olinadi<sup>1</sup>.

Xiva xonligida boshqa ilmlar qatori musiqa ilmi rivojiga ham etibor katta bo'lgan. Xiva xonligi Amudaryoning kuyi oqimini (Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm viloyati va Turkmaniston Respublikasining Dashoguz viloyati) egallagan edi. Rossiya istilo qilish arafasida Xiva xonligining umumiy maydoni 130598 km<sup>2</sup> ni tashkil etgan. Xonlik yerlari Qizilqum, Qoraqum va Ustyurt cho'llari bilan qurshab olingan. Xonlikning janubiy qismida aholi zich, shimolida asosan chorvadorlar yashagan.

XVIII asrning oxirida Xiva xonligiga Avazbiy inoq (1790-1804) xon etib tayinlandi. U va o'g'li Avaz inoqlar davrida mamlakatni idora etishda qushbegi – ma'muriy ishlar, mehtar – moliya ishlari, otalik - askar boshliklaridan iborat urug' boshliklariga suyangan kengash mavjud edi. Ammo inoqlar xonlarni o'zi qo'yari, istasa almashtirar, o'zi esa qo'ng'irot xonlar nomidan mamlakatni boshqarar, bu xonlar qozoq shahzoda va to'ralaridan keltirilar edi.

Avazbiy inoq vafot etganidan keyin Eltuzar (1804-1806) inoq bo'ldi va sal vaqt o'tmasdan o'zini mutlaq xon qilib ko'tardi. Endi qozoqdan xon keltirilmaydigan bo'ldi, shunday qilib, xonlikning qo'ng'irotlar sulolasiga rasman asos solindi. Avazbiy inoq oz vaqt ichida davlat boshqaruv tizimini takomillashtirishga erishadi. Munisga Xorazm tarixini yozishini topshiradi, boshqa tillardan badiiy tarjima qilish ishlarini yo'lga qo'ydi. Eltuzarxon mamlakatning eng olis chekka hududlarini o'z ko'zi bilan ko'rib, chegaralarni mustahkamlash chora-tadbirlarini ko'rdi. U xonlik taxtini olgandan keyin Xiva xonligining ishlariga aralashib kelayotgan Buxoro amirligiga qarshi kurashga otlandi. 1806 yili ikki xonlik o'rtasida bo'lgan Shayx Abbas valiy (Shabboz) mayzeida bo'lib, o'tgan jang Xiva askarlarining mag'lubiyati va Eltuzarning halokati bilan tugaydi.<sup>2</sup>

Eltuzarxonning umr yoshi 37- xonlik muddati esa 2 yilu 3 oyu 23 kun bo'ldi. Ko'p yillik notinchlik davridan keyin Xiva taxtiga barqaror siyosatini olib borgan Eltuzarning ukasi Muhammad Rahim I (1806-1825) o'tiradi. Uning davrida Xorazm maqomlarida yuksak taraqqiyot kuzatilgan. "Xorazm musiqiy tarixchasi"da aytlishicha,<sup>3</sup> "Muhammad Rahimxon Feruz va uning otasi Sayid Muhammadxon davrlarida dutor soziga bo'lgan ahamiyat ortadi. Bu davrlarda xon va to'ralar, bek va bekzodalar, o'rta tabaqa xalq bazmlarida tanbur, g'ijjak, bo'lomon, doira sozlari orasida dutor yetakchi o'rinda turgan. Natijada, Xivada Xo'janazar ko'rd kabi mahoratlari dutorchilar paydo bo'ladi. Uning Xazoraspdan Pahlovonboy, Bobojon miyan kabilar dutor o'rganadilar. Silsilani Usmonjon, Yoqub dorchi kabi dutorchilar davom ettiradi"<sup>4</sup>.

"Xorazm musiqiy tarixchasi"da yozilishicha, "Shul Niyozjon Xo'jadan Mahsumjon qozi, Usto Muhammadjon sandiqchi deganlar shashmaqom degan nag'malarni tamom o'rganadurlar. Mazkurlar o'rgangan nag'malarni havaskor shogirdlariga talim qilmoqqa boshlab ko`pgina tanburchi shogirdlar yetushtirdilar. Niyozjon Xo'janing shogirdi Muhammadjon sandiqchidan Abdusattor mahram o'g'li ta'lim oladur."<sup>5</sup>

O'zbekiston milliy entsiklopediyasida bu haqda quyidagi ma'lumotlar berilgan: "Muhammad Rahimxon (1806-1825) davriga kelib Niyozjonxo'ja va uning shogirdlari Muhammadjon qozi, Muhammadjon sandiqchi Abdusattor mahram va uning shogirdi Xudobergan kosib va boshqalar tanbur maqomi rivojlanishiga katta hissa qo'shdilar"<sup>6</sup>

Tarixiy manbalarda ko'rsatilishicha, Niyozjon Xo'ja keyingi davrda xonlikni boshqargan Olloquli xon paytida Buxoroda elchi bo'lib ishlagan. Buxoro va Xorazm oralig'ida juda zo'r savdo sotiq madaniy aloqalarni yo'lga qo'ygan. Buxorodan qaytib kelgandan keyin Niyozjon Xo'jaga xon tomonidan Xivada katta bog' in'om qilingan. Shu bog'da maqom kechalari uyushtirilgani hozirda ham shu bog'ni kichkina bir qismi saqlangan. Bog' ayvoni peshtog'iga

<sup>1</sup> Кавкабий Нажмиддин. Рисолаи мусиқий. ЎзР ФА Шарқшунослик институти қўлёзмалар фонди инв.№ 456/11.

<sup>2</sup> Бу жанг ҳакида Бухоро тарихчилари ҳам маълумотлар ёзиб қолдирганлар. Лекин уларда Бухоро амирлиги сиёсати ёқланиб, Хоразм тарафи айбор сифатида кўрсатилган

<sup>3</sup>Мулла Бекжон Раҳмон ўғли, Мухаммад Юсуф Девонзода Ўша асар. –Б. 8.

<sup>4</sup> Мулла Бекжон Раҳмон ўғли, Мухаммад Юсуф Девонзода. Ўша асар –Б. 25.

<sup>5</sup> Мулла Бекжон Раҳмон ўғли, Мухаммад Юсуф Девонзода. Ўша асар. –Б.9.

<sup>6</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 9 жилд .Тошкент ,2005. - Б. 475

Niyozjon Xo'jani nomi bilan bog'liq yozuvlar yozilgan joyi ham mavjud. Bog' hozirgacha Xo'jabog'i nomi bilan yuritiladi.

“Muhammad Rahimxon I vafotidan keyin uning o'g'li Olloqulixon (1825-1842) taxtga chiqadi. Olloqulixonga otasidan boy xazina va qo'shni davlatlarga ta'siri katta bo'lган mamlakat meros bo'lib qoldi. Ammo mamlakat hayotining qator sohalarida ma'lum ijobiy o'zgarishlar sodir bo'lган. Natijada xonlik sarhadlari yanada aniqlik kasb etdi, boshqaruv tizimi takomillashdi. Bu sohada “xon joriy qilgan rasmiy lavozimdagilarni vaqt-i-vaqt bilan xon huzuridagi maxsus yig'inda, hozirgi kun tushunchasi bilan aytganda, tanlovdan o'tkazib borish kabi tadbirlarning ahamiyati sezilarli bo'ldi”<sup>1</sup>. Olloqulixon davrida Xorazm vohasi uchun hayotiy zarurat bo'l mish sug'orish tarmoqlarini tartibga solish, ekin maydonlarini kengaytirib borish kabi ishlarga e'tibor berildi. Natijada bu vaqtga kelib, Xiva xonligi iqtisodiy rivojlanishning ayrim sohalarida mintaqadagi qo'shni xonliklarga nisbatan ustunlikka erishdi. Olloqulixon davrida ilm, adabiyot, san'at va madaniyat ahllarining moddiy hamda ma'anaviy tomonidan qo'llab-quvvatlanishi natijasida madaniy hayotda ham ma'lum jonlanish yuz berdi.

Yangi madrasa va masjidlar bunyod etildi, shahar qurilishi sohasida ko'zga tashlanadigan yutuqlar qo'lga kiritildi, hunarmandchilik rivojlandi. Olloqulixonning muhim ishlaridan biri Xivaning Dishon qal'asini tiklatishi bo'ldi. Bu haqda Ogahiy yozadi: “ul yili 1258 (1842) Muhammad Yoqub mehtar va Otamurod qushbegi boshchiligidagi rajab oyining sakkizida dushanba kuni Xiva devorini qurish boshlandi va o'ttiz kun davomida qurib bitkazildi”<sup>2</sup>. Qal'a devorini qurish xonlikdagi ikki yuz mingdan ziyod kishi safarbar qilingan va uzunligi 6250 metrlik devor bir oy ichida qad rostlagan.

XIX asrning oxirgi choragida Mustaqil rivojlanayotgan va O'zbek davlatchiligining bir qismi bo'lган Xiva xonligi g'oyat murakkab va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni boshidan kechirdi. O'rta Osiyoga tajovuzkorona yurish qilib Qo'qon xonligi va Buxoro amirligi hududlarini egallagan Rossiya imperiyasi 1873 yili katta kuch bilan Xiva xonligiga ham istilochilik yurishini boshladi.

Tarixshunoslik, adabiyotshunoslik, musiqashunoslik va tarjimonlik sharafli fazilat sifatida e'tirof etildi. Olloqulixon shoirlikqa davo qilmagan bo'lsa ham, she'riyat va musiqa ilmiga juda havasli bo'lган. Mazkur davrda Xorazmda ro'y bergen madaniy yuksalish haqida so'z borar ekan, nufuzli majlis, bazm va ziyofatlarning nafaqat ilmu irfon ahli, balki kengroq ijtimoiy ahamiyatga molik adabiyot va musiqa san'atlarining rivojlanishi uchun muhim omil bo'lganligini ham tahkidlash zarur. Ushbu munosabat bilan 1841 yilning muharram oyida Olloqulixonning nabirasi Muhammad Ali tug'ilishi sharafiga yozilgan to'y dasturxoni qo'shni mamlakatlardan mehmonlar tashrif buyurgan ibratli jamoa yig'ini tarzida kechganligini eslash lozim: – “hazrat podsho' nabira ko'rganligidan behad shodlanib davlat azmi shukronasi uchun mazkur oyning so'ngida, dushanba kuni tosh hovlida ziyofati shoxona va hisravona bazm muhayyo qildirib, jami ulamo, umaro va arkoni davlatni undab, turli noz-ne'mat va qandolatlarni serob qilib sochib tashladi.

Shu to'y kechasi bahor ta'rifi va ushbu voqeaga bag'ishlab Ogahiy bir qasida yozgan va ul hazrat mulozamatida aytib o'qigan. Xon hazratlari nihoyatda ta'sirlanib tahsin aytib, sovg'a-salomlar bilan o'ttiz besh tillo marhamat qilgan. Va yana iltifot qilib, she'rni kuyga solishga undab, targ'ib qilgan”<sup>3</sup>.

Xiva xoni Muhammad Rahim Soniy musiqa san'atining holati, an'anaviy musiqa san'atining turli janrlarini rivojlantirishga e'tibor qaratgan. Masalan, musiqa asboblarini har bir kishi chala olishi uchun hukmdor tomonidan Xorazm musiqa san'atini ommalashtirish haqida ko'rsatmalar berilgan.

Muhammad Rahimxon Feruz sozandalikni kasb etmagan, lekin soz ilmiga o'ta qiziqqan. Mo'tabar urf-odatlar yo'lida kuylar ijod etib, Xorazm maqomlariga kiritishga jur'at qilgan. Bu asarlar hanuzgacha mumtoz maqomlarning tarkibiy qismlari sifatida saqlanib kelmoqda.

<sup>1</sup> Муталов. О. Хива хонлиги Оллоқулихон даврида. – Тошкент, 2005. –Б. 121.

<sup>2</sup> Огахий. Риёз ад-давла. ЎзР ФА ШИ кўлёзмалар фонди, инв.№5364/11. –Б. 356а.

<sup>3</sup> Муталов О. Хива хонлиги Оллоқулихон даврида. –Тошкент, 2005. –Б. 67.

“Xorazm musiqiy tarixchisi”da “Muhammad Rahimxon soniyning SHashmaqomg’ a bog’lag’ an nag’malari ushbulardur”, deb Feruzxon bastalagan quyidagi kuylarni ko’rsatiladilar:

1. **Rost maqomig’ a**: “Muhammasi jadidi Feruz”, ”Musaddasi Jadidi Feruz”.
2. **Navo maqomig’ a**: “Saqili Feruzshohiy”, “Chor usuli Feruz”.
3. **Dugoh maqomig’ a**: “To’rtinchi Peshravi Feruz”, “Saqili Feruzshohiy”.
4. **Segoh maqomig’ a**: “Saqili Feruz sho’iy”, “Se usuli Feruzshohiy”, “Chor usuli Feruz”.
5. **Buzruk maqomig’ a**: “Muhammasi Feruz”.
6. **Iraq maqomig’ a**: “Birinji Muhammasi Feruzshohiy”, “Ikkinji Muhammasi Feruzshohiy”.
7. **Panjgoh maqomig’ a**: “Saqili Feruzshohiy”<sup>1</sup>.

Birgina mana shu dalilning o’zi Feruzning katta musiqashunoslik va bastakor salohiyatidan darak beradi. Musiqa va she’riyat kechalarini o’tkazish Feruzning doimiy odatiga aylangan. Bunday nafis bazmlar qurish, sozanda va shoirlar nazmidan bahra olish butun Xorazm vohasining o’ziga xos manzarasiga aylandi, shu davrda Xiva xonligi muzofotida 32 ta sozanda qo’shi (guruhi) faoliyat ko’rsatgan. Ularning har biri o’z dastur va mahoratini namoyish etib, shaxsan Xon nazaridan o’tgandan so’ng, to’y-hashamlar, bazmu ziyofatlarda yurishga ijozat berilgan<sup>2</sup>. Bunday rasmiy imtihon sozandalari uchun yilda bir marta muntazam ravishda tashkil etib turilgan. O’zicha bo`lar-bo`lmas ashulalar aytib yuradigan sayoq sozandalalar faoliyati nufuzli davralarda man etilgan.

Sozandalalar guruhlarida dutoriyarlarni<sup>3</sup> nomlari ham mashhur bo’lgan. “Qo’sh” atamasi Xorazmlik keksa san’atkorlarning tahlidlashicha, imkon, qarorgo’ ma’nosida ishlatilgan. Sozandalalar guruhining qarorgo’i bo’lgan. Qo’sh ahzolarini asosiy vazifasi musiqa cholg’ularini hofiz ovoziga jo’rnavozlik qilish va doirachiga g’azal yodlatish, uni o’ziga jo’r bo’la oladigan darajaga olib borish kabi murakkab masalalarni bajarish uchun o’z ustida ishslash talab etilgan. Sozanda qo’shlari el orasida tanilgan bo’lib, Qalandarxonalar, to’y-tomosha, xalq sayillarida ham xizmat qilganlar. Taniqli olim Otanazar Madrahimov, Zokirjon Madraximovlarning “Moziyga bir nazar”<sup>4</sup> kitobida sozanda qo’shlarida xizmat qilgan “Ro’zmat dutoriy ”Nurjonbotir”, “Rahimboy dutoriy”lar to’g’risida batafsil ma’lumotlar keltirganlar<sup>5</sup>.

She’riyat va musiqaga oshnolik fazillik, ziyyolilik alomati deb hisoblangan. Feruz, hattoki, o’ziga yaqin bo’lgan mansabdorlardan ham bu sohalarda bilimdonlikni talab etgan. Nafis san’atlarga moyil bo’lganlarni esa saroy xizmatiga jalb etishga intilgan. Shoirlik yoki sozandalik bobida alohida iqtidorga ega bo’lganlarni ma’anaviy va moddiy qo’llab kelgan. Bobojon Tarro’ning “Xorazm navozandalari” tazkirasida Feruz va uning atrofidagi saroy shoirlari haqida so’z yuritiladi. Tazkira o’ziga xos shaklda tuzilgan bo’lib, unda Feruz boshchiligidagi har bir saroy shoirining musiqaga bo’lgan munosabati alohida band bilan qayd qilinadi. 31 shoirdan 11 tasi, eng avvalo, xonning o’zi musiqa ilmini puxta egallaganligi e’tirof etadi<sup>6</sup>.

Maqom san’atining rivojini izchil yo’lga qo’yish uchun Feruzning bevosita nazorati ostida saroy sozandalari guruhi tuzilgandi. Bu ishga layoqati yetadigan hofiz va cholg’uchilar jalb etilib, ularga maxsus maosh tayinlanadi.

Feruz iqtidorli sozanda, xonanda va musiqashunoslarni o’z atrofiga to’plashga intilgan. Xonning xususiy sozandasini bo’lishlik sharafli va ayni chog’da, juda mas’uliyatli bo’lgan. Ixtisosli sozanda doim tobida bo’lishligi taqozo etilgan. Ular bir-biridan ilhom olishga, bir-biridan o’zishga harakat qilishi san’at taraqqiyoti uchun tabiiy hol. Sozanda va musiqashunoslarning bir yerga to’planishidan, mumtoz musiqa rivojlanishi uchun bo’lgan ijod jarayoni yuzaga kelgan.

Aynan shu voqealarni munosabati bilan xon Feruzning oldinlari havas darajasidagi mashg’ulotlari chinakam musiqiy ta’lim jarayoniga aylanib ketadi. “General Qaufman Xivani

<sup>1</sup>Мулла Бекжон Раҳмон ўғли, Муҳаммад Юсуф Девонзода. Ўша асар.—Б. 35.

<sup>2</sup> Матёқубов О. Мақомот. – Тошкент, 2004. -Б. 71.

<sup>3</sup> Хоразмда Дутор мақомларни ижро этган созанда ва хонандаларга берилган нисбат.

<sup>4</sup> Мадрахим Шерозйнинг ўғли ва невариси томонидан ёзилган

<sup>5</sup> О.Мадрахимов, З.Мадрахимов.Мозийга бир назар.-Урганч, 2009.-Б.32-34.

<sup>6</sup> Бобоҷон Тарроҳ Азизов-Ходим. Хоразм навозандалари. – Тошкент, 1994.-Б. 96 .

istilosidan so'ngra Muhammad Rahimxonning buyrug'iga muvofiq Muhammad Rasul Mirzaboshi o'z otasi Pahlavon Mirzaboshidan shashmaqom nag'malarini o'rganib, o'zining bilgan maqomlarini kun sayin Muhammad Rahimxon soniyga ta'lif qilmoqqa boshlaydur<sup>1</sup>. Muntazam mashg'ulotlar tufayli Feruz yetuk maqomdon va musiqashunos bo'lib yetishadi.

Boshqacha qilib aytganda, o'z davrida Buxoroda kamol topgan SHashmaqom majmuasi asosida Xorazm ohanglari bilan sug'orilgan va shu bilan birga, badiiy qimmati undan kam bo'limgan yangi ulug'vor musiqiy inshoot yaratish edi.

Shu asnoda, XIX-asr boshida Niyozjonxo'ja tamal toshini qo'yan shashmaqomni ijodiy o'zlashtirish jarayoni o'z cho'qqisiga erishdi. Natijada, maqomot istilohida "Xorazm olti yarim maqomi" degan tushuncha yuzaga keldi. Bu xaqda Mulla Bekjon Rahmon o'g'li, Muhammad Yusuf Devonzoda "Xorazm musiqiy tarixchasi"da quyidagicha yozadilar."Burundan Xorazmda intishor qilingan (ma'lum bo'lib yurgan) shashmaqom nag'malarini yerli musiqashunoslari bog'lagan nag'malari olti yarim maqom deb yurgizilur edi".<sup>2</sup> Tanbur chizig'i esa ana shu me'yoriga etilgan mukammal maqom majmuasining musiqiy asoslari (parda va usul tizimlari) hamda to'la shakldagi umumiy tasnifotini muhofaza qilish yo'lida o'ylab topilgan tadbirdir.

Buxoro shashmaqomini qog'ozga tushurish uchun maxsus yozilgan "Tanbur chizig'i"ning bir nusxasi hozirda Yu.Rajabiy muzevida saqlanmoqda. Bu nusxani boshqa nusxalardan farqli tomoni arabcha atamalarni ishlatilganidir. Boshqa nusxalarda arabcha atamalar ishlatilmagan. Katta bir podshoga inom bo'lganligi uchun (hurmat yuzasidan) shunday yozilgan.

Shunday qilib, deyarli bir asr davom etgan muttasil sozparvarlik harakati ulkan samaralar berdi. Komil Xorazmiy va Feruz ijodiy hamkorligi va raxnamoligida mo'tabar musiqiy merosni saqlash va rivojlantirish borasida amalga oshirilgan jahonshumul ishlardan biri Xorazm tanbur chizig'i yuzaga keldi va elga ma'anaviy ozuqa berishga xizmat qildi.

1891 yili Xivada Komil Xorazmiy tashabbusi bilan birinchi rus-tuzem maktabi ochildi. Ushbu o'quv muassasasi ikki sinfdan iborat bo'lib, o'quvchilarga diniy va dunyoviy bilimlar o'rgatish hamda axloqiy tarbiya berish bilan bir qatorda, musiqa ilmi asoslarini o'rganishga ham katta e'tibor berilgan.

Xorazmning an'anaviy musiqa san'ati rivojiga ulkan hissa qo'shgan Komil Xorazmiy tomonidan yaratilgan Tanbur chizig'i yozuvlarini saqlab qolish va yanada ommalashuviga xizmat qilish maqsadida shu yozuv bo'yicha savod chiqarish yo'lga qo'yilgan. Bu haqidada: "Xorazm Musiqiy tarixchasi"da shunday yozilgan. "Muhammad Rasul Mirzoboshi shashmaqom nag'malarini chiziqa olmoqchi o'lg'anda shularni nazari e'tiborda tutib tasnif qismina kirgan butun nag'malarni ayrim bir kitob, mushkiloti oid bo'lg'on nag'malarni ayrim bir kitob qilib, ikki mujallad chiziq kitobi musavvodasini o'rtaqa keltirib, bu surat bilan shashmaqom nag'malarini butunlayin chiziqa olib tugallagandur.

XX asr boshida Xivada bir qator yangi usul maktablari ochildi. Xorazm musiqasi tarixini yaxshi bilgan Xivada madrasa talimini olib, Istanbul dorilfununi (1913—1918)da tahsil ko'rgan Mulla Bekjon Raxmon Xorazmga qaytgach, uning tashabbusi bilan Xorazmda ko'plab maktablar (O'zbek va Turkman tillarida) Xivada xalq universiteti tashkil qilingan. Xorazm okrugi (viloyati) xalq maorif bo'limi mudiri (1925-26) va boshqa lavozimlarda ishlagan vaqtida shogirdi va hamkasbi Muhammad Yusuf Devonzoda bilan hamkorlikda "Xorazm Musiqiy tarixchisi" kitobini nashr qildiradilar. Muhammad Yusuf Devonzoda ustoz tashabbusi bilan 1923 yilda Xivada musiqa maktabi tashkil qiladi. 1928 yili Samarqadda ochilgan musiqa va xoreografiya institutida Xorazm uslubidan ta'lif beradi.

Jahon tamadduniga salmoqli hissa qo'shib kelgan Xorazm madaniyati XVIII asr oxiri va XX asr bosqlariga kelib juda katta taraqqiyot bosqichiga yuz tutadi. Bu jarayonni muvaffaqiyatlari rivojlanib, turli sohalarda sezilarli samaralar berishi e'tiqod va ma'rifati kuchli ulamolarning davlat tepasiga kelishi, qolaversa, o'zligini anglab, milliy ruhda ta'lif-tarbiya topgan ziylilarning hukumat ishlariga keng jalb etilishi Xorazmda madaniyat va san'atni yuqori darajalarga ko'taradi.

<sup>1</sup> Мулла Бекжон Раҳмон ўғли, Муҳаммад Йосуф Девонзода. Ўша асар. – Б.30.

<sup>2</sup> Мулла Бекжон Раҳмон ўғли, Муҳаммад Йосуф Девонзода. Ўша асар.– Б.30.

### **Tayanch tushunchalar:**

- 1.Xorazm maqomi Buxoro Shashmaqomidan ko'chirilgan mumtoz janr.
- 2.Xorazm maqomi Feruzshoh buyrug'iqa asoslanib Buxoroga yuborilgan elchi sozandalar tomonidan yodlab nusxa ko'chirilgan. Bular; Said Xo'ja Niyoz (G'ijjakchi va dutornavoz) va doyrachisi (yordamchisi) tarzida.
3. Xorazmda Buxorodan ko'chirilgan 6 maqom mavjud va tani maqom ya'ni yarim maqomlari Xonga bag'ishlangandir, demak endigina yarimta maqomga erishilganligidan dalolat beradi.
4. Xorazm maqomini yozib olishga ko'maklashgan asoschisi Komil Xorazmiydir.

### **Nazorat savollari:**

- 1.Feruzshoxiy nomi bilan ataladigan maqom kimga asoslanib yaratilgan?
2. Xorazmda nechta maqom mavjud?
3. Xorazm 7 maqomga erishdi deb e'lon qilinishi to'g'rimi?
4. Suvoralar avval Shashmaqomda mavjud bo'lganmi?
5. Xorazm maqomini ilk marotaba kim natalashtirilgan?
6. Xorazm maqomini zamonaviy yozuvda tushirib, Moskvadan nashr etgan rus olimi kim?

## **FARG'ONA - TOSHKENT MAQOM YO'LLARI**

### **Reja:**

- 1. Farg'ona - Toshkent maqom yo'llari tarixi**
- 2. Maqom tuzilishi va klassifikatsiyasi**
- 3. Farg'ona - Toshkent maqom ijrochiligi namoyandalari**

### **1. Farg'ona - Toshkent maqom yo'llari tarixi**

Milliy Musiqiy ijrochiligidan uch asosiy yo'nalişda, ya'ni Buxoro Shashmaqomidan asrlar davomida Xorazm o'zlashtirib olgan bo'lsa, keyinchalik Farg'ona ijrochilik maktablari zamirida rivojlanganligi barchamizga ma'lum. Ammo, Farg'ona varianti Xorazmdan oldin Buxoroning ikkinchi yo'li asosida vujudga kelayotgan edi. Har bir voha xalqining etnik joylanishi, urf-odatlari, mahalliy mentaliteti, yashash turmush tarzi zamirida o'ziga xos Musiqiy ijrochilik uslublari ham mavjuddir. O'n ikki maqom asosida Shashmaqom yaratilganligi, Shashmaqom zamirida Bastakorlarimiz tomonidan bir-biridan go'zal cholg'u va ashula yo'llari yaratilganligi aniq manbalar asosida bizgacha yetib kelgan. Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari ana shunday mashhur ijrolarning mahsulidir.

«Dugoh Xusayniy», «Shaxnozi Gulyor», «Bayot», «Chorgoh» ijrolari turkum sifatida mashhur bo'lganligi sababli «Chormaqom» (to'rt maqom) deb ham yuritiladi. Farg'ona, Toshkent, Samarqand vohalarida, Qozog'istonning Chimkent viloyatida va boshqa shaharlarda Shashmaqom asosida turli shakllardagi cholg'u va ashula yo'llari yaratilganligi ma'lum. Shular jumlasidan mashhur cholg'u asarlar: besh qismli Nasrulloyi, Munojot turkumi, Cho'li Iroq, Navoning bir necha cholg'u namunalari, Navro'zi Ajam, Ajam va uning taronalari, Ilg'or, Miskin va Adoyining besh qismli turkumi, ikki qismli Mirzadavlat, Madalibek, Beksulton, Cho'li Qurd, Sayqal, Suvora yo'lari, Mushkuloti Dugoh va uning Ufari, Dutor Bayoti, O'yin Dugohi, Rost Panjgoh Qashqarchasi, Dilhiroj, Mushkuloti Segoh va uning Ufari, Patnusaki uslubda chalinadigan Dugoh, Segoh va Ushshoq namunalari Qari Navo, Surnay yo'llaridan Buzruk, Navo, Iroq, Dugoh, Dugohi Xusayniy, Nasrulloyi, Chorgoh, Mustahzod, Dashti Navo kabi o'nlab kuylar mahalliy Bastakorlar tomonidan maqomlar asosida yaratilgan bo'lib, Musiqiy madaniyatimizning bebaaho durdonalari sanaladi.

### **2.Maqom tuzilishi va klassifikatsiyasi**

Yuqorida sanab o'tilgan cholg'u yo'llari turkumli va yakka-yakka ijro etiladigan kuylardan iboratdir. Farg'ona-Toshkent maqomlarining ashula variantlari ham turkum va yakka

tarzda ijro etiladigan ashulalar bo'lib, juda katta ko'rinish hosil qiladi. Turkum sifatida keladigan mashhur ijrolar quyidagilardir:

1. «**Bayot**» I, II, (II), III (III), IV, V.
2. «**Chorgoh**» I, II, III (III), IV, V, VI
3. «**Dugoh Xusayniy**» I, II, (II), III (tarona), IV (IV), V, VI, VII
4. «**Shaxnozi Gulyor**» I, II, III, IV, V

(Qavs ichida ko'rsatilganlari qo'shimcha variant ijrolaridir).

Ushbu turkum ijrolarga qisqacha sharh berib o'tamiz. Bayot 1-Navo maqomining Bayot sho'balari asosida yaratilgan va shu sho'bada uchraydigan avjlar va namudlar ma'lum darajada saqlanib qolgan. Bayot II Navo maqomidagi Nasri Bayotning II-III taronalari kuy tuzilganligi va harakati shakli bilan bir xillik kuzatiladi.

Bayot III, IV, V kuy tuzilganligi, shakli jihatdan oldingi qismlardan keskin farq qiladi. Ular Bayot I, II ijrolarining daromad boshlanish pardasidan besh parda, ya'ni Kvinta yuqoriga ko'tarib ijro etiladi. Lekin ijro tugashida yana daromad pardaga qaytiladi. Shu bilan Bayot turkuming to'lik ijrosi aniq boshlanish va tugallanish pardasiga ega bo'ladi. Yana bir mashhur ijro turkumi bo'lган Chorgoh esa Dugoh maqomidagi Sarahbori Dugoh, Talqini Chorgoh, Nasri Chorgoh, Savti Chorgoh sho'balar asosida yaratilgan. Chorgoh 1 da Sarahbori Dugohning doira usuli, ashula ijrosi, she'r o'lchovi va tushirish qismlari Savti Chorgoh shahobchalarining ma'lum ko'rinishidir. Chorgoh III ning ashula ijro yo'li Savti Chorgohga hamohangdir. Chorgohning IV, V, VI shahobchalari har xil doira usuli bilan ijro etiladigan bir xil ko'rinishlardir.

Farg'ona - Toshkent maqom yo'llaridan biri Dugoh Xusayniy turkumi, Shashmaqomdag'i Xusayniy Dugoh asosida yaratilgan bo'lib, keyingi sho'balardan va taronalaridan foydalanilgan. Dugoh Xusayniyning I-qismi Sarahbor, ikkinchi qismi Savti, keyingilar Suvoraiy Qashqarcha usullarida ijro etiladi va Ufar, Suporish bilan tugallanadi. Dugoh Xusayniyning hamma shahobchalari xalq orasida keng tarqalgan.

Farg'ona-Toshkent ijrochilik yo'llarida «Shaxnozi-Gulyor» ashulalar turkumi ham juda mashhurdir. «Shaxnozi Gulyor» Rost maqomi ashula yo'llari asosida yaratilgan bo'lib, birinchisi Gulyor, ikkinchisi Shaxnoz, uchinchisi Chapandozi Gulyor, to'rtinchisi Ushshoq, beshinchisi Ufari gulyor nomlari bilan mashhurdir. Birinchi Gulyor Sarahbor usulida, Shahnoz - tarona usulda, uchinchisi - Chapandoz, to'rtinchisi - Sarahbor, beshinchisi – Ufar doira usullarida ijro etiladi.

«Shaxnozi Gulyor» o'z tuzilganligi jihatdan Bayot, Chorgoh, Dugohi Xusayniy turkumlaridan tubdan farq qiladi. Farg'ona - Toshkent maqom yo'llarida yana bir mashhur ijrolardan biri Rost maqomi sho'balari asosida yaratilgan Ushshoq turkumlaridir. Ushshoqning besh xil yo'li bo'lib, har biri alohida yakka ashula sifatida ijro etiladi. Ularning kuy tuzilganligi, ohangi bir xil bo'lsada, shaklan sal bir-biridan farqi bilan ajralib turadi. Ushshoq ijrolarida Uzzol sho'basining ohanglari daromadda, namudlari avjlarda ishlatilgan. Ushshoq ijrolarining birinchisi qolganlaridan besh parda yoki Kvinta ko'tarilib ijro etilishi bilan farqlanadi. So'nggi qatordan daromadga tushiladi va daromad pardadan keyingi Ushshoqlar boshlanadi. Ubaydiy g'azali bilan aytildigan Ushshoq Farg'ona vodiysi va Toshkentda mashhur bo'lган. Farg'ona-Toshkent ijrochiligidagi quyidagi turkum ijrolar ham mashhurdir:

Buzruk maqomi sho'balari bilan hamohang Abdurahmonbegi I –II- va uning Ufari, marg'ilonlik Madali hofiz tomonidan 7 ta ijrogacha to'ldirilgan bo'lib, Farg'ona vodiyida «Mahdalibegi» deb ham yuritilgan.

Abdurahmonbegi I, II, III, IV, V, VI, VII ijrolari aksariyati o'sha davrda zamondosh bo'lган Muqimiy g'azallari bilan aytildi. Rost maqomining «Savti Kalon» sho'basi shahobchalar asosida yaratilgan Qalandar I-II ashulasi ham to'ldirilib, Qalandar I, II, III, IV, V tarzida ijro etiladi.

Yana bir el sevgan mashhur ijrolardan «Tanovar» turkumidir. Hozirda Tanovarning 13 ta ijrochilik yo'llari mavjud bo'lib, 9 ta ashula - yalla yo'li, 4 ta Musiqiy yo'li bilan jilolanadi. Bulardan to'rtichisi dutor tanovari deb yuritiladi. Xalq Bastakorlari Farg'ona - Toshkent ijrochilik yo'llariga monand yuzlab ashulalar va musiqalar yaratganlar. Yunus Rajabiy, To'xtasin Jalilov, Imomjon Ikromov, Komiljon Jabborov, Doni Zokirov, Muxtorjon Murtazoyev,

Jo'raxon Sultonov, Orifxon Hotamov singari Bastakorlar ijodlari bunga misol bo'la oladi. Natijada maqom yo'llari asosida yuzlab ashulalar va musiqalar xalq mulkiga aylandi. Keyinchalik Bastakor Imomjon Ikromov Navoiyning «Qaro ko'zim» radifli g'azalini juda mohirlik bilan shu yo'lga solib, yana ham mashhur ijroga aylantirdi. Bu ijro Toshkent Ushshoqi deb ham yuritiladi.

Ushshoq 1 dan kelib chiqadigan Daromadi Ushshoq, Xoji Abdulaziz tomonidan qayta ishlangan Samarqand Ushshoqi, ijroda bir xillik kasb etadi. Ushshoqning yana bir namunasi xo'jandlik hofiz va Bastakor Sodirxon Bobosharipov tomonidan jilolangan va «Sodirxon Ushshoqi» nomi bilan mashhur bo'lgan varianti ham «Ushshoq I» ning shakliga hamohangdir.

Ushshoq ijrolari orasida Qo'qon Ushshoqi sadolanish shakli, avjlardagi o'zgarishlar jihatidan boshqa Ushshoq yo'llaridan sezilarli farq qiladi. O'ziga xos ohanglar tuzilmasiga egadir. Shunisi diqqatga sazovorki, Ushshoqlarning barcha ijrolari Shashmaqomdag'i Ushshoq sho'balari ohanglariga asoslangan bo'lsada, ularning har biri o'ziga xos kuy tuzilganligiga qarab, ta'sirchanlik xususiyatlari ham har xildir. Farg'ona-Toshkent ijrochiligidagi o'ziga xos ijro maktabiga ega bo'lgan katta ashula ijrosidir. Katta ashula mashhur ijro yo'li bo'lib, Farg'ona vodiysida, qisman Toshkentda ijro etiladi. Katta ashula ikki, uch, ba'zan to'rt hofiz tomonidan aytildi. Patnisaki katta ashula deb ham yuritiladi. Ashula so'zları ijro yo'nalişiga qarab bo'lib olinadi va ma'lum joylarda birga kuylanadi va birga tamomlanadi. «Rabbano dodimga yet», «Aylansin quling», «Bir kelsun», «Shafoat», «Adashganman», «Ey dilbari jononim», «Yovvoyi Chorgoh» singari Patnusaki ashulalar juda mashhurdir. Keyinchalik «Bog' aro», «Kirib bo'stonni kezdim», «Kanolim», «O'zbekistonim» kabi katta ashulalar ham shu qatorga qo'shiladi. Hamroqul qori To'raqulov, Xolqora hofiz, Erka qori Karimov, Haydarali Hikmatov, Sherko'zi Boyqo'ziyev, Boltaboy Rajabov, Mamadbobo Sattorov, Jo'raxon Sultonov singari mashhur hofizlar katta ashula bobida dong taratganlar. Xulosa qilib aytganda, O'zbek Musiqiy san'atida Farg'ona-Toshkent ijrochilik maktabi alohida o'rinn tutadi. Bu mакtabning Musiqiy va ashula ijrochiligi aniq uslubga, doyra usuliga, Musiqiy tuzilmasiga egadir. Bu an'ana davom etmoqda va hozirda ham xalq Bastakorlari ijodlarining samarasini bilan Farg'ona-Toshkent ijrochilik yo'llari boyib bormoqda. Ushbu ijroni amalga oshiradigan sozanda va hofizlar ham yetishib chiqmoqda.

### **3. Farg'ona - Toshkent maqom ijrochiligi namoyandalari**

Toshkent va Farg'ona vodiysi shaharlari musiqiy amaliyotida joriy etilgan maqom yo'llariga nisbatan "Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari" umumlashma iborasi qo'llaniladi. Bu turdag'i maqomlar Buxoro va Xorazm maqomlaridan farqli o'laroq, yaxlit bir turkumni tashkil etmay, balki alohida-alohida bo'lgan cholg'u va ashula yo'llaridan iborat. Xususan, "Nasrullo I-V", "Munojot I - IV", "Ajam Taronalari", "Miskin I - V", "Segoh I - III", "Mushkiloti Segoh", "Sayqal I - II", "Mirzadavlat I - II", "Mushkiloti Dugoh", "Cho'li Iroq" kabi cholg'u kuylari hamda "Chorgoh I — V", "Dugoh-Husayn I - VII", "Bayot I - V", "Bayoti Sheroyi I - V", "Shaxnoz-Gulyor I - V", "Ko'cha Bog'i I - II", "Segoh", "Toshkent Irog'i" singari ashula yo'llari shular jumlasidandir. Binobarin, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari tarkibida bir qismli namunalardan tortib, to besh-yetti qismdan iborat turkum asarlar namoyon bo'ladi.

#### **Mulla To'ychi Toshmuhammedov**

O'tmishda Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari nafaqat xon saroylarida, balki xalq hayoti bilan bog'liq turli sharoit va vaziyat (xalq tomosha va sayillari, dorbozlar o'yini, to'y bazmlari, ziyoh va qosib-hunarmandlar davrasida va h.q.) larda ham mudom ijro etib kelingan. Bu holat ularning xalq orasida mashhur bo'lishi



sabablaridan biridir."Farg'ona-Toshkent maqom cholg'u yo'llari" xalqimizning sevimli kuylari bo'lib, ularni "Nasrullo I—V", "Munojot I—V".

Farg'ona — Toshkent maqom ashula yo'llari (cholg'u yo'llari kabi) alohida bo'lgan bir qismli ("Segoh", "Toshkent Irog'i" va b.q.) namunalardan tortib ko'p qismli ashula turkumlarini namoyon etadi. Ayniqsa, besh qismli ashula turkumlari ko'proq uchraydi. Xususan, 1"Bayot", 2"Chorgoh", 3.Dugoh, Xusayniy 4.Shahnozi Gulyor singari ashula yo'llari aynan to'rt qismdan iborat turkum asarlardir.

### Abduqodir Ismoilov



Turkum qismlarini tashkil etuvchi ashula namunalari rim raqamlari vositasida belgilanadi. Masalan, "Bayot I", "Bayot II", "Bayot III" va h.q. kabi. Ayrim hollarda esa, tarkibiy qismning maxsus nomlari ham uchraydi. Jumladan, " Shahnozi Gulyor " ashula turkumining I qismi "Gulyor", II qismi "Shahnoz", III qismi "Chapandozi Gulyor", IV qismi "Ushshoq" va V qismi" "Ufari Gulyor" deb nomlanishi bunga misol bo'la oladi.

Farg'ona — Toshkent maqom yo'llarida "Farg'ona — Toshkent musiqa uslubi"ga xos bo'lgan yalla, ashula va katta ashula janrlarining xususiyatlari o'zgacha aks etadi. Ashula yo'llari mumtoz she'riyat (Sakkokiy, Navoiy, Bobur, Muqimiy, Uvaysiy, Furqat va b.q.) asosida o'qiladi. Farg'ona — Toshkent maqom ashula yo'llarini o'z ijrolari bilan yuksaltirgan maqomchi hofizlar qatorida Shorahim

Shoumarov, Mulla To'ychi Toshmuhammedov, Shojalil hofiz, Ilhom hofiz, Sodirxon hofiz, Yunus Rajabiy, Rasulqori Mamadaliyev, Fattohxon Mamadaliyev, Orifxon Hotamov kabi ustoz san'atkorlarning xizmatlarini alohida ta'kidlash kerak. "Ajam va uning taronalari", "Miskin I-V", "Segoh I—III", "Mushkiloti Segoh", "Sayqai I—II", "Mirzadavlat I—II", "Mushkiloti Dugoh", "Cho'li Iroq", "Chorgoh", "Surnay Irog'i", "Surnay Dugohi", "Surnay Ushshog'i" kabi kuylar tashkil etadi. Binobarin, bu maqom tarkibini bir qismli kuy namunalaridan tortib to besh qismli turkum asarlar tashkil etadi.

Turkumdag'i tarkibiy qismlar rim rakamlari vositasida ("Miskin I", "Miskin II", "Miskin III" va h.q.) ajrati- ladi. Ba'zi turkumlarda maxsus nomlar ham uchraydi. Masalan, "Miskin I—V" cholg'u turkumining III qismi "Adoiy", IV qismi "Asiriy" deb atalsa, "Nasrullo I—V" ning II qismi "Chapandoz", III qismi "Qashqarcha", IV qismi "Tarona" va V qismi "Ufar" deb ataladi va h.q. Farg'ona-Toshkent maqom cholg'u kuylarini turli xil xalq cholg'ularida (nay, g'ijjak, dutor, tanbur, surnay va b.) ijro etish an'anasi ham mavjud. Shuningdek, bu kuylar turli vaziyatlarda chalinadi. Masalan, surnay yo'llari xalq tomosha va bayramlarida, dorbozlar o'yini va to'y bazmlarida, dutor, tanbur yoki g'ijjak ijrolari "uy sharoitlari"da o'tkaziladigan turli yig'in va majlislarda namoyon bo'ladi.

Farg'ona-Toshkent maqom cholg'u kuylarining ijrochilar, odatda, kasbiy musiqachilar bo'lib, ular bu san'atni maqomchi ustozlardan organadilar. Shu tarzda bu san'atni bizga yetkazib bergen taniqli sozandalar qatorida Sultonxon Hakimov (tanbur), Abduqodir Ismoilov (nay), Ahmadjon Umurzoqov (qo'shnay, surnay), Ashurali Yusupov (surnay), Shobarat tanburchi, Abdumutal Abdullayev (tanbur), Muhiddin Hoji Najmuddinov (dutor, tanbur), Abdusoat Vahobov (dutor), Komiljon Jabborov (g'ijjak, dutor, tanbur), Maqsudxo'ja Yusupov (tanbur), Saidjon Kalonov (nay), Faxriddin Sodiqov (chang, dutor), G'anijon Toshmatov (g'ijjak), Turg'un Alimatov (tanbur, dutor, g'ijjak), G'ulomjon Hojiqulov (g'ijjak) kabi mahoratl ijomchilar nomini alohida ta'kidlash kerak.

# DUGOH-HUSAYN I

*Navoiy g'azali*

*Farg'ona — Toshkent maqom yo'li*

M.M. ♩ = 72-76

The musical score consists of ten staves of music in common time (♩ = 72-76). The first staff begins with a melodic line starting on G4. The lyrics are: "Ey, sar - vi - noz, gul- sha-ni". The second staff continues the melody. The third staff starts with "bo - g'i ma - lo - ha - tim.". The fourth staff concludes with "Va gul - u - zor". The fifth staff begins with "ma - hi - va - shu" and ends with "sar - vi-". The sixth staff starts with "qo - ma-tim." and ends with "La'ling ta-". The seventh staff begins with "bas- sum et - di-yu," and ends with "jo - nim a - sir -". The eighth staff begins with "dur." and ends with "Shak - kar". The ninth staff begins with "so - g'in - di," and ends with "to' - ti ka - bi". The tenth and final staff begins with "yo'q ha - lo - va - tim."

**USHSHOOQ**

*Navoiy g'azali*

M.M. ♩ = 76

*Farg'ona — Toshkent maqom yo'li*

Qa-ro ko'-zum ke-lu

mar-dum, qa-ro ko'-zum ke-lu mar-dum-

lug' em-di fan-qil - g'il,

ko'-zum qa-ro - si - da

mar-dum, ka - bi va-tan qil - g'il.

Yu-zing gu - li - ga ko'n-gul rav - za

sin ya- sa gul - shan,

qa- ding - ni,

ho - li - g'a jon gul - sha-nin cha-

man qil - g'il - ey, o.

## BOSHQOTIRMA

1. Saraxbor
2. Shashmaqom cholg'u bo'limidan buning nomi.
3. Ikki torlik chertib chalinadigan cholg'u.
4. Shashmaqom ashula bo'limining umumiyligi nomi.
5. Shashmaqom cholg'u bo'limidan birining nomi.
6. Noxun bilan chalinadigan cholg'u.
7. Farg'ona-Toshkent musiqa uslubiga xos ashula yo'li.
8. Shashmaqom tarkibida keluvchi beshinchi maqom nomi.
9. Ikkinchini maqom nomi.



### **Mustahkamlash uchun savollar**

1. Maqom tarixi haqida nima bilasiz?
2. 12 maqomni sharhlab bering?
3. «Shashmaqom»dagi maqomlar tahlilini bilasizmi?
4. «Buzruk» maqomi ijro yo'llarini va ijroviy tuzilganligini sharhlab bering?
5. «Rost» maqomi ijro yo'llarini va ijroviy tuzilganligini sharhlab bering?
6. «Navo» maqomi ijro yo'llarini va ijroviy tuzilganligini sharhlab bering?
7. «Dugoh» maqomi ijro yo'llarini va ijroviy tuzilganligini sharhlab bering?
8. «Segoh» maqomi ijro yo'llarini va ijroviy tuzilganligini sharhlab bering?
9. «Iraq» maqomi ijro yo'llarini va ijroviy tuzilganligini sharhlab bering?
10. Xorazm maqomlari haqida nima bilasiz?
11. «Xorazm tanbur chizig'i» haqida so'zlab bering?
12. Xorazm maqomlari tuzilganligini sharhlab bering?
13. Farg'ona -Toshkent maqom ijrochiligi yo'llari haqida nima bilasiz?
14. «Chor maqom» ijrosi qanday tuzilgan va turkumlar ijrolari qanday nomlanadi?
15. Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari asosida qanday mashhur ijrolar yaratilgan?
16. O'zbek xalqi dostonchilik san'ati haqida nima bilasiz?
17. Dostonchilik maktabalarini sharhlab bering?
18. Milliy musiqamizning ta'sirchanlik xususiyatini qanday tushunasiz?
19. Islom dini va musiqa orasidagi bog'lanish haqida so'zlab bering?
20. Alla va yor-yor ijrolarining ta'sirchanligini sharhlab bering?
21. Milliy musiqamiz taraqqiyotida hozirgi zamon musiqasining ta'sirini qanday tushunasiz?

### **Nazorat uchun mavzular**

1. Maqom san'atining tarixiy ildizlari.
2. 12 maqom «Shashmaqom»ning asosi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1 Boltayev A. Xorazm tarixiga oid hujjatlar. O'zR FA SHI qo'lyozmalar fondi, inv. №9320.
- 2 . Harratov M.arxivi. San'atshunoslik instituti kutubxonasi, № 571/5.
3. O'zbekiston Markaziy davlat arxiv. Fond 2705. Op.1, D. 17-18.
- 4.O'zbekiston Markaziy davlat arxiv. Fond 2705. Op.1, D. 17-18.
- 5.Boltayev R. Dutor maqomlari. –Toshkent: 2006. –B. 4.
- 6.Botir Matyoqubov Doston navolari.-Toshkent:2009.-B.57.
- 7.Bunyodov Z. Anushtagin Xorazmsho'lar davlati (1097-1231). –Toshkent: 8.G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.,1998. –256 b.
- 9.Jumaxo'ja N. Feruz madaniyat va san'at homiysi. –Toshkent Fan, 1995.– 109 b.

- 10.Ibragimov O.A. Fergano-Tashkentskie makomq.—Toshkent:2006.—176 b.
- 11.Matyoqubov O, Boltaev R, Aminov h. O'zbek notasi. – Toshkent,2007 .
- 12.Matyoqubov B. Xorazm doston ijrochiligining zarxat sahifalari. Xorazm-1999.
- 13.Mutalov O. Xiva xonligi Olloqulixon davrida. –Toshkent: 2005.—B. 67.
- 14.Muhammad Yusuf Bayoniy. SHajarai Xorazmsho'iy. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.,1994. –B.93-94.
- 15.Odilov A.“O'zbek cholg'ularida ijrochilik tarixi” Toshkent; 1995.B.-24
- 16.Rajabov I. Maqom asoslari. – Toshkent. 1992.
- 17.Fitrat.O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. – Toshkent. 1993.
18. O'zbekiston Markaziy davlat arxiv. Fond 2705. Op.1, D. 17-18.

## O'ZBEK MUSIQA SAN'ATINING JAHON MUSIQA SAN'ATIDA TUTGAN O'RNI

**Reja:**

- 1.Sharq allomalari musiqa haqida
- 2.O'zbek musiqa san'atining jahon musiqa san'atida tutgan o'rni

### 1.SHARQ ALLOMALARI MUSIQA HAQIDA

Sharq allomalari, shayxulmashoyixlar musiqa san'atiga yuqori baho berib, uning inson ruhiga ma'naviy quvvat bo'lib xizmat qilishini alohida ta'kidlaganlar. Xususan, Hazrat Abu Bakr Buxoriy- Qalobodiy (vaf. 994-y.) musiqa tovushlari — nag malarni ta'riflab, ularni "jon quvvati va ruh ozig'i turur. Agar jon nag'madan quvvat topsa, o'z maqomi *Abu Nasr Forobiy* sari ishrof aylaydi, ul maqom ila mashg'ul bo'lardi", deb yozadi.

Demak, musiqa insonga ma'naviy ozuqa bo'lishi bilan birga uni tarbiyalashda ham ahamiyatli ekan. Chunki, ruhi tetik va barkamol kishi o'zida yaxshi insoniy fazilatlarni mujassam eta oladi. Vatandoshimiz Abu Nasr Forobiyning (873—950) bu xususdagi fikri ham e'tiborlidir: "Musiqa ilmi shu ma'noda foydaliki, u o'z muvozanatini yo'qotgan odamlar xulqini tartibga keltiradi, mukammallikga yetmagan xulqni mukammal qiladi va muvozanatda bo'lgan odamlar xulqining muvozanatini saqlab turadi.

*Abu Ali ibn Sino* Bu ilm tananing salomatligi uchun ham foydalidir. Chunki tana kasal bo'lsa, ruh so'ladi, tana to'siqqa uchrasa, ruh ham to'siqqa uchraydi. Shuning uchun ovozlarning ta'siri bilan ruhni sog'aytirish yordamida tana sog'aytiriladi..."

Alloma Abu Ali ibn Sino (980—1037) musiqaning katta tarbiyaviy ahamiyati haqida aytgan quyidagi so'zlari ham chuqr ma'noga ega: "Bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo'llamoq kerak. Biri, bolani asta-sekin tebratish, ikkinchisi esa, uni uxlatish uchun aytish odad bo'lib qolgan musiqa va allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan badantarbiyaga va ruhi bilan musiqaga bo'lgan iste'dodi hosil qilinadi". Sharq mutafakkirlari musiqaning pok va go'zal muhabbat tuyg'ularini hikmatli so'zlarni bizga ma'naviy meros qoldirganlar. Bu o'rinda hazrat Alisher Navoiyning (1441—1501) so'zlari bag'oyat ta'sirlidir:

**" Otashin yuzluq mug'anniyki, xulqidin bir muloyim surud chiqorg'ay,  
Onki ahlining kuygan bag'ridin dud chiqorg'ay".Alisher Navoiy**

Ya'ni, ovozi chiroyli xonandaning yoqimli ashulasi muhabbat ahlining qalbini yondiradi, kuydiradi.

### 1.O'zbek musiqa san'atining jahon musiqa san'atida tutgan o'rni

Jahon musiqa madaniyati shakllanib, to hozirga qadar yetib kelish jarayonida bir necha tarixiy bosqichlarni boshdan kechirdi. Bu bosqichlar quyidagi nomlar bilan yuritiladi:

1. **Qadimgi davr musiqa madaniyati.**
2. **O'rta asrlar musiqa madaniyati.**
3. **Uyg'onish davri musiqa madaniyati.**

#### **4. Ma'rifatparvarlik davri musiqa madaniyati (XVIII asr).**

#### **5. XIX asr musiqa madaniyati.**

#### **6. XX-XXI asr musiqa madaniyati.**

Har bir davr musiqa madaniyatining o'ziga xos jihatlari bor. Masalan, eramizdan avvalgi asrlardan to V asrga qadar davom etgan musiqa madaniyati asosan monodik (ya'ni bir ovozli) ko'rinishda bo'lgan. Bu davrda musiqa asosan Misr, Xitoy, Hindiston kabi qadimgi Sharq mamlakatlarida, keyinroq esa, qadimgi Yunonistonda ham o'tkazilgan turli marosimlarda ishlatilgan. Bunda ud va arfasimon torli-chertma, sibizg'a singari puflama hamda xilma-xil zarbli-urma cholg'ular keng qo'llanilgan.

V asrdan to XIV asrgacha davom etgan (ya'ni qadimgi dunyo bilan yangi tarix oralig'idagi davr) O'rta asrlarda musiqa madaniyati turli o'zgarishlarga yuz tutdi. Jumladan, G'arbiy Yevropa mamlakatlarida musiqaning rivoji asosan xristian cherkov madaniyatiga bog'langan edi. Aynan cherkov xorida musiqaning ko'p ovozli (polifonik) uslubi qaror topdi. Shuningdek, katolik cherkovlarida organ cholg'usi ham keng qo'llanila boshlandi.

Sharq mamlakatlarida esa, aksincha, monodik uslub o'z kuchini saqlab qoldi. Musulmon olamida maqom san'ati yoyildi. Sozandalik va xonandalik san'ati rivojlandi.

XIV—XVI asrlar musiqa madaniyati jahon tarixida ko'proq "uyg'onish davri" (renessans) nomi bilan mashhur. Bu davrga kelib G'arbiy va Markaziy Yevropadagi mamlakatlarda antik san'atni o'rganishga, uning yuksak namunalarini qayta tiklashga bo'lgan harakatlar avj olgan edi. Aynan shu harakatlar bois Italiyada opera janri yuzaga keldi va rivojlana boshladi.

Ma'rifatparvarlik g'oyalari ustuvorligida o'tgan XVIII asr Yevropa musiqa madaniyatida jahonga mashhur "Vena klassik maktabi" shakllandi. Sharqda esa, maqomotning yangi tizimlari yuzaga keldi. Xususan, O'rta Osiyoda (O'zbek-tojik musiqa madaniyatida) dovrug'i olamga ketgan Shashmaqom san'ati bunyod etildi.

Musiqa madaniyati kishilik jamiyatni ma'naviy hayotida muhim o'r'in tutadi. Chunki, musiqa inson qalbida go'zal tuyg'ularni uyg'otadi, uni yaxshi amallarni bajarishga chorlaydi. Shu bilan birga, musiqa, ayniqsa, "yoqimli ovoz, yuksak ta'sir kuchiga ega bo'lib, uni eshitish bilan inson ichki alamlardan holis bo'ladi. Kishi har qanday qiyinchilikni, hatto ochlik, tashnalikni esidan chiqaradi. Musiqa og'ir mehnatdan keyin dam olishning eng yaxshi vositasidir. Musiqaning ta'sir kuchini hatto shundan ham bilsa bo'ladiki, yig'lab turgan bola ona allasini eshitib, tinchlanadi va uxbol qoladi" Musiqa madaniyatining ildizlari qadim davrlarda shakllangan xalq musiqa ijodiga borib taqaladi.

Har bir xalqning uzoq asrlardan kelayotgan, ajdoddlardan avlodlarga bebafo ma'naviy meros bo'lib qolayotgan kuy va qo'shiqlari, lapar va yallalari, ashula va allalari bor. Goho bu ma'naviy merosni bir ibora bilan "milliy musiqa" ham deyishadi. Chunki, bu musiqa milliy o'zlikni anglashda, millionlab kishilar o'zlarini bir tan-u bir jondek his qilishlarida katta ahamiyat kasb etadi.

Ayni paytda, kasbiy bastakor va kompozitorlar ham o'zlarini ijod qilayotgan doston, maqom, suvora, katta ashula yoki simfoniya va opera kabi asarlarida xalq musiqasiga tayanadilar. Chunki, mazkur janrlarda yaratilgan xalqchil musiqa asarlarining tinglovchiga badiiy-hissiy ta'sir kuchi ham yuqori bo'ladi.

Musiqaning inson ma'naviy boyligini shakllantirishdagi va uni tarbiyalashdagi ahamiyati inobatga olinib, qariyb har bir mamlakatda ushbu san'atni yosh avlodga o'rgatishga mo'ljallangan maxsus o'quv maskanlari ochilgan. Shuningdek, taniqli san'atkorlar ijrosida magnit tasmalari va CD ga yozib olingan asarlar omma orasida targ'ib qilinadi. Musiqachilarning turli xil konsert zallari va radio-televiedeniye dasturlari orqali "chiqishlari" ham hozirda odatiy bo'lib qolgan. Bularning barchasi hozirgi davr musiqa madaniyatini tashkil qiladi.

#### **Tayanch iboralar;**

1. Qadimgi davr musiqa madaniyati.
2. O'rta asrlar musiqa madaniyati.
3. Uyg'onish davri musiqa madaniyati.
4. Ma'rifatparvarlik davri musiqa madaniyati (XVIII asr).

5. XIX asr musiqa madaniyati.
6. XX-XXI asr musiqa madaniyati.

**Nazorat savollari:**

1. Musiqa ilmiga Al- Farobiyning bag'ishlangan kitobi qanday nomlanadi va qanday hissa qo'shgan?
2. Ibn –Sino Musiqa ilmiga bag'ishlangan risolasi qanday nomlanadi va qanday hissa qo'shgan?

## IV BOB. XX-ASRNING 1917-1941 YILLARIDAGI O'ZBEK MUSIQASI MUSIQALI DRAMA VA OPERA TEATRLARINING TASHKIL ETILISHI, VOKAL MUSIQASI. CHOLG'U MUSIQASI

### Reja:

- 1.1917-1922 yillarda O'zbek musiqasi.
- 2.Musiqiy ta'lif turlari.
- 3.Musiqali drama va opera teatrlarining tashkil etilishi.
- 4.Vokal va cholg'u musiqa janrlarida yaratilgan asarlar.

### 1.1917-1922 yillarda O'zbek musiqasi.

O'rta Osiyo xalqlari, jumladan O'zbek xalq musiqasi asosan monodiya shaklida rivojlangan bo'lib, unda xalq qo'shiq va raqslari, mumtoz kuy va qo'shiqlar, xususan "Shashmaqom" musiqasi keng taraqqiy etgan edi. Bu davrda xalq musiqasi bilimdonlari- Buxorolik ota Jalol Nosirov, ota Giyos Abdug'aniyev, usto Shodi Adizov, Levi Boboxonov, shuningdek Hoji Abdulaziz (Samarqand), mulla To'ychi, Shorahim Shoumarov (Toshkent), usto Ro'zimatxon Isaboyev (Namangan), To'xtasin Jalilov (Andijon), Madrahim She'roziy (Xorazm) singari xonanda va sozandalarni nomlari xalq orasida mashhur bo'lib ketgan edi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, musiqa ilmi va nazariyasi xususan xalq musiqasi qonuniyatlar haqida yirik monografik risolalar buyuk O'rta Osiyolik olimlar tomonidan IX-asrdan boshlaboq yaratilgan edi. Musiqiy tovushlarni yozib olish belgisi (nota) ni ixtiro qilish harakati ham dastlab O'rta Osiyodan boshlanganligi tarixiy manbalardan ma'lum.

Xullas o'zining qadimiy boy musiqa merosiga ega bo'lgan O'zbek xalqi XX-asr boshlarida madaniy sohadagi ilg'or an'analarni qabul qila boshladi. Bu vaqtida rus olim va musiqashunoslari tomonidan mahalliy xalqlar tilini, etnografiyasini va madaniyatini ilmiy o'rganish uchun ekspeditsiyalar tashkil etila boshladi.

Bu davrda epik ma'muriy va madaniy markazga aylangan Toshkent O'rta Osiyo xalqlarining madaniyati rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Bu erda havaskorlik konsertlari namoyish qilindi, kamer musiqa chalish keng yoyildi. Havaskorlar kuchi bilan ommaviy opera va operettalar qo'yildi.

**Mulla To'ychi Toshmuhammedov** 1868 yili Toshkentda o'qituvchi-hunarmand oilasida tug'ildi. Yoshligida otasi vafot etgach ro'zg'or tebratish uchun mardikorlik, oshpazlik qildi. Bo'lajaq san'atkori yoshligidan musiqaga qiziqlidi. Farg'onalik Nazarxon hofiz, Madumar hofiz, Abduqahhor hofizlarga shogird tushdi, tez orada mashhur ashulachilardan biri bo'lib tanildi. 1905 yili Moskvadan kelgan mutaxasislar Mulla To'ychi ijro etgan ba'zi ashulalarni gramoplastinkaga yozib oldilar. Ular orasida "Suvora", "Avji ko'rt", "Yangi ko'rt", "Xisrav", "Ilg'or" kabi katta ashulalar bor edi.

1923 yili u O'zbek san'atkori qatorida Moskvada ochilgan butun Rossiya qishloq xo'jalik ko'rgazmasi konsertlarida qatnashdi.

Mulla To'ychi Toshmuhammedov katta iste'dodga ega bo'lgan lirik ashulachi edi. Uning ovozi nihoyatda yoqimli va mayinligi bilan tinglovchilarni maftun etdi. Hofizning repertuari "Bayot", "Chorgoh", "Ushshoh", "Giriya", "Ilg'or", "Shoxnozi gulyor", "Suvora", "Ko'cha bog'i" kabi lirik ashulalardan iborat edi. 1927 yili san'atkorga O'zbekiston xalq hofizi unvoni berildi. Hofiz 1928 yildan umrining oxirigacha O'zbekiston radiokomitetida yakkaxon ashulachi bo'lib ishladi.

Mulla To'ychi soddadil, xushfe'l, do'stlarga mehribon san'atkori edi. U o'z ijodiy faoliyati davomida ko'plab shogirdlar etishtirdi. Yunus Rajabiy, J.Sultonov, I.Ikromov, X.Nosirova, N.Axmedova kabi san'atkori To'ychi akaning oromijon san'atidan bahramand bo'lganlar. Mulla To'ychi Toshmuhammedov 1943 yili vafot etdi.

**Muhiddin Qori Yoqubov** O'zbek sahna san'atining atoqli namoyondalaridan biri. U 1898 yili Farg'onada tug'ilgan yoshligidan san'atga qiziqqan M.Q.Yoqubov 1918 yil H.H.Niyoziy

bilan tanishadi va ko'p yillar davomida ijodiy hamkorlikda ishlaydi. San'atkor o'sha yillari drama aktyori sifatida Hamzaning "Boy ila xizmatchi" asarida Solixboy, "Tuhmatchilar jazosi" asarida Qosimjon rollarini mohirlik bilan ijro etadi. Q.Yoqubov 1923 yilda o'z bilimini oshirish maqsadida Moskvaga boradi. Dastlab u Meyerxod studiyasiga kirdi, so'ngra atoqli sovet teatr ustalari maslahati bilan teatr san'ati texnikumida o'qidi. Poytaxtda uyushtirilgan ko'p konsertlarda ishtirok etdi. 1925 yil Q.Yoqubov jahon san'ati ko'rgazmasi konsertlarida qatnashish uchun Parijga boradi. Bu erda Tamaraxonim bilan qo'shiq va laparlar ijro etib Parijliklarning olqishiga sazavor bo'ladi. Q.Yoqubov o'sha yili Berlindagi Betxovin zalida berilgan konsertda qatnashadi. 1926 yil Q.Yoqubov O'zbek etnografik musiqa ansamblini tashkil etdi. Bu ansambl keyinchalik yangi tipdagi professional musiqli teatrga asos bo'ldi. Bu gruppaga 1927 yil Moskva, Leningrad, Baku, Ufa kabi qator shaharlarda O'zbek musiqasini namoyish etdi. 1929 yil etnografik ansambl O'zbek davlat musiqaviy kamediya teatriga aylantirdi. Q.Yoqubov teatrning kelajagi umuman O'zbek teatr san'atining ravnaqi uchun jonkuyarlik bilan ishlaydi. Ayniqsa u O'zbek operasini yaratishda ko'p kuch sarfladi. 1937 yil Q.Yoqubov o'zi tashkil etgan musiqli teatr bilan Moskvada O'zbek san'ati va adabiyotli dekadasida qatnashdi. O'sha yili u xalq artisti unvoniga sazavor bo'lgan orden bilan mukofotlangan. 1939-yil O'zbek operasining qaldirg'ochlari "Ulug'bek", "Mahmud Tarobiy"da o'ziga topshirilgan rollarni muvaffaqiyatli o'ynadi. Q.Yoqubov 1957 yilda vafot etdi.

**To'xtasin Jalilov** 1896 yili Andijonda tug'ilgan uning mehnat faoliyati juda yoshligidan boshlandi. U o'spirinlik chog'ida sozanda Opog' Oxundan setor chalishni o'rgandi. Keyinroq Eshon g'ijjakchi Madamin changchi, Yusufjon changchi kabi Qo'qonlik musiqachilar bilan tanishadi, Andijonda tashkil etilgan milliy cholg'u asboblari ansamblida g'ijjakchi va ashulachi sifatida qatnashadi. H.H.Niyoziy bilan tanishishi T.Jalilov ijodiga katta ta'sit ko'rsatadi. U o'z asarlarining soda va pishiq chiqishi uchun harakat qildi. T. Jalilov 1923 yilda taniqli O'zbek musiqachilari qatorida Moskvaga boradi va butun Rossiya qishloq xo'jaligi ko'rgazmasi konsertlarida qatnashadi. 1925-29 yillarda u O'zbek etnografiya ansamblida sozandalik qiladi. 1929 yildan boshlab Andijondagi musiqa drama teatrlarida badiiy rahbar vazifasida ishlay boshlaydi. U o'zining bastakor faoliyatini dramaturg K.Yashinining "O'rtoqlar" pyesasiga musiqa yozishdan boshladи. "Oq-oltin tovlanar", "Qizil askar", "Dovrug" kabi qo'shiqlar To'xtasin Jalilov ijodiyotining dastlabki yillariga mansubdir. T.Jalilovning 30-yillardagi yirik asarlaridan biri K.Yashin va M.Muhammedovlarning "Gulsara" pessasiga bastalagan musiqasi bo'ldi. Bastakor maxsus musiqa bilimiga ega bo'lмагan va o'zi ijod qilgan kuylarni notalashtira olmagan bo'lsa ham juda kuchli Musiqiy xotiraga ega edi. T. Jalilovning 1929-yil Andijon teatrda qo'ygan "Gulsara" musiqli dramasi keyinroq R.Gler va Tolibjon Sodiqovning "Gulsanam" operasiga asos bo'ldi. T. Jalilov 1937 yillarda tashkil topgan O'zbek davlat Flarmoniyasiga, ulug' vatan urushi yillarida esa Muqumiyl nomli musiqli drama va kamediya teatriga badiiy rahbarlik qildi. O'sha yillari u Komil Yashinining "Nurxon" S.Abdullayevning Qurbon Umarov pessalariga musiqa bastaladi va ona vatan "Oldinga bos bolam", "Farhod qahramonlari" singari vatanparvarlik ruhidagi qator ashulalarni yaratdi. Bastakor urushdan Keyingi yillarda ham barakali ijod qildi. 1937 yil unga O'zbekiston xalq artisti unvoni berildi. O'zbek musiqasini rivojlantirishdagi xizmatlari uchun u bir necha orden va medallar bilan mukofotlandi. T.Jalilov 1966 yilda vafot etdi.

**Matyoqub Harratov** 1867 yil Xiva shahri yaqinida hunarmand oilasida tug'ildi. Otasi-Qurbon Harrat o'g'lining musiqa ishtiyoqini sezib, Xorazmning mashhur shoiri va musiqachisi Paxlavon Niyoz Mirzaboshi Komilga shogirdlikka beradi. M. Harratov ustozidan g'ijjak, tanbur chalish, husnixat she'riyat qoidalarini o'rgandi. M.Harratov taxminan 20 – yillarda Xiva xoni saroyidagi musiqachilar ansambliga ishga qiradi. Ammo saroydagiadolatsizliklarga chiday olmagan yosh san'atkor ko'p o'tmay bu yerdan ketadi. M. Harratov o'z ustoz Paxlavon Mirzaboshi bilan hamkorlikda "Xorazmcha tanbur, nota" yozuvini yaratadi va Xorazm maqomlarini yozish ishida yaqindan qatnashadi. 1923 yilda Xivada musiqa maktabi ochilishi bilan xalq cholg'u asboblari bo'limida musiqadan dars bera boshlaydi.

1934 yili folklorchi musiqashunos Elyos Akbarov Xorazmga borib M.Harratov ijrosida “Navo”, “Dugoh”, “Chiroq”, “Buzrug”, “Rost”, “Segoh”, “Panjgoh” maqomlarini tanbur transkriptsiyasi bo'yicha yozib oladi. Bu yozuvlar 1939 yili “Xorazm xalq musiqasi” nomi bilan kitob holida nashr etiladi.

M. Harratov 1936 yili Toshkentga chaqiriladi bu yerda u ijro etgan “Xorazm xalq musiqasi” namunalari yozib olinadi. Atoqli san'atkorning tanbur chertishdagi mahorati ayniqsa zo'r edi.

U tanburni noxunsiz ham chala olar edi. M. Harratov 1939 yilda vafot etdi. Xorazm maqomlari, xalq qo'shiqlari va dostonlarini yaxshi biladigan hurmatli hofiz o'z faoliyati davomida ko'plab ashulachi va sozandalarni yetishtirdi.

**XX-asr** boshlariga kelib Toshkent musiqa hayoti rivojlangan yirik shaharlardan biriga aylandi. O'quv muassasalarida xorlar, ba'zilarida esa, simfonik orkestrlar tashkil etildi. Havaskorlarning yangi musiqa to'garakari (masalan “Lira” -xor muxlislarining to'garagi) tashkil qilindi, xususiy dramatik gruppalar vujudga keldi. Marin teatri dirijyorlaridan biri V.I.Mihalik rahbarligidagi musiqa jamiyatni faoliyati yanada jonlandi. Jamiyat rus va chet el kompozitorlarining operalarini sahnalashtirdi, ommani mumtoz va zamonaviy musiqaning eng yaxshi namunalari bilan tanishtirib bordi. F.Leysik va N.Mironov jamiyatning faol ishtirokchilari edilar.

Musiqa maorifini yoyishda mashg'ulotlar pulli o'tkaziladigan umumta'lim maktablari va gimnaziyalar ham yordam beradi. Lekin hali hukumat oldiga musiqa bilim yurtlarini ochish masalasining qo'yilishi befoyda edi. Shu bois xususiy musiqa kurslari ochildi. Ularning repertuarlaridan ommaviy qo'shiq va raqslar shuningdek xorijiy mamlakatlarning operalaridan parchalar o'rinni oltanadi. Bunday orkestrlar Turkistonning ko'pgina shaharlarida mavjud edi. Ular repertuarning bir qismi xalq tantanalarida turli marshlar, valsler, polkalar bilan ishtirok etgan O'zbek xalq sozandalari orasida keng yoyilar edi.

Yevropa madaniyati vakillarining ko'p qirrali faoliyati ma'rifatparvar O'zbek va Tojik ziyyolilariga ta'sir ko'rsatadi. Masalan taniqli tojik mutafakkiri Ahmad Donish (1828-1897) bir necha marta Peterburgda bo'lib rus adabiyoti va musicasi bilan tanishib hamda “Buxorodan Sankt-Peterburgga sayohat” nomli kitob yozdi. Ahmad Donish boshqa xalqlar hayoti va madaniyati bilan tanishish zarurligini uqtirib ilg'or shahar madaniyatini targ'ib etishga intildi.

O'zbek xalqining mashhur shoiri Muqumi (1850-1903) hukmon sinflar zulmi va ruhoniylar ikki yuzlamachilagini dadillik bilan fosh etdi. Estetikaga qarshi kurash g'oyalari bilan sug'orilgan ko'pgina xalq qo'shiqlari Muqimiyning g'azallaridan iborat bo'ldi. O'zbek shoiri Furqat (1858-1908) ilg'or madaniyat to'g'risida o'ylab, uning mohiyatini chuqr tushundi uning “Royal” she'ri ruslar chalgan cholg'u asbobi rus musiqasi haqida she'riy asardir.

## 2.Musiqiya ta'lim turlari.

XX-asrning boshlarid Turkiston o'lkasining deyarli barch shaharlarida sozandalarning uyushmalari bor edi. Xalq mashshoqlari qo'shiqlarini mehnat ahli juda sevib tinglar bu qo'shiqlar hamma joyda keng yoyilib, xalq mulkiga aylanib ketgan edi. Xalq professional musiqa sanatida maqom janrining taraqqiyoti davom etdi. O'zbek professional musiqasining ijobili boy an'analarni bizning davrimizgacha avaylab, saqlab kelgan bastakorlarning keyingi avlodini tarbiyalagan ko'pgina maqom ustalari Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlarida yashaganlar. Shu bilan birga bu xildagi “Maktablar” xalqning professional musiqa ta'limiga bo'lgan muttasil intilishidan guvohlik beradi.

XIX-asr oxiridan boshlab musiqa folklorining o'rganilishi, xalq musiqasiga qiziqishning uyg'onishi O'zbekistonda dastlabki musiqa o'quv yurtlari faoliyatining ajralmas qismi bo'lib qolgan. O'zbek musiqasini chuqr va muntazam o'rganish 20-yillardan so'ng keng avj oldi. U ayni vaqtida xalqning musiqa o'quv yurtlari faoliyati bilan bog'langan edi.

O'zbek xalqi uzoq davom etgan rivojlanish jarayonida boshqa O'rta Osiyo xalqlari kabi insoniyatga fan va san'at sohasida buyuk siymolarni yetkazib berdi. Shuningdek, xalq musiqa ijodida rang - barang yangi janrlar yaratildi. Xalq musiqa ijodi obrazlarga boyligi, mazmuni, tuzilganligi va shakllarning mukammalligi bilan kishilarni hayratga qoldiradigan.Og'zaki

an'anadagi professional musiqa maqomlar tizimini yaratib, uni asrlar osha olib kelayotgan bastakorlar san'ati g'oyatda rivoj topdi.

Bu davr musiqada akademik janrlarning yanada rivojlanish keng ahamiyatga ega bo'ldi. Musiqa madaniyati amaliy ta'sirining, boshlanishi folkloristika bo'yicha olib borilgan ishlar, konsert hayotining rivojlanishi, musiqa bilim yurtlarining vujudga kelishi uchun bo'lган dastlabki urunishlar-bularning hammasi ko'п ovozli professional musiqaning rivojiga zamin yaratdi.

Musiqa san'atining rang-barang janrlarida ish olib boradigan ko'п ovozlilik prinsiplarini o'zlashtira olgan O'zbek professional kompozitorlarning vujudga kelishi tub o'zgarishlarni boshlanish nuqtasi bo'lib hisoblanadi. O'zbek musiqasi qardosh xalqlar madaniyatining hamkorligida rivojlana boshladi. Bu davrga kelib musiqa ta'limiga ham jiddiy e'tibor berila boshladi. 1919 yilning sentyabrida Turkiston Respublikasida Xalq Maorifi Komissarligi tuzilgangan bo'lib u bir qancha bilimlarni o'z ichiga olgan edi. Bular ichida san'at bilimi ham mavjud bo'lib, u o'z navbatida, uch kichik bilimga, musiqa, teatr va tasviriy san'at bo'limlariga ajraladi. Komissarlik musiqa bo'limi Respublikadagi butun musiqa hayotini birlashtiruvchi va unga rahbarlik qiluvchi yagona organ edi. U musiqa o'quv muassasalari uchun dasturlar tuzar, ular faoliyatini boshqarar va yo'naltirib turardi. Mazkur bo'lim tarkibiga musiqa ta'limi, etnografiya, Konsert va ta'minot bo'limlari kirar edi.

Kichik bo'lim huzurida xalq musiqasi sektori tashkil etilgan bo'lib, uning vazifasi qadimgi xalq musiqasi va qo'shiqlarining bilimdonlari rahbarligi ostida mahalliy musiqa asboblarini o'rganishdan iborat edi.

Toshkent, Buxoro kabi shaharlarda xalq konservatoriysi, Buxoro Sharq musiqa maktabi (1921 y) va turli instruktorlik kurslari ochila boshlandi. San'at bo'limida V.A.Uspenskiy (rahbar), G'ulom Zafariy, E.Melengaylis, N.N.Mironovlardan iborat badiiy-etnografik komissiya tuzilgandi. Mazkur komissiyaning asosiy vazifasi Markaziy Osiyo xalqlari Musiqiy ijodini o'rganish, musiqa namunalarini yig'ib nashr ettirish hamda xalq kuylarini konsertlarda ijo etish uchun qayta ishlashdan iborat edi. Komissiya a'zolarining boshidayoq xalq kuy qo'shiqlari va o'zbek-tojik xalqlarining musiqa merosi bo'lgan "Shashmaqom" to'laligicha notaga ko'chirildi. Bu borado Maorif instituti qoshida, fabrika va zavod klublari huzurida badiiy havaskorlik jamoalari tashkil etila boshlandi.

Shoir va dramaturg Bastakor Hamza Hakimzoda Niyoziyning jangavor qo'shiqlari yaratildi. Hamza va Q. Yoqubovlarning yangi "Sayyor" gruppalari tashkil etila boshlandi. Xususan Hamza O'zbek musiqa madaniyati taraqqiyotiga katta e'tibor ko'rsatdi. U milliy cholg'u sozлarni takomillashtirish zarurligi borasida birinchi bo'lib (A.I.Petrosyansdan ilgari) fikr bildirdi. Hamza o'zi tashkil qilgan maxsusus musiqa maktabida guruppa qatnashchilari uchun duxovoy, torli, milliy musiqa, ovoz mashqi, musiqa savodi, royal bo'yicha sinovlarni joriy etdi. U o'sha yillardayoq "Qorasoch" nomli birinchi operani yozishga kirishgan edi. Lekin bu operaning keyingi taqdiri, afsuski bizga noma'lum bo'lib qoldi.

Tashkil etilgan xalq konservatoriyalari, maxsus o'quv yurtlari-musiqa texnikumlariga aylantirildi. Chunonchi Turkiston xalq konservatoriysi 1922 yil 1-sentyabrda Turkiston musiqa texnikumiga aylantirildi. O'sha davrda tashkil etilgan konsertlarda simfonik va duxovoy orkestrlar, xalq ansamblari hamda xalq hofizlari Mulla To'ychi Toshmuhammedov, domla Halim Ibodov va Sherzoziy Yoqubovlar ishtirok etar edilar.

Toshkent, Buxoro va boshqa yirik shaharlarda xalq hofizi va sozandalari ishtirok etadigan bunday "Sharq musiqa kechalari" tez-tez uyushtirib turilar edi.

Musiqa ta'limining yanada rivojlantirish maqsadida uch bosqichdan iborat musiqa ta'limi joriy etilgan edi.

1 - bosqich- (kuyi) – musiqa ta'limi tizimidagi yetti yillik maktab. Uning vazifasi kelgusida professional san'atga qobiliyatli bo'lgan iste'dodli, istiqbolli o'quvchilarni tanlash:

2 – bosqich – (o'rta) – musiqa texnikumi yoki bilim yurti, musiqa ta'limining o'rta bo'g'ini:

3- bosqich – (oliy) – konservatoriya. Bundan oldin N.N.Mironov rahbarligida Samarqandda 1928 yilda musiqa va xoreografiya institut tashkil etilib unga Respublikaning turli viloyatlaridan

Ota Jalol Nosirov, Xoji Abduraxmon Umarov, domla Halim Ibodov, (Buxoro), Matyusuf Harratov (Xorazm), Ahmadjon Umrzoqov, Abduqodir Ismoilov, usta Olim Komilov taklif etilib, ular shashmaqom va milliy ashulalardan dars berar edilar.

Mazkur o'quv yurtining birinchi bitiruvchilari atoqli Bastakorlar M.Ashrafiy, M.Burxonov, Sh.Ramazonov, T.Sodiqov, D.Zokirov, M.Leviyivlar edilar.

Ushbi institut to'rt yildan so'ng san'atshunoslik ilmiy tekshirish institutiga aylantirildi. Keyinchalik unga Hamza nomi berildi. Shu yillarda musiqa tadqiqotchilari safi ancha kengaya boshladi Elyos Akbarov, X.Muhammedova, M.Aliyev singari ilk folklorchi kadrlar paydo bo'la boshladilar, turli yo'naliшhlardagi "O'zbek klassik musiqasi" (1927) "O'zbek va Sharqning boshqa xalqlari musiqa madaniyati obrazlari" (Samarqand 1931) "Buxoro, Farg'ona, Xiva qo'shiqlari" (Toshkent 1931) singari asarlar yaratildi. 20-yillarda kompozitor va xonandalar Q.Abdullayev, M.Ashrafiy, M.Burxonov, S.Yudaqov, B.Mirzayev, Q.Zokirov, X.Nosirovlar Moskva konservatoriysi huzurida tashkil etilgan O'zbek opera studiyalarida o'qib keldilar.

1936 yilda Toshkent Oliy musiqa maktabi Toshkent davlat konservatoriysi ochildi. Rossiya va Kiyevning Markaziy konservatoriyalardan yirik musiqa mutaxassislari ishga taklif etildi. G.A.Mushev, A.F.Kozlovskiy, B.B.Nadijden kabilar shular jumlasiga qiradi. Mazkur o'quv dargohi O'zbek kompozitorlari, musiqashunoslari, nazariyotchilari, dirijyorlari va ijrochilarini tayyorlashning asosiy markazi bo'lib qoldi. Konservatoriya 1940-41 yilda xalq musiqasining yirik bilimdonlari To'xtasin Jalilov, Yunus Rajabiy, Imomjon Ikromov, G'anjon Toshmatovlar qator yosh kompozitorlarning asarlari ham paydo bo'la boshladi. Bu yillarda turli konsert tashkilotlari – ular tarkibida har-xil badiiy jamoalar ham vujudga kela boshladi. Qori Yoqubov tashkil etgan davlat Flarmoniyasi qoshida To'xtasin Jalilov rahbarligida milliy sozlar ansambl (keyinchalik xalq cholq'u sozlari orkestri), Yunus Rajabiy rahbarligida radio qoshidagi ansambllar (1934) shular jumlasidandir.

### **3.MUSIQALI DRAMA VA OPERA TEATRLARINING TASHKIL ETILISHI**

1929 yilda Toshkentda O'zbek Davlat musiqali drama teatri tuzilgangan bo'lib, unda "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "O'rtoqlar", "O'tdan parchalar", "Portana", "Gulsara" singari musiqali spektakllar qo'yila boshladi. Mazkur sahna asarlarining musiqasi xalq kuylaridan iborat bo'lib, ularning ohanglarini V.A.Uspenskiy, S.Vasilenkov, Muxtor Ashrafiy, R.M.Glier, T.Jalilov, T.Sodiqovlar tanlar va yaratish edilar. Bu asarlarning paydo bo'lishi birinchi o'zbek operasi (S.Vasilenko va M.Ashrafiyning "Bo'ron" operasi) yaratilishiga poydevor bo'ldi. Mazkur operaning premyerasi 1939 yil 2 -iyunda Toshqenda bo'ldi. So'ngra ikkinchi milliy opera "Layli va Majnun" (R.Glier va T.Sodiqovlar musiqasi) sahna yuzini ko'rdi. (Shu qatorda S.Vasilenko M.Ashrafiyning "Ulug' kanal" "operasini ham aytib o'tish o'rini). Opera turli ohangda ariya va umum aytishuv qo'shiqlarga boy edi.

30-yillarning oxirida Qozoq kompozitori E. Brusilovskiyning "Gulandom" baleti (Tamaraxonim va Uyg'un Lebrettosi 1940 yilda sahnalashtirilgan) S.Vasilenko va M.Ashrafiyning "Ulug' kanal" (1945 yil yanvarida qo'yilgan) operalari yaratildi.

Shunday qilib, o'zbek musiqali teatri o'zining 10 yillik (1929-39) faoliyati davomida yarim professional musiqali etnografik ansambl ko'rinishida Mustaqil musiqali nomerlarga ega bo'lgan dramatik spektakllar orqali musiqali drama hamda undan operagacha bo'lgan ijodiy yo'lni bosib o'tdi.

### **4.VOKAL MUSIQASI**

30-yillarda ovoz va fortepiano uchun M.Burxonov "Ey bul-bul, giryak nakun" (A. Loxutiy so'zi) romansi, M.Ashrafiy va N.Mironovning Shota Rustaveli asariga yozilgan "Yo'lbars terisi yopingan pahlavon" vokal simfonik poemasi, M.Burxonovning B.Mashrab so'ziga yozgan "Ishq o'ti" balladasi, A.Kozlovskiyning yuksak badiiy darajada qayta ishlangan O'zbek xalq qo'shiqlaridan "Tanovor", "O'zgacha", "Gul yuz uzra", "Fig'ona" singari vokal simfonik asarlari yaratildi.

## CHOLG'U MUSIQASI

Bu davrda cholg'u kuylari janri ham bir qadar muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritdi. O'sha davrda Toshkent va Moskva Konservatoriyanida tahlil olayotgan M.Ashrafiy "Qurilish" marshi, M.Burxonov "O'zbekiston" syuitasi, M.Levievlar "Nurxon" poemalarini yaratdilar.

1937 yilda A.Kozlovskiyning "Lola" nomli syuitasi G.Mushelning birinchi simfoniyasi R.Glierning ikki asari "Tantanali uvertyura" Hamza "Farg'onada bayram" uvertyuralari maydonga keldi. Shu bilan birga rapsodiya, poema, sonata janri ham rivojlana boshladi.

Xalq kuylaridan ustalik bilan foydalanish evaziga (1937-41 yillar) S.Vasilenko, M.Ashrafiy, R.Glier, T.Sodiqov, A.Kozlovskiyarning opera hamda simfonik asarlari zamonaviy professional san'atning yirik shakllarini rivojlantirishga asos bo'ldi. O'zbek san'atkorlari o'zlarining bu yangi Musiqiy asarlari bilan 1937 yilda Moskvada o'tkazilgan o'zbek san'ati va adabiyoti dekadasida ishtirok etib katta muvaffaqiyatlarga erishdilar.

## TAYANCH TUSHUNCHALARI

- Monografik risolalar** – mono-bir, grafiya – yozish. Bir kishi tomonidan bir mavzu doirasida yozilgan va keng ma'lumotlarni o'z ichiga olgan risola.
- Folklor** – inglizcha so'z bo'lib, xalq donishmandligi ma'nosini anglatadi. Og'zaki xalq adabiyoti va musiqa ijodiyoti.
- Etnografiya** - ma'lum bir millatning yozma hamda amaliy san'ati namunalari.
- Gimnaziya** – boshlang'ich maktab.
- Kontrapunkt** – nuqtaga qarshi nuqta ma'nosini anglatadi. Ko'p ovozli polifonik musiqa yozish uslubi.
- Ideologiya** – g'oyalalar haqida ma'lumot.
- Balet** – fransuzcha – raqsga tushaman degan ma'noni anglatadi. Sintetik san'at turlaridan biri bo'lib, sahnada ko'rsatiladigan badiiy asar, asosan musiqa va xoreografiya vositalari bilan ifodalanadi.
- Xoreografiya** – raqs yaratish san'ati va raqsli spektakl.

## MUSIQA SAN'ATI SOHASIDAGI BIRINCHI O`QUV VA ILMIY DARGOHLAR: "FITRAT VA MUSIQA"

### Reja:

**1.1937-1938 yillardagi musiqa madaniyat.**

**2.Fitrat va musiqa.**

Buxoro amirligi va Xiva xonligining yemirilishi hamda Buxoro Xalq Sovet respublikasi (1920 y.), Xorazm Xalq Sovet Respublikasi (1920 y.), ular negizida O'zbekiston Respublikasi (1924 y.), so`ngra Tojikiston Respublikasi (1929 y.) ning tarkib topgan. Aynan shu vaqtida asirlar qa'ridan kelayotgan klassik musiqa an'analarida o'zgacha qarashlar sodir bo`la boshladi. Yangi siyosiy bo`linishlar natijasida maqom san'atining qadimiy o'choqlari bo`lmish Buxoro, Xorazm, Farg`ona va Toshkent O'zbekiston hududiga kirganligi munosabati bilan Buxoro, Xorazm va Farg`ona-Toshkent uslublari umumlashtirilib, mushtarak an'ana sifatida ko`rila boshlandi. Shuning uchun A.Fitratning 1927 yidda chop etilgan kitobi "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" deb nomlanishi ham bejiz emas.

O'zbekistonning markazi dastlab Samarcand bo'ldi. Poytaxtga xos bo`lgan barcha madaniy muassasalar ham shu shaharda joylashdi: Markaziy Konsert, teatr tashkilotlari, respublika radiosи va o`quv muassasalari. San'at sohasidagi birinchi o`quv va ilmiy dargoh musiqa va xoreografiya instituti ham 1928 yilda Samarcanda ochildi. Bu institutda o`quv va ilmiy-tadqiqot ishlari barobariga olib borildi. O`quv dasturlari an'anaviy hamda yevropa yo`nalishlarida amalgalashirilgan. Milliy musiqadan ta'lim berishda tarixiy shakllangan uchala maqom maktabi ham nazarda tutilgan. Farg`ona yo`lidan Abduqodir Ismoilov, Xorazm uslubidan Matyusuf Harratov, Buxoro Shashmaqomidan Domla Halim Ibodov, Abdurahmon Umarov kabi yetuk ustozlar dars

berish uchun jalb etilgan. Yevropa musiqa savodidan N.N.Mironov o`qitgan. Ayni chog`da institut direktori lavozimida bo`lib, o`zbek va tojik musiqasiga oid ilmiy izlanishlar ham olib borgan .

1928 yilda tashkil qilingan Samarqand musiqa va xoreografiya ilmiy-tekshirish instituti o`z davrida musiqa merosini o`rganish bo`yicha eng katta dargoh bo`lgan. Bu yerda ta`lim olgan M. Burxonov, T. Sodirqov, M. Ashrafiy, M. Leviyev, D. Zokirov va ko`plab boshqa kompozitor, ijrochi hamda musiqashunoslar ta`lim oldilar .

Sho`ro hukumatining dastlabki yillarida Buxoroda Fitrat tashkil etgan "Sharq musiqa maktabi"ga o`xshab Xivada ham bolalar musiqa maktabi ochildi. Uning birinchi direktori Muhammad Yusuf Harrot (Matyusuf Harratov) bo`ldi. Otasi Matyoqub Harrot shu maktabda yoshlarga maqom o`rgata boshladи. Lekin maktabning milliy musiqa o`rganish bilan bog`liq faoliyati uzoq davom etmadи. 1924-25 yillarning o`zidayoq u butunlay boshqa yo`nalishdagi "Bolalar uyi"ga aylantirildi.Xiva musiqa maktabi o`qituvchi va talabalari atoqli maqom ustozи Matyoqub Harrot bo`lgan keyinchalik u Xiva va Urganch teatrлarida ijrochilik qilgan. Nuroniy sozandaning hayoti kutilmaganda achinarli tugagan 1937 yoki 1938 yilning yoz faslida Urganch teatrining ochiq sahnasida divijokdan quvvat oladigan elektr chiroqlari tez - tez o`chavergan. Osmonda esa oy charaqlab turgan. Shunda Matyoqub Harrot hech qanday g`arazsiz -Ollohnning nuri porlab turganda "jin chiroqning" nima keragi bor ekan, degan emish. Shu "mish-mish" gapning o`zi keksa san`atkorga "Ilich chirog`i"ni haqorat qildi, deb ayb qo`yilishi uchun kifoya bo`lgan. "Xon saroyida xizmat qilgan" degan ustama "ayb" ham qo`shilgan. Xullas, siyosat ko`chasidan o`tmagan qariya "xalq dashmani" sifatida ta`qib ostiga olingan.

Matyusuf Harrotning o`zi esa 1928 yil tashkil etilgan Samarqand "Musiqa va xoreografiya ilmiy-tekshirish instituti"da "Xorazm uslubi"dan dars berish uchun taklif etilgan. So`ngra markaz Toshkentga ko`chishi munosabati bilan u poytaxt radiosida sozandalik vazifasini bajargan. Biroq umrining oxirigacha (1952 y.) xavf -xatar ostida yashagan. Hattoki siyosatdan ko`rqib, adabiy taxallusi "Chokar" (xizmatkor) ekanligini yashirib yurgan.Shu davrlarda ko`pgina nomdor sozandalari ham o`zining xon saroyiga aloqadorligini yashirishga majbur bo`lganlar. Ularning xos san`atiga yangi tuzumning ehtiyoji ham bo`lmagan.

O`zbekiston poytaxti Toshkentga ko`chirilishi munosabati bilan Mazkur institut 1932 yildan ilmiy tadqiqotlar markazi sifatida faoliyatini davom ettirdi.

Milliy musiqa merosini yozib olish va qayta ishlashga doir ishlar 1919 yil dekabrida Turkiston respublikasi maorif Xalq Komissarligi San`at bo`limi qoshida Badiiy-etnografik komissiya tashkil etildi. Komissiyaning dastlabki vazifalaridan biri bo`lib hisoblangan musiqa folklorini yozib olish ishning boshqa barcha turlarini ham o`ziga qaratdi, natijada komissiya bir butun, Musiqali-etnografik komissiya deb atala boshladи. G'. Zafariy, N. Mironov, V. Uspenskiy komissiya a`zolari edi.

O`zbekistonda musiqa folklorshunosligiga asos soluvchilar orasida V. A. Uspenskiy alohida ajralib turdi. Uspenskiy ko`p asrlik badiiy madaniyat an`analarining vakillari xalq musiqachilari orasida juda tez do`stlar topar edi, shuning o`zi ko`pincha uning ishlarining muvaffaqiyatini belgilab berardi.

Shashmaqomning yozib olinishi muhim ish bo`ldi. Ana shu maqsadda musiqali-etnografiya komissiyasi Uspenskiy Buxoroga komandirovka qilgan edi. Uspenskiy Buxoroda bir yildan ko`proq (1923—24) turib, taniqli ijrochilari— hofiz Ota Jalol Nosirov va tanburchi Ota G`iyos Abdug`anilar bilan hamkorlikda ish olib bordi.

20-yillarning ikkinchi yarmida O`zbekiston va Turkmaniston bo`ylab bir qator Musiqali-etnografiya ekspeditsiyalar tashkil etildi. Ekspeditsiya materiallari V.Uspenskiy va V.Belyaevning birinchi tomi 1928 yilda Moskvada nashr qilingan «Turkmenskaya musiqa» asarida berildi. Uspenskiy notaga olgan Shashmaqom sikli «Shest musiqalnix poem (maqom)» nomi bilan 1924 yilda Moskvada nashr qilindi.

O`rta Osiyo respublikalarida bu sohada dastlabki qadamlar V. A. Uspenskiy va N. N.Mironov tomonidan qo`yildi. Ular qayta ishlagan xalq kuylari 1922 yil fevralda Toshkentda ijro etildi. Mironovning syuitasi simfonik orkestr uchun moslashtirilgan sakkizta xalq qo`shig`ini

(to`rtta o`zbekcha va to`rtta qozoqcha) o`z ichiga olgan edi..

Uspenskiyning 20-yillarning boshlarida alohida pyessalar tarzida maydonga kelib, keyinchalik «Chetire melodi narodov Sredney Azii» (v obradotqe dlya simfonicheskogo orkestra)degan umumi nom bilan Moskvada nashr etilgan (1934) partiturasi o`zgacha belgilarga ega. Partitura simfonik orkestr uchun qayta ishlangan o`zbekcha, afg`oncha va ikkita qozoqcha qo`shiqdan tashkil topgan.

Uspenskiy bilan bir qatorda o`zbek xalq kuylarini garmoniyalashda boshqa musiqachilar ham o`z kuchlarini sinab ko`rdilar. 20-yillarning oxiriga kelib O`zbekistonda N.N.Mironov rahbarligidagi Samarqand o`zbek Musiqa va Xoreografiya instituti folklorshunoslik ishlarining tashkiliy markaziga aylandi. Institut o`zining Samarqandda ishlagan yillari mobaynida (1928-32) nusxa ko`chiruvchi vakilarda besh yuzdan ortiq xalq ijodi asarlarini yozib oldi hamda bir qancha kitoblarni nashrga tayyorladi. Bular oraosida Mironovning «Musiqa O`zbekov» (1929), «Обзор музыкальных культур Узбеков и других народов Востока» (nota yozuvi M. Ashrafiy, Sh. Ramazonov va T. Sodiqovlarniki, 1931, «Песни Фергани, Бухари и Хиви» (1931) kitoblari bor edi. Har bir nashr etilgan kitob Mironovning kirish maqolari bilan ochilgan bo`lib, ularning shogirdlari notaga olgan xalq kuylari to`plamidan iborat edi.

Institut milliy san`atni o`rganish bilan birga musiqa ta`limi bilan ham shug`ullandi. Shashmaqomni hamda xalq cholg`u asboblarini chalishni o`rganar edilar. Buxorodan (Ota Jalol Nosirov, Domla Halim Ibodov), Xorazmdan (M. Xarratov) va Farg`onadan (A. Ismoilov, A. Umarzoqov) taniqli hofiz va sozandalar Samarqand institutida jamlanganligi tufayli o`quvchilar respublikaning turli oblastlari musiqasining mahalliy xususiyatlari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo`ldilar. Shu bilan birga o`quvchilar uchun elementar musiqa nazariyasi va solfedjio ham o`tilar edi, ularning o`zlari ham asarlar yaratishni, ayrimlari esa orkestrga dirijyorlik qilishni o`rganar edi. Bu yerda keyinchalik mashhur bo`lib ketgan T.Sodiqov, M. Ashrafiy, M. Burhonov, D. Zokirov, M. Leviev, Sh. Ramazonov, O. Halimovlar o`zlarining Musiqiy bilimlarini chuqurlashtirdilar.

Birinchi musiqali teatrlar 1918 yili Toshkentda tashkil etilgan rus opera teatri Turkistondagi birinchi musiqali teatr edi. Teatr tashkil bo`lganga qadar Havaskorlar musiqali teatr jamiyat kuchi bilan klassik operalardan parchalar ko`rsatar edi. Bu postanovkalarniig eng aktiv va talantli ishtirokchilari opera teatrining birinchi sostaviga solist sifatida kirgan edilar. Teatr o`z faoliyatini boshlashidanoq o`zining xor va simfonik orkestriga ega edi (birinchi drijyori F. Sedlyachix). Teatr sostavi tez orada Rossiyaning yetakchi teatrlari artistlari bilan mustahkamlandi. Spektakllarda O`rta Osiyoda gastrolda yurgan rus opera sahnalarining ustalari L.V.Sobinov, A.V.Nejdanova, G. S. Pirogov, P. I. TSesevich va boshqalar ishtirok etdilar. 20-yillar teatr postanovkalari orasida Dargomijskiyning «Suv parisi», Chaykovskiyning «Yevgeniy Onegin» va «Mazepa», Verdining «Traviata» hamda «Rigoletto» va boshqa klassik operalar bor edi. Teatr sahnasida G. I. Gizler (Arskiy)ning «Stenka Razin» operasi muvaffaqiyat bilan o`ynaldi.

Asarlarni tanlash va o`rgatishda (notasiz) musiqa merosimizning taniqli bilimdonlari, hofizlar Mulla To`ychi Toshmuhamedov va Shorahim Shoumarov ishtirok etdilar. Bosh qahramon- Halima rolini (20-yillarning oxirida) keyinchalik nom qozongan o`zbek opera solistikasi Halima Nosirova o`ynadi. Bu spektakl tomoshabinlar ommasi orasida katta muvaffaqiyat qozondi.

Respublika musiqali teatr san`ati tarixida o`zbek adabiyotining asoschisi A. Navoiy dostonlarining instsenirovkalari ham muhim rol o`ynadi. Bu sohada «Farhod va Shirin» spektakli «dastlabki qaldirg`och» bo`ldi. Bu spektakl Navoiyning ana shu nomli dostoni asosida yaratilib, Havaskorlar truppassi tomonidan 1922 yilda avval Toshkentda, so`ngra esa boshqa shaharlarda sahna yuzini ko`rdi. Spektakl musiqasi maqomlardan parchalar va boshqa og`zaki an'anadagi professional musiqa janrlari namunalardan tashkil topgan bo`lib, xalq cholg`u asboblari ansambl jo`rligida artistlar tomonidan ijro etilardi. Navoiyning «Layli va Majnun» dostonining instsenirovkasi Toshkentda gastrolda bo`lgan ozarbayjon truppasining sezilarli ta`siri ostida amalga oshirilgan. O`zbek artistlari tomonidan qo`yilgan «Layli va Majnun»ning ilk

postanovqalari (1922—23) da ozarbayjoncha musiqa saqlanib qolgan. 30- yillarning boshiga kelibgina «Layli va Majnun» musiqali dramasi o`zbek milliy repertuarining asari sifatida vujudga kelgan.

30-yillar musiqa ijodchiligidagi muhim tendentsiyalar ta`kidlanadi. Bu davrga kelib o`zbek musiqali teatrining shakllanishi yangi bosqichga kirdi, yangi janrlar—opera va balet vujudga keldi. O`zbek folklori kuylari zaminida simfonik asarlar paydo bo`lib ularning eng yaxshilari respublika musiqa hayotidan o`rin oldi. O`zbek romansi va kamercholg`u pyesalar yaratishdagi birinchi tajribalar ana shu davrga to`g`ri keladi.

### **TAYANCH TUSHUNCHALAR:**

1. Matyusuf Harratov - Xorazm maqomlarini bilimdoni.
2. N.Mironov - Samarqand musiqa va xoreografiya institut direktori.
3. "Chokar"- 4-kasb egasi.

## **2. FITRAT VA MUSIQA**

Abdurauf Fitrat qomusiy bilim egasi bo`lgan buyuk insonlardan biri . Shuning uchun ham islom va adabiyotimiz tarixi, O`rta Osiyoda yer-suv munosabatlari, arxiteqtura, tarix, o`zbek tili va madaniyati ravnaqi yo`lida samarali xizmat qildi. Fitrat klassik adabiyotning bilimdoni, tadqiqotchisi va targ`ibotchisi edi. Fitrat musiqamiz tarixini yoritish, «Shashmaqom»ni toplash va notaga tushirish ishlarini O`zbekistonda birinchilardan bo`lib boshladi. U yaqin Sharq musiqa mifikabini tashkil etishda tashabbus ko`rsatdi. Buxoro hukumatining farmoni bilan 1921 yilning 10 avgustida Fitrat Sharq musiqa mifikabini birinchi boshkonni (direktori) qilib tayinlandi. Sharq musiqa mifikabiga adib o`z hovlisini hadya etgan. (Buxoronig Dzerjinskiy qo`chasidagi 8-hovli. Shu kunlarda shaqar Kommunal xo`jaligi yotoqxonasi). Mazkur musiqa mifikabiga Domla halim Ibodov ilmiy bo`lim mudiri, «Shashmaqom» bilimdonlaridan Shohnazar Shahobov, Boboqul Fayzullayev o`qituvchi bo`lib, keladganlar. Tarixiy manbalarda yozilishicha , Fitrat Buxoroning barcha nohiyalaridan iste`dodli yoshlarni atrofiga to`plagan. Uspenskiyga o`z yonidan haq to`lab «Shashmaqom»-ni notaga tushirishdek xayrli ishni bajargan. Biz shu kungacha buxorolik mashhur hofiz va Bastakorlar Levicha hofiz,Gavriil Patak, quticha ellarning na ijodini, na hayotini bilamiz. Bu uchala zot "Bozori shab"da har kuni xonish qilishgan. Fitrat ular bilan bevosita aloqada bo`lgan.

1928 yili «Alanga» jurnalining 2-sonida Fitratning «"O`zbek musiqasi to`g`risida» maqolasi bosildi. Musiqamiz haqida shunday yozadi:«...U bir musiqaki yolg`iz o`zining klassik qismida uch yuzdan ortiq kuy saqlagan; bir musiqaki, bu kun o`n besha yaqin cholg`uning egasidir; bir musiqaki, loyiq nazariyasi, usuli bor; uni maqtag`anlar to`g`ri so`zlaylar». Fitrat musiqamiz nazariyasi; tarixini chuqur his etgan, bilgan. O`z davrining musiqachilaridan Ota Jalol bilan juda yaqin bo`lganligidan, Fitrat "O`zbek klassik musiqasi va uning tarixi" kitobida ta`kidlashicha, "Segoh" maqomidagi "Savt" sho`bachasini Ota Jalol Fitratning tashfiqi bilan 1922 yilda bastalagan.

Fitratning "O`zbek klassik musiqasi va uning tarixi" kitobi madaniyatimiz, jumladan, musiqa fanida katta voqeadir. Ushbu kitob 1926 yilda yozilgan va 1927 yilda O`zbekiston Davlat nashriyoti tomonidan Samarqandda chop etilgan. U 75 sahifadan iborat bo`lib, eski o`zbek yozuvida bosilgan. Risolaning orqa muqovasida mashhur Bastakor Ota G`iyos Abdulg`aniyevning (1854 -1927) surati bor. Kitobning "muqaddima"fasli «O`zbeklarni o`rganish qo`mitasi» tomonidan yozilgan. Kitob ikki qismdan iborat bo`lib birinchisida Sharq musiqasi (o`zbek musiqasi), usul va pardalar, har bir maqomning sho`bachalari hamda tanbur, mizrob, dutor, rubob, qo`biz, chang, g`ijjak, cho`shnay, nay, bolabon, surnay, karnay, doira va nog`oraning kelib chiqish tarixi, rivojlanish bosqichlari haqida so`z boradi. Ikkinchi qism esa «Musiqa tarixiga bir qarash» yoki «Turk musiqasi» deb nomlangan.

«Bizning eski kuylarimiz orasida, - deb yozadi Fitrat, - «Rok», «qator sarang» degan kuylar bor. «Rok» hindcha «maqom» Demakdir. «Sarang» esa hind cholg`ularidan biridir. Bular musiqamizning ko`p eskidan ( arad, eron, hind) musiqasidan ta`sirlanganligini ko`rsatadir». Fitrat Mazkur risolada islomgacha bo`lgan musiqamiz tarixini ishonchli dalillar asosida

baholashga harakat qilgan. U Abdul Qodir Marog`iyning "Zubdat ul-advor", Muhammad ibn Mahmudning «Nafois ul-funun», Muhammad Fuod Ko'pirlizodaning «Milliy tatabbular majmuasi», hofiz Darvesh Ali Changiyning «Tuhfat us-surur», Alisher Navoiyning «Mezon ul-avzon», 1925 yilda Xorazmda yaratilgan «Xorazm musiqa tarixchisi» kabi muhim manbalarni chuqur o`rgangan. Shuning bilan birga maqomdagagi har bir usulning nazariy tomonlarini nozik fahm ta'b ila yoritdi. O`zbek musiqasida qo'llanadigan 24 usulning bir-biridan farqli tomonlarini nazariy jihatdan farqlab berdi. O'n to`rtta cholg'u asbobi xususida mufassal ma'lumot yozib qoldirdi. Masalan, u tanbur haqida shunday yozadi: "Burungi musiqa kitoblarimiz «tanbur so`zani», «Tanbura» shaklida yozadirlarda, aslida yunoncha bir so`z ekanini so`ylaydilar. Bu cholg'uning chindanda yunondan bizga kelib-kelmaganini terandan tekshirish mumkin bo`ladi. Biroq bu cholg'uning Sharqda juda eski bir narsa ekan ma'lumdir. Mashhur Nosir Sayyorning Xuroson valiyligi zamonida Xurosondon Shom shahriga «Tanbur»lar, «Borbad»-lar istanilgani «Ravzat us-safo»da xabar berilgan. O`rta Osiyo xalqlari orasida «Do`nbira» atalgan bir cholg'u bor. Tori ikkitadir. O`zi bugungi biznnng dutorimizdan kichkina, pardalari ham undan ozdir. Tanbur, Tanbura, Do`nbura so`zlarining biringa so`z ekanida shubha yo`qdir. Mana shu ma'lumotga tayanib eskidan borlig`i xabar etilgan. Tanbur - Tanburaning bu kungi do`mbiraning xuddi o`zi yo shunga yaqin bir narsa ekaniga, ya`ni bu kungi bizning tanburimizning ikki torli, ibtidoiy bir shakli bo`lg`oniga hukm etilsa, yanglish bo`lmaydir. Hijriy o`ninchasi asrda o`tgan hofiz Darvesh Ali Changiy zamonidan «Tanburning burun zamonlarda ikki torli bo`lgani, so`ngra Husayn Boyqaro zamonida Mahmud Shayboniy otli bir musiqashunosning unga bir tor orttirg`ani» to`g`risida berilgan xabar esa yuqoridagi fikrimizning dalili bo`ladi...» Fitrat har bir cholg'u asbobi xususida so`zlaganda uning uch tomondan ko`rinishini ham tasvir etadi.

«O`zbek klassik musiqasi va uning tarixi» kitobining ikkinchi fasli "Musiqamizning keng tarixiga bir qarang" yoxud "Turk musiqasi" deb nomlangan. Arxeologik izlanishlar natijasida topilayotgan ko`pgani musiqa asboblari ham fikrimizning dalilidir. Ikkinchidan, insoniyat yer yuzida paydo bo`lgandan boshlab kuyga tabiiy ehtiyoj sezdi, Tabiat hodisalari, tiriklik olamidagi turli harakatlarni o`z «san`ati»ga singdira bordi. Shuning uchun har bir el tarixi bilan musiqasi tarixi uzviy bog`likdir. Fitrat aytmoqchi, islomgacha o`zbeklarning ham o`z musiqalari, "o`z boshli nazariyalari"bo`lgan. Bu haqda quyidagi dalilni keltiradi: "Usmoniyali musiqashunoslardan Raif Yaktabekning marog`ali Xo`ja Abdul Qodirdan ko`chirib yozganiga ko`ra Turk (o`zbek)larda uchta «usul doirasi» bor emish. Turklar butun kuylarni, ashulalarni shul uch usul "usul doirasi" uzra ijro qilar emishlar. Bularga «Ko`k»lar demishlar. Fitratning xizmatlaridan yana biri, ushbu risolasida ilgarigi zamonlarda yashab ijod qilgan bastakor, hofizlar nomlarini, ular qoldirgan kitoblarini zikr qiladi. «hatto «Tuhfat us-surur»ning aytishiga ko`ra, - deb yozadi Fitrat mashhur Ulug`bek mirzoning o`zi ham musiqa olimlaridan sanalgan. Temurning bolalari zamonida qonunchi Darvesh Ahmadiy (Samarqand), naychi Sulton Ahmar (samarqandlik), Turkcha, forscha ikki devon bilan musiqada bir risola egasi bo`lg`an. Qoraqo`llik Hisomiy musiqada bir risola yozgan. Xorazmlik Abdul Vafo Tabib ham musiqa olimi bo`lgan. Balxlik Mavlono Sohib, o`z zamonasida atoqli bastakor sanalgan shahrisabzlik Abdulbaraka kabi kishilar yetishib musiqamiz uchun xizmat qildilar. Nag`orachi ham shoir bo`lgan qadimi, Navoiyning musiqamuallimi Xo`ja Yusuf Burhon, Navoiyning tog`asi Muhammad Ali Haribiylar ham shul zamonning mashhur musiqashunoslardan edilar». Fitrat o`zbek musiqasining Ulug`bek zamonigacha bo`lgan davrini alohida ko`rsatib chiqish bilan birgalikda XIV-XV asrda Samarqandda o`zaro jang-jadallar, fisqu fasod kuchayib «go`zal san`atlar»ning markazi Hirotda ko`chganligini yozadi: «Husayn Boyqaro ham Alisher Navoiyning himoyalari ostida chig`atoy (o`zbek) adabiyoti, chig`atoy musiqasining «oltin davri» Hirotda ko`rila boshlaydir. Hirotda Husayn Boyqaro to`g`risidagi musiqa ustodlaridan so`zlaganda, boshlab, Navoiydan gapirishni kadrshunoslardan yuzasidan lozim, deb bilamiz». Fitrat Navoiyning musiqa ilmi, o`z atrofiga musiqashunoslarni to`plab g`amxo`rlik qilganliklarini Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" sidan misollar keltirish bilan qayd etadi. Alisher Navoiyning o`zi ham bastakor bo`lgan degan fikrni ilgari suradi: «Musiqaning nazariy-amaliy yo`laridan yaxshi bilar edi. Bobur Mirzo o`zining mashhur asarida Navoiyning

asarlarini sanar ekan «yana ilmi musiqada yaxshi nimalar bog'labturgan, yaxshi «peshravlari» bordur» deb, u zamonning istelohida ashula kuylarga «naqsh», ashulasiz kuylarga «peshrav» der ekanlar. Navoiyning usta bir san'atkor bo`lganini ko'rsatadir». Fitratning o`z iborasi bilan aytganda, haqiqatdan ham, u Alisher Navoiyning «buyuk qadrshunosi» edi. XVI asrda «Musiqa haqida risola» yozgan, Najmuddin Kavkabiyning fojiali taqdiri haqida keltirilgan ma'lumotlar ham qimmatlidir.

Fitrat o`zbek xalq og`zaki ijodi uchum muhim faktlarni topadi: «Turk musiqasining bizda qolgan eng bugung`i so`zлari- Baxshi - o`zan qo`buz so`zlaridir. «Baxshi so`zining bugungi ma`nosi el «shoir-cholg`uchi»sidir. El orasida "qo`biz" yo "do`mbira" chalib dostonlar o`qib yurgan maxsus kishilar - shoir-cholg`uchilar bor. Biz mana shularga «baxshi» deymiz. Xolbuki. Hijriy to`qqiz yuzinchi mo`ljalda , (Navoiy zamonida) bu so`z uyg`urcha yozgan kotib ma`nosida ishlatalar edi. Professor Ko`pirlizodaning Haloquxon zamonida «yoziqgan «Zich ilxon»idan qo`chirganiga ko`ra, «baxshilar har oyda uch kun parhez tutib ibodat qilar va belgili yemaklar yerlar». Bu so`zlardan Sharq musiqasi va musiqashunoslarning ibtidoiy madaniyati haqida qimmatli ma'lumotlarni bilib olishlari mumkin.

Shu o`rinda beixtiyor, o`ylab qolasiz. «O`zbek klassik musiqasi va uning tarixi»ni yozgan, Sharq musiqa matabiga boshqonlik qilgan, «Shashmaqom»ni toplashda faollik ko`rsatgan, o`zi tanbur chalib, maromiga yetkazib g`azal kuylay oladigan Fitrat nahotki biror kuy bastalamagan bo`lsa har holda bu savolga izlanishlar orqaligina javob berish mumkin.

Xullas, Fitrat «O`zbek klassik musiqasi va uning tarixi»ni yozib musiqashu-nosligimizda o`chmas iz qoldirdi. U xalqimiz va merosimizning o`zi aymoqchi, benazir kadrshunosi edi. Bu singari bebaho risolalarini tezroq chop etib xalqimizga berishimiz lozim.

### **TAYANCH TUSHUNCHALAR:**

1. Ota Jalol - Buxoro maqomlarini bilimdoni, hofiz.
2. Baxshi- shoir-cholkuchi,doston ijrochisi.
3. «Bebokcha "- kuyni nomi.

### **1941-1967 YILLARDA O`ZBEK MUSIQASI**

#### **Reja:**

- 1.Umumi tushuncha.**
- 2.Musiqali dramalar haqida.**
- 3.Qo'shiq va romanslar.**
- 4.Cholg'u musiqasi haqida.**
- 5.Opera va balet janridagi asarlar.**
- 6.Simfonik musiqa borasida.**
- 7.Konsert va Musiqiy targ'ibodchilik to'g'risida.**

Ushbu yillarda musiqa san'atining rivojlanishi o`ziga xos xususiyatlarga ega bo`lib, bu vaqtida butun kuch fashizm ustidan g'alaba qozonishga qaratilgan edi. O`zbek kompozitorlari, musiqachi, xonanda va sozandalar o`z ijodlarini front orqasini mustahkamlash va g'alaba qilishga qaratilgan edi. Bu davrda musiqa ijodiyoti anchagina keng va xilma-xil edi. Keksa avlod xalq sozandalari va Bastakorlari T.Jalilov, Q.Jabborov, S.Kalonov, Yunus Rajabiy. F.Sodiqov. A.Umrzoqov va M.Harratovlarning faoliyati keng tus oldi.

Mamlakatimizning musiqa oliy o'quv yurtlarida professional ta'lim shakllanib, kompozitorlarning yosh avlodi yetishib chiqdi. O'sha yillarda Toshkent Konservatoriyasida I.Akbarov, D.Zokirov, Paq. En.Din, I.Hamroyev, Moskva konservatoriyaning opera studiyasida M.Burxonov, T.Sodiqov, M.Ashrafiy, Leningrad Konservatoriyanalarida M.Leviyevlar taxsil ko'rар edilar. Urush boshlangan yili Toshkent Konservatoriysi nazariy kompozitorlik fakultetining ilk tugatuvchilari I.Akbarov, V.Ginko, V.Meyen va M.Hamzinga diplomlar

topshirildi. Urush yillarida ko'pgina evukuatsiya qilingan rus san'ati namoyondalari B.Arapov, S.Vasilenko, V.Voloshinov, L.Revutskiy, Yu.Tyulin, E.Shteyberglar O'zbekistonga ko'chib kelib yosh O'zbek musiqachilarni tarbiyalashda o'z hissalarini qo'shdilar. Urushdan avval o'z taqdirlarini O'zbekiston bilan bog'lagan keyinchalik bu yerda umrbod qolgan V.Uspenskiy, N.Meronov, B.Nadijden, A.Kozlovskiy, G.Mushel kabi rus kompozitorlari ham o'z faoliyatlarini davom ettirdilar.

Turli avlod va millatga mansub bo'lган kompozitorlar bu davrda yakdillik va yagona maqsad yo'lida ish olib borardilar. Mazkur davrning o'ziga xos xususiyati voqelikka hozirjavob ixcham va harakatchan asarlarning yangi turlari, xilma-xil musiqali adabiy kechalar konsert va vatanparvarlik mavzuzidagi spektakllar yuzaga kelishidadir. Qo'shiq, monolog – da'vat, xor va raqlarni o'z tarkibida birlashuvchi sodda syujetli spektakllarni asosiy maqsadi tomoshabinga oddiy, tushunarli tarzda, ona vatan yo'lidiagi jasorat g'oyasini yetkazishga bo`ysindiriladi.

Urush yillari Respublikamiz Konsert hayoti nihoyat to'liq bo'lганligi bilan tavsiflanadi. Mazkur yillarda O'zbek davlat filarmoniyasi Respublikada Konsert faoliyatining muhim markazlaridan biri bo'lib qoldi. Filarmoniya ishini yaxshilashga qaratilgan qator tashkiliy choralar ko'rildi: uning tarkibidagi jamoalar qaytadan tashkil qilinib, tarkiblashtirildi. Samarqand, Farg'ona, Andijonda filarmoniya filiallari ochildi, musiqa adabiyoti lektoriyasi o'z ishini boshladi. Klassik va yangi yaratilgan o'zbek musiqa asarlarini targ'ib qilish filarmoniya ma'rifatchilik ishining asosiy masalasi bo'lib qoldi. Simfonik konsertlarda ijro etiladigan rus, g'arbiy evropa simfonik asarları ayniqsa tinglovchilar diqqatini o'ziga jalb etardi.

S.Ginzburg, S.Bogoyavlenskiy, V.Bunimovich, Muzalevskiy, A.Doljanskiy, A.Kotlyarovskiy kabi atoqli musiqashunoslar ma'ruza va mazmundor annotatsiyalarining mualliflari sifatida tanildilar. I. Musin rahbarligida Leningrad konservatoriyaning Yettinchi simfoniyasi (1942 yilning 22-iyunida) ijro etilishi katta badiiy va siyosiy ahamiyatga molik voqeaga aylandi. Nazariy fikrlar ham rivojiana borib, bunda Yu.Tyulin, S.Ginzburg, X.Kushnaryov va B.Struve kabi taniqli Leningrad musiqashunoslarining hissasi katta bo'ldi. Leningradlik olimlarning tashabbusi bilan O'zbekiston musiqa madaniyatiga oid ilk kitob "Пути развития Узбекской музыки" ("O'zbek musiqasining rivojlanish yo'llari" S. Ginzburg muharrirligi ostida mualliflar jamoasi) yozilib, 1946 yili Leningradda nashr ettilirdi.

Shunday qilib, urush yillarining qiyinchiliklariga qaramay, O'zbekiston to'laqonli musiqali hayot kechirdi. O'z intilishlari va o'sha yillari Respublikamizda ikkinchi uyini topgan qardosh xalqlar istedodli namoyandalari bilan hamkorlikda O'zbek musiqasi san'ati o'sishda davom etdi, musiqa ta'limi ijrochilik va kompozitorlik ijodiyoti sohasidagi yangi yutuqlar qo'lga kiritildi.

**Qo'shiq va romans** – bu davrda musiqa janrlari orasida qo'shiq birinchi o'ringa chiqdi, mazkur janr alohida harakatchanligi voqelikga hozirjavobligi, obrazlar mazmuniga aniqlik kirituvchi so'z bilan bog'liqligi, shaklning lo'nda va soddaligi tufayli ham kompozitorlar, ham tinglovchilar orasida ommaviylashishiga sabab bo'ldi. Urushning dastlabki 10 oyidayoq O'zbekistonda 200 dan ortiq yurish marshlari va mudofa qo'shiqlari yaratildi. Avvallari boshqa janrlarda ijod qilgan kompozitorlar ham (V.Uspenskiy, G.Mushel) qo'shiq janriga murojaat qila boshladilar.

Qo'shiq ijodiyotining bosh mavzular qatorida vatan himoyasi, g'alaba yo'lidiagi jasorat mavusi turadi. O'zbekiston kompozitorlari yaratayotgan ayrim qo'shiqlar: V.Glenqoning "Suvoriylar" ("Кавалерисская") qo'shig'i V.Knyazevning "Armiyaga shon-sharaflar" ("Армии Слава"), "Vatan da'vati" ("Родина завёт"), M.Leveyivning "Leningrad uchun" ("За Ленинград") kabi asarlarini misol qilib keltirish mumkin.

Bu yillarda asosan, yagona bosh mavzuga murojaat qilingan bo'lsada, O'zbekiston kompozitorlarining harbiy qo'shiqlari usluban xilma-xil edi. O'zbekiston hududida O'zbek qo'shiqlaridan tashqari yana umumiy ommaviy qo'shiqlar Ukrainiancha lirik qo'shiqlar va rus romansi an'anasi dagi asarlar yuzaga keldi.

Qo'shiq ijodiyotida madaniyatlarning o'zaro ta'sir jarayoni tezda namoyon bo'ldi. Bir tomondan, O'zbek folklorining go'zalligi va uning o'ziga xosligiga maftun bo'lган rus san'ati ustalari o'z uslublarini yangi musiqali elementlar bilan boyitishga intildilar. Ikkinchi tomondan

O'zbek kompozitorlari yangi qahramonona dramatik obrazlarni ifodalashda rus ommaviy qo'shiqlarni mardlik, shiddatli, jasoratni madh etishdagi eng yaxshi xususiyatni joriy etishdi. Uspenskiyning "O'zbekiston", Kozlovskiyning "Tmoshenko haqida qo'shiq" va "Adolatli yurish", G.Mushelning "Onaga maktub" qo'shiqlarini ko'rsatish o'rini. Ularda O'zbek musiqasi uslubi elementlaridan har-xil me'yorda turlicha foydalanilgan.

Ikkinci bir muncha kengroq tarmoq M.Ashrafiy, M.Burxonov, M.Leveyiv, S.Yudaqov va boshqalarning qo'shiqlarida namoyon bo'ladi. Erkin misol sifatida M.Burxonovning Uyg'un so'ziga yozgan "Jangchilar qo'shig'i"ni keltirish mumkin. Unda an'anaviy qo'shiqchilikni yangilash tendentsiyasi umum ommaviy qo'shig'i usullaridan unumli foydalanish hisobiga amalga oshirilgan. Asarning milliy qo'shiqchilik zaminlari (tavsiflar va ohang tuzilganmalari, kuyning tipik kadanslari, laddagi tayanch bo'g'inxalarning kvartal yo'naliishi) marshsimon va kvarta sekstali shiddatli kuy yo'naliislari, naqoratdagi ikki ovozlilik elementlari akkordarda boy jo'rnavozlik bilan uyg'unlashib ketadi. "Jangchilar qo'shig'i" aynan shu davrda qo'shiq ijodiyotida ayniqsa keng tarqalgan yangicha qo'shiq va marsh turi o'zbek ommaviy qo'shig'inining ilk namunasi sifatida tavsiflanadi.

Qo'shiq lirkasida yangicha qirralar paydo bo'ldi. An'anaviy – ishqiy obrazlar urush yillarining muhiti bilan bog'liq bo'lganligi tufayli ba'zan yangicha ma'no tusini olib chuqurlashdi, uning ifoda vositalari boyib bordi. Mualliflar odatda an'anaviy merosning rivojlangan lirik ashula janrlariga tayanishdi. Masalan, M.Ashrafiyning Uyg'un she'rlariga yozgan "Kel", "Shirin zabona aytin", "Arzimni yora aytin" qo'shiqlari, T.Sodiqovning lirik qo'shiqlari ulardan A.Navoiy g'azaliga yozilgan "Sarvigul" qoshig'i Ayniqsa, keng shuhurat qozondi. O'zbek romansining ilk namunalari M.Burxonovning Uyg'un she'riga yozgan "Ishqida" S.Yudaqovning X.Yusufiy she'riga yozgan "Habibiy tu manam" romanslari ham aynan shu zaminda yuzaga keldi. S.Yudaqovning A.Pushkin she'rlariga yozgan "Kuylama sohibjamol", "Gruziya tepaliklarida", "Bulbul", "Tungi sabo" romanslari ham harbiy davrga mansubdir.

Shunday qilib ushbu davrning kichik vokal janrlar sohasidagi yutuqlaridan eng muhimi O'zbek milliy ommaviy qo'shig'i va romans lirkasining dastlabki namunalari yuzaga kelishidadir.

**Musiqali drama** – urush yillari qo'shiq bilan bir qatorda musiqali drama janri ham etakchi o'rinni egalladi. Buning sababi mazkur janrda qo'shiq shakllarining ko'pligi vokelikni hozirjavoblik bilan aks ettira olish imkonni mavjudligi shuningdek janr jihatidan tomoshabopligi va tub milliy an'analar bilan bog'liqligidadir. Urush yillarida yaratilgan barcha musiqali dramalar zamонавиy mavzu- vatanni qahramona himoya qilish va fashist bosqinchilariga qarshi kurash, xalqning mamlakat ichkarisidagi fidokorona mehnatiga bag'ishlangan edi. "Qurban Umarov" (S.Abdulla va Chustiy asari, T.Jalilov va G.Shperling musiqasi) "Qasos" (Uyg'un va A.Umariy asari, Yunus Rajabiy va B.Nadejden musiqasi), "Q.Turdiyev" (S.Abdulla va Chustiy asari Yunus Rajabiy va N.Meronov musiqasi) musiqali dramalar aks ettirilgan. Ikkinci mavzuga – "Davron ota" (S.Abdulla, Chustiy va Q.Yashin asari, T.Sodiqov va A.Kozlovskiy musiqasi) "Oftobxon" (K.Yashin asari, X.To'xtasinov musiqasi) musiqali dramalari kiradi. Bu asarlar avvalam bor mavzusining dolzarbligi shaklan soddaligi va voqelikning ishonchligi sababli keng tarqalgan. T. Sodiqov va A.Kozlovskiylar tomonidan yozilgan asar musiqasi o'zining yuqori darajada professionalligi bilan ajralib turadi. Bu narsa Musiqiy partiyalarning emotsional obrazi kengligi hamda bir muncha rivojlangan ansambl va xorlarning mavjudligida namoyon bo'ladi.

Urush yillarida yaratilgan etuq musiqali dramalardan biri "Nurxon" (K.Yashin pessasi T.Jalilov musiqasi) urushdan keyingi yillarda ham Respublika teatrлari repertuarlarida mustahkam o'rnashib olgan mazkur janrdagi yagona asardir. Dramaga O'zbekistondagi dastlabki yillarda O'zbek teatri tarixidan olingen haqiqiy voqeа-yosh aktrisa Nurxon Yo'ldoshxo'jayevaning xurofotdan saxnaga chiqishi asos qilib olingen. Nurxon bo'ysommas irodasi bilan otasi va akasini vajohatga keltirib, ular qo'lida halok bo'ladi. Nurxonning so'lmas nomi xalq xotirasida ayyollarni sotsial ozodligi, Erkin gumanistik ediallar uchun olib borilgan kurash ramzi sifatida abadiy saqlanib qoldi.

**Opera** – urush yillari O’zbekistonda yaratilga A.Kozlovskiyning “Ulugbek” va O.Chishkoning “Mahmud Tarobiy” operalari O’zbek san’atining o’sha davrga oid xususiyatlari, tarixiy vatanparvarlik va tarixiy qahramonlik mavzularga intilishini aks ettiruvchi asardir.

Ikkala opera ham O’zbek xalqining qahramonona o’tmishiga bag’ishlangan bo’lib davr talabiga to’la javob beradigan darajada edi. Mazkur asarlar badiiy daraja jihatidan bir-biridan farqlanib ularning sahnadagi taqdiri ham har xil bo’ldi.

“Ulug’bek” operasi O’zbekiston musiqa madaniyatida ancha qiziqarli lekin ziddiyatli bo’lishiga qaramay Respublikada opera janri rivoji ma’lum o’rin egalladi. Tasodifiy emaski, Kozlovskiy operani 1942 yilda yozib tugatib keyinchalik undagi kamchiliklarni sezadi va uni bartaraf qilish shu orqali “Repertuar” hayotini davom ettirish niyatida 1958 yilda yangi tahririni yaratadi. Libretto (G.Gerus va A.Kozlovskiy tomonidan yozilgan) operaga asos qilib XV-asrning buyuk olimi va davlat arbobi Temuriylar silolasining taniqli namoyondasi Muhammad Tarag’ay Ulug’bekning hayoti va faoliyatiga oid tarixiy voqealar olingan.

**Simfonik musiqa** – urush yillarida simfonik musiqa ham sezilarli darajada o’sdi. Avvalam bor simfonik ijodiyotning janr doirasi kengaydi. Bu narsa san’atning psixologik emotsiyonal obrazli chegarasining kengayishi va boyishi yirik mashtabli shakllar yuzaga kelishiga olib keldi. Shu yillarda O’zbekiston musiqasi uchun an’anaviy bo’lib qolgan syuta va poema bilan birga uvertyura hamda cholg’u konsert janri ham ancha rivojlandi. Xususan kompozitorlarning ijodiy izlanishlari uchun asosiy soha bo’lib qolgan simfoniya janrning oldinga chiqishi eng katta yutuqdir. Simfonik musiqaning g’oyaviy tematik mavzusi kengaydi. Simfonik musiqa doirasida qahramonlik, faol va shiddatli hamda dramatik obrazlar kiritildi. Milliy uslubni o’zlashtirish sohasida ham jiddiy siljishlar sodir bo’ldi.

Urush yillarida kompozitorlar V.A.Uspenskiy, G.Mushel. M.Ashrafiylar ijodi juda sermahsul bo’ldi.

V.A.Uspenskiyning “Muqanna syutasi” (1943 yil) “O’zbekcha poema” (1944 y) G.Mushelning Alisher Navoiy tug’ilganligining 500 yilligiga bag’ishlangan ikkinchi simfoniyasi M.Ashrafiyning “Qahramonlik” (1942 yil) hamda “G’oliblarga shon-sharaflar” (1944 yil) asarları bunga misol bo’la oladi. Shu yillarda M.O. Shteynberg, Bastakorlar Q.Jabborov va S.Kalonovlar bilan hamkorlikda O’zbek xalq kuylari asosida “Simfoniya rapsodiya”sini yaratdi.

M.Ashrafiyning “Qahramonlik” simfoniyasi haqida. Muxtor Ashrafiyning ikkala simfoniyasi ham Respublika Musiqiy hayotida sezilarli voqeal bo’ldi. Simfoniyalar o’zining tuzilganligi obrazlarning ta’sirchanligi rivojlanish dinamikasi, eng muhimi milliy koloriti bilan ajralib turadi. “Qahramonlik” simfoniyasiga O’zbek milliy kuyi “Qaytarma” mavzularidan biri qilib olingan edi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki urush yillarida yaratilgan simfonik asarlar respublikaning musiqa madaniyatining rivojlantirishga ma’lum darajada qo’yilgan salmoqli hissadir.

O’sha davrda Respublikada 30 ga yaqin simfoniya yaratilgan edi. Bu albatta Mazkur janrning taraqqiyot bosqichiga chiqib olganligidan dalolat beradi. Shu bilan birga bu yillarda qo’shiq musiqali drama, opera va boshqa janrlar bo’yicha ham ancha muvaffaqiyatlar qo’lga kiritilgan edi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki vatan urushi va undan keyingi yillarda Toshkentda opera teatri (1939 yil ochildi). Mazkur teatrda qo’yilgan opera spektakllarini ijro etish uchun qator zabardast ovozga ega bo’lgan opera artistlari Halima Nosirova, M.Qori Yoqubov, Karim Zokirov, Nazira Ahmedova, O.Samandarov, Salima Xo’jayeva, N. Xoshimov, G.Abduraxmonov, Morduxay va Mixail Dovidov, Jamol Nizomxo’jayev, Q.Siddiqov, M.Mullajonovlar kiyinchalik E.Yo’ldoshev, R.Kuchlikova, Saodat Qobilovalar etishib chiqdilar. Shuningdek, teatrda namoyish etilgan “Paxta”, “Oq bilak”, “Suxayl va Mehri” (S.Vasilenko va M.Leviyev) baletlarida mohir xorograflar Galiya Izmailova, Klara Yusupova va boshqalar katta mahorat ko’rsatdilar. Bu davrda (1941-45 y) milliy musiqaning Akademik janri ham keng rivojlandi. Kompozitorlar D.Zokirov, F.Sodiqov, Y.Rajabov, Sh.Ramazonov, S.Kalonov,

T.Toshmatovlar yakka va xalq cholg'u orkestri uchun qator musiqiy asarlar yaratdi. Urush yillarida yuqorida aytganimizdek, turli Konsert brigadaları tuzilganligi Tamaraxonim, Gavhar Rahimova, A.Qodirov singari sozandalar jangchilarga xizmat ko'rsatdilar.

Bir so'z bilan aytganda O'zbek musiqa madaniyatida katta rivojlanishlar bo'ldi.

### **TAYANCH TUSHUNCHALARI**

1. Sayyor guruqlar – turli joylarda Konsert beruvchi ko`chma guruqlar.
2. Statsionar chiqishlar – faqatgina teatr binosida maxsus joyda tomosha ko'rsatish.
3. Filarmoniya – yunoncha so'z bo'lib yuksak badiiy musiqa asarlari va ijrochilik san'atini targ'ib etuvchi Konsert tashkiloti.
4. Musiqa adabiyoti lektoriysi – musiqa adabiyoti bo'yicha ma'ruzalar va ko'rgazmali chiqishlar uyushtiriladigan kechalar.
5. Harbiy qo'shiqlar – jangovor tavsifga ega bo'lgan ko'tarinki ruhdagi, marsh retmida ijro etiladigan qo'shiqlar.
6. Tendentsiya – an'ana.
7. Repertuar (f.r. ro'yxat) orkestr, teatr va boshqa musiqa jamoalari tomonidan ijro etiladigan jami asarlarni bildiradi.

### **RAQS SAN'ATI: MILLIY RAQS SAN'ATI VA UNING NAMOYONDALARI**

#### **Reja**

1. Raqs san'ati tarixiga nazar
2. O'zbek raqsining tarixiy rivojlanishi
3. Xalq raqs maktabi uslublari
4. Raqs maktabi namoyondalari
5. Milliy raqs san'atining hozirgi kunda rivojlanishi

**Tayanch iboralar:** Raqs, xoreografiya, baletmeyster, raqqosa, raqqos, xonanda, ijrochi, solist.



## 1 Raqs san'ati tarixiga nazar

Raqsdan badiy obraz tana harkatlari va xolatlari vositasida yaratiladi. Xalq raqsi qadimdan xalq xayotining tarixiy ijtimoiy va geografik sharoitlari ta'siri ostida rivojlanib kelgan. Dunyoda yashaydigan barcha xalq va elatlarning tarixan o'z hayotini ifodalovchi raqs san'ati mavjud bo'lган. Xozirda ham buni kuzatish mumkin. SHarq mamlakatlarda musiqiy-raqsiy va pantomimik tomoshalar qadimdan keng tarqalgan. Xalq marosim-lari bilan bog'liq hoda xorovodlar va marosim o'yinlari paydo bo'lган. Xalq raqlari ustozdan shogirdga avloddan - avlodga o'tib yoyilib borgan. Ularda oyoq, ko'l, bosh va tana harakatlari umumiy ritmga bo'ysunib, bir-biri bilan uzziy bog'lanadi.

Xalq raqlari asosida tarkib topgan raqs san'ati yuksak darajada rivojlanib har-xil raqs o'yinlari qaror topgan. Xususan xozirgi baletning asosiy sistemasi sanalgan Evropa professional raqsi uzoq va murakkab yo'lni bosib o'tgan. Uning rivojiga qadimgi sharq, Gresiya va Rim raqs san'ati kuchli ta'sir ko'rsatgan. Qadimgi Rimda elmenistik raqs rivojlanib, pantomimo yaratildi. Qadimgi Gresiyada raqs madaniyatining bir vositasi sifatida hayotda katta o'rinni egallagan. Raqs san'atiga bag'ishlangan risola va darsliklar yaratilgan. XVII-asrga kelib raqs san'ati yangi rivojlanish davriga kelib, murakkablashib balet spektakllari paydo bo'ldi.

## 2. O'zbek raqsining tarixiy rivojlanishi



O'zbek raqsini qadimiyligini topilgan tasvirlar va topilmalar asosida aniq isbotlab berish mumkin. O'zbek raqs san'ati xalq raqsi sifatida asrlar davomida rivojlanib kelgan. Xorazmdagi qurilgan qal'a qo'rg'onining «O'yнayotgan niqoblilar zali» deb atalgan manzilida niqob kiyib o'yinga tushayotgan erkak va ayollarning ommaviy raqsi aks etgan tasvirlar ajdodlarimizning yuksak raqs san'atidan guvohlik beradi. Samarqand, Shaxrisabz, Buxoro, Toshkent raqqosa va raqoslarining shuxrati V-asrdayoq butun sharqqa yoyilganligini manbalarda ko'ramiz. Arablar va Mo'g'ullar istilosini raqs sanoat rivojiga ham keskin zarba berdi. XIV - asrning ikkinchi yarmidan raqs yana o'z qaddini tiklay boshladi.

Navoiy zamonida Xuroson va Movaraunnahrda raqs taraqqiy topdi. Professional raqs bilan bir qatorda xalq o'yinlari saqlanib, rivojlanib bordi. Raqs san'atimiz mehnat, marosim va e'tiqod bilan bog'liq badan o'yinlaridan «Katta o'yin», «Maqom o'yin», «Qarsak o'yin» kabi monumental raqs turkumlarigacha bo'lган katta taraqiyot yo'lini bosib o'tib, xalqning ma'nnaviy -madaniy hayotida muhim rol o'ynab kelgan. Ushbu sanat namunasi, xalq raqsi, ilg'or an'analarini avloddan avlodga, ustozdan shogirdga o'tib yashadi va bizgacha etib keldi. O'zbekistonda XIX asr va XX asr boshida mehnat hamda marosimlar bilan bog'liq

bo‘lgan xalq professional raqs san’ati mavjud bo‘lib ko‘pgina, xususiyatlari bilan bir-biridan keskin farq qiluvchi Farg‘ona, Buxoro, Xorazm uslub maktablari qaror topdi.

### **3. Xalq raqs maktabi uslublari**

Har bir o‘zbek raqs maktabining o‘zi bir olam. Milliy raqs harakat turlariga ko‘ra 3 uslubga bo‘linadi:

**Farg‘on-Toshkent raqs maktabi uslublari**

**Buxoro raqs maktabi uslublari**

**Xorazm raqs maktabi uslublari**

Farg‘ona raqlari goh sho‘x va tetik, goh mayin oquvchi harakat, gavdani bir oz oldinga egib erkin, nafis tutish, xilma-xil ma’no kashf etuvchi chirolyi qo‘l harakatlariga xos bo‘lgan.

Buxoro raqs maktabining esa odatda tovonini urib-urib, tizzani bukib, ayni chog‘da gavdani g‘oz tutib, viqor bilan kift titratib, aniq shaklli puxta qo‘l harakatlari bilan o‘ynaganlar.




Xorazm raqsi uchun esa tizzalarni sal - pal bukib, kiftlarni tik tutib, butun tanani harakatga keltirib, bilak va barmoqlardan turli tuman chirolyi shakllar yasab, o‘ynoqi sho‘x, otashin o‘ynash harakaterlidir. Xorazmda qayroq bilan o‘ynash keng rasm bo‘lgan. O‘zbek raqsida obrazilik mazmundorlik xal qiluvchi rol o‘ynaganki, bu xususiyat barcha mакtab va uslublarni bog‘lab yagona o‘zbek raqsini maydonga keltirgan. Raqs uslub va maktablari bir-biriga ta’sir ko‘rsatib, ijodiy hamkorlik tortishuv keng tus oladi. Buning natijasida ijro maktablarning mazmuni boyib, ahamiyati oshadi. Qo‘qon xonligi, Buxoro amirligi va Xiva xonligining bir qator shaharlarda yirik raqs to‘plar (ansamblari) tashkil etilgan bo‘lib, faqat O‘rta Osiyoda emas undan tashqarida ham o‘zbek raqs san’atini munosib namoyish etilgan.

Surxondaryo-Qashqdaryo raqlari ham o‘ziga xos uslubga ega. Lekin u raqs maktabi uslublariga kiritilmagan. Bu voha raqs harakatlari alohida o‘rganiladi va hozirgi kunda ommalashmoqda.

### **4.Raqs maktabi namoyondalari**

XX-asrning 20-yillarida xalq raqlarining sahna variantlari yuzaga kela boshladi. O‘zbek milliy raqsining sahna variantlari yaratildi va birinchi marta dunyo yuzini ko‘rdi. «Qarinavo», «Sadr», «Dilxiroj», «Gul o‘yin», «Munojot» kabi an‘anaviy raqlar yangicha uslublar bilan boyigan xolda zamonaviy uslubda ijro etildi va yangicha talqinda xalq orasida shuhrat qozondi. «Pilla», «Paxta» kabi xalq mehnatini ulug‘lovchi raqlar dunyoga keldi. Bu ishda raqs ustalari Yusufjon qiziq Shakarjonov, usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg‘unboeva, Isoxor Oqilov, Galiya Izmaylovalarning xizmatlari kattadir.

## **Usta Olim Komilov (1875-1953)**



Musiqachi, baletmeyster, doirachi, xoreograf Usta Olim Komilov 1875 yil Marg'ilon shahrida tavrallud topgan. Ma'lum tarbiyaga ega emas artislar toifasiga kiradi. Usta Olim Komilov mehnat faoliyatini aravasozlikdan boshlagan. Ma'lum vaqtadan so'ng u hofizlarning kuylarini xirgoyi qilishni va ko'plab usullarni urishni boshlaydi. Ish o'rtasidagi tanaffuslarda u qo'liga patnisni olib, mahorat ila taniqli doirachilarga taqlid qilardi. Uni oilaviy tantanalarga chaqirishar, u esa doira va nog'orada jo'r bo'lardi. Taniqli yallachi Salomat ayaga jo'r bo'lardi. Kunlardan bir kuni barcha marg'ilonlik usulchilar va raqqoslar orasidagi tantanada Olim Komilov artist deb tan olinadi.

1918 yil Qizil Armiya tarkibida ishtirok etgan birinchi raqs truppalarini tashkil etgan. 20- yillari turli targ'ibot guruuhlarida ishlagan. 1926 yildan 1929 yilgacha birinchi o'zbek etnografik baletmeysterlik guruhi

yaratuvchilardan biri, keyinroq esa birinchi raqs maktabini ochgan.

1929- 39 yillar o'zbek musiqali teatri, 1939 yildan Navoiy nomidagi teatr baleytmeystri , Roslavetsning "Paxta" (1933), Tallning "SHoxida"(1939), Bursulovskiyning "Gulandon"(1940) kabi birinchi o'zbek baletlarini sahnalashtirishda ishtirok etgan. F.V. Lopoxovga Vaselenkoning "Oq bilak"(1943) baletini sahnalashtirishda maslakdosh bo'lган.

O'zbek raqs maktabining birinchi sonli etnografik guruhi o'zbek musiqali teatri studiyasida (1926-29) yillar Tamaraxonim nomidagi Respublika balet maktabida (1933-34 y), Navoiy nomidagi teatrning balet studiyasi va solistlar sinfida 1939-53 yillar dars bergen. O'quvchilari orasida Tamaraxonim, G. B. Izmayilova, M. Turg'unboeva, G. N. Mavaeva, K. YUsupova va boshqalar bor edi.

1935 yil Londonda bo'lib o'tgan birinchi Xalqaro milliy raqslar festivalida "Pilla" raqsini yakkaxon ijrochisi Tamaraxonim Oltin medalga sazovor bo'lган.Ushbu raqs birgina musiqiy asbob- doira usuli ostida ijro qilingan.

Doirachining mohirona ijrosi barchani lol qoldirgan, tinimsiz qarsak chalingan. Garchi bu raqqosalar tanlovi bo'lsada buyuk Britaniya qirolichasi Elizaveta 1 ning taklifiga binoan Usta Olim Komilov ham oltin medalga sazovor bo'lган. Mohir sozandaning qo'l na'munasi gepisda olinib Angilya mo'zeylarida saqlanmoqda.

"Bu qo'l oddiygina musiqa asbobi orqali hayratlanarli ohang simfoniyasini yaratadi, teriga tortilgan o'zuklari o'yinga jo'r bo'lib turadi"-deya izoh qoldirilgan. Istalgan musiqa asboblari doira va nog'ora kabi usul beruvchi asboblар juda muhim o'rin tutadi, zero usul barcha o'zbek musiqa turlarining asosidir. Doira ustasi bo'lish uchun ma'lum bir belgilangan mutaxassislikni tanlash kerak edi. Usta Olim Komilovni esa raqs ham o'ziga jalb etardi. U raqqosning har bir harakati ma'lum bir tuyg'uni ifoda etishini chuqur tushingan. Usta Olim barmoqlarini azoblanish va kulishga o'rgatadi. U doira chalganda barmoqlar azoblansa raqsga tushganda barmoqlari yayrardi. Oradan bir necha yillar o'tib, dunyoning yirik musiqachilari uning ohanglarini butun bir simfoniyasini childirma kabi ko'zga tashlanmaydigan asbob orqali chiqarishga hayratlanishgan.

Raqqosalarga jo'r bo'luvchi doirachilar o'z kasb mahorat sirlarini o'nlab usullarini harakatlarini avloddan-avlodga o'zatib borishgan. Odatda raqqosalarning ustozasi va baletmeysteri ko'pincha doirachilar bo'lishgan.

Usta Olim Komilov 1953 yil Toshkentda vafot etgan. U "CHig'atoy" memorial qabristoniga dafn etilgan.

## TAMARAXONIM (PETROSYANS) ARTYOMOVNA

**Tavallud topgan sana: 29 mart 1906 yil  
Vafot etgan sana: 30 iyun 1991 yil (Farg'ona)**



Tamaraxonim aslida arman farzandi. Boku ishchisi Artyom Petrosov-uning otasi bo'lib, 1905 yilgi revolyusiyadan so'ng Turkistonga surgun qi-lingan va Farg'onaga Gorchakovo stansiyasiga kelib ishchi bo'lib ishlagan. Tamaraxonim shu erda **1906** yilda tug'ildi. Oilada 5 qiz bo'lib ularning uchtasi Tamaraxonim, Gavharxonim, Lizaxonimlar raqqosa bo'lib etishdilar. Barchalari xalq artisti unvoniga sazovor bo'ldilar. Tamaraxonimni va sin-gillarini dastlab saxnaga olib chiqqan ustoz Yusufjon qiziq SHakarjonov bo'ldi. So'ngra umr yo'ldoshi Muxiddin qori Yoqubov bilan Moskvada o'qidi. Ular birga duetlar ijor etishardi. Ular 1925 yilda Parijda jahon festivalida qatnashdilar.

So'ngra jaxon bo'y lab Tamaraxonimning gastrol kon-sertlari boshlanadi. U 80 dan ortiq davlatlarda bo'ldilar, 80dan ortiq tilda qo'shiq kuylab raqsga tushdi. Tamaraxonim lapar janriga asos solgan raqqo-sadir. Bu

janrda lapar ijrosi raqs bilan uyg'unlashib ajoyib bir joziba baxsh etadi. 1935 yilda Londonda I xalqaro festivalning oltin medaliga sazovor bo'ldi. Ikkinci jahon urushi yillarida frontchi san'atkorlar trup-pasida askarlarga madaniy xizmat qiladi. Filarmoniyalar qoshida raqs an-samblari to'zdi. U umrining so'ngi marrasigacha ijod qildi. 90 yoshida Toshkentda vafot etdi. Unga O'zbekiston xalq artisti faxriy unvoni, orden va medallar berilgan. 2001 yil Prezidentimizning farmoni bilan, «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan mukofotlandi. Toshkent shahrida uning juda katta uy muzeyi ishlab turibdi. Bu muzeyda turli millat raqlariga mansub kastyumlar, shaxsiy buyumlari, turli yillardagi afisha va rasmlar saqlanadi. Xalqning ziyoratgohiga aylangan.





1941 yilda ulug' vatan urushi boshlandi. barcha sovet xalqlari, sovet san'atining hamma hodimlari bilan birgalikda Tamaraxonim va uning ansambl artistlari "Hamma narsa front uchun, hamma narsa g'alaba uchun" degan jangovor safda turib xizmat qildilar. Tamaraxonim o'z qiroli qo'shiqlari orqali sovet armiyasiga xizmat qilib, ajoyib san'ati bilan jangchilarning jangavor ruhini ko'tardi. Mamlakatimizning ozdligi va mustaqilligi uchun ularni jasoratsari ilhomlantirdi.

Tamaraxonim o'zbek san'ati sohasidagi katta xizmatlari uchun 1956 yili Tamaraxonimga SSSR xalq artisti unvoni berildi. Artistlik faoliyatiga 50 yil to'lganda jamoatchilik uni 1969 yili nishonlangan edi. Katta va samarali mehnat natijasi sifatida Tamaraxonim ijodiy labaratoriyasi bizning mamlakatimizdag'i va jahondagi 86 millatning qo'shiq va raqslari bilan boyigan edi.

## MUKARRAMA TURG'UNBOEVA

Mukarrama Turg'unboeva 1913 yilda Marg'ilon shahrida o'rta hol oilada dunyoga keldi. U ustozlari usta Olim Komilov, Tamaraxonim, YUsufjon qiziqdan ta'lim oldi. 50 yil o'zbek raqs san'atiga sitqidildan xizmat qildi. 1957 yilda mashxur «Bahor» ansamblini tashkil etib, jahon bo'ylab 100 dan ortiq mamlakatlarda namoyish etib, dovrug'ini jahonga taratdi. O'zi yurakdan ijor etgan «Tanovor», «Katta o'yin», «Andijon polkasi», «Roxat» raqlari haligacha xalqimiz orasida doston bo'lib keladi. Uning san'atidan ta'sirlangan Hindistonning mashxur sanoatkor yozuvchisi Axmad Abbas shunday degan edi: - Hindistoni hech kim qilich va qurol bilan o'ziga tobe etolmagan. Ammo o'zbek qizi Mukaramaxonim Turg'unboeva o'zining «Bahor» qizlari bilan, «Tanovor» raqsi bilan biz Hindlarni taslim qildi, lol qoldirdi. Mukarama Turg'unboeva olam kezgan, usto sanoatkor, milliy o'zbek raqsini qoyilmaqom qilib o'ynab, yuzlab xorij ellarning sanatsevarlariga o'zbek raqsini ko'z-ko'z qilib kelgan. Uning repertuaridan juda ko'p turli xildagi raqlar o'rinni olgan edi. Mukarrama opa sanoatda betakror shon-shuxrati bilan 1978 yil 20 noyabr kuni 65 yoshida xayot bilan vidolashdi. Uning xizmatlari davlatimizning faxriy unvonlari va mukofotlari bilan taqdirlangan. Xalq artisti, davlat mukofoti, orden va medallari uning uy mo'zeyida saqlanmoqda. Mashxur «Bahor» ansambliga uning nomi berilgan. 2001 yilda Prezidentimizning farmoni bilan "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlangan.



Juda ko'plab ashula va raqs ansambllari bugungi kunda dunyoga mashhurdir. Mustaqillik sharofati bilan «O'zbek raqs» birlashmasi tasarrufida yangi raqs guruhlari to'zildi. Bolalar raqsi rivojlanmoqda. Har yili o'tadigan Mustaqillik va Navro'z bayramlarida va xalqaro anjumanlar dasturida raqs san'ati markaziy o'rinni egallaydi. Xoreografiya maktablari faoliyat ko'rsatmoqda. Xalq raqs va balet maktabi inson ruxiy hayotini chuqur aks ettiruvchi, go'zal poetik tabiatga hamda katta badiiy umumlashmaga ega bo'lgan san'atdir. Raqs hamisha go'zallikka chorlaydi.

### Milliy raqs san'atining hozirgi kunda rivojlanishi

Avvalo shuni aytish kerakki, o'zbek raqsi XX asr davomida xalq orasida bayram va marosimlar bilan bog'liq holda an'anaviy shakllarda hamda zamonaviy sahna talablari asosida qayta ishlangan shakllarda yashab keldi. Ular fanda «xalq raqsi» va «sahnaviy raqs» deb ataldi. Sahnaviy raqs ansambl bo'lib uyushgan havaskor va professional raqqos va raqqosalalar tomonidan ijro etilib kelinadi. Ularni xalq raqs merosi negizida to'qib, saxnalashtirishda raqqos baletmeysterlar kamarbasta bo'lib kelishgan.

Xalq raqsi va sahnaviy raqs bir-birini to'ldirgan, bir-biriga ta'sir ko'rsatgan holda XX asrda muayyan bosqichlarni bosib o'tdi. Bu yo'lida muvaffaqiyatlar ham, yanglishuvlar va yo'qotishlar ham bo'lgan, albatta. Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboeva, Isoxor Oqilov, Qundo'z Mir-karimova, Roziya Karimova va boshqa raqs ustalarining ijodiy mehnati, sahna harakatlar ular yaratgan ansambllarning, etishtirgan raqqos va raqqosalarning faoliyati tufayli xalq raqs merosi sahnaviy shakllarda XXI asrga ham o'tganligini alohida ta'kidlash mumkin.

Demokratik mayllar, so'z va ijod erkinligiga e'tibor bir daraja paydo bo'lgan o'tgan asrning 80-yillari oxirlarida xalq an'analari va qadriyatlarini tiklash masalasi kun tartibiga qo'yilib, O'zbekiston mustaqillikka erishgach, u etakchi tendensiyaga aylandi. Bu ayniqsa, zamonaviy xalq ijodiyotida yaxshi namoyon bo'ldi. Viloyatlarda tashkil topgan «Boysun» (Surxondaryo), «SHalola» (Toshkent viloyati), «Sumalak» (Andijon), «Doston» (Xorazm), «CHavki» (Samarqand), «CHiroqchi uforisi» (Qashqadaryo) kabi ellikka yaqin folklor-etnografik, ashula va raqs ansambllari xalq orasida yoxud keksalar xotirasida saqlanib kelayotgan ko'plab taqlidiy

o‘yinlar, raqlar, teatrlashgan marosimlar va maydon tomoshalarini tiklab, shaklga solib, sahnalarga olib chiqadilarki, bu ishning baxosi yo‘q. Umuman, joylardagi xalq ansambllarining har bir viloyatning o‘ziga xos san’ati, shu jumladan raqs uslubi va jozibasini saqlash, unutilayotgan o‘yin va raqlarni qayta tiklashdagi xizmatlarini katta bo‘ldi.

Masalan, «Nozanin» fol’klor-etnografik ansambli Buxoroda qadimgi zamonlardan meros bo‘lib kelayotgan mavrigi-xonlikni tiklash va yangi sharoitlarda rivojlantirish yo‘lidan borib, katta yutuqlarni qo‘lga kiritdi. Mavrigixonlik badiiy so‘z, qo‘shiq va raqs uyg‘unlashgan ajib bir turkumdir. «Nozanin»ning chiqishlari nainki Rossiya, AQSH, Evropa mamlakatlari, Yaponiya, Turkiya tomoshabinlarini, balki mamlakatimiz tomoshabinlarini ham lol qilib kelgan. Raqqosalarning egnilaridagi zar tikilgan keng kuylaklar, qasavali bosh kiyimlari, yaltiroq ro‘mollar, ularning chirmanda va qayroqlarda ber-gan usullari, ayniqsa, bir-biriga chatishib ketgan va sekin-asta jadal-lanib boradigan, qanday boshlangan bo‘lsa, shunday holatga tushadigan daromad (o‘yin boshi) va buromadi (o‘yin oxiri), ashula va raqlari chindan-da ehtirosli va antiqadir.

1980 - 90-yillarda rejissyor Holiq Xursandov, musiqa rahbari Xabib Umarov boshchiligidida "Boysun" ansambli Navro‘zga aloqador turkum marosim, qo‘shiq, o‘yin, aytishuvlarning, qadimiyyatining «Sust xotin», «YAda», «Lola» sayli, «Halinchak», «SHoxmoylar» (qo‘shchi qo‘shig‘i), «Xo‘p mayda» (bug‘doy yanchish) kabi teatrlashgan xalq marosimlarini, «Sudxo‘r akam jon beradi» nomli mashara o‘yinni, uylanish marosimi bilan bog‘liq urf-odatlar va o‘yinlarni tiklab, ularga yangi hayot bag‘ishlaydi.

«CHavki» (Samarqand viloyati, Bo‘lung‘ur tumani) fol’klor-etnografik ansambli o‘z faoliyatini qadimiyyatining «Qarsak o‘yin» turkumining «Besh qarsak» yo‘nalishida olib borib, xalq orasida yashab kelgan ko‘pdan ko‘p termalar, plastik va raks harakatlarini sah-naga olib chiqdi. Nuql er-yigitlardan tash-kil topgan va qarsaklar bilan o‘zlariga o‘zla-ri usul beruvchi mazkur ansambl fol’klor-etnografik jamoalar orasida o‘ziga xosligi bilan yaqqol ajralib turadi. So‘nggi yil-larda «CHavki» ansambli repertuaridan «Besh qarsak» o‘yinlari bilan birga chorvadorlik-ka taalluqli an‘anaviy «Poda to‘p», «Gov-mish» singari o‘yin, terma va qo‘shiqlar ham o‘rin olmokda1.

Qo‘shnay, bo‘lomon, surnay va qayroqlar jo‘rligida o‘ynaladigan otashnafas va o‘ynoqi, goh mayin, goh jo‘shqin, goh kulgili Xorazm raqlarini ham uslubi, ham ijrochilik xusu-siyatlariga ko‘ra hamon eng noyob va yashovchan ma’naviy-estetik hodisa bo‘lib, o‘zbek xalq raqsi madaniyatida etakchi o‘rinlardan biri-ni ishg‘ol qilib keladi. Bu jarayonda fol’klor-etnografik ansambllarining hissasi kat-ta. Xorazmning «Doston» (Xiva), «Navro‘z» (Gurlan), «Kaldirg‘och» (Bog‘ot), «Orzu» (Ko‘shko‘pir) va boshqa ansambllari «Norim-norim», «YUz bir», «Ufori», «Ufori bo‘z-ruk», «Orazibon» raqlarini va o‘nlab raqlarni o‘z ichiga olgan «Lazgi» turkumini tik-lashdagi sahy-harakatlari tahsinga loyiq.

Ammo an‘analarni tiklash va rivojlanti-rish barcha xalq ansambllarida bir xilda izchil va ko‘ngildagiday olib borildi, deb aytish qiyin. Zero, bu masala badiiy rahbarlarning bilimdonligi, ijodiy izlanishlariga bog‘liq. Lekin qanday bo‘lmasin, Tosh-kent shahrida qaror topgan «Bahor», «Laz-gi», «Zarafshon» kabi davlat ansambllarida Farg‘ona, Xorazm va Buxoro ijro uslublari qorishib ketayotgan, ansambllar o‘z manbalari — xalq ijodiyotidan o‘zoqlashib borayotgan, er-yigitlar raqsi inqirozga yuz tuta bosh-lagan bir paytda viloyatlardagi xalq ansambl-larining an‘analarni qayta tiklash va ri-vojlantirish borasidagi faoliyati ibratli bo‘ldi.

Istiqlol yillarida turli darajalarda o‘tkazilgan festivallar, ko‘rik-tanlovlar ham raqs san’atini rivojlantirishga turki berdi. Ayniqsa, Navro‘z va Mustaqillik bayramlari, «SHarq taronalari» festivali, Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligi, «Alpomish» dostonining 1000 yil-ligi, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi yubileyлari munosabati bilan Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz shaharlarining bosh maydonla-rida o‘tkazilgan teatrlashgan bayram tomoshalari umuman raqs san’atining rivoji uchun, qolaversa, xalq va professional ansambllarning yuzlab artistlari va baletmeysterlari uchun katta ahamiyat kasb etdi.

1990-yillarning avvali va o‘rtalarida pro-fessional raqs san’atida ijobjiy tendensiyalar ham ko‘zga tashlandi, albatta. Biri Usta Olim Komilov bilan Tamaraxonim tomonidan yaratilgan

«Doyra dars» usullarini ko‘z qorachig‘iday asrab, shu asosda yosh raqschi qiz va yigitlarni madaniyatlash, Mu-karrama Turg‘unboeva, Isoxor Oqilov kabi ustoz baletmeysterlar sahna-lashtirgan va endilikda mumtoz san‘at asari bo‘lib qolgan raqlarni sof holda yangi ijrochilarga o‘tkazish tendensiyasidir. Bu ishda Toshkent xoreografiya bilim yurti o‘qituvchilari va «Bahor», «Lazgi», «SHodlik» ansamblaridagi raqs ustalarining xizmati katta. Ikkinci tendensiya Davlat telera-diokompaniyasi qoshida tashkil topgan «Tanovar» raqs teatri bilan bog‘liq bo‘lib, milliy raqs teatri yaratish harakatidan iboratdir.

1989 yil oktyabr oyida Yulduz Ismatova tashabbusi bilan tashkil topgan «Tanovar» raqs teatri 16 raqqosa va 2 raqqos bilan ish boshlagan. Dastlabki dasturi «SHarq ayoli» degan teatrlashgan konsertdan iborat bo‘ldi. Unda «Munojot», «Anor-anor», «Raqqosa», «Xorazmcha», «Doyra», «Ey sarvi ravon», «Suv parisi», «Afg‘oncha», «O‘xshar» kabi sof va yallali raqlar «Sovchi kutish», «Non ushatish», «Qizlar bazmi», «Kelin salom», «Beshik allasi» singari etnografik lavhalar bilan uyg‘unlashdi. Raqs ustasi shunga erishgan: rang-barang harakatlar, musiqa, ko‘zni qamashtiruvchi liboslar asosida vo-qealar, lavhalar, to‘qnashuvlar bir-biri bilan zanjirday bog‘lanib ketadi. Gulnoz Akromova, Zebo Tursunova, Naima YUsupova, Ra’no Jo‘raboева, Barno Isroilova va Muyassar Sotiboldieva ijrosidagi etti go‘zal hamda Olga Usmonova, Zebo Ermatova, Barno Hamdamova, Fero‘za Rahimova, Mavluda Ro‘zmatova gavdalantirgan ohularning raqlari ham mazmunan, ham shaklan qiziqarli bo‘lib, hammani lol qoldirdi.

Nihoyat, «O‘zbekraqs» birlashmasi milliy o‘zbek raqsini chet ellarda namoyish etish va shu yo‘l bilan ham O‘zbekiston nufuzini oshirish masalasiga etarli e’tibor berib kelayotir. 1997 - 2000 yillardagi ijodiy safarlar shundan dalolat beradi. 1997 yil iyun oyida Parij shahrida Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligi munosabati bilan o‘tgan haftalikda, iyulda Turkiyaning Bursa shahrida o‘tgan «Oltin Karagyoz» festivalida, noyabrdagi Olmoniyada o‘tgan O‘zbekiston madaniyati kunlarida, 1998 yil 25 may -2 iyun kunlari Belgiyaning Sen-Garlen shahrida o‘tgan xalqaro fol‘klor jamoalari festivalida, «Bahor» ansambl 7-11 iyun kunlari AQSHning Atlanta shaxrida o‘tgan «Superkom-98» xalqaro ko‘rgazmasida, 30 noyabr - 7 dekabrda turistik kompaniyalar taklifiga ko‘ra Yaponiyada, 1999 yil fevralida «Lazgi» ansambl Olmoniyaning Gamburg shaxrida o‘tgan O‘zbekiston iqtisodiyoti kunlarida, 23 - 28 iyun kunlariда «Tanovar» raqs teatri Niderlandiya Qirolligining Endash va Varfum shaharlarida o‘tgan xalqaro festival-da, 24 iyun - 8 iyul kunlari «Bahor» ansambl «Fukusima - O‘zbekiston» ma-daniy va iqtisodiy assosiasiysi 20 yilligiga bag‘ishlangan tadbirdarda, 2000 yil aprelida «Lazgi» ansambl Seul shahrida o‘tgan uchrashuvlarda qat-nashdilar. Xorijdagi safarlarga puxta tayyorgarlik ko‘rildi, liboslar yangilandi, dasturlar va har bir chiqishning yuksak badiiy saviyada bo‘lishiga alohida diqqat qilindi. Natijada ansamblar, raqqosalar har gal yaxshi baho olib, bir jahon taassurotlar bilan qaytdilar. Bu hammasi, shak-shubxasiz, istiqlol ne’matlari bo‘lib, raqs jamoalari, raqqos va raqqosalarni, baletmeysterlarni yangi ijodiy ufqlarni zabt etishga chorlaydi.

SHunday qilib, yutuqlar bir talay. Biroq echilmagan muammolar, bahsli masalalar ham yo‘q emas. Raqqos va raqqosalarning bayramlar munosabati bilan katta maydonlarda o‘tadigan teatrlashgan tomoshalarda qatnashuvi bir tomondan ularning faoliyat doirasini kengaytirayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan ularni yordamchi ijrochilarga aylanib qolishlariga sabab bo‘lmokda. SHuningdek, yallalarda raqqosalalar yakkaxon xonandalarga emas, xonandalar raqqosalarga xizmat qilsin.. Ayniqsa, yigitlar raqsi «O‘zbekraqs» birlashmasining, ansamblarning diqqat markazida turishi kerak. SHu bilan birga maxsus bolalar raqlarini yaratish borasida ham hormay-tolmay izlanish, mehnat kilishga to‘g‘ri keladi, toki kichkintoylarimiz kattalarning raqlariga taqlid qilmay, o‘z raqlariga ega bo‘lsinlar.

### Nazorat savollari

- 1.Raqs deganda nimani tushunasiz?
- 2.Raqs yo‘nalishlarini aytib bering?
- 3.Raqs namunalari qaysi davrga mansub bo‘lgan?
- 4.Xalq o‘yinlarini sharxlab bering?
- 5.Xalq raqs maktabi yo‘nalishlarini aytib bering?

6.Xalq raqs uslublarini o‘ziga xosligini asoslab bering?

7.Zamonaviy raqs san’ati rivoji haqida so‘zlab bering?

8.Respublikamizda raqs ansambllarini sanab bering?

9.Raqs san’atining namoyandalardan kimlarni bilasiz?

**Foydalangan adabiyotlar.**

1.Avdeeva L. O‘zbek milliy raqsi tarixidan // G‘ofur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. – Toshkent, 2014. – B

2. Avdeeva L. Mukarrama Tug‘unboevaning raqsi// G‘ofur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. – Toshkent, 2012.

3.Karimova R. O‘zbek raqlari // CHo‘lpon nashriyoti. – Toshkent, 2003.

4.Karimova R. Merosiy raqs durdonalari // CHo‘lpon nashriyoti. – Toshkent, 2013.

5.Karimova R., Sayfullaeva D. O‘zbek raqsi. Ayollar yakka raqlari. – Toshkent, 2007.

6.Sayfullaeva D., Kazakbaeva Z. O‘zbek raqs san’ati tarixi va raqs sahnalashtirish sirlari // “Voris” nashriyoti. – Toshkent, 2006.

7.Tamarxonim. Sharq xalqlari raqlari // G‘ofur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. – Toshkent,2013.

## BASTAKORLIK MAK TABI NAMOYANDALARI

### YUNUS RAJABIY (1897–1976)

Ma'lumot va manbaalarda taniqli san'atshunos olim professor **Oqilxon Ibrohimovning “Yunus Rajabiy haqida so’z”**, deb nomlangan mazkur ilmiy maqolasidan foydalanildi.

Har bir xalq ruhiyatini ifodalovchi milliy kuy-ohanglar – aziz ona tili kabi qadrli va muqaddasdir. Millatning o’tmishi va buguni, asriy orzu-istiklari va go’zal tuyg’ularini mujassam etgan ohanglar ona allalari, umrboqiy qo’shiqlaru mumtoz kuylarda rang-barang jilolanadiki, ularni tinglagan inson o’zligini anglaydi, ruhan yuksalganini his qiladi. O’zbek xalqining boy musiqiy merosi haqida so’z ketganda, bu bebaho boylikning bizgacha yetib kelishida jonbozlik ko’rsatgan ustoz sanhatkorlarning ijodiy faoliyatiga to’xtalmasdan iloj yo’q. Biz bu o’rinda xalqimizning ardoqli farzandi, Rajabiylar sulolasining yirik namoyandasasi, atoqli bastakor, xonanda va sozanda, O’zbekiston xalq artisti, akademik Yunus Rajabiy (1897–1976) haqida so’z yuritishga jazm qildik.<sup>1</sup>



Azim Toshkentning Chaqar mahallasi, sanhatsevar bog’bon Rajab ota oilasida aka-uka Rizqi va Yunus Rajabiylar dunyoga keldi. O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan artist, mohir sozanda Rizqi Rajabiy (1887–1977) tanbur cholg’usi bo'yicha shuhurat qozonadi. Bugun Rizqi ota noxuni ostida sadolangan “Miskin”, “Nasrulloyi”, “Munojot”, “Abdurahmonbegi”, “Samoi Dugoh”, “Gulyor-Shahnoz”, “Garduni” va “Ufori Segoh”, “Tanovor”, “Giry”, “Suvora” kabi magnit tasmalariga muhrlangan ko’plab maqom va mumtoz kuy yo’llari milliy musiqa xazinamizdan mustahkam o’rin olgan.

Shuningdek, Rizqi Rajabiy oilasida bo’lajak maqomshunos olim va sozanda (tanbur va dutor cholg’ulari ijrochisi), sanhatshunoslik fanlari doktori Ishoq Rajabov (1927–1982) voyaga yetdi. Mumtoz maqomlarga doir salmoqli tadqiqotlari bilan “SHashmaqom”ga oid murakkab ilmiy-nazariy, tarixiy va amaliy masalalarni hal etib bergen Ishoq Rajabov Yunus Rajabiyning eng yaqin maslakdoshlaridan biri edi.

1897 yili tavallud topgan Yunus Rajabiyning hayot yo’li sertashvish va jo’shqin lavhalarga boy. Tabiatan serzavq, zukko va bilimga chanqoq Yunusning qadam-baqadam yuksalib borishida uning noyob musiqiy istedodi

– nozik idroki, hayratmuz hofizasi hamda haqiqiy o’zbekona odobi muhim o’rin tutgan edi. Yunus Rajabiy bir tinglagan musiqiy asarini hajmi katta yo kichik bo’lishidan qathi nazar, xotirasiga yozib olish va yoddan cholg’uda yoki ovozida bexato takrorlab berish salohiyatiga ega bo’lganki, bu hol musiqa tarixida kamdan-kam uchraydi.

Bu o’rinda ustoz Rajabiy fenomeni butun jahon kompozitorlari orasida favqulodda istehdodi bilan ajralib turuvchi Volg’fgang Amadey Motsart dahosi bilangina qiyoslanishi mumkin. Savqitabiysiagi shunday fazilati bois uning musiqiy faoliyatiga jadal va samarali kechdi.

Yangi avlod maqomchilariga ustozlik qilib yurgan kezlari shogirdlariga qarata aytgan, “Ko’proq diqqat bilan tingla, shunda kuy dilingga ko’chadi”, – degan takkidi Yunus Rajabiyning o’ziga xos shioriga aylangan edi. Dastlab dutor <sup>2</sup>chertish mashqini akasi Rizqi Rajabiya qiziqib boshlagan Yunus tez orada ilk ko’nikmalarni hosil qiladi. Mashhur

<sup>1</sup> Oqilxon Ibrohimov . “Yunus Rajabiy haqida so’z”, «Jahon adabiyoti» jurnali, 2017 yil, 1-son.

<sup>2</sup> Oqilxon Ibrohimov . o’sha maqola qo’lyozmasi..

naychi-sozanda Abduqodir Ismoilovning betakror nolalaridan ilhomlangach, nay chalishni mustaqil ravishda o'rganishga kirishadi. Turkiston xalq konservatoriyasida o'qib yurgan kezлari (1919– 1923) bu cholg'ulardagi ijrochilik malakalarini oshiradi, keyinchalik dutor ijrochiligini Hoji Abdulaziz Rasulov ko'magida takomiliga yetkazadi. Ayni paytda ashulachilik sanhatiga ixlosi baland Yunus Rajabiy el ardog'idagi ustoz hofizlardan saboq oladi, jumladan, andijonlik Mirza Qosim hofizdan Farg'ona-Toshkent maqom yo'llarining ayrim qismlarini o'rganadi. 1910 yillarga kelib, bu maqomlarning barcha ashula yo'llarini Mulla To'ychi Toshmuhammedov, SHorahim Houmarov, Inog'omjon hofiz va Ilhom hofizlar ustozligida mukammal ijro etishga erishadi. SHirali ovoz sohibi Yunus Rajabiy tez orada el nazariga tushib, haqli ravishda obro'-ehtibor qozonadi. Inchunin, huzurli dard va betakror ovoz tarovati bilan yo'g'rilgan noyob hofizlik istehdodi "Ushshoq", "Ko'cha Bog'i I-II", "Giry'a", "Gulyor-SHahnoz", "Bayot I-II", "Talqini Bayot", "Dugoh-Husayn", "CHorgoh I", "Qalandar I", "Adoiy I-II", "Koshki" singari mumtoz ashula yo'llarida yorqin ifodasini topgan.

1923–1927 yillari Samarqandda dastlab Pedagogika bilim yurti o'qituvchisi, keyin Samarqand teatrining musiqa rahbari sifatida faoliyat ko'rsatgan yillari mashhur hofizlardan "SHashmaqom"ni amaliy-nazariy jihatdan o'zlashtirib boradi. Bu haqda sanhatkorning o'zi "Musiqa merosimizga bir nazar" nomli kitobida shunday yozadi: "SHu yillari men samarqandlik taniqli maqomdon-ustozlar – Hoji Abdulaziz Rasulov, Levi Boboxonov, Mixoel Tolmasov, Gavriel Mullaqandovlar bilan uchrashdim, ulardan maqomlarning samarqandcha yo'llarini o'rgandim, kuy va ashulalarga sayqallar berib, qochirimlar kiritib, silliqlashtirdim va yangi kuy qismlari qo'shib, boyitib bordim".<sup>1</sup>

Ushbu iqtibosdan mahlum bo'lishicha, Yunus Rajabiy maqomlarni o'rganish barobarida bastakorlik bilan ham shug'ullanadi, bunday ijodiy izlanishlarga musiqiy naziralar ustasi, atoqli sanhatkor Hoji Abdulaziz Rasulovning hofiz-bastakorlik va mohir sozandalik mahorati turtki bergen bo'lsa ajab emas. Darhaqiqat, Yunus Rajabiyning 1930 yillardan boshlangan rasmana bastakorlik faoliyatida ulug' ustozlar tajribasiga hamohanglikni kuzatish mumkin.

Jumladan, ijodkorning "Fabrika yallasi", "O'zbekiston", "Bizning davron", "Bahor keldi", "CHamanzor", "O'yin Bayoti", "O'yin Dugohi", "Paxta", "Rahnolanmasun" kabi ko'plab qo'shiq, ashula va raqs kuylarida asriy ohang va usullarning xalqchil ko'rinishlari namoyon bo'lsa, "Farhod va SHirin", "Muqanna", "Navoiy Astrabodda" musiqali dramalari hamda "Zaynab va Omon" operasi singari yirik sahnaviy asarlarida mumtoz musiqiy anhanalarning yangi talqinlari ustuvorlik qiladi. Zero, Yunus Rajabiy sahma asarlarini yaratish borasida milliy musiqa boyliklaridan juda o'rinali va unumli foydalangan.

Alalxusus, 1920 yillari dramaturg SHamsuddin Xurshid Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" hamda "Layli va Majnun" dostonlari asosida sahma pesasalarini yaratgan edi. Bu sahma asarlariga mumtoz musiqa namunalarini tanlash jarayoniga hofizlardan Mulla To'ychi Toshmuhammedov va Shorahim Shoumarov qatorida Yunus Rajabiy ham jalg qilingan edi. "Farhod va SHirin" hamda "Layli va Majnun" pesalarining dastlabki sahma ko'rinishlarida "Farg'ona Nasrullozi", "Ushshoq", "Dugoh-Husayn", "Chapandozi Gulyor", "Fig'on", "Ko'cha Bog'i", "Qamchinbek", "Bayot", "Gulyor", "Daromadi Ushshoq" singari mumtoz namunalar qo'llangan.

Keyinchalik Yunus Rajabiy o'zbek kompozitorlari bilan hamkorlikda yaratgan "Zaynab va Omon" operasi, "Muqanna", "Farhod va Shirin", "Qo'chqor Turdiev", "Qasos", "O'g'il uyulantirish", "Nodira", "Navoiy Astrabodda"<sup>2</sup> kabi 20 dan ortiq sahma asarlariga dramaturgiya qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda musiqa bastalagan edi. Bunda milliy asosga ega mumtoz kuy va aytimlar sahnada namoyish etilayotgan voqeа rivojiga mos holda ijodiy qo'llangan.

Masalan, kompozitor Viktor Uspenskiy, keyinchalik kompozitor Georgiy Mushelg' bilan hamkorlikda yaratgan "Farhod va SHirin" musiqali dramasida "Buxoro Irog'i", "Sarparda",

<sup>1</sup> Oqilxon Ibrohimov . o'sha maqola qo'lyozmasi..

<sup>2</sup> Oqilxon Ibrohimov . o'sha maqola qo'lyozmasi..

“Bebokcha”<sup>1</sup> nomli mumtoz aytim yo’llarini qayta ishlab sahnaga moslashtirgan. Jumladan, Farhod ariyasiga “Buxoro Irog’i”ni asos qilib olgan ijodkor bosh qahramonning musiqiy tavsifida Muxayyari CHorgoh namudi hamda Turk va Zebo pari avjlaridan samarali foydalangan edi. SHirin tomonidan aytildigan “Koshki”, “Ishq”, “Judo” nomli ariyalari ham milliy ruh ustuvorligi bilan tinglovchini o’ziga rom etadi. Ehtiborlisi shundaki, sahnada aytilgan shu kabi ko’plab ariyalar xalq orasida tezda mashhur bo’lib, o’sha davr hofizlarining sevimli ashulalari qatoridan munosib o’rin olgan. Jumladan, “Qo’chqor Turdiev” musiqali dramasidagi bosh qahramon (Qo’chqor Turdiev) ariysi “Ne navo soz aylagay”, “Muqanna” dramasidagi Gul oyining ashulasi “Kuygay” nomi bilan mashhur bo’ldi, “Farhod va SHirin” dramasidagi “Judo”, “Koshki”, “O’yin Dugohi”, “Bahor keldi”, “O’yin Bayoti” ham xalqimizning sevimli kuy va ashulalari qatoridan o’rin oldi. Binobarin, Yunus Rajabiy XX asr o’zbek musiqasida yangi shakllana boshlagan musiqali drama va opera janrlarini milliy ruh bilan boyitish jarayoniga ham salmoqli ulush qo’shgan edi.<sup>2</sup>

Maqomlarni mukammal o’rganish yo’lidagi tinimsiz izlanishlar Yunus Rajabiyni “SHashmaqom” markazi – Buxoroga yetaklaydi. “Men bu yerda Ota Jalol, Ota G’iyos, Usta SHodi, Qori Kamol, Abdusamad Begijon, Qori Najm, Domla Halim Ibodov kabi o’zbek va tojik xalqlari orasida dong chiqargan mohir maqom ijrochilari bilan uchrashdim. Ulardan maqomlarning tarixiy masalalari va ijro etish asoslarini o’rgandim. Oldin bilganlarimni mukammallashtirdim, ular bilan birga maqom yo’llarining ayrimlarini ijro etdim”, – deb xotirlaydi sanhatkor.<sup>2</sup>

Shu asnoda maqom sanhatining Toshkent-Farg’ona va Samarcand-Buxoro mumtoz anhanalarini mukammal o’rgangan qahramonimiz ayni paytda Yevropa musiqiy tahlimidan ham bahramand bo’lgan edi. Jumladan, 1934 yili Toshkent oliy musiqa maktabining tayyorlov bo’limida, 1940–1941 yillari esa Moskvada tashkil etilgan kompozitorlar kursida tahsil oladi. Ammo bulardan ham avval muhim ahamiyat kasb etuvchi yana bir maktab haqida alohida to’xtalish lozim.

Bu xususida akademik Vohid Zohidov to’g’ri qayd etganidek: “Yunus Rajabiy avvalo va asosan maktab kursisidan emas, hayot dorilfununidan, xalq ijodidan o’sib ulg’aygan va beqiyos istehdodga ega bo’lgan, hofizasi o’tkir, yodlash va aytib berish fazilati kuchli sanhatkordir”.<sup>3</sup>

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Toshkent o’zining bir qavatli, paxsa devorli uylari, mevali bog’u gulzorlari, shuningdek, tong saharlab tortilgan to’y oshlari-yu choyxonalarda chalingan tanbur-dutor chertimlari, hofizlarning rohatbaxsh xonishlari bilan o’zgacha taassurot uyg’otgan. Tabiiyki, ona allasidan boshlab turfa xalq kuy-qo’shiqlarini tinglab ulg’aygan o’ta tahsirchan yosh Yunus Rajabiy uchun bu hayot manzaralari o’ziga xos ijodiy maktab vazifasini bajargan edi.

Yillar davomida erishgan teran bilimi va amaliy-ijodiy malakalari pirovardida Yunus Rajabiy asrlar davomida jamlangan va har biri milliy qadriyatlar bilan yo’g’rilgan bebahosu musiqiy merosimizni nota yozuvlariga ko’chirib, kelgusi avlodlarga benuqson yetkazishdek mashuliyatlari vazifani sharaf bilan uddaladi. Bunga ustoz-sanhatkor tomonidan to’planib, 1955–1958 yillari nashr etilgan “O’zbek xalq musiqasi” notalar turkumining I–IV jiddlari yaqqol dalildir. Ushbu to’plamlardan qo’shiq, lapar, yalla, ashula kabi xalq musiqiy ijodining qariyb barcha janrlari, shuningdek, katta ashula, suvora, maqom cholg’u va ashula yo’llari hamda zamondosh bastakorlar qalamiga mansub ijod namunalari munosib o’rin oldi.

Ustoz sanhatkorining tafsinga sazovor mehnati tufayli asrlar davomida avloddan-avlodga o’tib kelayotgan, biroq muayyan siyosiy- mafkuraviy sabablarga ko’ra yo’qolib ketish xavfi ostida turgan musiqiy merosimiz saqlab qolindi. Ammo oldinda yana bir jiddiy va mashaqqatli vazifa turardi.

<sup>1</sup> Yunus Rajabiy. “Muzika merosimizga bir nazar”. – T.: G’.G’ulom nomidagi Adabiyot va sanhat nashriyoti, 1978, 13-bet.

<sup>2</sup> Oqilxon Ibrohimov . o’sha maqola qo’lyozmasi..

<sup>3</sup> Oqilxon Ibrohimov . o’sha maqola qo’lyozmasi..

Gap shundaki, Buxoro amirligi tugatilgach, saroy mumtoz musiqasi – “SHashmaqom”ning taqdiri, istiqboli mavhum edi. Boz ustiga bu noyob meros “madaniyat peshvolari” tomonidan “feodal tuzumdan qolgan zerikarli sanhat” deya baholanib, rasmiy-norasmiy davralarda kansitilish hollari ham tez-tez uchrab turardi.

Binobarin, mumtoz maqomlarni har qanday asossiz xurujlardan himoya qilib, yangi avlodlarga bekamu ko’st yetkazish – o’sha davr ziyolilarining qayg’usiga aylangan va bu borada 1920 yillari ehtiborli ishlar amalga oshirilgan edi. Jumladan, ulug’ mahrifatparvar bobomiz, olim va dramaturg Abdurauf Fitrat “SHashmaqom” mumtoz musiqiy sanhat ekanini isbotlash maqsadida 1927 yil “O’zbek klassik musiqasi va uning tarixi” nomli risolasini nashrdan chiqaradi.

Bundan avvalroq (1924 yili) esa aynan uning tashabbusi bilan kompozitor va musiqa etnografi Viktor Uspenskiy Buxoroda hofiz Ota Jalol Nosir va tanburchi Ota G’iyos Abdug’ani ijrosida nota yozuvlariga olgan “SHashmaqom” turkumi “SHestg’ muzikalnix poem (makom)” nomi bilan chop etilgandi.

Tabiiyki, “ustoz-shogird” anhanasida yashab kelayotgan maqomlarni notalar vositasida ifodalashdek murakkab jarayonning ilk ko’rinishi bo’lgan bu yozuvlar ba’zi kamchiliklardan (masalan, maqom ashula yo’llari shehr matnlarisiz tanbur ijrosida yozib olingan, ayrim doira usullari nobop vazn-o’lchovlardida aks etgan va b.) holi emasdi. Ammo bu kabi nuqsonlar bajarilgan ish salmog’ini aslo susaytirmaydi.

Millat qayg’usi bilan yongan Yunus Rajabiy mumtoz “Shashmaqom”ni saqlab qolish va undan kelgusi avlodni bahramand etish yo’llida yana bir bor jasorat namunasini ko’rsatdi.<sup>1</sup> shogirdlik davrida bu mumtoz sanhatni qalbiga jo qilgan va endilikda xotira daftari asosida uni nota yozuviga olishga kirishgan Yunus Rajabiy ayni paytda B.Zikriev, M.Tolmasov, D.Ibodov, M.Toshpo’latov,<sup>2</sup> Yo.Dovidov, M.Mullaqandov kabi ustozlar ijrosiga tayanib, oqilona yo’l tutdi. Chunki turli ijrolar qiyosi asosida “Shashmaqom” namunalari yozuvlarda hujjatlashtirilgan edi.

Bu jarayonda Yunus Rajabiyning ilmiy-ijodiy salohiyati ham yorqin namoyon bo’lgan. Jumladan, maqom turkumlarida e tishmayotgan cholg’u va aytimlar o’rnini shu uslub doirasida yaratgan ijod namunalari bilan to’ldirdi, forsiy g’azallar bilan “o’qilgan” aytim yo’llariga turkiyda bitilgan mumtoz she’riyat namunalarini ham mazmun, ham aruz bahrlariga ko’ra to’g’ri tanlab bog’ladi hamda nozik did bilan zargarona ishlovlarberdi.

Bu salmoqli ishning yakuni sifatida “Shashmaqom” majmuasi 1959 yili “O’zbek xalq musiqasi” nota yozuvlari turkuming beshinchchi jildida “Buxoro maqomlari” nomi bilan nashr yuzini ko’rdi. Bu madaniy hodisa katta yutuq bo’lishiga qaramay, og’zaki ananadagi kasbiy musiqa mahsuli –“SHashmaqom”ning asl qiymati jonli ijro amaliyotidagina butkul ifodalanishi – Yunus Rajabiya ayon haqiqat edi.

SHu bois izlanishlarini davom ettirgan sanhatkor 1959 yili O’zbekiston teleradiosi huzurida “Maqomchilar ansambl”ni tuzib, salobatlari “SHashmaqom” turkumi va “Farg’ona-Toshkent maqom yo’llari” ijrochilik anhanalarini zamon ruhiga moslashtirdi, bu yo’lda qator loyihalarni amalga oshirdi, kasbiy faoliyati davomida erishgan boy tajribasi va yuksak malakasini istehdodli shogirdlaridan darig’ tutmadi, murakkab shart-sharoitga qaramay, “ustoz-shogird” anhanalarini jonlantirishga beqiyos hissa qo’shdi, ustoz sanhatkor o’gitlarini olib ulg’aygan D.Zokirov, D.Soatqulov, F.Sodiqov, N.Hasanov, K.Jabborov, S.Kalonov, K.Mo’minov, O.Imomxo’jaev, B.Dovidova, K.Ismoilova, O.Alimahsumov va T.Alimatovlar keyinchalik elimizning ardoqli sanhatkorlari bo’lib yetishdi.

1960 yillarga kelib yangi dovonlar zabit etildi. Xususan, 1966–1975 yillari nota yozuvlaridagi “SHashmaqom” majmuasi olti jild shaklida qayta chop etildi va ushbu nashrga “Farg’ona-Toshkent maqom yo’llari” ilova tarzida kiritildi. SHuningdek, bu maqomlar Yunus Rajabiy rahbarligidagi “Maqomchilar ansambl” ijrosida magnit tasmalari va lappak (gramplastinka)larga yozib olindi.

<sup>1</sup> Oqilxon Ibrohimov . o’sha maqola qo’lyozmasi..

<sup>2</sup> Oqilxon Ibrohimov . o’sha maqola qo’lyozmasi..

Ustoz Yunus Rajabiyning millatni ruhan birlashtiruvchi musiqiy qadriyatlarni ezozlab, yangi avlod qalbiga singdirishdek ezgu maqsadi tez orada o'z samarasini berdi. Endilikda, rasmiy davralarda maqomlarga bo'lgan munosabat ijobiy tomonga o'zgardi, musiqashunoslik, kompozitorlik, tahlim va amaliy ijrochilik jabhalarida bu mumtoz sanatga ehtibor kuchaydi; 1963 yili Ishoq Rajabovning "Maqomlar masalasiga doir" salmoqli monografik tadqiqoti e'lon qilindi va shu asosda keyinchalik maqomshunoslik fan tarmog'i shakllandı; 1970 yillarga kelib o'zbek sanhatkorlari – Mirsodiq Tojiev va Mirhalil Mahmudovlarning kompozitorlik ijodiyotida maqom qonuniyatları bilan uyg'unlashgan simfoniyalar yuzaga keldi va dovrug'i jahonga yoyildi; 1972 yili Toshkent davlat konservatoriyasida "SHarq musiqasi" kafedrası ochilib, unda maqomlarni amaliy va nazariy o'rganish ishlari yo'lga qo'yildi, 1983 yildan esa har to'rt yilda bir marotaba Yosh maqom ijrochilarining Respublika (hozirda Yunus Rajabiy nomidagi) tanlovi o'tkazila boshlandı.

Sanhatkorning nainki musiqa, balki milliy madaniyatimizni rivojlantirishga qo'shgan beqiyos hissasi munosib bahosini topgan edi. Jumladan, u 1953 yil "O'zbekiston xalq artisti" unvoniga sazovor bo'ladi, 1966 yilda esa O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi etib saylanadi.<sup>1</sup>

Istiqlol yillari ustoz sanhatkor Yunus Rajabiy ijodi alohida ehtirop etildi. Xususan, 1997 yili Yunus Rajabiy uy-muzeyi ochildi, 2000 yili esa O'zbekiston Prezidenti farmoniga asosan atoqli sanatkor "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlandi.

Bu yil atoqli sanhatkor Yunus Rajabiy tavalludiga 120 yil to'ldi. Ta'kidlash o'rinniki, u yaratgan va meros qoldirgan nota to'plamlari o'zbek musiqasini amaliy o'zlashtirish va nazariy o'rganishda benihoya qimmatli manba sifatida xizmat qilmoqda.<sup>2</sup> Ayni paytda Yunus Rajabiyning maqom ijrochilik ananalari uning nomi berilgan O'zbekiston Radioqo'mitasi huzuridagi Maqom ansamblı, O'zbekiston xalq hofizi Hasan Rajabiy, viloyatlarda tuzilgan maqom ansamblari hamda Maqom ijrochilarining turli ko'rik-tanlovlarida ijodiy davom ettirilmoqda. Ishonchimiz komilki, sanatkor ijodi doimo mahnaviyatimizni yuksaltirib, sanhatga oshno qalblarni ezzulik va go'zallikka chorlab turadi<sup>3</sup>.

**IMOMJON IKROMOV (1891-1980):** Atoqli sozanda va bastakor Imomjon Ikromov 1891 yil Toshkent shahrida tug'ildi. Unda yoshligidan musiqaga kuchli mehr uyg'onadi. U birinchi Musiqiy saboqni sozanda-g'ijjakchi Solixon Xo'jayevdan oladi. U ustozidan ko'pgina xalq kuylarini o'rganadi.

1918 yil Imomjon Ikromov Toshkentda tashkil etilgan Xalq konservatoriyasiga o'qishga kiradi. Shorahim Shoumarov sinfida o'qib, tanbur chalishni o'rganadi. 1923 yilda Yunus Rajabiy, Risqi Rajabiyalar bilan birga u Samarqandga ishga yuboriladi. U Samarqand musiqali drama teatrida o'z ish faoliyatini boshlaydi va ustoz san'atkor Abdulaziz Abdurasulov bilan tanishadi. Undan "Shashmaqom" yo'llarini o'rganadi. 1926 yilda Samarqanddan Toshkentga qaytadi. 1927 yilda O'zbekiston radiosи qoshidagi Milliy ansamblga ishga kirib, to umrining oxirigacha shu ansamblida ishlaydi. Imomjon Ikromov san'at ustalari Mulla To'ychi Toshmuhammedov, Shorahim Shoumarov, Hoji Abdulaziz Abdurasulovlardan milliy musiqamiz ijro yo'llarini puxta o'rganadi. U bastakor sohasida birinchi va yagona ustoz sifatida mashhur hofiz, xassos sozanda, buyuk Bastakor Hoji Abdulaziz Abdurasulovni hurmat bilan qayta-qayta eslardi.



<sup>1</sup> Mazkur adabiyot, 13-bet.

<sup>2</sup> Oqilxon Ibrohimov . o'sha maqola qo'lyozmasi..

<sup>3</sup> Vohid Zohidov. So'zboshi. // Yunus Rajabiy. Muzika merosimizga bir nazar. –T., 1978, 6-bet.

Bastakor ona Vatan madxini, mehnat madhini lirik taronalarda, avjli pardalarda jo'shib ijsro qildi. Zero, Bastakor doimo Vatanga sadoqat ota-onaga mehr-hurmatdan, do'stga sadoqatdan boshlanadi, deb hisoblar edi. Uning "Onam derman", "Do'st bilan", "E'zoz qiling", "Olqish", "Vatan mehri", "O'zbekiston", "Sadoqat", "Bu vatan" kabi ashulalarida g'oyaviy teranlik va sadoqat ohanglari yangraydi, ularda ko'tarinki ruh yaqqol ko'zga tashlanadi.

Imomjon Ikromov lirikasi, bastakor ijodiy gulbog'ining eng ko'rkam, eng dilgir navolar gulzoridir. Zero, unga shuhrat keltirgan, nomini keng xalq ommasi orasida yoyilishini ta'minlagan asosiy omillardan biri xuddi mana shu – lirik qo'shiqlardir. Shulardan: "Ul qaro ko'z", "Qoldimu", "Topilmas", "Qoshi qarosini ko'ring", "Aylay desam", "O'ynasin", "So'lim" kabilarni kiritishimiz mumkin.

"So'lim" (G'iyos Soatiy she'ri) ashulasi 1933 yilda yaratilgan. Bu qo'shiq o'sha vaqtida Respublikamiz madaniy, Musiqiy hayotida katta o'rinni egallagan. Uning yaratilganiga bir asrdan ortiqroq vaqt bo'ldi. Ammo yillar o'tishiga qaramay, qo'shiq eskirgani yo'q, balki Respublika yoshlarining har bir yangi avlodni bilan yashab, ularni pok sevgiga ilhomlantirmoqda, ma'naviy go'zallikqa chaqirmaqda.

Ashula she'ri klassik an'analar yo'lida ijod qilingan bo'lib, Oshiq yigit intazorligi-yu sevimli yorning go'zalligi va sho'xligi juda o'tkir badiiy o'xshatishlarda tasvirlangan. She'riy matnda yigit baxtli visol onlariga albatta yetishajak, degan umid mujassam. Shuning uchun Bastakor ham qo'shig'ini jozibali ruh bilan sug'organ. Kuy vazmin, harakatchan, avjda sermavj, to'lqinli boshlanadi. Yigit hissiyotlari, bo'lajak uchrashuv zavqi, shirin orzular aniq va lo'nda musiqali jumllalarda beriladi. Ashula ilk bor Qobil qori Siddiqov ijrosida sho'xroq va shaxdamroq jaranglagan bo'lsa, O'zbekiston xalq artisti Orif Alimahsumov uni oltmishinchiligi yillar o'z repertuariga kiritib, yangicha talqin etgan. Imomjon Ikromov 86 yoshida bandalikni bajo keltirdi. Bastakor yaratgan asarlar milliy musiqamiz xazinasining adabiy mulkiga aylandi.

### SAIDJON KALONOV (1914-1971)



Siz xalqimiz yaratgan rang-barang cholg'u asboblari yangraganda maroq bilan eshitasiz, albatta. Dutor, tanbur, rubob, nay – bu cholg'u asboblari har vaqt dilingizni xush, zavqingizni chog' qiladi. Xalqimiz orasidan yetishib chiqqan mohir sozandalarimiz o'z san'atlari bilan xalqimizning qalbidan joy topadilar. Nayning dirlabohi ohanglari tinglovchini maftun qiladi. Chunki naychi qalb harorati ila yurakdan kuylaydi. Agar san'atimizning tarix sahifalariga nazar tashlasa, o'z baxtini O'zbekiston diyorida topib, san'ati bilan xalqga xizmat qilgan ajoyib sozandalarimizning mehnatidan faxrlanamiz. Biz hikoya qilmoqchi bo'lgan mohir sozanda va bastakor Saidjon Kalonov ham peshqadam san'at ahllaridan biridir. Saidjon chalgan "Yovvoyi chorgoh", "Yovvoyi ushshoq", "Patnis ushshog'i" kabi kuylari xalqimiz qalbidan joy olgan.

Nay nolasi, uning ohangi mungli xazina, shu bilan birga, dilbar, yurakning nozik torlarini chertib o'tuvchi ajib, jilvagar kuy.

Nay kuyi tinglovchi xayyollarini goh go'zal qirlar bag'riga chorlaydi, goh o'tmishning achchiq-achchiq haqiqatidan hikoya qiladi.

Bir gal mohir sozanda Saidjon Kalonov o'z kasbi haqida mehru muhabbat bilan hikoya qilar ekan, o'tmishdagi sozandalarning ahvolini, shu jumladan, o'z ustozni, Keksa o'zbek musiqachisi Abduqodir Ismoilovdan eshitganlarini so'zlab bergan edi: "o'tgan asrda, Qo'qonda, Xudoyorxon saroyida Abduqodir naychining otasi Ismoil aka ko'mir tashuvchi bo'lib ishlar ekan. U xonga xizmatkor bo'lishni istamasa-da, xon saroyida yangrovchi kuy uning ko'ngil rishtalarini uzilmas qilib, bog'lab qo'ygan ekan.

Saroya keltirilgan xorazmlik bir sozanda har kuni erta saharda nay chalib, xonni uyg'otar, kech tushganda ham nayi bilan uxlatar ekan. “Mana shularni ustozim Abduqodir aka takror-takror ayrib berardi”, deb eslagan edi Saidjon Kalonov.

Bo'lg'usi mohir sozanda va Bastakor Saidjon Kalonov 1914 yilda Chust rayoni Karkidon qishlog'ida tug'iladi. Saidjonning otasi musiqa ishqibozlaridan edi. U bo'sh vaqtlarida dutor chalar, o'g'li esa zavq bilan tinglardi. Sozlar ichida unga nay yoqardi. Nayga ishqiboz bo'lgan Saidjon qayerda musiqa sadosini eshitsa, o'sha yerga borar va cholg'uchilar ro'parasidan nari ketmay, ular chalayotgan kuylarni diqqat bilan tinglar, hatto ularning har bir harakatlarini kuzatardi.

Musiqa bo'lgan havasi tobora ortib bordi, xalq kuylarini qayta-qayta eshitib, ularni yodda saqlab qolishga o'rindi. Iste'dodli bolaning musiqa havasi va undan mohir sozanda yetishib chiqishi maktab havaskorlar to'garagiga qatnab yurganidayoq ma'lum bo'ladi. 1925 yilda uni Toshkent musiqa maktabiga o'qishga yuboradi. Bu yerda atoqli musiqachilar Abdusattor Vahobov va Shorahim Shoumarov boshchiligidagi milliy cholg'u asboblari sinfida o'qiydi.

Saidjon Kalonov o'qishni tugatib, milliy ansamblga naychi bo'lib ishga qiradi. Shu davrda mashhur xalq hofizi Mullato'ychi Toshmuhammedov va boshqa bir necha atoqli musiqachilar bilan birga ishlaydi.

1929 yilda Mullato'ychi Toshmuhammedov tomonidan tuzilgan sayyor guruhi bilan Saidjon Samarcandga borib, musiqa va xoreografiya institutida, atoqli naychi Abduqodir Ismoilov sinfida ikki yil o'qiydi, nay chalish sirlarini, sozandalik mahoratini egallaydi. Shundan so'ng Saidjon Kalonov mahoratli jamoalarda ishlay boshlaydi. U Farg'ona teatri musiqa bo'limining boshlig'i vazifasiga tayinlanadi.

Saidjon 1936-1942-yillar mobaynidan O'zbekiston davlat filarmoniyasi, ashula va raqs ansamblida naychi bo'lib ishlaydi. 1937 yili Moskvada bo'lib o'tgan O'zbek san'ati va adabiyoti dekadasida qatnashishga tuyassar bo'ladi.

Saidjon Kalonov har doim xalqimiz orasidan yetishib chiqqan sozanda va xonandalar, kuychi va g'azalxonlar bilan birga bo'lishga, ulardan xalq musiqa boyliklari namunalarini o'rganib olishga harakat qildi.

Farg'onada yurganida mashhur askiyachi va doyrachi Yusufjon qiziq Shakarjonov, xonandalardan - Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov, changchi Otaxo'ja Eshon kabi musiqachilar bilan yaqindan tanishgan edi. Toshkentga kelganda esa To'xtasin Jalilov kabi ustoz musiqachilar davrasida bo'ldi.

Saidjon Kalonov 1945 yildan shu kunga qadar O'zbekiston radiosи cholg'u orkestrida sozanda bo'lib ishladi. Orkestrda yangragan nay sadosi o'zining ta'sirchanligi va yoqimliligi bilan maftunkor yangraydi.

Saidjon Kalonov sozanda bo'libgina qolmay, mohir bastakor hamdir. Ikkinci Jahon urushining og'ir yillarda sozini yangratdi, ijod qalamini charxladi. O'sha yillarda "Zafar marshi"ni yozdi. "O'zbek soldatlariga salom", degan qo'shig'ini qahramon jangchilarga yo'lladi. "Bu nasimi" degan qo'shig'i xalqga juda yoqib qoldi. Hayotning o'zi ijod bo'lagidir. Saidjon Kalonov Ikkinci Jahon urushi tugagach, hayotimizdagi ro'y berayotgan yangilanishlarni tarannum etgan, O'zbekiston xalqining baxt-saodati, baland iqboli, porloq istiqbolini kuylaydigan qator qo'shiqlar yaratdi.

Bastakorning "Assalom" degan qo'shig'ini deyarli hamma yaxshi biladi. Qo'shiq aytilganda ko'z o'ngimizda go'zal va ajoyib manzara namoyon bo'ladi, kishining ruhiga ruh qo'shiladi. Bu qo'shiq ijrochisi O'zbekiston xalq artisti Komuna Ismoilovadir.

Saidjon Kalonov "Yorga istab" "Vafo qilsa", degan qo'shiqlarini kim ham sevmaydi, bu qo'shiqlar tinglovchilar dilini topgan kuylovchilari yuragiga ham harorat bergen. Habibiy she'riga bastalangan "Mehrining payvandimu", Turob To'la she'riga yozilgan "Dilnavozim", Hamza she'ri asosida yaratilgan "Bog'larda gul" kabi qo'shiqlari ham Saidjon Kalonovning ijodiy izlanishlari samarasidir.

Bastakor nafaqat qo'shiqlar, balki bir nechta kuylar ham yaratdi. Uning "Armug'onim" degan kuyini, "Istak" nomli musiqasini konsertlarda bir necha bor rohat qilib tinglaganmiz. Saidjon Kalonov kuy, qo'shiq ijod qilar ekan, eng avvalo, o'z qalbiga so'z tinglovchisi qalbini topishdek tuyg'uni jo qiladi. Yaratgan kuylarining xalqga mammun bo'lishini istaydi va bu orzusiga erishadi.

Saidjon Kalonovning O'zbek musiqa san'atini rivojlantirishdagi xizmatlari munosib taqdirlanib, u "Hurmat belgisi" ordeni va bir necha "Faxriy yorliq"lar bilan bilan taqdirlandi.

Saidjon Kalonov "Respublikada xizmat ko'rsatgan artist" degan yuksak nomni olishga sazovor bo'lди. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Saidjon Kalonovning xalqimizni mammun etuvchi kuy va qo'shiqlari qalbimizda doim yangraydi.

**KOMILJON JABBOROV (1914-1975):** Ustoz Bastakor, mohir sozanda Komiljon Jabborov



1914 yilda Andijon shahrida tug'ildi. U yoshligidan musiqaga havas qo'ydi. Keyin namanganlik mashhur san'atkor usta Ro'zmat Isaboyevga shogird tushdi. Undan chang sozini o'rgana boshladi. G'ijjak chalishni andijonlik sozanda Sobirjon Siddiqovdan, dutor chalishni Muhiddin Qoridan o'rgandi. 16 yoshidan To'xtasin Jalilov rahbarligidagi "Milliy musiqa to'garagi"da sozanda bo'lib ishlay boshlaydi.

1931-1942-yillarda Andijondagi Oxunboboyev nomidagi musiqali drama teatrida sozanda bo'lib ishlaydi. Bu yerda u "Layli va Majnun", "Gulsara" spektakllariga kuy bastalaydi. Bastakor ijodi ham aynan shu yillardan boshlanadi.

1932 yilda Sobir Abdullaning "Chayqalur" she'ri asosida ashula yozib, tomoshabinlar olkishiga sazovor bo'ladi. Ikkinci Jahon urushi yillarda u Yangiyo'lda tashkil etilgan musiqali drama teatriga ishga taklif qilinadi.

Komiljon Jabborov 1947 yildan umrining oxirigacha O'zbekiston radiosи qoshidagi Xalq cholg'ulari orkestrida yetakchi g'ijjakchi bo'lib ishlaydi. G'ijjak ijrochiligining yuqori darajali malaqa va mahoratini egallagan san'atkor asarning badiiy mezonini ifoda etishga asosiy e'tiborni qaratadi. Uning ijrochilik amaliyoti bastakor tafakkuriga juda katta ta'sir ko'rsatadi.

Komiljon Jabborov ijodida turfa janrlar o'laroq qo'shiqchilikga bosh o'rин beriladi. Aynan shu nuqtada Bastakorning ijodiy intilishlari hamda shunga bo'ysungan badiiy vosita ifodalar o'z aksini topadi. Komiljon Jabborov qo'shiqlari mazmunan serqirra, jumladan, ona diyor, Vatan, qahramonlik, mehnat va turli kasb egalari haqidagi mavzular tarannum etiladi. Bastakorning O'zbek qo'shiqchiligi "oltin xazinasi"dan o'rın olgan ijod namunalari qatorida lirik mavzuli ashulalar muhim o'rın tutadi. "Bu ko'ngil", "Etmasmidim", "Nazzora qil", "Senga", "Toqay" shular jumlasidandir. Komiljon Jabborov qo'shiq she'rlarini tanlashga alohida e'tibor bilan yondashadi. Bunda she'r matnida ikki holat bo'lishi muhim ahamiyat kasb etgan – mazmun teranligi va so'z ifodaviyligi, uning musiqaga tabiiy payvasta bo'lishi. Ushbu sifatlarni izlash jarayonida o'tmisht va hozirgi zamon she'riyatiga murojaat etadi. Shu asnoda A.Navoiy ("Senga", "Nazzora qil", "Ey, pari", "Mubtalo bo'ldim senga"), Muqimiyy ("Assalom"), Furqat ("Aylanay"), Uvaysiy ("To kay"), E.Oxunova ("Kel"), S.Abdulla ("Toza Lutf"), P.Mo'min ("Shifoqorlar"), T.To'la ("Birma-bir", "Ko'rgim kelur"), S.Zunnunova ("Yor keladi") kabi mumtoz va zamondosh shoirlar nazmiga asoslangan ashula-qo'shiqlar ijod etiladi. Bu qo'shiqlarda, odatda, an'anaviy qo'shiqchilik janrinining xususiyatlari saqlangan holda, ularning kuy yo'naliшини yangi jihatlar bilan boyitadi. Bunda shunday mazmunli ifoda vositalari qo'llaniladiki, ular bir tomonidan qo'shiqning an'anaviy janr mezoni bilan tabiiy uyg'unlashadi.

Komiljon Jabborov musiqa san'atimizning taraqqiyotiga qo'shgan xizmatlari uchun "O'zbekiston xalq artisti" faxriy unvoniga sazovor bo'lган.

**RAHMATJON TURSUNOV (1939): *Hozirgi davr O'zbek milliy san'atining ko'zga ko'rigan taniqli vakillaridan biri Rahmatjon Tursunovdir.***

U 1939 yil 5 martda Qashqadaryo viloyatining Qarshi tumani, Mulla Quvvat qishlog'ida dehqon oilasida tug'ildi. O'rta mакtabni tugatgandan so'ng 1956 yili Toshqendagi Hamza nomidagi musiqa bilim yurtiga o'qishga kirdi. 1960 yilda bilim yurtini tugatib, Toshkent Davlat Konservatoriyasida o'qishni davom ettirdi. 1968 yili konservatoriyanı tugatdi, so'ngra turli o'quv dargohlarida musiqa o'qituvchisi bo'lib ishladi.

1962-1968- yillarda Qarshi Davlat pedagogika instituti musiqa va ashula kafedrasida o'qituvchi, kafedra mudiri, 1968-1974-yillarda Toshkent Madaniyat oqartuv texnikumi va Respublika maktabgacha tarbiya pedagogika bilim yurtida o'qituvchi, 1974-1987-yillarda Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat Madaniyat institutining xor dirijyorligi kafedrasida o'qituvchi, katta o'qituvchi, dotsent. 1987 yildan to hozirgi kungacha A.Qodiriy nomidagi Toshkent davlat Madaniyat institutida Xalq ashula va raqs ansambliga rahbarlik kafedrasи mudiri lavozimida ishlab kelmoqda.

1987 yilda Pedagogika fanlari nomzodi, 1989 yilda dotsentlik, 1994 yilda professorlik unvonlari berildi. Rahmatjon Tursunov institutda ishlash jarayonida juda ko'p shogirdlar tayyorladi. Ularning ko'pchiligi turli lavozimlarda ishlab kelmoqdalar.

Uning tashabbusi bilan 1987 yilda A.Qodiriy nomidagi Toshkent davlat Madaniyat institutida "O'zbek xalq musiqasi" kafedrasи tashkil etildi.

Uning bastakor ijodi 1960 yildan boshlandi. U Bastakor sifatida ko'plab, har xil musiqiy janrlarda asarlar yozib, xalqga tanildi. Ayniqsa, qo'shiqchilik janri Rahmatjon Tursunovning ijodida alohida o'rın egalladi. Uning "G'amzasin sevding ko'ngil" (Fuzuliy), "O'rtadi" (Navoiy), "Visoling bo'lmasa" (Otashiy), "Mubtalo qilursan" (Lutfiy), "Oshqor bo'lsin" (Samad Vurg'un), "Bulbul", "Ayon bo'lg'ay" (A.Oripov), "Madhingni kuylay" (T.To'la), "Shahlo" raksi kabi ashula va kuylari musiqa shinavandalari tomonidan munosib baholandi.

Sharqning mashhur klassik shoirlaridan biri Fuzuliyning "G'amzasin sevding ko'ngil" g'azalining chuqur mazmuni musiqa ijodkorining otashin qalbiga musiqa g'ulg'ulasini solgan edi. G'azalning:

**Ey kamon abru, raqiba berma g'amzangdin nasib,  
O'h otarsan tosha, paykoning kerakmasmu senga.  
Yondirib jonim, jahon so'z etma barqi ohimi,  
Osmon xurshidi rahshoning kerakmasmu senga?..**

satrlarida ifodalangan afsonaviy go'zal siyomosi, yuksak poetik va chuqur falsafiy g'oya, shaklan mukammal misralar bastakor dunyoqarashi, ichki dunyosidan katta o'rın olibgina qolmay, balki uning musiqaviy badiiy ijodida ham o'z aksini topadi.

Ashula kuyining samimiyligi va ulug'vorligi, keng qo'lamdaligi osoyishtalik ruhini bag'ishlaydigan xususiyati, musiqaning "dunyoviy" his-tuyg'ularini ifodalaydi. Ashulaning kuyi an'anaviy shaklda bo'lmasdan yuqorida pastga tomon harakatlanadi. Doriy, minor ladinig tovush qatorida tuziladigan ohanglar juda yorqin va o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgani holda bu ohang bo'laklari dastlab tonikada, so'ngra ladning subdominanta tovushlarida to'xtaladi va berilayotgan savol tavsiify xarakterni yanada kuchaytiradi.



Ashula kuyining mana shu uslubda yaratilishi, sevgi iztirobini tortayotgan yosh qalbning “uf” tortib, chuqur xo’rsinishi va uning har to’rt taktdan keyin bir taklik cholg’u bo’lagi bilan ajratilishi ham lirik his-tuyg’ularini yanada chuqurlashtiradi. Ashulaning ikkinchi qismida lad almashuvi yaqqol ko’rinadi va u dramatik hayajon bag’ishlaydi.

Bastakorning “Madhingni kuylay” (Turob To’la she’ri) ashulasi frigiy re minorda yaratilgan kuy tuzilmasi she’rdagi badiiy obrazni olib ko’rsatishga qaratilgan. Bastakor she’r satrining alohida-alohida ma’no kasb etadigan so’zlariga, chunonchi “bodi sabog’a” so’zları uchun juda yorqin, chuqur falsafiy ma’nodagi ohang tuzilmalarini yarata olgan. Dastlab ikki taktda ifodalangan parchada, tonallikning toniqa tovushida to’xtalish bo’ladi. So’ngra qisqa, choraktalik pauzadan keyin bu musiqiy ohang shaklan xiyol o’zgargan shaklda takrorlanadi. Yana tonika tovushida to’xtalishi, yana pauza, mana shu ikki holatda ham toniqa tovushi saqlanib turganida she’rdagi mazmunni cholg’u ansambl jo’r qismi davom ettirib, to’ldirib turadi. She’rda o’ziga xos uslubda naqorat ham kiritilgan. U shunday satrlarda kuylanadi:

**Olam munavvar sen bor samodan,  
Sen bor samoda, sen dilrabodan.**

Bastakor bu naqorat satrlarini yanada sharxlab o’tish maqsadida uni ikki ovozli shaklda kuylashni tavsiya qiladi. Naqoratning dastlabki ikki takti tersiya intervalida, keyingi ikki takti O’zbek cholg’u musiqasi asboblari uslubida kvarta-kvinta intervallarida aytildi. Musiqa jo’r qismi yuqorida ikki ovozli tuzilmani yanada kuchaytirish maqsadida unison holda jo’r bo’ladi. Bastakorning mana shu xildagi o’ziga xos uslubi ashulani har xil shaklda turlanishi, rang-barang bo’yoqlarda eshitilishi, shaklan va mazmunan boyitilishiga imqoniyat yaratadi.

Rahmatjon Tursunov ijodida rang-baranglik hayot haqiqatining turli tomonlari kamrab olingan, ular badiiy jihatdan umumlashtirilgan. Bularning barchasi bastakorning har bir asarida yorqin ifodalangan.

#### ORIF ATOYEV (1939.15. 07.- 2019.11.09.)



O’zbek bastakor an’analarining taniqli davomchilaridan biri Orif Atoyevdir. U o’zining shirali, mazmundor, jozibali kuy va qo’shiqlari bilan bastakor sifatida tanildi. Uning yaratgan asarlari zamонавиј qo’shiqchilik san’atining rivojlanish jarayonida o’z o’rniga ega. Atoyev Orif Buxoro viloyati Buxoro tumani “ko’chko’mir” jamoa xo’jaligida dehqon oilasida 1939 yil 15 iyulda tug’ildi. Bolaligidan musiqaga qiziqadi va muktabdagи havaskorlik musiqa to’garagiga qatnaydi. 1955 yili bitiradi. 1959-1966 yillarda Buxoro viloyat musiqali drama va komediya teatrinda sozanda bo’lib ishlaydi. 1966-1977 yillarda Buxoro pedagogika bilim yurtida musiqa o’qituvchisi bo’lib ishlaydi. 1969-1974 yillarda Buxoro davlat pedagogika institutining musiqa-pedagogika fakultetining sirtqi bo’limida tahsil oladi. 1977-1980 yillarda Buxoro madaniyat texnikumida o’qituvchilik qiladi. 1980 yildan Buxoro viloyat filarmoniyasi, 1996 yildan “O’zbeknavo” birlashmasi rahbari lavozimida ishlagan. Musiqiy san’atga bolaligidan qadam qo’ygan Orif Atoyev yillar davomida xalq musiqa merosini o’zlashtirishga harakat qildi, ustozlardan saboq va o’rmaq oldi, bastakor va ijrochilik kamoloti sari intildi. U o’zining ijodiy faoliyatida turli mavzularda ajoyib, rang-barang qo’shiq va ashulalar yaratib, ijrochi va tinglovchilarga manzur bo’lib kelmoqda. “Diyor vasfi”, “Gulixayri”, “Amudaryo suvlari” (T.Hamid so’zleri), “Dalam” (O’.Rashid so’zi), “qaldirg’och”, “Oqshom sururi” (E.Oxunova so’zleri), “Buxoro” (R.Ro’ziyev so’zi), “Ona yurtim oshig’iman”, “Buxorocha yor-yor” (T.Ahmedov so’zleri), “Jayhun qo’shig’i”, “Az sarad gardam” (Xalq

filarmoniyasi, 1996 yildan “O’zbeknavo” birlashmasi rahbari lavozimida ishlagan. Musiqiy san’atga bolaligidan qadam qo’ygan Orif Atoyev yillar davomida xalq musiqa merosini o’zlashtirishga harakat qildi, ustozlardan saboq va o’rmaq oldi, bastakor va ijrochilik kamoloti sari intildi. U o’zining ijodiy faoliyatida turli mavzularda ajoyib, rang-barang qo’shiq va ashulalar yaratib, ijrochi va tinglovchilarga manzur bo’lib kelmoqda. “Diyor vasfi”, “Gulixayri”, “Amudaryo suvlari” (T.Hamid so’zleri), “Dalam” (O’.Rashid so’zi), “qaldirg’och”, “Oqshom sururi” (E.Oxunova so’zleri), “Buxoro” (R.Ro’ziyev so’zi), “Ona yurtim oshig’iman”, “Buxorocha yor-yor” (T.Ahmedov so’zleri), “Jayhun qo’shig’i”, “Az sarad gardam” (Xalq

so'zi), "Qutlayman qo'shig'imda" (A.Po'lat so'zi), "Do'stlik jamoli" (A.Samadov so'zi), "qulaylik, dugona" (O.Hojiyeva so'zi), "O'zbekiston mushtarak" (Yu.Muqim – Otash so'zi), "Zarvaraq" (V.Sa'dullo so'zi), "Yuragim senga" (A.Mo'minjonov so'zi), "Intizorman" (Nodira g'azali), "Haddan javo" (J.Kamol she'ri), "Munosib" (Munis g'azali), "Etgali" (A.Oripov she'ri), "Maza dorad labi yor" (J.Rumi she'ri). "Buxorcha" va "Mavrigi" taronalari, "Ko'xna va Navqiron Buxoro taronalari." Mazkur asarlarda muallif Vatanimizni, uning tabiatini, sevgi-muhabbat mavzularini yorqin ifodalaydi. Bularning aksariyati O'zbekiston radiosи "oltin fondi"ga yozilgan. shuningdek, Orif Ato耶ev raqs uchun kuylar yaratgan.

Orif Ato耶ev Buxoroda tashkil topgan maqom ansambli hamda ashula va raqs ansambllariga badiiy rahbarlik qiladi. U Buxoro xalq ansambli bilan Gollandiya va qanada O'zbekistonning barcha viloyatlarida konsert gastrol faoliyatida qatnashib keldi.

Mehnat faoliyati davomida O'zbekiston va Tojikiston Respublikalaridagi turli san'at masqanlarida sozanda, xonanda, musiqa rahbari va murabbiy bo'lib ishlagan. Bastakor va maqomxonlik sirlarini ilk bora Tojikiston xalq hofizi Boboqul Fayzullayevdan o'rgangan. Bugungacha turli milliy sozlar va cholg'u ansamblari uchun 20ga yaqin cholg'u kuylari, yakka ovoz va xor jamoalari uchun 100ga yaqin vokal asarlarini yaratgan, aksariyati Respublika radio va televedeniyasida ijro etilgan va ularning fonoteqasida saqlanadi. 100dan ortiq shogirdlarning ustozasi. Orif Ato耶ev O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, O'zbekiston Respublikasi Bastakorlar uyushmasi a'zosi, O'zbekiston xalq maorifi a'lochisidir.

### **OLMAXON HAYITOVA (1940- 2014)**

O'zbekiston xalq artisti, xonanda va Bastakor Olmaxon Hayitova O'zbekiston Bastakorlari uyushmasiga 1998 yili qabul qilingan. U kuchli, noyob, o'ziga xos, betakror ovozi bilan musiqa shinavandalarini maftun etib kelmoqda. Shuningdek, turli mavzularda yaratgan qo'shiqlarini o'zining ijrosida namoyish qilib, olqishlarga sazovor bo'lmoqda. Olmaxon Hayitova Xorazm viloyatining Xonqa tumanida ishchi-dehqon oilasida tavallud topgan. Umum ta'lim muktabida tashkil topgan badiiy havaskorlik to'garagida rubob, dutor chertish va qo'shiq aytishda tengdoshlari orasida u alohida ajralib turar, kelgusida xonanda-san'atkori bo'lishiga ko'pchilik ishonar edi. Matabni bitirib Urganch shahar madaniyat uyidagi ashula va raqs ansambliga qabul qilindi. Ansamblida ustozlardan xalq musiqa merosidan ko'plab qo'shiqlar o'rgandi. 1959 yili esa Toshkent viloyati Yangiyo'l shahar teatriga xonanda lavozimiga taklif etiladi. Mazkur teatrda mohir xonanda sifatida uzil-kesil shakllandi va el-yurtga tanildi. 1963 yili yosh xonandani M.Qoriyoqubov nomidagi O'zbek davlat filarmoniyasi qoshidagi O'zbekiston xalq artisti Komiljon Otaniyozov rahbarligida tashkil topgan "Xorazm ashula va raqs ansambliga"ga yakkaxon lavozimiga taklif etishdi. 1969-1974 yillarda M.Uyg'ur nomidagi Toshkent davlat san'at institutida tahsil ko'rди. 1995 yildan beri Xorazm viloyat "O'zbeknavo" gastrol-Konsert birlashmasi tarkibidagi K.Otaniyozov nomidagi filarmoniyaning direktori vazifasida faoliyat ko'rsatdi.

Bastakor-xonanda Olmaxon Hayitova o'zining ijrochilik mahoratini konsert sahnalarida, respublika, viloyat va xorijiy mamlakatlarda namoyish etib, hurmat-ehtiromlarga sazovor bo'ldi. Shu bilan birga iste'dodli san'atkori bastakor ijodiy faoliyati bilan, musiqiy meros an'analariga suyangan holda, zamonaviy O'zbek qo'shiqchilik san'atiga ham o'z hissasini qo'shib, ijod qildi. Uning hozirga qadar 50 dan ortiq turli mavzularda, zamondosh shoirlarning so'zlariga bastalangan, rang-barang, qo'shiq, yalla va ashulalari mavjud. Ular orasida quyidagiilarni o'zining ijrosida mashhur bo'lib qetdi: "Muhabbat", "Sen bir yona, men bir yona", "Torni qo'lga olinglarey", "Uyalamaney" (Oshiq Erkin so'zlari), "Bo'lsa bo'lar, bir bo'lar" (Shoddi



Karim so'zi), "O'ynali" (O.Matjon so'zi), "ko'zingdan aylanay" (Matrasul so'zi), "Ishq o'ynashdimu" (Komila so'zi) va boshqalar.

Olmaxon Hayitova 1966 yili "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist", 1992 yili "O'zbekiston xalq artisti" va 1993 yili Qoraqalpog'iston xalq artisti faxriy unvonlari bilan taqdirlangan.

### QO'LDOSH MAMIROV (1941)



Pedagogika fanlari nomzodi, xor dirijyori, Bastakor Mamirov Qo'ldosh O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi safiga 1994 yili qabul qilindi.U milliy bastakor an'analarini davom ettirib, zamondosh shoirlar bilan hamkorlikda jozibali qo'shiqlar yaratgan.

Mamirov Qo'ldosh Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumaniga qarashli Suvchi qishlog'ida 1941 yilning 23 martida dehqon oilasida tug'ildi. Ota-onasi Qo'ldoshning musiqaga qiziqqanini sezib, qishloqdagi naychi yigit Rahmatjon Abdurayimovga shogird qilib berishdi. 1958yili u Hamza nomidagi Toshkent musiqa bilim yurti ning xor dirijorligi fakultetiga o'qishga kirdi. 1964-1968yil- larda Qo'ldosh Mamirov Toshkent garnizoni Ichki ishlar qurolli kuchlar qoshidagi Ikromjon Bo'ronov rahbarligidagi O'zbek ashula va raqs ansamblida naychi bo'lib harbiy

xizmatini ado etadi.

Bastakor va xor dirijyori Q.Mamirovning mehnat faoliyati talabalik davridan boshlanib, 1960yildan umumta'lim mакtablariga musiqadan dars berdi. 1964yili Toshkent o'quvchilar saroyida O'zbek xalq cholg'u ansambliga, 1968-1970yillarda A.Gagarin nomidagi Toshkent saroyidagi O'zbek xalq cholg'ulari ansambliga rahbarlik qildi. 1970 yildan buyon Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining musiqa fakultetida xor-dirijyorligi kafedrasi mudirligidan, dekan, professorlikgacha bo'lган yo'lни bosib o'tdi. 1987 yili Moskvada "Boshlang'ich sinf musiqa darslarida o'qituvchilarning ahloqiy hislarini tarbiyalash" mavzusida yozgan dissertatsiyasini yoqladi va pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasiga ega bo'ldi. I va II sinf "musiqa" o'quv qo'llanmasini hamda VI sinf "musiqa" darsligini yaratishda ishtirok etdi. Tolibjon Badinovdan Navoiy g'azallari bilan kuylanadigan 40 ta ashulani notaga yozdi. 80 ta xalq qo'shig'i va maqom shu'balarini o'z ichiga olgan "O'zbek xalq qo'shiqchiligi majmuasi"ni tuzdi. O'z asarlaridan bir qancha qo'llanmalar tayyorladi: "Quyosh yurtim", "Ohanglarda hayot nafasi", "Ona allasi" kabi to'plamlari chop ettirishga tayyorladi.

"Ona allasi"(N.Orifjonov so'zi), "Uyg'on tuyg'ular"(A.Oripov she'ri), "Yo'lim boshlar" (Zulfiya she'ri), "Sevinch yoshlari" (M.Muhammedova she'ri), "Sen ham yod aylagil meni" (A.Dehotiy she'ri), "Go'zallik madhiyasi" (M.Muhammedova she'ri), "Toshkent, go'zal diyorimsan"(J.Oymirzayev she'ri) yakka xonanda va vocal ansambl bilan orkestr jo'rligida. Vocal cholg'u ansambli ijrosida "Bahor" (M.Turobova she'ri), "Nigohimni uzolmayman" (A.Umarov she'ri), "qo'shiqga navbat" (B.Turobova she'ri), "Ona yurt qo'shig'i" (Q.Mirzayev she'ri). Bu ro'yxatni davom ettirish mumkin. U 100 dan ortiq qo'shiqlar yaratdi. Bularidan tashqari, shoir sifatida u 6 - ta she'riy poema, 200ga yaqin she'rlar, to'rtliklar, "Payg'ambarnoma" nomli she'riy roman yozgan.

Ular orasida xor, akapella (jo'rsiz xor) "Lahza-lahza"(Furqat g'azali), "Miltiraydi bir mitti yo'lduz" (A.Oripov she'ri), "O'zbekiston yoshlari" (M.Mirzayev she'ri), "quyosh yurtim" (Ch.Ro'ziyev she'ri), "O'zbekiston taronasi", "Toshkent haqida qo'shiq" va "O'zbekiston-onayurt" (Q.Mamirov so'zlari) ko'rik-tanlovlarida sovrinli o'rirlarni egalladi. Xor va O'zbek xalq cholg'u orkestri uchun quyidagi qo'shiqlarni yaratdi: "Istiqlol", "Yor qani"(Q.Mamirov so'zlari), "Turon tonglari" (O.Hakimov so'zi), "Go'zal Toshkent qizlari" (J.Oymirzayev so'zi), "Dugona kelibdir" (B.Turobov so'zi), "Naqadar go'zaldir" (M.Muhammedova so'zi), "Ona allasi"

(M.Turobov so'zi), yakka xonanda va orkestr uchun “Bahor sarvinoz” (M.Turobov so'zi), “Muhabbatim” (M.Yusuf so'zi), “Anhor labida”(S.Zunnunova so'zi), “Nigohimni uzmayman” (A.Sherov so'zi), “Nigohingda kuylar bahor”(M.Murodov so'zi) va boshqalar. U dramaturg N.qurbanov bilan hamkorlikda “O, mening qora ko'zlarim” nomli musiqali dramasi va kinorejissyor Z.Musokov bilan hamkorlikda “qaldirg'och” kinofilmiga musiqa bastaladi.

### RAVSHAN HAMROQULOV (1944)

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, mohir sozanda, pedagog-murabbiy, Hamroqulov Ravshan Bahromovich O'zbek bastakor ijodiyotining an'analarini davom ettirib kelayotgan iste'dodli Bastakorlaridan biridir. U yaratgan qo'shiq va raqs kuylari bilan musiqa shinavandalarining hurmat-ehtiromiga sazovor bo'ldi va 1996 yili O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi a'zolari safiga qabul qilindi. O'zining yorqin ijodi va tashabbusqorlik faoliyati bilan Samarqand viloyatining madaniy hayotiga samarali hissa qo'shib, xizmat qiligan.

Bo'lg'usi san'atkor Hamroqulov Ravshan Bahromovich Samarqand shahrida 1944 yilning 4 aprelida tavallud topdi. U bolalik va o'spirinlik davrini shunday eslaydi: Musiqiy san'atga dastlabki qadam qo'yishimda avval nay chalishga ixlosim baland edi va o'rgana boshladim. Ulg'ayganimda, O'zbekiston xalq artisti, Bastakor Muhammadjon Mirzayevning maromiga yetgan rubob navolarini tinglab, shu cholg'uni o'zlashtirishga ishtiyoq paydo bo'ldi. Siyob tumanining ikkinchi madaniyat uyi qoshidagi rubobchilar dastasiga qatnay boshladim. Bu dargohda D. Olloberdiyev, X. Bahromova, A. Ahmadjonovlar ustozlik qildilar. San'atga bo'lган kuchli havas va muhabbatimni sezgan R. Hamroqulovni tavsiyasi bilan, o'rta maktabini 8- sinfini bitirganimdan so'ng, buyuk hofiz Hoji Abdulaziz Rasulov nomidagi Samarqand davlat musiqa bilim yurtiga 1960 yili o'qishga kirdim. Bu o'quv dargohida to'rt yillik tahsil mobaynida Subhon Usmonov, Olim Rahmonov, Umar Xursandovlar menga ustozlik qilishdi.

Rubobchi R. Hamroqulov 1964 yili Musiqiy o'quv yurtini muvaffaqiyatli bitirib Samarqand davlat opera va balet teatriga ishga tayinlandi. 1964-1965 yillari Tojikiston davlat filarmoniyasida sozanda, 1965-1968 yillari armiya safida, 1968-1971 yillari “Lola” nomli Tojikiston davlat ansamblida rubobchi-sozanda bo'lib ishladi. 1972 yili S.Ayniy nomidagi Samarqand davlat pedagogika institutining musiqa kafedrasiga o'qishga kirib, 1976 yili muvaffaqiyatli bitirdi. Mazkur oliygohda 1973 yildan buyon o'qituvchi, katta o'qituvchi, dotsent lavozimlarida va institutning jamoa ishlarida faol ishlab kelgan.

Ravshan Hamroqulovning bastakor ijodiy va tashkilotchilik faoliyati pedagogika Instituti qoshida 1972 yilda tuzilgan ”Guldasta” ashula va raqs ansambliga rahbarlik qilgan paytidan boshlandi. U yillar davomida ushbu ansambl va boshqa ansambl xonandalari uchun ko'plab qo'shiq va raqs kuylarini yaratdi. Ular orasida ”Samarqand” (V.Abdullo so'zi), ”Samarqand sehri”, ”Nargis ko'zli”, ”Parizod” (N.Narzullayev so'zlari), ”Samarqand jamoli” (A. Isroilovlar so'zi), ”Ishim bordir o'sha ohuda” (H.Olimjon so'zi), ”Men edim” (S.Sirojiddinov so'zi), ”Etgali”(A.Oripov so'zi), ”Baxtlar mconi”, ”Zarafshon” (O. Ikromov so'zlari), ”Or aylama” va ”Ey, ulug' shoir Navoiy” (O. Gulxaniy so'zlari), ”Bo'lurmu” (Z.Obidov so'zi), ”Onajonim” (B.Yunusov so'zi) va boshqa 100 dan ortiq turli mavzularda zamondosh shiorlarning so'zlariga qo'shiq, ashula, lapar, yallalar yaratdi. U ”O'zbekiston – Vatanim manim” ko'rik tanloviga bag'ishlab ham juda ko'p qo'shiq yaratdi. Ular orasida: ”Haqqim bormi seni Vatan deyishga” (X.Bobomurodov so'zi), ”O'zbekistonim” (J.Suvonov so'zi), ”Nomigdan aylanay” va ”Chinor minorlariga bor” (X.Bobomurodov so'zlari), ”Soz tutdi elim” va ”Bolamni asragil” (E. Shukurov so'zlari), ”Sen sayqali jahondursan, Samarqand” (D.Fayziy so'zi), ”O'zbekistonim qo'shig'i”



(B.Boyqobilov so'zi), "istiqlol qo'shig'i" (M.Zoir so'zi), "Samarqandim", "kel, Samarqand shahriga" va "Bo'limg'ay" (A.Oripov so'zleri) va boshqalar. Ansambllar va yakka xonandalar uchun yaratgan ovozli musiqalardan tashqari Bastakor bir talay raqs musiqalari, qashqar va afg'on ruboblari uchun 20 dan ortiq etyud va mashqlar ham yaratdi.

R.Hamroqulov bastalagan qo'shiq va ashulalarni qator iqtidorli xonandalar ijro etib kelmoqdalar. Ular orasida Jo'rabek Murodov, Komil Rahimberdiyev, Ergash Jalilov, Tohirjon Mo'minov, Jaloliddin qosimov, Muqaddam Saidov, Barno Haydarova, Bahrom Mavlonov, aqa-uqa Rahimjon va Aminjon Sharipovlar va boshqalarning otashin ovozlari O'zbek radiosи fondida saqlanmoqda.

1989 yili R. Hamroqulov "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi" faxriy unvoni bilan mukofotlandi.

### ORTIQ OTAJONOV (1947-2019.)



O'zbekiston, Qoraqalpog'iston va Turkmaniston xalq artisti Ortik Otajonov 1947 yilning 30 yanvarida Xorazm viloyati Bog'ot tumanida tavallud topgan. 1976-1980 yillarda Toshkent Davlat Madaniyat institutida xor dirijyorligi bo'limida tahsil oldi.

1968 yildan O'zbek davlat filarmoniyasi qoshidagi "Lazgi" ashula va raqs ansamblida yakkaxon ashulachi, 1981-1988 yillarda "Lazgi" ansamblining rahbari bo'lib faoliyat ko'rsatgan. O.Otajonov an'anaviy va zamonaviy ijrochilik uslublarini rivojlantirishda o'z hissasini qo'shib kelayotgan san'atkordan biridir. U mohir sozanda va xonanda sifatida xalq orasida keng tanilgan. O'zining ijrochilik mahoratini O.Otajonov Xalqaro musiqa anjumanlarida, AQSh, Germaniya, Yaponiya, Iordaniya, Marokko, Nepal, Malayziya, Yangi Zelandiya, Singapur, Daniya, Islandiya, Avstraliya, Hindiston, Afg'oniston va boshqa ko'pgina xorijiy mamlakatlarda namoyish etib kelmoqda.

O.Otajonov ijrochilik faoliyati bilan bir qatorda ijod bilan ham shug'ullanadi. U yaratgan va ijro etib kelayotgan "Vatan" (A.Oripov so'zi), "Biz bo'lsak" (B.Bobomurod so'zi), "Dunyo bu" (Sh.Ne'matov so'zi), "Piyolangda choy bo'lib" (M.Haydar so'zi), "O'zim bilan o'zim" (O.Jo'rayev so'zi), "Xorazmda Xiva bor" (Zarifiy so'zi), "Boshqacha" (O.Erkin so'zi), "Otajon", "Galsin-galsin" (Sahiy Ahmad), "Charvoq chiroqlari", "Zebolanib kelibsiz", "Tinchlik uchun" (E.Samandarov so'zi), "Ona diyorum", "Esga olursan" (O.Odilxonov so'zi), "Nigorim", "Noz ayla" (A.Obidjon so'zi), "Ayon bo'lg'ay" (O.Orifov so'zi), "Nurli kecha" (E.Vohidov so'zi), "qachon kelursan", "Madhingni kuylay" (T.To'la so'zi), "Lazgi" (H.G'ulom so'zi), "O'zbekiston ipaklari", "Vasling kuylab" (S.Qo'qonbekov so'zi), "Umr o'tar", "Sen unda zor bo'lning" (O.Matchon so'zi), "Biri sensan, biri men" (B.Vahobzoda so'zi), "Turnalar" (Voqif so'zi), "Onajonlar, otajonlarim" (B.Turobova so'zi) kabi 100 dan ortiq qo'shiqlar mashhur.

O.Otajonov 1980 yilda "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist", 1985 yilda "Shavqatli mehnat", 1992 yilda "Mustaqillik" medallari, 1991 yilda "O'zbekiston xalq artisti", 1993 yilda Turkmaniston xalq artisti, Qoraqalpog'iston xalq artisti unvonlari va bir qator faxriy yorliklar bilan taqdirlangan.

## SULTONALI MANNOPOV (1948)

O'zbekiston xalq artisti, mohir sozanda, xonanda murabbiy, Bastakor Sultonali Mannopov O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi safiga 1999 yili qabul qilingan. Bastakorning o'nlab qo'shiq va ashulalari, yalla-raqs syuitalari va cholg'u asarlari viloyat hamda respublika miqiyosidagi konsert dasturlarida, ko'rik-tanlovlarda, festivallarda jaranglamoqda. Ayniqsa, uning istiqlol mavzulari- darijizi qo'shiqlari "Mustaqillik bahori", "Mustaqillik taronasi", "Gulla, O'zbekiston", "O'zbekiston mening vatanim", "Do'stlik taronasi", "Farg'onadan assalom" kabilar mashhur bo'lib ketgan.



Sultonali Mannopov Farg'ona viloyati quva tumani Sulton obod qishlog'ida 1948 yilning 1yanvarida dehqon oilasida tug'ildi. Ota-onasi Sultonalini bolaligidan musiqaga qiziqqanini sezib, ta'limgarbiyasiga e'tibor berdilar. 12 yoshida u mashhur xonanda Tavakkal Qodirovga shogird tushdi. 1954-1964 yillarda umumta'lim maktabida o'qidi, ustoz bilan konsertlarda ishtirok etadi. 1964- 1968 yillari Farg'ona musiqa bilim yurtining xalq cholg'ulari bo'limida tahsil ko'rdi. 1968-1969 yillari Farg'ona harbiy garnizonining orkestrida harbiy xizmatni bajo etdi. Mehnat faoliyatini 1969 yili bolalar musiqa maktabidan boshladi. Uning orzu niyatları 1970 yili Farg'ona pedagogika institutining musiqa fakultetiga chorladi. Unga O'zbekiston xalq artistlari Tavakkal Qodirov, Jaloliddin Ohunov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, dirijyor va bastakor Dehqonboy Jalilovlar ustozlik qildilar. U 1974 yili o'qishni muvaffaqiyatli bitirdi va universitetning musiqa fakultetida o'qituvchilikni boshladi. 1978 yildan Farg'ona viloyat O'zbek musiqali drama va komediya teatrda konsertmeyster, xormeyster, bosh dirijyor vazifalarida faoliyat ko'rsatdi. 1982 yildan buyon Farg'ona viloyat filarmoniyasining badiiy rahbari bo'lib ishladi. Shu bilan birga Farg'ona davlat universitetining ijtimoiy-madaniy faoliyat ishlari kafedrasida professor vazifasida yosh avlodni tarbiyalab kelmoqda. Bir vaqtning o'zida Farg'ona viloyat O'zbek teatrinda bosh dirijyor vazifasini bajarmoqda.

Bastakor va xonanda S.Mannopov ijodiy faoliyatida qo'shiq janri ustivor turadi. U zamondosh shoirlar she'rlariga 150 dan ortiq rang-barang qo'shiqlar yaratdi. Ularning ayrimlarini eslatib o'tamiz: "O'zbekistonda bugun hamma paxtaqor", "Muborak" (A.Karimov so'zleri), "istiqlol madhiyasi" (M.Islomov so'zi katta ashula), "Xirom etsang" (B.Ismoilov so'zi), "Turnalar", "Sayrang qushlar", "Farg'oniy bobom" (I.Tursunov so'zi), "Chrax urar dilrabo-lar", "Dunyolar sehri", "Gulzorga qarasam" (H.Muhammad so'zleri), "Uzma do'stlik torini" (P.Mo'min so'zi), "Bahorim", "Lolaginam" (Nazarmat so'zi), "qizlarjon", "qaydanam sevdim sani", "Barqaror bo'lsin", lapar "Menga gapi bormiqan" (O.Hakimov so'zleri), "Qalandar ishqisi" (Cho'lpon she'ri), "Bekiyos" (N.Andijonov so'zi), "Muruvvat birla" (Charxiy g'azali), "kelsa sanamim" (Sh.Hakimiyo so'zi), yallalar "Farg'onajon" (I.Sulaymon so'zi), "Assalom" (T.To'la so'zi), "Farg'ona yor-yori" (A.Rustamov so'zi) va boshqalar.

Bastakor quyidagi musiqali kompozitsiyalarni yaratdi: 1982 yili "Yashnayver, jonajon respublikam", 1985yili "Mangulik", 1986yili "Sozimda vasling", 1989yili "Vodiy taronasi", 1992yili "Mustaqillik bahori", 1994yili "Sha'ningni kuylayman Mustaqil diyorim", 1995yili "Xotira", 1996yili "Mustaqillik taronasi" 1997yili "Farg'onadan assalom", 1998yili "Navro'z taronasi". Mazkur kompozitsiyalarni Farg'ona viloyat "O'zbeknavo" jamoalari ijro etishgan. Yakka cholg'u va ansambllar uchun kuylar yaratdi. U 1994 yili "Oliy va o'rta maxsus bilim yurtlari san'at bo'limlari uchun milliy-an'anaviy qo'shiqchilik ixtisosligidan qo'llanma-dastur", 1994 yili "Tavakkal Qodirov"ning hayoti va ijodiy faoliyatini to'g'ri sida monografik ocherk va 1996 yili "qo'shiq olami yo'luzlari" kitobida mashhur hofizlar Madalibek Rahmatillo o'g'li, Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqovlarning hayoti va ijodiy faoliyatları to'g'risida ilmiy-

ommabop risola yaratdi va nashodan chiqardi. “So’nmas navolar” ilmiy-badiiy risolasida 20 nafar ustoz hofiz, sozan- dalarning hayoti va ijodlari qalamga olingan.

Bastakor S.Mannopov O’zbekiston do’stlik delegatsiyalari bilan quba, Hindiston, Shri-Lanqa, Afg'oniston, Turkiya, Suriya kabi mamlakatlarda ijodiy safarda bo’ldi. Qozog’istonda o’tgan O’zbekiston madaniyati kunlarida qatnashdi, 1993yili Farg’ona Bastakorlar uyushmasi viloyat bo’limini tashkil etib, unga rahbarlik qildi.

### O’LMAS RASULOV (1951)



O’lmas Rasulov 1951 yilda Surxondaryo viloyati Denov tumanida tavallud topdi. U maqom ustozlarining yangi avlod vakili, hozirgi kunda Shashmaqomning bilimdoni targ’ibotchidir. Besh yoshligida to’satdan ko’zi ko’rmay qolgan. 1958 yilda Buxoro shahridagi ko’zi ojizlar internatida tahsil olgan, keyinchalik u Buxoro musiqa bilim yurtini, 1971 yil Toshkent Davlat Konservatoriyasi “Sharq musiqasi” bo’limiga o’qishga kirib, 1977 yili g’ijjak ixtisoligi bo'yicha tamomladi.

Uning xotirasi juda o’tkir va tug’madir. Ustoz bir eshitgan kuy va ashulani oylab to’la-to’kis esida saqlashga qodirdir. Uning bastakor ijodi 1980 yildan boshlandi. Ustoz o’zining 30 yillik ijodiy faoliyati davomida 200 dan ortiq kuy, ashulalar, radio va videofilmlar uchun musiqa O’zbek xalq cholq’u ansambl uchun asarlar yaratdi. Bastakorning

“Bobur” videofilmiga yaratgan ashulalari, “Shiru-shaqar”, Mukarrama G’afurova “Alla”, “Nazzora qilmas” Navoiy g’azali, “Noz”, “Tasavvur”, “Oypalak”, “Tamon ufori” kuy va ashularini bastaladi.

O’lmas Rasulovdan tahsil olgan, san’atda yangi-yangi kamolot pog’onalariga ko’tarilgan talantli xonanda, sozandalar O’zbekiston xalq artistlari Maryam Sattorova, Ahmadjon Shukurov, O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan artistlar Nasiba Sattorova, Rustam Abdullayev, Soyib Niyozov, sozandalar Salohiddin Azizboyev, Saydullo Ubaydullayev va boshqalar O’lmas Rasulovni o’zlariga ustoz deb biladilar. Ustoz O’lmas Rasulovning mehnatlarini hukumatimiz tomonidan qadrlanib 1993 yilda O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan artist, 2003 yilda O’zbekiston xalq artisti unvoni bilan mukofotlandi.

### ABDUHOSHIM ISMOILOV (1952):



Mohir kamonchi, taniq Bastakor Abduhoshim Ismoilov 1952 yilda Farg’ona viloyati quva tumanida, dehqon oilasida dunyoga keldi.

1967 yilda o’rta maktabni tugatgach, Farg’ona musiqa bilim yurtiga g’ijjak sinfi bo’yicha o’qishga kirdi. Bilim yurtini 1972 yilda tugatdi. 1972-1975- yillar harbiy xizmatda Ikromjon Bo’ronov ansamblida xizmat qildi. 1975 yilda Muxtor Ashrafiy nomidagi Toshkent Davlat konservatoriyasi (an’anaviy ijrochilik) Sharq fakultetiga o’qishga kirib, uni 1981 yilda tugatdi. 1974 yildan hozirgi kunga qadar Yunus Rajabiy nomidagi “Maqomchilar” ansamblining badiiy rahbari bo’lib ishlab kelmoqda. Uning bastakor ijodi 1973 yildan boshlandi.

O’ylab qarasak, go’zal Farg’ona vodiysidan ne-ne hassos hofiz va sozandalar, mashhur bastakorlar yetishib chiqmagan. Abduhoshim Ismoilov ham o’z ijodini bu an’analarga tayangan holda boshlagan ko’rinadi. U hozirgacha To’xtasin Jalilov, Komiljon Jabborov, G’anijon Toshmatov, G’ulomjon

Xoqiqulov, G'ulomjon Ro'ziboyev kabi g'ijjakchi Bastakorlarning ijodiy maktabi, asar bastalash uslublarini puxta o'zlashtirishga tinmay intilib kelmoqda.

Ijodiy kamolotga yetish jarayonida unga Toshkent Davlat konservatoriyaning Sharq musiqa bo'limida Faxriddin Sodiqovdan olgan saboqlari qo'l keldi. Aynan shu san'atkori ijodida yuzaga kela boshlagan an'anaviy Bastakorlarimiz uslublariga tubdan yangicha yondashish misollari bo'lajaq mohir sozanda va bastakor uchun omilkorlik ijodiy izlanishlariga ro'shnolik baxsh etdi. Xususan, ustozning "O'zbekcha vals" nomli cholg'u asari qator qo'shiqlardan iborat bo'lib, azaliy monoliya tarzidagi asar yo'nalishini (har bir sozning tembr bezaklari aynan shu soz yoxud muayyan cholg'u asboblar guruhining o'zigagina xos kuy taratishi, bulardagi tabiiylik sado va usullar jozibasi) to'laqonli ochib berishga intiladi. Buni Abduhoshim Ismoilovning yakkanavoz g'ijjak va sozandalar ansambli uchun bastalangan deyarli barcha asarlarida yaqqol ko'ramizki, mazkur yo'nalish zamonaviy O'zbek Bastakorligining ustuvor ijodiy uslublaridan biriga aylanayotganini e'tirof etishimiz hamda hozirgi polimonodiya degan ibora ila ifodalashimiz mumkin. Ishonchimiz komilki, bu yo'nalishning kelajagi porloq va bekiyosdir.

Abduhoshim Ismoilov ijodida xilma-xil janrlar o'laroq qo'shiqchilikqa asosiy o'rinn beriladi. Uning qo'shiqlari mazmunan falsafiy serqirra bo'lib, ona diyor, Vatan, lirik mavzuli ashulalar muhim o'rinn tutadi. "Nasib bo'lgay", "Sarvinoz", "Xasta ko'nglim", "Yor emas" (Navoiy g'azallari), "Yorima aytинг" (Ogahiy g'azali), "Oshiqnomा" (N.Narzullayev she'ri), "To'shar yodimga" (G'ayratiy she'ri) shular jumlasini tashkil etadi.

A.Ismoilov qo'shiq she'rлarini tanlashga alohida e'tibor bilan yondashadi. Bastakorning sozandalik mahorati uning ijodkorlik tafakkuriga shubhasiz katta ta'sir ko'rsatdi. Jumladan, "To'yona", "Buyuk chinor", "Al Farg'oniy", "Hayronaman" asarlari fikrimizning isbotidir. Bu cholg'u asarlari Bastakorning O'zbek sozandaligi "Oltin xazina"sidan mustahkam o'rinn tutadi.

Abduhoshim Ismoilovning O'zbek musiqiy san'ati rivojidagi ulkan mehnatlari davlatimiz tomonidan munosib baholanib, 1990 yili "O'zbekiston xalq artisti", 1997 yili "Shuhrat" medali, 1999 yili "Yunesko" mukofoti sovrindori, 2000 yili "Qoraqalpog'iston xalq artisti", "Ofarin" mukofoti sovrindori bo'ldi.

**V BOB. NOTA MAJMUASI**  
**Hayroniman**

Ko' pir-da ko' - ri-nar o - ti-

ning-bo - shi Yom-g'ir-day yo - g'a-di ko' - zi - ning- yo - shi Man get-gan so`ng

kim bo` - la - di yo'l- do - shi (ay) Hay-ro - ni - man hay - ro - ni - man

hay - ro - ni O` - zi gal - ma - gan-ning zo - ri gir - yo - ni

Shu kun besh kun bo`ldi o`zim xafaman  
 Yorimni bog`ina olma sopaman  
 Endi san bolani nerdan topaman  
 Hayroniman hayroniman hayroni  
 O`zi galmaganning zori giryoni

Qora cho` girmangni gullari bodom  
 Sanga galgan manga galsin Olladan  
 O`zim aylanin shu arslon boladan  
 Hayroniman hayroniman hayroni  
 O`zi galmaganning zori giryoni

Osmona uchirdim o`rdak g`ozimni  
 Siz getsangiz kim ko`tarar nozimni  
 Xivadan oldirdim garmon sozimnii  
 Hayroniman hayroniman hayroni  
 O`zi galmaganning zori giryoni

# Injilmasin

6/8 time signature.

Lyrics:

Eye ar-ka qiz, qu-loq so-ling

so` zi - ma, O-yo-qing qa-rab bos er in - jil-ma - sin. Ma-ni so` zim

ma-lol gal-ma - gay si - za So`n-gak be - jo bo` - lib bel in - jil ma - sin.

Qizlar bilan birga bog`a kiraylik,  
Bog` ichinda sollanishib yuraylik.  
Dasta-dasta qizil gullar teraylik,  
Bulbul xafalanib gul injilmasin.

Tarahhum aylagil mening xolima,  
Tun kechalar chekkan ohu zorima.  
Ko`zim tushdi labibdag'i xolingga,  
Labim tegib ketsa xol injilmasin.

Aqli hushim qochdi sizni ko`rganda,  
Toqatim qolmadni jon bilan tanda.  
Bo`yinga qul bo`lay, otingga banda,  
Oyog`ing qarab bos, er injilmasin.

Yupqa kuylak kiyib chiqma shamola,  
Ko`ngilni yuborma har xil xayola.  
Ko`zim tushdi o`ksingdag'i just nora,  
Qo`lim tegib ketsa nor injilmasin.

Uyum - uyum oq olmalar teraylik,  
Birgalashib davri davron suraylik.  
Dalaga chiqqanda bo`ying ko`raylik,  
Ojizni ko`rganda yor injilmasin.

## Sangar yaxshidir

Man-zil jo-yim

Pol-von yop - ning or-qas-i Ma-ni hay-ron et-di (voh - voh)

Xi-va qa-la-si. Pol-von yop - ning su-vin bol-din ma-za-si

Kez-dim har joy - lar-ni (voh - voh) San- har yax-shi-dur,

San - gar - da o - chil - gan(voh - voh) gul - lar yax - shi - dur.

Sangarning bog'ida gullar ochilgan,  
Shoxasida mushki anbar sochilgan,  
Kaboblar pishirib, sharob ichilgan,  
Kezdim har joylarni Sangar yaxshidir,  
Sangarda ochilgan gullar yaxshidir.

Sangarning bog'ida olma pishibdi,  
Olma emak ko'nglimiza tushibdi,  
Bulbullar sayrashib haddan oshibdi,  
Kezdim har joylarni Sangar yaxshidir,  
Sangarda ochilgan gullar yaxshidir.

Sangar bog'larining guli chiroylik,  
Yuring, qizlar, gulli boqqa kiraylik,  
Bog' ichinda suxbatlashib yuraylik,  
Kezdim har joylarni Sangar yaxshidir,  
Sangarda ochilgan gullar yaxshidir.

Sangar odamlarin lafzi mazali,  
Har erda tayyordir mahmonning shayi,  
Hammaning bog'ining guli safoli,  
Kezdim har joylarni Sangar yaxshidir,  
Sangarda ochilgan gullar yaxshidir.



Sangarning bog'idan olma keltirdik,  
Emadik ichmadik, o'ynab o'tirdik,  
Dasturxon ustini guldan to'ldirdik,  
Kezdim har joylarni Sangar yaxshidir,  
Sangarda ochilgan gullar yaxshidir.

Sangarning bog'ida shihsa qapilar,  
Kirgandan so'ng shisha qop'i yopilar,  
Odamlari va'dasida topilar,  
Kezdim har joylarni Sangar yaxshidir,  
Sangarda ochilgan gullar yaxshidir.

U yurgandir sarhovizlar bo'yida,  
Sarhovuz bo'yida, gujum tagida,  
O'lar bo'ldim hasratinda, kuyida,  
Kezdim har joylarni Sangar yaxshidir,  
Sangarda ochilgan gullar yaxshidir.

# Qaydadir bilmam dildorim

M.M.=90



Gulzor qo'ymayin axtardim,  
Izlab har tomonga bordim.  
Hech qayerdan topa olmasdan,  
Hijronda qolib qiyaldim.

Bilmadim ketmish qayona,  
Ayladi mani hayrona.  
Har tomonga nazar tashlab,  
Topmadim yordin nishona.

Naqorat:

Qaydadir bilmam dildorim,  
Aqlim olgan sevar yorim.

Naqorat:

Qaydadir bilmam dildorim,  
Aqlim olgan sevar yorim.

# O`lguncha sizni derman

M.M.=100

Dil-barbu ja - hon ich ra

o'l-gun chasiz - ni der - man      Um-ri-ming gu - li to - ki      so'l-gun-chasiz -

ni der - man,      Bo'y-nim - ga qi - lichkcl - sa      kcs-gun - chasiz - ni der - man.

Ko`ng lin - giz - ga ma - lol ol - mang,      o'l-gun - cha siz - ni der - man.

Ko`nglim uza bilmayman ul sho`xi sitamgardan,  
O`lguncha umidim bor ul lablari shakardan.  
A`lo ko`rinib ko`zga ul barcha parilardan,  
Ko`nglingizga malol olmang, o`lguncha sizni derman.

Arzimga quloq qo`ygil amgshir mani dodimni,  
Ko`nningda bo`lsa zavqing, ber endi murodimni,  
Hammalarni tark etdim qo`y endi uyotingni,  
Ko`nglingizga malol olmang, o`lguncha sizni derman.

Shod Vatanning bog`inda shodlik bilan yurgaymiz,  
Qo`lni qo`la berishib qizil gullar tergaymiz.  
Sendan umid kutadi bu telba g`arib Ojiz,  
Ko`nglingizga malol olmang, o`lguncha sizni derman.

# Zulfing

Mash-hu - ri o -

lam bo'l-mish, Jum-la ja-ho - na zul - fing. Ko'r-sat - ma- ding yu-zing - ni,

Bo'l-di ba-ho - na zul - fing. Aj-da - ho-dek yas-ta- nib, Gan-ji ni-ho -

-na zul-fing O-lam-ga an-bar so-char Tek-kan - da sho - na zul - fing.

So`zla, shirin so`zlarine,  
So`zlardan o`zga bo`lsin.  
Qora ohu ko`zlarine,  
Ko`zlardan o`zga bo`lsin.

Sening nozik bellaring  
Bellardan o`zga bo`lsin.  
Naylayin o`t solibdi,  
Jumla jahona zulfin.

Sening odob ikroming,  
Qizlardan o`zga bo`lsin.  
Shirin takallum aylab,  
Jon qo`shdi jona zulfin.

# Deyma jonim

M.M. = 105

The musical score consists of four staves of music in G clef, 6/8 time, and a tempo of 105 BPM. The lyrics are placed below each staff, corresponding to the notes. The first staff ends with 'Bul-bi-la da-na'. The second staff ends with 'bar- mi - san Och bo` la-var-sin da- ding-mi Man-nan xa-bar ol- mi - san-(ay)'. The third staff ends with 'sar-g`a-ya-var-sin da- ding-mi Man-nan xa-bar ol- mi - san-(ay) Sar-g`a-ya var-sin'. The fourth staff ends with 'de- ding - mi Bo-la-ga-dey - ma jo - nim O` lar- man be - qa-ro - rim.'

Qoshni qiyolasizmi  
Gul bersam olasizmi  
Avvalda va`da berib  
Endi uyalasizmi  
Bolag`a deyma jonim  
O`larman beqarorim

Bog`ingizda olicha  
Uyingizda g`olicha  
Siz bilan borishaman  
To quvvatim boricha  
Bolag`a deyma jonim  
O`larman beqarorim

Hovuz bo`yina gul akdim  
Diydam bilan sug`ordim  
Man sani yaxshi ko`rdim  
Gul bahonasida borib  
Bolag`a deyma jonim  
O`larman beqarorim

Ketasan o`ya - xayola  
Tushdi qo`limnan piyola  
Ikki ko`ngil bir bo`lsa  
Qo`shilishamiz inshollo  
Bolag`a deyma jonim  
O`larman beqarorim

# So`zla bola

M.M. ♩ = 105

Ba-land ba-land u - chak-lar-da

do-nish-dik, Hech kim go`r-ma - sin deb o`g` rin bo-rish - dik Av-val yeng i -

chin-da g`a-zal o - lish - dik So`z-la bo - la su - dur jo - nim

suv bo`l - di So`z-la - san - go su - dir jo - nim suv bol - di

Falankasjon bilan uchakda durdim  
Birisini topmadim, ikkisin go`rdim  
Andirab - dandirab botqoqqa urdim  
So`zla bola sudir jonim suv bo`ldi  
So`zlasango sudir jonim suv bo`ldi

Botqoqqa botganim go`rgan gulishdi  
Musulmonlar alashtirmang bu ishni  
Endi man nishatin boshima tushdi  
So`zla bola sudir jonim suv bo`ldi  
So`zlasango sudir jonim suv bo`ldi

Uch olma topvadim uchisi birdek  
Ichida birisi ochilgan guldek  
Birisini ovozlari bulbuldek  
So`zla bola sudir jonim suv bo`ldi  
So`zlasango sudir jonim suv bo`ldi

Endi man so`zimni ayladim tamom  
Har kim o`z uyida o`tirsin omon  
Ayting barisina duoyi salom  
So`zla bola sudir jonim suv bo`ldi  
So`zlasango sudir jonim suv bo`ldi

## Xiva dudori

Bo-shi-ma os - g'a-nim Xi-va  
du-do - ri, O-ra-sin-da hil-pil-di-di bir to - ri, O' zim-ningyo -  
ri - ma dun-yo - ning bo - ri (yay), Shul yor - ni ax - ta - rib get ma -  
sam bo'l - mas, Al - la - rin bo'y - ni - ma sol - ma - sam-bo'l mas.

Bo'ynima osganim qalampir la'li,  
Shu yorni go'rmasam bo'larman dali,  
Yigitlar ichinda bo'ylari balli,  
Shul yorni axtarib getmasam bo'lmas,  
Allarin bo'ynima solmasam bo'lmas.

Juyan akdim kandir bilan aralash,  
Bir yor topdim o'rta bo'yli, qalam qosh,  
Qora qora deyvar manglar yorimni,  
Qora minjiq hinji bilan aralash,  
Shul yorni axtarib getmasam bo'lmas,  
Allarin bo'ynima solmasam bo'lmas.

Bo'ynima osganim qalampir tumor,  
Shul yorni go'rmasam bo'laman xumor,  
Yigitlar ichinda bo'ylari chinor,  
Shul yorni axtarib getmasam bo'lmas,  
Allarin bo'ynima solmasam bo'lmas.

## Qaysi bog`dan oldingiz

Mansi-za ay - la - ram      bir yax - shi sa - vol.

Siz bu gul - ni qay - si bog` dan ol - din - giz.      Mu-bo-rak ay - la - gay

Va-tan-ning bo - g`in      Siz bu gul - ni qay - si bog` dan ol - din - giz.

Man siza aylaram bir yazshi savol,  
Siz bu gulni qaysi bog` dan oldingiz?  
Muborak aylagay Vatannig bog` in,  
Siz bu gulni qaysi bog` dan oldingiz?

To`tiga o`xshiydi shirin tillari,  
Qaddi qomatlari, nozik bellari,  
Meni hayron etdi nargis ko`zlar,  
Siz bu gulni qaysi bog` dan oldingiz?

Ko`rgan odam bo`lar oning hayroni,  
Bizga ta`sir qildi odob ikromi.  
Birga o`tirganning yo`qdir armoni,  
Siz bu gulni qaysi bog` dan oldingiz?

Orazi ustida zulfi sanosi,  
So`zlagan so`zlar dardning davosi,  
Bilmam shuning bormi mehriegiyosi,  
Siz bu gulni qaysi bog` dan oldingiz?

Savolningizga yazshi javob aylarman,  
Shod Vatan bog` indan oldim shu gulni.  
Rohati baxtimni sizga so`zlarman,  
Shod Vatan bog` indan oldim shu gulni.

Murodim saodat baxtning gulida,  
E`tiqodim erkinlikning nurida,  
Biz yashaymiz ozod,hurlik davrida,  
Shod Vatan bog` indan oldim shu gulni.

Shod Vatan bog`inda ochilgan hayot,  
Yashasin yo`ldoshchi, hammaga ustod,  
Egilmas, bukulmas, bir sinmas qanot,  
Shod Vatan bog` indan oldim shu gulni.

Ko`ngil berib quloq soling bu so`za,  
Mening so`zim malol kelmasin siza,  
Adabiy tiltan yordam bering Ojiza,  
Shod Vatan bog` indan oldim shu gulni.

# Onajondek dilbar jahona galdi

M.M. ♦ = 85

Ey yo-ron-lar a - sil so'z hi - ko - ya-sin ay - lang. A - jo-yib bir  
 a-yol dun - yo - g'a gal - di. In-son-li-gin ham - ma - dan bu - run ay - lab.  
 O - na - jon - dek dil - bar ja - ho - na gal - di.  
 Xo - nim - lar - dan av - val hur - ri - yat ol - di.

Onajonni xotin - qizlar topadi,  
U galganda yaxshi so`zlar aytadi  
Yangi zamon maqsudina etirdi  
Onajondek dilbar jahona galdi  
Xonimlardan avval hurriyat oldi

Onajonni harna ilm doshinda  
Syo zulfi o`rim - o`rim boshinda  
Saksona girsa ham o`n besh yoshinda  
Onajondek dilbar jahona galdi  
Xonimlardan avval hurriyat oldi

Boshina giyipdi yapon baxmali  
Aqlimni olibdi labdag'i xoli  
Bir go`rmasam endi tutar xumori  
Onajondek dilbar jahona galdi  
Xonimlardan avval hurriyat oldi

Labinda xoli bor doridan kichchi  
Izina tushibdi kattadan - kichchi  
So`zlaganda so`zi boldan ham si  
Onajondek dilbar jahona galdi  
Xonimlardan avval hurriyat oldi

Onajonni Nurlavoydan galishi  
Dor galibdi oyoqina kavishi  
Davralarda qah-qah urib gulishi  
Onajondek dilbar jahona galdi  
Xonimlardan avval hurriyat oldi

# Dig'ajon

M.M. = 95

A-ka o-tin-giz  
uch ya-shar Dar-yo - lar to'-lib to-shar Yo-rim gal-min  
qol - g'an - da - (yay) Go'z - lar - dan yosh - lar o - qar.  
Di - g'a, di - g'a di - g'a jon Bi - kan - giz bo' lay o - g'a-jon.

Chiqdim tog`ning boshina,  
Yorginamning qoshina,  
Yorimni rahmi galmas,  
Ko`zdan oqqan yoshima.

Dig`a dig`a, dig`a jon,  
Bikangiz bo`lin og`ajon.

Bog`a girasim galdi,  
Gullar terasim galdi,  
Gulni bahona qilib,  
Sizni go`rasim galdi.

Dig`a dig`a, dig`a jon,  
Bikangiz bo`lin og`ajon.

Osmoñning yulduziman,  
Yoqangni qunduziman,  
Menga ko`p azob berma,  
Onamni yolg`iziman.

Dig`a dig`a, dig`a jon,  
Bikangiz bo`lin og`ajon.

Osmonda oy botmasin,  
Qilichda qon qotmasin,  
Yorim galgan gejalari,  
Sira donglar otmasin.

Dig`a dig`a, dig`a jon,  
Bikangiz bo`lin og`ajon.

# Husni jamolini go`ring

M.M. ♩ = 85

Oqyu-zizul-fi

yo-rim-ni, His-ni ja-mo-li - ni go`-ring. Ik-ki yu-zin-a chir- mash - gan

Zul-fi si-yo-si-ni go - ring. Zul-fi si-yo-si - ni go` - ring.

Oq yuzli zulfli yorimni,  
Husni jamolini go`ring.  
Ikki yuzina chirmashgan,  
Zulfi siyosini go`ring.

Qaddi kamolini go`rib,  
Ko`nglingiz orom olmasa,  
Yaxshi diqqat bilan boqib,  
Go`zzi shahlosini go`ring.

Mehri giyosini go`rib,  
Ko`nglingiz orom olmasa,  
Yaxshi diqqat bilan boqib,  
Sharmi hayosini go`ring.

Zulfi siyosini go`rib,  
Ko`nglingiz orom topmasa,  
Yaxshi diqqat bilan boqib,  
Qaddi kamolini go`ring.

Go`zzi shahlosini go`rib,  
Ko`nglingiz orom olmasa,  
Yaxshi diqqat bilan boqib,  
Mehri giyosini go`ring.

Sharmi hayosini go`rib,  
Ko`nglingiz orom olmasa,  
Yaxshi diqqat bilan boqib,  
Adab ikromoni go`ring.

# Qadam qo`ying bog`imiza

M.M. ♩ = 75

Ey o-dam-zot-ni pod-sho - si

Xush ga - lib - siz cho - g'i - mi - za. Sey - lin - giz mu - bo - rak bo'l - g'ay

Qa-dam qo` ying bo - g'i - mi - za, Qa-dam qo` ying bo - g'i - mi - za.

Yaxshi oyda bo`ldik duchor,  
Oliy himmat baland bosor.  
Siz bir sho man bir xizmatkor,  
Qo`shilinglo korimiza.

Loyiq eding shu o`v sabo,  
Olib galidak toza bog`a.  
Eya bo`lg`il cajor atrofa,  
Sozimiza so`rimiza.

Munda galidak dab g`am ema,  
Ollodan o`zgani dama.  
Bizni hijolata qo`yma,  
Duyun urma bog`imiza.

Parish shahar bo`z tarangi,  
Martabangni yo`qdir dangi.  
Etti iqlimning sarangi,  
Galidak shugun o`yimiza.

Qutlug` bo`lg`ay manzilgohing,  
Shu jannatdir sani joying.  
Hokipodir to`tiyoying,  
Go`zzimiza, qoshimiza.  
Bosh toshabdир boshimiza.

# Sizniki

M.M. ♩ = 85

The musical score consists of four lines of music. The first line starts with a rest followed by eighth notes. The second line begins with a quarter note. The third line starts with a half note. The fourth line begins with a quarter note. The lyrics are as follows:

Ki-yov xo' ja      qur-bon bo' lay  
 o - ding - ga      As - rab boq - qan      ar - ka qi - zim      siz - ni - ki.      Ma - ning qi - zim  
 lo - yiq sa - ning ko`ng - ling - ga,      As - rab boq - qan      ar - ka qi - zim  
 siz - ni - ki.      U - yim, e - lim      ar - ja bug` cham      siz - ni - ki.

Dushmanning so`zina siz qulinq tutmang,  
 Mening bergen nasihatim unitmang,  
 Injitmang, koyimang, qattiq so`z aytmang,  
 Asrab boqqan arka qizim sizniki,  
 Uyim, elim, moli-mulkim sizniki.

Galin bika, qurbon bo`lin bo`yingga  
 Asrab boqqan arka o`g`lim sizniki.  
 Ko`hna davlat galdi saning o`yingga,  
 Asrab boqqan arka qizim sizniki,  
 Uyim, elim, moli-mulkim sizniki.

Guyov xo`ja, bo`lsin siza muborak,  
 Muborak aylagay bu jo`shqin yurak,  
 Sizning sog`lig ingiz bizlara garak,  
 Asrab boqqan arka qizim sizniki,  
 Uyim, elim, moli-mulkim sizniki.

Guyov xo`ja, tamom atdim so`zimni,  
 Aldingizda qizil atsin yuzimni,  
 Sizga bardim asrab boqqan qizimni,  
 Asrab boqqan arka qizim sizniki,  
 Uyim, elim, moli-mulkim sizniki.

# Ey, dilbarim

Bor-ho ishq -

ning o'-ti-na      yo - na-ma-nay      ey dil-ba - rim.      Jas-ni vas - ling - ni ti-lab

de - vo-na-ma - n(ey)      ey dil-ba - rim.      Or - zu      ay-la - b(ay)ja-mo -      ling      kun -

-da      ko'r - mak - ni - (yay)      ko'n - gil,      Hej      i - lo -

jin      top - ma - yin      hay - ro - na - ma - n(ay)      ey      dil - ba - rim.

Vaqti-bevaqt intizoringda qilurman nolalar,  
Bo`lg`oli muhtoji ishq to`lg`onaman, ey dilbarim.

Shodi xandon aylamak o`z ixtiyorongda meni,  
Ayt qachon la`ling mehridin qonaman, ey dilbarim.

Harna amr etsang qilay joni dil birla qabul,  
Justi jo` aylab chopay har yona man, ey dilbarim.

Orzu aylab men Ojiz ixlos ila yozdim g`azal,  
Yod etar albatta deb o`ylanaman, ey dilbarim.

# Aylanin galinni qaddi bo`yinnan

M.M. ♩ = 100

Qa-dambo-sib ga-lar biz-ni el-la- ra, Ay-la-ninga - lin-ni qad-di bo`  
- yin-nan. Bir-bir u-chib qo` nar to-za gul-la - ra Ay - la-nin ga-  
lin-ni qad-di bo` - yin-nan. Ay-la-na-man ga - lin-ni qad-di bo` - yin-nan.

Galin bika galar qadamin bosib,  
Etgay birga o`ynab gulmaklar nasib.  
Ikkisi ham bir-biriga munosib,  
Aylanaman galinni qaddi bo`yinnan.

Galin bika kiyganlari baroyi,  
Guyov bola qaddi bo`yi chiroyli.  
Ikkisin ham o`n to`rt kunlikdir oyi,  
Aylanaman galinni qaddi bo`yinnan.

Galin bika xino yoqar qo`lina,  
Guyov yigit chaman bog`lar bo`ynina.  
Taqib qo`yar tillo uzuk qo`lina,  
Aylanaman galinni qaddi bo`yinnan.

# Jo`jim aytaman

M.M. ♩ = 75

O-shiq-man o - la go` - zin-ga

Sha-kar-dan shi - rin so` - zin-ga. Za - fa - ron - dek oy yu - zin - ga

Man san - dan ay - lan - sam ga - rak, o -

jo - nim ay - ta - man, O` - zim shun - ga jo - nim ay - ta - man.

Qora parang bug`doy mangiz,  
Hech erda yo`qdir dangingiz.  
Go`z yoshlarim bo`ldi dengiz,  
Man sannan aylansam garak.

Uying uyimni yoninda,  
Qolibman ishqning kominda.  
Shul xo`jikning xumorinda,  
Man sannan aylansam garak.

Avvalo do`sst tutinib bo`lmas,  
Do`ssti unitib bo`lmas,  
Qizil gulni sotib bo`lmas,  
Man sannan aylansam garak.

# Yor-yor

M.M. ♩=60

Av-vaj bosh-lab xu-do - ni yod a - ta-li yor - yor, Pay-g'am-bar-lar

ro' vi - mi shod a - ta-li yor - yor. Av-val bosh-dan xu-do - ni,

Shi-shi Na-bi por-so-ni, Bir ya - rat-gan Ol-lo - ni yod a - ta-li yor-yor.

Av-valzik-ri Ol-lo - ni, Xi-zir Il-yos o-ta - ni-(yey) Ul bar-cha a - lo-lar-ni

yod a - ta-li yor-yor. Zin-don-da-gi Yu- suf - ni, zor yig`-la-gan Yo-quib - ni

Qurt-lar e-gan A-yub-ni yod a - ta-li yor yor. Oq o' tov - lar qu-ril - g'ay

ay-vo-ning-da yor - yor O' g'il qi-zing o'y-na-g'ay dav-ro - ning - da yor-yor.

Ma-ning qi - zim. jon qi - zim hur-din a - mish yor - yor. Qiz-ni ol-gan

ul yi-git nur-din a - mish yor-yor. Qa-ra-sa go'z qa - ral - gan go'z-la - ri bor

yor - yor. Qan-di a - sal qo - ril - g'on so'z - la - ri bor yor - yor.

Davron bilan yetgaysan murodinga yor-yor,  
Hech xiyonat bo`lmaq`ay avlodinga yor-yor.  
Tolib ilm bo adab tillo qizim yor-yor,  
Har bilgani qo`nglinda dono qizim yor-yor.

Esganda bodi sabo gul ochilar yor-yor,  
So`zlashganda og`zinnan dur sochilar yor-yor.  
Qo`sha qo`sha bilazuk bilakinda yor-yor,  
Qarindoshing- avloding tilagingda yor-yor.

Dilay dilang mo`minlar,musulmonlar yor-yor,  
Duongizdan muroda etgay qizim yor-yor.  
Haptiyakning o`rtasi taborakdir yor-yor,  
Arka qizim to`yingiz muborakdir yor-yor.

Muboraklar aylagay biru-borim yor-yor,  
Go`rmagaysan dunyoda ranju-alam yor-yor.  
Ulug`larni so`zini zikr ayladik yor-yor,  
Bargan yaxshi gunini shukr ayladik yor-yor.

Innam uji sindi dab urdi anam yor-yor,  
Indi chiqib borasan dindi anang yor-yor.  
Yig`lama qiz yig`lama yuvongaysan yor-yor,  
O`g`lin qizing ko`p bo`lib quyongaysan yor-yor.

Ulug`larni so`zini qildik tamom yor-yor,  
Qiz giyova yor bo`lg`ay on ikki imom yor-yor.  
Haptiyakning o`rtasi taborakdir yor-yor,  
Arka qizim to`yingiz muborakdir yor-yor.

Muboraklar aylagay biru-borim yor-yor,  
Go`rmagaysan dunyoda ranju-alam yor-yor.  
Ko`saganang sochaqi etti chiyin yor-yor,  
Yetmish qizning yaxshisi chiqdi shugun yor-yor.

Ko`saganang sochoqi oltinmidi yor-yor,  
Qiza barjak sharbatlar boldinmidi yor-yor.  
Ulug`larni so`zini qildik tamom yor-yor,  
Qiz giyova yor bo`lg`ay on ikki imom yor-yor.

# Yozdir otaxonim duymalaringni

M.M. ♩= 95

Ol - lo-dan is - ta - dim tush-ding

qo` li - ma, Yoz-dir o - ta - xo-nim duy-ma-la - ring-ni. Hech xa-to gal

ma - sin sa - ni ko`ng - lin - ga, Yoz - dir o - ta - xo-nim duy-ma - la -

ring - ni. Ar - ka - lab chesh o`zing duy-ma - la - ring - ni.

Jafo chekmin yora yetmas hech odam,  
Chitilmag`ay sani(ng) peshonag mudom.  
Kamariningda bo`lg`ay o`n ikki imom.  
Yozdir, otaxonim duymalaringni,  
Arkalab o`zing chech duymalaringni.

Sani(ng) yoring im atadi ichinnan,  
Qiyo boqmoq o`rganibdi lochinnan.  
Bir maqsada borma ko`ngling ichinnan,  
Yozdir, otaxonim duymalaringni,  
Arkalab o`zing chech duymalaringni.

Kamon bilan ola qoring arigay,  
Dumon bilan qonlaringda yurigay.  
Duyma duzgan zargar qo`ling o`rgilay,  
Yozdir, otaxonim duymalaringni,  
Arkalab o`zing chech duymalaringni.

Karamjon aytadi bir aslim bordir,  
O`ynara gul bilan havasim bordir.  
Asilxon parini(ng) yoqosi dordir,  
Yozdir, otaxonim duymalaringni,  
Arkalab o`zing chech duymalaringni.

("Asil va Karam" dostonidan)

# Uyalaman

The musical score consists of eight staves of music in G major, 6/8 time. The lyrics are written below each staff in both Korean and English. The vocal range is primarily in the soprano and alto voices.
   
 Staff 1: Ul meh-ri-bo-nim ul yo-ri jo-nim O-hu fi-g'o  
 Staff 2: - nim ma-ni bil-ma-di har-giz. O-him dar-di-ni  
 Staff 3: ko'k-sim o'-ti-ni ko'k-sim o'-ti-ni (do-day) Ayt-sam u-ya  
 Staff 4: la-man (vo-yay) ayt-ma-sam ar-mon Ayt-sam u-ya - la-man (vo-yay)  
 Staff 5: ayt-ma-sam ar-mon. O-hu g'i-zo-lim qo-shi hi-lo-  
 Staff 6: - lim (vo-yay) Bu-dir sa-vo-lim (vo-yay) is-star ja-vo-bim.  
 Staff 7: Zavq o'r-ta-sin-da el o-ra-sin-da el o-ra-sin-da  
 Staff 8: (do-day) Ayt-sam u-ya-la-man (vo-yay) ayt-ma-sam ar-mon.  
 Staff 9: Ayt-sam u-ya-la-man (vo-yay) ayt-ma-sam ar-mon.

## Xurshidi jahon galdi

Bu - kul - ba - i  
eh - zo - na,                    Xur - shi - di ja - hon gal - di.                    Go' - yo - ki o' - lik er - dim  
Jis - mim a - ro - jon gal - di.                    Jis - mim a - ro - jon gal - di.                    Yo - ri - g'a sa -  
lom ay - lab,                    Noz i - la ka - ram ay - lab,                    Bog' ich - ra xi -  
rom ay - lab, Chin nu - ri a - yon gal - di,                    Chin nu - ri a - yon gal - di.

Boshim yo'lida qurban, o'ldirsa nadir armon,  
Ul la`li labi xandon, chin nuri ayon galdi.

Ovozi samandardek, donishda iskandardek,  
Qor aylasa ajdardek, ul shohi jahon galdi.

Jonig'a solib otash, ham mahvash, ham dilkash,  
Mastona yurib mahvash, xalq ichra nihon galdi.

Shukur Haqni dargoyinnan davlatli zamon galdi,  
Yuz urding dorgoyinga, dardinga darmon galdi.

Do'sti yorlar bo'ling shodmon, etti kulba shukur atibon,  
G'mgin bo'lsin barcha dushman, jon bilan janon galdi.

To'y yorog'lari tutilg'on, sozi suxbatlar qurilg'on,  
Kosada sharob ichilgan, jannat soqiylaring galdi.

Bog' ichinda chaman gullar, sayrashar shaydo bulbullar.  
Ko'p siyosatli sumbullar, hur ila g'ulmonim galdi.

# To`ylar muborak

M.M. = 85

Music score for 'To`ylar muborak' in 6/8 time, key signature of one flat. The score consists of four staves of music with lyrics written below them.

Lyrics:

Mu-bo-rak-lar  
bo`l- g`ay at-gan to` yin-giz, Jup pa-tik-li ko`sh-ki ay-von jo-yin-giz.

Mu-do-ma iz - zat-da o`t-gay um-rin-giz, Gi-yov xo`-ja - ni

to` - yi mu- bo - rak bo`l- g`ay. Ga-lin bi-ka-ni to` - yi mu bo - rak bo`l- g`ay.

Sira ko`nglingizda qolmag`ay armon,  
Joningiz sog` bo`lib surgaysiz davron.  
Sizlara yor bo`lg`ay ul Shohimardon,  
Giyov xo`jani to`yi muborak bo`lg`ay,  
Galin bikani to`yi muborak bo`lg`ay.

Ko`ngil maqsudlara Ollo etirgay,  
Kamis ko`nglingizni Ollo bitirgay.  
O`g`il uylantirib galin gatirgay,  
Giyov xo`jani to`yi muborak bo`lg`ay,  
Galin bikani to`yi muborak bo`lg`ay.

Yaxshi oyda galding yoxti dunyog`a,  
Munojat ayladim Qodir Ollog`a.  
Sani topshirmisham Kalomullog`a,  
Giyov xo`jani to`yi muborak bo`lg`ay,  
Galin bikani to`yi muborak bo`lg`ay.

Odi ovozangiz olama balli,  
Ovozangiz jumla jahona balli.  
Sizlara yor bo`lg`ay hazrati Ali,  
Giyov xo`jani to`yi muborak bo`lg`ay,  
Galin bikani to`yi muborak bo`lg`ay.

O`zim bilib galdim to`y bo`lg`nini,  
Xaloyiq hammasin yig`nalq`anini.  
To`y egasin ko`nglin shod bo`lg`animi  
Giyov xo`jani to`yi muborak bo`lg`ay,  
Galin bikani to`yi muborak bo`lg`ay.

To`y egasin mudom ko`ngli Xudoda,  
Xudodan o`zgani solmidi yodo.  
Martabangni Ollo atgay ziyoda,  
Giyov xo`jani to`yi muborak bo`lg`ay,  
Galin bikani to`yi muborak bo`lg`ay.

Javob endi sizga gul yuzli boylar,  
Boring boshlang o`nglar bo`lg`ay to`yingiz  
Galin bikaga yasang tillo saroylar,  
Giyov xo`jani to`yi muborak bo`lg`ay,  
Galin bikani to`yi muborak bo`lg`ay.

Uylarina gul o`ymalar o`ydiring  
To`rlarina shisha shkaf qo`diring.  
Galgalnarni choy, palovdan do`ydiring.  
Giyov xo`jani to`yi muborak bo`lg`ay,  
Galin bikani to`yi muborak bo`lg`ay.

Galin go`ynak bo`lsin yapon baxmali,  
To`rlarina do`shang oq sochiq g`oli.  
Qiz bilan yigitni galgay iqboli,  
Giyov xo`jani to`yi muborak bo`lg`ay,  
Galin bikani to`yi muborak bo`lg`ay.

Do`qqiz boshi oltin qazma kumish tos,  
Ta`rifda bo`lmasin, bo`lsin bari rost.  
Salom olg`aningda oltin soat os,  
Giyov xo`jani to`yi muborak bo`lg`ay,  
Galin bikani to`yi muborak bo`lg`ay.

Bir to`y qiling olam qolsin hayrona,  
Aytirib yuboring Arab Shirvona.  
Do`qqiz qo`yni so`ydiring jizibiryona,  
Giyov xo`jani to`yi muborak bo`lg`ay,  
Galin bikani to`yi muborak bo`lg`ay.

Kamisi qolmasin aslo bir ishdan,  
Oltin qumon sulopchasi kumushdan.  
Palov qiling o`ttiz botmon burunchdan,  
Giyov xo`jani to`yi muborak bo`lg`ay,  
Galin bikani to`yi muborak bo`lg`ay.

# Arzim eshit

M.M. ♫ = 75

The musical score consists of six staves of music in G clef, 6/8 time, and ♫ = 75 tempo. The lyrics are written below each staff.

Ho - li - ma rahm ay - la - bon ey, meh - ri - bon

ar - zim e - shit. Ey shi - rin til so' - zi bul - bul, to` - ti za - bon ar - zim e - shit.

Ko`p e - shit - mak - ka e - rin - sang bir za - mon ar - zim e - shit. Qo`y - ma - sa -

lar yor sa - ni no - ga - hon ar - zim e - shit. No - za - nin

men so`z - la - yin kel, ar - ka - xon ar - zim e - shit.

Ko`cha kuyda yig`latib, rasvoyi bozor aylama,  
Har gunohim bo`lsa o`t, yonima kel qor aylama.  
Bir zamon qilgil karam jonima ozor aylama,  
Nozanin men so`zlayin, kel arkaxon, arzim eshit.

Ko`rmasam gulday yuzing sarg`ayib rangim so`lur,  
Nogahon ko`rsam seni aqli hushim lol bo`lur.  
Bilmadim endi murodimni qachon hosil qilur,  
Nozanin men so`zlayin, kel arkaxon, arzim eshit.

Aqli hushim lol o`lur oyday yuzingni ko`rgali,  
Toqatim yo`qdir sitamga bir zamon ayrilgali.  
Hol yo`qdir menda bu kun hech qaerga borgali,  
Nozanin men so`zlayin, kel arkaxon, arzim eshit.

Bir davosiz dardda qoldim, yo`q bu dardimga tabib,  
Kecha kunduz men yotarman bu ahzanda yastanib,  
Sen beparvo kezarsan men yuribman o`rtanib,  
Ne bo`lur bechora Ojizangga rahm etsang kelib,  
Nozanin men so`zlayin, kel arkaxon, arzim eshit.

# Yor beparvo kezar

M.M. ♩ = 70

Bil-may uch-rash

gan e-kan-man, ik-kimar - ta be-ma-hal, In - ti-zor-lik - da ma-do-rim

bo'l-di kun - dan kun ba-tar, Yor hij-ro - ning bi - la bo'l - di yu-rak,

xu - ni ji-gar, Nay-la-yin has - rat-da-man, yor ho - li-ma sol - mas na - zar,

Na man-go yor - din xa - bar-bor, na man-go yor - din a - sar,

Yor be par - vo ke- zar, yo-ding-da yo`q - man - mi ma - gar.

Dilbarim hasratidin qon bo`libdi ko`zda yosh,  
 Oqli naylay xalq aro pinhon sirimni qildi fosh,  
 Na malohat bor o`zimda, husniga chokar quyosh,  
 Holima rahm aylamas, men naylayin ul bag`ri tosh,  
 Na mango yordin xabar bor, na mango yordin asar,  
 Yor beparvo kezar, yodingda yo`qmanmi magar.

Ishqi zor etdi mani, vasli visoli beqaror,  
 Dildor anda bexabar, Ojiza esa bunda zor,  
 Besaranjomdir yurak, ko`zga erur bu dunyo tor,  
 Bir muruvvat aylasang bo`lmas edim men muncha xor,  
 Na mango yordin xabar bor, na mango yordin asar,  
 Yor beparvo kezar, yodingda yo`qmanmi magar.

# OH BARA CHASHMI MAN

Buxoro mavrigilaridan,  
J.Kozimov xor uchun moslashtirgan

Rubato

Musical score for the 'Rubato' section, featuring two staves. The top staff is in treble clef and 6/8 time, with lyrics 'Chash- mi - man' and 'chash - mi - man'. The bottom staff is in bass clef and 6/8 time, with three '0...' markings. The vocal line consists of eighth and sixteenth notes.

Continuation of the musical score for the 'Rubato' section. The top staff shows 'chash - mi - man' and 'chash - mi - man' with a fermata over the second 'chash'. The bottom staff has a '0...' marking. The vocal line continues with eighth and sixteenth notes.

Musical score for the 'Allegro' section, starting with a forte dynamic (f(p)). The top staff is in treble clef and 2/4 time, with lyrics 'Oh ba - ra chash - mi man Bo - do - mi du mag' - zi - man.' The bottom staff is in bass clef and 2/4 time. The vocal line features eighth and sixteenth note patterns.

Continuation of the musical score for the 'Allegro' section. The top staff shows 'Oh ba - ra chash - mi man Bo - do - mi du mag' - zi - man.' The bottom staff has a fermata over the last note. The vocal line continues with eighth and sixteenth notes.



La - bi da - ho-nad gar - dam  
 Voy, dod ba - ra chash - mi man  
 Voy, dod ba - ra chash - mi - man  
 Oh bara chashmi man  
 Bodomi du mag'ziman.  
 Omad omadat gardam  
 Qadi qomatat gardam  
 Tu jononi man boshi  
 Labi dahonad gardam.  
 Mirzo gule be bokash  
 Tu anguru man tokash  
 Az baroyi yak angur  
 Tu gashti ba har shoxash.

# OH MAZA DORAD LABI YOR

Buxoro mavrigilaridan  
J.Kozimov xor uchun moslashtirgan

**Rubato**

O... Yo - ram bar har du o - la - me Yol - g'iz sa - ni

se - var - ma - ne

Yol - g'iz sa - ni se - var - ma - no

**Doyra**

**Allegro**

Oh ma - za do - rad la - bi yor

Do - - - rad

Du xan - da do - rad la - bi yor Ma - za - ma - za do - rad la - bi yor

do - - - rad la - bi yor Oh do - - rad la - bi yor



**Oh maza dorad labi yor  
Du xanda dorad labi yor  
Mazamaza dorad labi yor  
Du xanda dorad labi yor.**

**Yoram bar har du olame  
Yolg‘iz sani sevarmano  
Gar tu baman naoyie  
Man az g‘amat o’larmane.**

**Ham tu ravam ba peshade  
Hech kim mani ko’rmasine  
Yor az labi dahonate  
Astagina o’parmane.**

# SANAME

Tojik xalq qo'shig'i,  
J.Kozimov xor uchun moslashtirgan

**Rubato**

**Allegro**

Sa-na-me, sa-na-me, sa - na - me  
Sa-na- me, sa-na- me

Da-ra- bik - sho ma-na- me      To bo-kay push-ti da-rad      Xal-qa dar - bar za-na-me

Har ku-jo      e bi - ra - vam      Ro' yi o' - dar - na - za - ram      Har ku-jo      e bi - ra - vam

o...      e bi - ra - vam      o...      dar - na - za - ram      o...      e bi - ra - vam

Ro' yi o' - dar - na - za - ram      mf

o...      dar - na - za - ram      o...      o...      Gar - ra - vam oz - da - ri - o'      Dar ja - hon      dar - ba - da - ram.

## TEST SAVOLLAR

**Xalq og‘zaki ijodi nima?**

Moddiy va nomoddiy madaniy meroslar  
yig‘indisi

Nomoddiy madaniy meros

\*Xalqning ajdodlardan avlodlarga og‘zaki  
ravishda uzatilib kelinayotgan ijod mahsuli

Musiqa, raqs va tomosha san’ati

**“Oyna ko’rsatar” udumining nikoh kechasi  
kim bajaradi?**

Erkak

\*Xodima kampir

Ayol

Kiz

**“Oq o’rar” marosimi qachon o’tkaziladi?**

Fotihadan oldin

To’yan oldin

To’yan keyin

\*Non sindirgandan keyin

**“Boboyjonim” qo’shig’i qaysi viloyatga  
mansub?**

\*Xorazm viloyatiga

Surxondaryo viloyati

Farg’ona viloyati

Buxoro viloyatiga

**“Bolamas” qaysi hududlarga xos marosim?**

Xorazm

\*Toshkent viloyati

Qoraqalpog’iston

Farg’ona

**“Beshik to’yi” qaysi marosimiga kiradi?**

Kalendar

Diniy

\*Oilaviy

Mavsumiy

**“Yotoq to’yi” marosimi qaysi viloyatda  
o’tkaziladi?**

Xorazm

Toshkent

Farg’ona

\*Buxoro

**“Idi” qaysi marosim tarkibida o’tkaziladi?**

\*Nikoh kechasi

To’y kuni

Farzand tug’ilganda

Tug’ilgan kunda

**“Qobusnoma” muallifi?**

Bobur

\*Kayqovus

Xondamir

Ulug’bek

**“Qovun sayli”, “Choy momo”, “Qizil gul”  
qachon o’tkaziladi?**

Qishda

\*Yozda

Bahorda

Kuzda

**“Kelin salom” marosimi qachon  
o’tkaziladi?**

Fotihadan keyin

To’yan oldin

\*To’yan keyin

Non sindirgandan keyin

**“Kuyov salom” udumi qaysi shaharda  
o’tkaziladi?**

\*Urganchda

Chirchiqda

Ko’qonda

Termizda

**Bulaman cholg’usi qaysi viloyatda saqlanib  
qolgan**

Sirdaryo

Namangan

Buxoro

\*Xorazm

**“Lachak to’yi” udumi qaysi viloyatda  
o’tkaziladi?**

Sirdaryo

Namangan

**Toshkent**

\*Xorazm, Buxoro

**“Lola sayli” qadimda qanday nomlangan?**

\*Guli surx

Gul sayli

Qizg’aldoq bayrami

Qizilgul sayli

**“Mavrigi” va “Buxorcha”ning farqi  
bormi?**

\*Bor

Yo’q

Bular turli hudud uslublari

“Mavrigi” Samarqandda,

“Buxorcha”

Buxoroda ijro etiladi

**“Mehrjon” qachon nishonlanadi?**

\*Kuzda

Ro’za paytida

Bahorda

Qish oxirida

**“Non ushatar” marosimi qachon  
o’tkaziladi?**

To’yan keyin

To'ydan oldin  
 Fotiha to'yidan keyin  
 \*Unashtirish paytida  
**"Nikoh to'yi" marosimidagi "Oyoq bosdi"**  
**udumi kim tomonidan bajariladi?**  
 Ayol va erkak tomonidan  
 Kampir va chol tomonidan  
 Qiz va yigit tomonidan  
 Kelin va kuyov \*tomonidan  
**"Podachi" o'yini kimlar tomonidan ijro etilgan?**  
 Kosiblar  
 \*Chorvadorlar  
 Dehqonlar  
 Bog'bonlar  
**"Sada" bayrami qaysi faslda o'tkaziladi?**  
 \*Yozda  
 Qishda  
 Kuzda  
 Bahorda  
**"Tushov kesdi" marosimi kimga bag'ishlanadi?**  
 Bola o'tirishiga  
 \*Bola birinchi marta qadam tashlashiga  
 Bola tug'ilishiga  
 Bolaning tili chiqishiga  
**"O'zbek folklori" atamasi 1932 yilgacha qanday atalgan?**  
 "Milliy folklor"  
 "Milliy etnologiya"  
 \*El adabiyoti", "Og'zaki adabiyot",  
 "O'zbeklarda og'zaki adabiyot"  
 "Qipchoq og'zaki adabiyoti"  
**O'zbekiston folklori nechta hududga bo'lib o'r ganiladi**  
 3  
 4  
 \*5  
 6  
**Shipillak yoki shullovuk deb nomlanadigan sodda cholg'u qaysi hududda saqlangan**  
 Buxoro  
 Namangan  
 \*Surxondaryo  
 Sirdaryo  
**"Folklor" so'zi nimani anglatadi?**  
 Xalq pedagogikasini  
 San'atni  
 Falsafani  
 \*Xalq donishmandligini  
**"Folklor" termini birinchi marta kim tomonidan qo'llanilgan?**

N.Ostomum  
 Hodi Zarif  
 M.Alaviya  
 \*Vilyam Tomas  
**"Chitti gul" o'yini kimlar tomonidan ijro etiladi?**  
 Kampirlar  
 Yigitlar  
 Chollar  
 \*Qizlar  
**"Shashmaqom" qay darajada dunyo miqyosida tan olingan?**  
 \*Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi durdonasi" deb YuNESKO tomonidan tan olingan  
 Yorug'lik va qahramonlik o'rtasidagi kurashni ifodalovchi musiqa deb tan olingan  
 Xalollik va noplilik o'rtasidagi kurashni ifodalovchi musiqa deb tan olingan  
 Insoniyatning moddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan  
**"Ertak" so'zi Farg'ona, Samarqand o'zbeklari orasida qanday nom bilan yuritiladi?**  
 Matal  
 \*Cho'pchak  
 O'trik  
 Ertak  
**Allaning asosiy xususiyati nimada ko'rinadi?**  
 Allomalarning insoniyat tarixiga oid asarlarida  
 Tarixga oid yozma manbalarda  
 \*Badihago'ylik, ijrochi (ona) – so'z, kuy va ijro uslubi ijodkoriiigida  
 Uning boshqalardan mukammal o'rganilishida  
**An'ana va marosimlarga oid birinchi yozma ma'lumotlar qaysi manbada ifodalangan?**  
 Kayqovusning Qobusnoma asarida  
 Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklari" asarida  
 Yusuf xos Xojibning "Qobusnoma" asarida  
 \*Maxmud Qoshg'ariyning "Qutadg'u bilig" kitobida  
**An'anaviy yakkaxon laparchini toping.**  
 \*Gulshod Otaboyeva  
 Munojat Yo'lchiyeva  
 Gulsara Yoqubova  
 Sanobar Karimova  
**Ashula – bu...**

*lirik qo'shiq janri, ishqiy-lirik mavzuida xalq she'riyati va mumtoz shoirlarning she'rlari qo'llangan, keng diapazonli rivojlangan lirik xarakteridagi kuy orqali aytildi.	Sust xotin
og'zaki ijroga moslangan, xalq og'zaki ijodi ta'siridagi qo'shiq	*Sumalak
varianlilik asosidagi qo'shiq	Xo'p mayda
yeng oddiy va sodda qo'shiq janri	<b>Yomg'ir chaqirishga qaratilgan marosim qo'shig'i qaysi javobda berilgan</b>
<b>Ommaviy xalq sayllarini belgilang:</b>	Yo, Xaydar
Xalq musiqali tanlov	Xo'p mayda
Afsona, rivoyat	*Sust xotin
Musiqali drama	Oblo baraka
*Navro'z, Mehrjon	<b>Ertaklarda O'rta Osiyo xalqlarining qaysi totemlari uchraydi?</b>
<b>Bahor faslida o'tkaziladigan marosimlaning aniqlang</b>	Ilon, sigir
Qizil gul sayli	Laylak, ayiq
Qovun sayli	*Bo'ri, ot
*Loy tutish, shoh moylar, lola sayli, navro'z	Ayiq, ilon
Yo Haydar marosimi	<b>Javoblarining qaysi birida shamol to'xtatishga qaratilgan marosim qo'shig'ining nomi berilgan</b>
<b>Bahor faslida o'tkaziladigan tabiat bilan bog'liq xalq sayllari</b>	*Choy momo
Mehrjon	Sust xotin
*Darvishona	Maydagul
Musiqali sayil	Yo xaydar
Karnaval	<b>Javoblarining qaysi birida shamol chaqirishga qaratilgan marosim qo'shig'ining nomi berilgan</b>
<b>Bolalar folklor janri bu</b>	*Yo, Haydar
*Topishmoq, tez aytish	Sust xotin
Doston	Maydagul
Terma	Chamandagul
Alla	<b>Farg'ona viloyatida mashhur "Qo'qon yori" jamoasining asoschisi kim?</b>
<b>Bolalarning tili va dunyoqarashini rivojlantirish bilan bog'liq aytishma</b>	*R.Mazohidova
Duolar	M.Turg'unboyeva
*Tez aytishlar	Tamaraxonim
Termalar	H.Yusupova
Allalar	<b>Irim-e'tiqod taqinchoqlarini ko'rsating?</b>
<b>"Momogul" folklor etnografik jamoasi qaysi hududda faoliyat ko'rsatadi</b>	Shokila, tillaqosh, xalqa
Surxondaryoda	Qalampirmunchoq, sadaf,
*Qashqadaryoda	*Tumor, ko'zmunchoq
Namanganda	Feruza, marvarid
Sirdaryoda	<b>Yig'i-yo'qlov qo'shiqlari qachon ijro etiladi?</b>
<b>Doston kuylovchilar Surxondaryo va Qashqadaryoda qanday nom bilan atalgan?</b>	Arafa kunlari
Jirov	Ro'za paytida
Qo'shiqchi	*Azada
Ertakchi	Qabristonga kirganda
*Baxshi	<b>Qaysi bayramda 7 xil daraxt shoxidan namuna keltiriladi?</b>
<b>Dehqonchilik bilan bog'liq marosim qo'shig'i qaysi javobda berilgan</b>	Gul bayrami
Yo, Haydar	Mustaqillik
	Qovun sayli
	*Navro'z

**Qaysi o'zbek taomlari tuzsiz pishiriladi?**

Manti, chuchvara

Osh sho'rva

Somsa, qatlama

\*Sumalak, holvaytar

**Qaysi xalq marosimida bolalik davri  
an'anasi faol qo'llaniladi**

Xatnada

To'yda

Payg'ambar yoshi marosimida

\*Beshik to'yida

**Qarsak usulida ijro mahoratini ko'rsatgan  
folklor-etnografik ansambl?**

\*Chavqi

Qizg'aldoq

Zarrin yaproqlar

To'rg'ay

**Qiz tomoni rozilik bergandan keyin  
o'tkaziladigan marosim qaysi?**

Uy ko'rар

\*Non ushatish

Fotih

Kampir o'ldi

**Kuz fasli bilan bog'liq folklor qo'shig'ini  
aniqlang**

Terma

Yor-yor

\*Xo'p mayda

Alla

**Kuz faslidida o'tkaziladigan marosimlarni  
aniqlang**

Choy momo marosimi

Navro'z

Lola sayli

\*Mehrjon, shamol chaqirish, xo'p mayda,  
oblo baraka

**Quyidagilardan qaysi biri tadbir  
ko'rinishida o'tkaziladi?**

Sayil

An'ana

Urf-odat

\*Marosim

**Qurg'oqchilik davrida o'tkaziladigan  
marosim qaysi?**

Safar qochdi

Boychechak

Ashshadaroz

\*Sust xotin

**Laparlar qaysi xududda keng tarqalgan?**

\*Farg'ona, Toshkentda

Buxoro, Samarqanda

Navoiyda

Qoraqalpog'istonda

**Mavsum folklor janrlarini aniqling**

\*Shox moylar

Qutadg'u biling

Epos ballada

Feleton, xikoya, erkin she'r

**Marosim va udumlarni sahna bezagi  
nimalardan iborat?**

Stol, stul, kreslo

Gul, kartina

Miltiq, o't ochar qurollar

\*So'zana, dorpech, uy bezaklari

**Qovoq soz nomli qadimiy cholg'u qaysi  
hududda saqlangan**

Namangan

\*Surxondaryo

Qashqadaryo

Farg'ona

**Mehmon oldiga avvalo nima olib kirilishi  
kerak?**

Ho'l meva

Choy

\*Non

Quruq meva

**Navro'z bayramining shoh taomi nima?**

Qatlama

Somsa

Chuchvara

\*Sumalak

**Sumalak - ..... degani?**

\*30 malak

10 malak

20 malak

40 malak

**Surxondaryo hududida saqlangan ko'hna  
cholg'uni toping**

\*G'ajir nay

Qovoq soz

Bulaman

Tor

**So'z qudratiga asoslangan udumlar qaysi?**

**Kinna soldirish**

**Tumor taqib yurish**

\*Afsunlar, duolar, qarg'ishlar

**Sachratqi o'ti suvuda cho'miltirish**

**Terma nima?**

Varianlilik asosidagi kuy

Og'zaki ijroga moslangan ashula

\*Eng oddiy va sodda qo'shiq janri

Ijrochilikning eng murakkab turi

**To'y marosim folklor qo'shig'ini aniqlang**

Xo'p mayda

Terma  
 \*Yor-yor  
 Marosim folklori  
**To'nda ijro etiladigan marosim**  
 Terma  
 \*Kelin salom  
 Topishmoq  
 Xo'p mayda  
**O'zbek marosim folklorining yil fasllari qaysi birida to'g'ri berilgan**  
 Oilaviy-maishiy marosimlar  
 \*Mavsumiy marosimlar  
 So'z qudratiga asoslangan marosimlar  
 Oilaviy, mavsumiy marosimlar  
**O'zbek nikoh to'yi marosimlariga nimalar kiradi?**  
 Lachak o'rash  
 Aqiqa marosimi  
 Tushov kesdi  
 \*Kelin salom, Yuz ochdi  
**O'zbek xalq ijodiyotida musiqa bilan ijro etiladigan janrlar qaysi?**  
 Askiya, latifa  
 Qo'shiq, rivoyat  
 Ertak, topishmoq  
 \*Doston, qo'shiq  
**O'zbek xalqida 3, 7, 9, 40 raqamlari qanday raqamlar hisoblanadi?**  
 Behosiyat  
 Magik  
 Sirli  
 \*Xosiyatli, sehrli  
**O'zbek xalqining an'anaviy oilaviy marosimlariga nimalar kiradi?**  
 Navro'z, Mehrjon, Sada  
 \*Bola tug'ilishi, nikoh va motam marosimlari  
 Xudoyi, Qo'sh oshi, Hosil bayrami  
 Mushkulushod, Bibi Seyshanba, Bibi Chorshanba  
**O'zbeklar an'anaviy xo'jaligining eng asosiy tarmoqlari**  
 Ovchilik, baliqchilik  
 \*Dehqonchilik va chorvachilik  
 Chorvachilik, sholichilik  
 Baliqchilik, ovchilik  
**Folklor jamoasini yaratgan birinchi mutaxassis?**  
 X.Zaripov  
 \*M.Qoriyoqubov  
 T.Mirzayev  
 B.Sarimsoqov

**Havaskor jamoalarning Respublika tanlovlari qaysi tashkilot tomonidan o'tkaziladi**  
 \*Madaniyat va sport ishlari vazirligi  
 Xalq ta'limi vazirligi  
 Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi  
 Turizm kompaniyasi  
**Xalq laparlari qaysi marosimlarda ijro etiladi?**  
 Qozoq to'ylarida  
 \*O'zbek to'ylarida  
 Tojik to'ylarida  
 Qirg'iz to'ylarida  
**Xalq marosimlarini eng ko'p qamrab olgan ommaviy bayram**  
 Xosil bayrami  
 Mustaqillik  
 \*Navro'z  
 Gul sayli  
**Xalq milliy amaliy san'ati an'anasini ko'rsating.**  
 Folklorlik san'ati  
 Termalar  
 Qo'shiqchilik san'ati  
 \*qandolatchilik san'ati  
**Xorazm xalfachilik san'ati vakillari**  
 \*Ojiza, Onajon Safarova, Bibishoira, Xonumjon xalfa  
 Tamaraxonim, G.Otaboyeva  
 K.Otaniyozov, O.Otajonov  
 O.Xudoysukurov B.Sultonov  
**O'zbekistonda doston ijrochiligining nechta yo'nalishi mavjud?**  
 5  
 4  
 2  
 \*3  
**Fozil Yo'ldosh o'g'li qaysi dostonchilik maktab vakili hisoblanadi?**  
 \*Bulung'ur  
 Qo'rg'on  
 Shaxrisabz  
 Sherobod  
**Reprezentativ ro'yxatga Tojikiston bilan birga kiritilgan NMM qaysi?**  
 Askiya  
 \*Shashmaqom  
 Boysun madaniyati  
 Dorbozlik  
**O'zbekiston hududida nechta maqom shakllangan?**  
 4ta

*3ta	Yolg'iz holda
2ta	Qo'g'irchoqbozlar bilan
5ta	Estrada ijrochilari bilan
<b>Reprenzentativ ro'yxatga O'zbekistondan eng so'nggi kiritilgan NMM qaysi?</b>	*Dorbozlar bilan
*Askiya	<b>Kandakorlar qanday xom ashyo bilan ishlaydi?</b>
Shashmaqom	Ganch bilan
Dorbozlik	Yog'och bilan
Boysun madaniyati	Loy bilan
<b>Jirov kim?</b>	*Metall bilan
*Qoraqalpoq qahramonlik dostonlari ijrochisi	<b>"Degrez" kim?</b>
Ashulachi	Doppido'z
Qoraqalpoq lirik dostonlari ijrochisi	Beshikchi
Musiqachi	*Qozon yasovchi
<b>Qo'biz cholg'usi hozir kimlar tomonidan qo'llaniladi?</b>	Karnay yasovchi
Baxshilar	<b>"G'ilmindi" taomi qaysi xalqlarda tayyorlangan?</b>
*Jirovlar	Dehqonlarda
Cho'ponlar	*Dasht xalqlarida
Dorbozlar	Hunarmandlarda
<b>"Suvora" so'zi kimni anglatadi?</b>	Tog' xalqlarida
Chanqoq bostiruvchi kishini	<b>"Hijjon" taomi qayerda tayyorlanadi?</b>
Suysagan odamni	*Xivada
*Otliq kishini	Marg'ilonda
Chelak ko'targan kishini	Qarshida
<b>Morboz qaysi guruh bilan ishlaydi?</b>	Jizzaxda

## **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **1.Rasmiy nashrlar**

1.O'zbekiston prezidenti Shavkat Miramonovich Mirziyoyev- ning 2017-2021 yillardagi 5-ustuvor strategiyasi hamda 2019 yildagi “Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5-ta muhim tashabbus.

2 Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild. T.:O'zbekiston, 1996.

### **2.O'quv-uslubiy adabiyotlar va elektron ta'lif resurslari ro'yxati.**

#### **Asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar**

- 2.1.Akbarov. I.A.Xorazm maqomlari.G'Gulom nashriyoti. ."Toshkent.1986.
- 2.2.Asliddin Nizomov. The history and theory of Shashmakom. "Do'shanbe".Adib. 2016.
- 2.3.Abdullayev R.S., Solomonova T.Ye. O'zbek musiqasi tarixidan xrestomatiya. T., 1983.
- 2.4. Абдуллаев Р.С. Обрадовая музыка народов Центральной Азии. - Т.: Фан, 1994.- 135 с.
- 2.5.Апраксина О.А. Хрестоматия по методике музыкального воспитания.- М.: Просвещение, 1987.- 180 б.
- 2.6.Artsixovskiy A.V. Arxeologiya asoslari.- Т.: O`qituvchi, 1970.- 278 b.
- 2.7.Вызго Т.С. Музыкальные инструменты Средней Азии . М., 1980.
- 2.8.Ibragimov O. "O'zbek musiqa ijodi". 1990 у.
- 2.9.Ibrohimov O. Maqom va makon. T., 1997.
- 2.10.История музыки Средней Азии и Казахстана М, 1995.
- 2.11.Karomatov F.M. Узбекская инструментальная музыка. Наследие. Т., 1972.
- 2.12.Mirzayev.T.Xalq Baxshilartining epik repertuari. "Fan" nasshriyoti./ Toshkent-1979.
- 2.13. Muzaffar Nizomov "Folklor qo'shiqlari." /; Toshkent-1999.
- 2.14. Malik Murod. O'zbek Qadriyatlar. "Cho'lpon nashriyoti". Toshkent.-2005.
- 2.15. Murodova.D. Shashmaqom an'analarini va zamonaviylik / Tuzuvchi va mas'ul muharrir T., 2005.
- 2.16.Matyoqubov O. Og'zaki an'anadagi professional muziqa asoslariga kirish. Т., 1983.
- 2.17.Matyoqubov O .Buxoro Shashmaqomiga bir nazar./; "Musiqa nashriyoti." Toshkent.2018.
- 2.18. Matyoqubov O..Maqomot./; "Musiqa nashriyoti.", Toshkent.2004
- 2.19. O'zbek musiqasi tarixi. Т., 1981.
- 2.20.Olimboyeva Q , Axmedov M. O'zbekiston xalq sozandalari.Toshkent 1959.
- 2.21.Olimbayeva Q, Yo'ldoshboyeva,Y. Axmedov M, Mirzayev T. O'zbek xalq sozandalari./,G'G'ulom nomidagi O'zbekisyon san'ati va adabiyoti nashiyoti.Toshkent-1974.
- 2.22. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. Т., 1963.
- 2.23. Rajabov I. Maqom asoslari. Т., 1992.
- 2.24.Rasultoev J.K. dutor semantikasi. "Moziydan sado" //J.G'.G'ulom nashr.Toshkent,-2001 y.
- 2.25.Saidiy S.B. Buxoro sozgarlik san'ati- "mahorat ko'zgusi".G' J.Buxoro-1999.y.
- 2.26.Saidiy S.B. Markaziy Osijo madaniyatida urma cholg'ular (o'zbek va tojik an'analari misolida).Toshkent-2008 yil (SITI-Arxiv).
- 2.27.S.Saidiy.O'zbek Musiqasi tarixi. Darslik.I-II qismlar./ "Musiqa nashriyoti.". Toshkent-2020.yil.
- 2.28. Toshmatov O', Turatov S. Ko'hna cholg'ular ijrochiligi./;- Toshkent-2006

### **3.Qo'shimcha adabiyotlar**

- 3.1.Safarov O.“Folklor bebaho Xazina”. Buxoro. “Durdona” Nashriyoti.2001.
- 3.2.To'rayev F. Buxoro Shashmaqomi tarixidan. “Musiqa nashriyoti”. Toshkent.2011.
- 3.3.. Fitrat A. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. Т., 1993.
- 3.4.. Qurbonov S. Folklor musiqa o'qitush uslubiyoti. Termiz. 2012.
- 3.5. Yo'ldosheva Saodatxon. Folklor etnografik jamoalari uslubiyoti./;Toshkent-2010.
- 3.6. Yunusov R. Maqom san'ati ustalari. Faxriddin Sodiqov. Т., 2005.

3.7.Rajabov.D., Rajabov.T.Xalq qo`shig`i va musiqa ijrochiligi. Toshkent. Navro`z nashriyoti.2018.

#### **4.Notografiya**

- 4.1. Qaromatov F.M. O'zbek xalqi muziqa merosi. XX asr. 1- kitob. T., 1978, 1982.
- 4.2. O'zbek xalq qo'shiqlari. Tuzuvchi Ye.Romanovskaya. 1-2 kitob. T., 1939.
- 4.3. O'zbek xalq muziqasi. 1-8 jildlar. Yu.Rajabiy, M.Yusupov yozuvlari. T., 1955-1961.
- 4.4. Romanovskaya Ye. Xorazm xalq muziqasi. T., 1939.
- 4.5. Uspenskiy V. Shest muzыqalnyx poem (Shashmaqom). Buxara, 1924.
- 4.6. Shashmaqom 1-6 j. Yu.Rajabiy yozuvi. T., 1966-1975.
- 4.7. Shashmaqom v 1-5 tt. Zapisи Fayzullayeva B., Saxibova Sh., Shaxobova F. M., 1950-1967.
- 4.8. Xorazm maqomlari. 5 kitob. M.Yusupov yozuvi. T., 1980-1987.
- 4.9. Gulyor-Shahnoz. V.Uspenskiy yozuvi. T., 1956.

#### **5.Fotoillyustratsiyalar**

5.1. Fotoillyustratsiyalar muallif To'xtasin Rajabov rahbarligidagi "Moxi Sitora" folklor jamoasi bilan turfa xil serqirra dramaturgik bayramlar, ko'rik tanlovlarda qatnashib tushgan rasmlari ilova qilingan.

#### **6.Elektron ta'lim resurslari**

- 6.1. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
- 6.2. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
- 6.3. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
- 6.4. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)

## ILOVA



















## MUNDARIJA

<b>So'z boshi .....</b>	<b>5</b>
<b>I bob. Nomoddiy madaniy merosning sohalari .....</b>	<b>6</b>
<b>XVI asr Buxoro miniatyura maktabida mavrigixonlik badiiyligi.....</b>	<b>19</b>
<b>Xalq musiqasining mahalliy uslubi.....</b>	<b>22</b>
Surxondaryo-Qashqadaryo mahalliy musiqa uslubi.....	22
Buxoro-Samarqand mahalliy musiqa uslubi.....	25
Buxoroyi Sharif udumlaridan “Oshi sofiy”, “Padar oshi”, “Nahor oshi”, “Payg’ambar oshi”, “Oshi jumagi”, “Oshi bibi Seshanbe” Shoxona nomlanishini olgan bir taomining to’yona va diniy qo’llanishi .....	28
Xorazm mahalliy musiqa uslubi .....	34
Farg’ona-Toshkent mahalliy musiqa uslubi .....	37
<b>II bob. Markaziy Osiyo xalqlari mahalliy uslublari va turkumlari: qo’shiq janrlari; yalla, ashula, katta ashula, lapar va xalq eposi-dostonlar tasnifi .....</b>	<b>40</b>
O’zbek milliy qo’shiqchilik san’ati taraqqiyotining uch yo’nalishi .....	45
Xorazm xalfachilik san’atini maktab jarayoniga qo’llash usullari .....	49
Mavsumiy qo’shiqlar .....	51
Markaziy Osiyo mahalliy uslublarida o’lchovlar metroritmikasi.....	54
<b>III bob. Uyg’onish davri ilk Sharq renessansi musiqiy nazariy meros: XI-XIII, XV-XVII asr 12 maqom va shashmaqom misolida.....</b>	<b>57</b>
O’n ikki maqom va tasniflanishi .....	61
Shashmaqom bo’limlari va ma’nolari sharhi.....	66
XVIII-XIX asr ikkinchi yarmi: Xorazm va Farg’ona - Toshkent milliy maqom ijrochiligi va namoyandalari .....	75
Farg’ona - Toshkent maqom yo’llari .....	81
O’zbek musiqa san’atining jahon musiqa san’atida tutgan o’rni .....	88
<b>IV bob. XX asrning 1917-1941 yillardagi o’zbek musiqasi musiqali drama va opera teatrlarining tashkil etilishi, vokal musiqasi. cholg’u musiqasi .....</b>	<b>91</b>
Musiqa san’ati sohasidagi birinchi o’quv va ilmiy dargohlar: “Fitrat va musiqa” .....	96
1941-1967 yillarda o’zbek musiqasi.....	101
Raqs san’ati: milliy raqs san’ati va uning namoyondalari.....	105
Bastrakorlik makrabi namoyandalari.....	115
<b>V bob. Nota majmuasi .....</b>	<b>132</b>
<b>Test savollar .....</b>	<b>165</b>
<b>Adabiyotlar ro’yxati.....</b>	<b>171</b>
<b>Ilova .....</b>	<b>173</b>



**To'xtasin Rajabov**

**O'ZBEK XALQ MUSIQA IJODI**

*Muharrir:* G. Murodov  
*Texnik muharrir:* G. Samiyeva  
*Musahhih:* A. Qalandarov  
*Sahifalovchi:* Sh. Qahhorov

Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi: 22.02.2021. Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. «Times New Roman» garn. Offset bosma usulida bosildi. Offset bosma qog`ozi. Bosma tobog`i 23,0. Adadi 100. Buyurtma №48.

Buxoro viloyat Matbuot va axborot boshqarmasi  
“Durdon” nashriyoti: Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko`chasi, 11-uy.  
Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko`chasi, 11-uy. Tel.: 0(365) 221-26-45